



MAQSUDA XAJIYEVA



**XOJA AHMAD YASSAVIY
TA'LIMOTIDA TASAVVUF**



86.385(50')

X.15

1079

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

AL-XORAZMIY NOMLI URGANCH
DAVLAT UNIVERSITETI

M. Xajiyeva

**XOJA AHMAD YASSAVIY
TA'LIMOTIDA TASAVVUF**
(monografiya)

Ushbu monografiya Urganch davlat universiteti ilmiy kengashi-ning 2015-yil 27-fevraldagi 7-sonli yig'ilishi qaroriga binoan nashr etishga tavsiya etilgan.

Urganch – 2015

UDK: 141.336

KBK: 86.385(50')

X15

M. Xajiyeva. Xoja Ahmad Yassaviy ta'limotida tasavvuf. Monografiya. Mas'ul muharrir O. G'aybullayev. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, al-Xorazmiy nomli Urganch davlat universiteti. Urganch, UrDU noshirlik bo'limi, 2015-yil. 140 bet.

KBK: 86.385(50')

Mazkur monografiya Respublikamizda kam o'rganilgan tasavvuf ta'limotining vujudga kelishi va uning mazmunida ifodalangan tarbiyaviy g'oyalar, Xo'ja Ahmad Yassaviy tariqati, uning falsafiy-adabiy merosi, Ahmad Yassaviy ta'limotining ma'naviy-axloqiy asoslari, Xoja Ahmad Yassaviy tasavvufiy dunyoqarashida inson kamoloti masalalari, Xo'ja Ahmad Yassaviy ta'limotida barkamol inson tarbiyasi, Xo'ja Ahmad Yassaviy timsolida insonning olijanob fazilatlarini ifodalanishi hamda Ahmad Yassaviyning qarashlarida odob-axloq g'oyalari va ayrim mezonlari aks etish masalalarini ochib berishga bag'ishlangan.

Monografiya keng kitobxonlar ommasiga mo'ljallangan.

Mas'ul muharrir

O.G'aybullayev, falsafa fanlari doktori

Taqrizchilar:

N. Safarova, falsafa fanlari doktori,

U. Doschanova, falsafa fanlari nomzodi



ISBN: 978-9943-4516-3-6

© UrDU noshirlik bo'limi, 2015.

© **M. Xajiyeva.** Xoja Ahmad Yassaviy ta'limotida tasavvuf. Monografiya.

KIRISH

Respublikamizning kelgusi taraqqiyotida o'ziga xos yo'lni tanlashi va barcha sohalarda dunyoning eng rivojlangan mamlakatlari darajasiga yetib olishdek ezgu maqsadni amalga oshirish uchun har tomonlama yetuk kadrlar hamda barkamol insonlarni tarbiyalash masalasini hal etish lozimligini davlatimiz rahbariyati qayta-qayta ta'kidlamoqda. Bu esa yoshlarni vatanparvar, o'z burchiga sodiq va har tomonlama barkamol inson etib tarbiyalashdek ma'suliyatli vazifaning yechimini talab qiladi. Axloqan pok va yetuk insonlarni tarbiyalash masalasini muvaffaqiyatli hal etishda xalqimizning tarixiy an'analari, ma'naviy boyliklari, ajdodlarimizning bizga qoldirgan ilmiy meroslari va tarixiy-tarbiyaviy tajribalarini o'rganib chiqish, ularning yutuqlarini hayotga, ta'lim-tarbiya ishlari-ga tatbiq etishning ahamiyati kattadir.

Mutafakkirlar asarlarini o'rganish va tahlil qilish, ularning hayoti, ijodi va meroslarini pedagogik nuqtayi nazardan tadqiq etish muhim amaliy ahamiyatga ega. O'tmishda buyuk allomalar shaxs ma'naviyatini yuksaltirish, odob-axloqning yuksak namunalarini tarkib toptirish, Vatan va xalq kelajagi, farovon hayot, halol mehnat bilan kun ko'rish, ilm-fanni taraqqiy ettirish, atrof-muhitga oqilona, ongli munosabatda bo'lishga oid o'z qarashlarini ko'plab asarlarida bayon qilganlar. Bu haqida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov o'zining "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida: "Albatta, har qaysi xalq yoki millatning ma'naviyatini uning tarixi, o'ziga xos urf-odat va an'analari, hayotiy qadriyatlaridan ayri holda tasavvur etib bo'lmaydi. Bu borada, tabiiyki, ma'naviy meros, madaniy boyliklar, ko'hna tarixiy yodgorliklar eng muhim omillardan biri bo'lib xizmat qiladi. Bizning qadimiy va go'zal diyorumiz nafaqat Sharq, balki jahon sivilizatsiyasi beshiklaridan biri bo'lganini xalqaro jamoatchilik tan olmoqda va e'tirof etmoqda. Bu tabarruk zamindan ne-ne buyuk zotlar, olim-u ulamolar, siyosatchi va sarkardalar yetishib chiqqani, umumbashariy sivilizatsiya va madaniyatning uzviy qismiga aylanib ketgan dunyoviy va diniy ilmlarning, ayniqsa, islom dini bilan bog'liq bilimlarning tarixan eng yuqori bosqichga ko'tarilishida ona yurtimizda tug'ilib kamolga yetgan ulug' allomalarning xizmatlari beqiyos ekani bizga ulkan g'urur va iftixor bag'ishlaydi"¹, deb ta'kidlagan edi. Darhaqiqat, ilg'or g'oyaviy oqim namoyandalarining

¹ Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. Т., "Маънавият", 2008, 29 – 30-бетлар.

yuqorida ko'rsatib o'tilgan masalalar haqidagi qarashlari bugungi kunda yoshlar uchun ma'naviy tarbiya manbasi bo'lib xizmat qiladi. Mana shunday buyuk allomalar jumlasiga tasavvuf ta'limotining yirik namoyandalari al-Farg'oniy, al-Buxoriy, al-Forobiy, at-Termiziy, Abu Rayhon Beruniy, Ahmad Yassaviy, Bahouddin Naqshband, Najmiddin Kubro kabilarni ham kiritish lozim. Ular o'zlarining ma'naviy-axloqiy qarashlari bilan yosh avlod ta'lim-tarbiyasiga asrlar davomida ulkan hissa qo'shib kelganlar. Ularning ma'naviy-axloqiy qarashlarini bugungi yosh avlod ongiga yetkazish uchun ma'naviy-ma'rifiy ta'lim-tarbiyaning rivojlanish bosqichlari va bu soha namoyandalarining hayotiy faoliyatlari, boy tajribalari hamda ular qoldirgan ma'naviy merosni taqdim qilish muhim ahamiyatga ega. Demak, xalqimizning tarixiy-madaniy merosida bor bo'lgan bunyodkor, insonparvar g'oyalarni o'rganish, tiklash, davr ehtiyojlari nuqtayi nazaridan yondashib, ulardan ma'naviy hayotimiz, yoshlar tarbiyasi, ta'limi mazmunini boyitishda umumli foydalanishga jiddiy e'tibor qaratish – bundan buyon ham kelgusi taraqqiyotimiz asosi va bosh omillarning muhim jihati bo'lib qolaveradi. Shu kabi sabablarga ko'ra, tasavvuf ta'limoti namoyandalarining merosida o'z ifodasini topgan ma'naviy-tarbiyaviy qarashlarni o'rganish ilmiy hamda ijtimoiy-amaliy zarurat hisoblanadi.

I BOB. TASAVVUF TA'LIMOTINING VUJUDGA KELISHI VA UNING MAZMUNIDA IFODALANGAN TARBIYAVIY G'OYALAR

1.1. Tasavvuf ta'limotining vujudga kelishi, uning ijtimoiy- tarixiy omillari va ma'naviy asoslari

Insoniyat yaratgan ma'naviy madaniyat yaxlit bir butunlikdir. Din, falsafa, adabiyot, san'at – bularning hammasi shu muazzam daraxtning shoxlari, uning ildizi esa xalqning ijodi, dunyoqarashi va fikriy kashfiyotlaridir. Qaysi bir xalqning og'zaki yoki yozma yodgorligini olib qaramaylik, unda bani bashar xotirasida bir necha asrlar saqlanib kelayotgan asotir-afsonalar, uzoq tarix qa'ridagi ibtidoiy tasavvur va tushunchalar, asrlar davomidagi kuzatishlardan hosil bo'lishi hayotiy hikmatlar qaymog'i – insoniy tafakkur tajribasining in'ikosini ko'ramiz. Muqaddas kitoblar “Avesto”, “Rigveda”, “Tavrot”, “Zobur”, “Injil” va “Qur'on” ham ana shunday ming yillar ichida yig'ilib, charxillanib, sayqal topgan ilmiy-badiiy tafakkur hosilasi sifatida yuzaga kelgan o'lmas obidalaridir.

Shu bois bu kitoblarda ma'no va mazmun teran, umuminsoniy qadriyatlarini himoya etuvchi va targ'ib qiluvchi falsafiy xulosalar alohida o'rin egallagan.

Ulug' tarixiy burilishlar davri mafkurasini belgilagan jahon dinlari insoniyat taraqqiyotning muayyan bosqichida yangi ma'naviy-ruhiy zarurat, fikriy va hissiy izlanishlar ehtiyojiga javob tariqasida paydo bo'lganligi sababli madaniy-ma'naviy hayotning hamma sohasini qamrab olib, ijodiy ko'tarilish, tasavvurotlar olami, aqliy va badiiy faoliyat tarziga ta'sir etib keldi. Ayni vaqtda, insonning to'xtovsiz ijodiy faoliyati dinlarning o'ziga ta'sir o'tkazib, ulardagi sinkretiklik (omixtalik) xususiyatini kuchaytirib turdi, yangi ta'limotlar, mazhablar, qarashlar silsilasini vujudga keltirdi.

Islom olamida buni ilmi kalom (mutazamiya, ash'ariya, “ixvonus safo” oqimlari), ilmi hikmat (falsafa), ilmi vaqdam yoki ilmi tavid (tasavvuf), shuningdek, islomiya, karamatiya, imomiya misolida ko'rish mumkin. “Mafkuraviy demokratiya”ga izn bergani inson qalbi va ruhiyatini nishonga olib, jaholat va xudbinlikka qarshi o'laroq maydonga chiqqani, ahloqiy poklikni targ'ib etgani sababli tasavvuf mohiyatan ilm-u-ijod ahliga yaqin edi. Bu bir tomondan, ikkinchi tomondan esa shuni e'tirof qilishimiz kerakki, tasavvuf, garchi islom bag'rida nish

urib, Qur'on va hadislar hikmatidan oziqlangan, ko'p hollarda, shariat ahkomiga singan bo'lsa-da, lekin u rasmiy diniy aqidaparastlikka zid o'laroq, mehnatkash xalq noroziligini ifodalab keldi. Tasavvuf ta'limoti ilk islom davrida ma'lum guruh kishilarining mavjud jamiyatdagi ijtimoiy tuzumdan noroziliklari natijasida vujudga kelgan ta'limotdir. Bu esa tarixan hijriy ikkinchi asrga to'g'ri keladi. Bu davrda Arab xalifaligining hududi Arabiston yarim oroli sarhadidan chiqib, Suriya, Iroq, Eron mamlakatlariga yetib borayotgan edi. Yangi vujudga kelayotgan tuzumga qarshi turuvchilar so'fizm g'oyasi ostida arablarga qarshi o'z ozodliklari, Vatan himoyasi uchun kurashdilar. Bu kurashni boshlagan iroqliklar edi. Tasavvufning keyingi tarixiy taraqqiyotini shartli ravishda uch davrga bo'lish mumkin:

1-davr. Tasavvufning paydo bo'lish, shakllanish va yoyilishi davri. VII – IX asrlar. Zunnun Misriy, Sari Saqatiy, Xarroz, Qassob, Abu Sahi Tustariy, Xoris al-Muxosibiy, Ibrohim ibn Adham, Abu Usmon al-Makkiy, Halloj, Bistomiy, Abu Said al-Xaraqoniyy.

2-davr. Tasavvuf va islomning uyg'unlashuv davri X–XI asrlar. G'azzoliy, Abu Said Mayxoniy, Abdurahmon as-Sulamiy, Qushayriy, Hujviriy.

3-davr. Tasavvuf tariqatlarining paydo bo'lishi va tasavvufning ommalashuvi davri (XII – XV asrlar).

Tasavvuf birinchi davrida (dastlab, Iroqda) zohidlik, irfoniyy intilishlar sifatida paydo bo'lgan ta'limot bo'lib, o'rta asrlarda asosiy mehnatkash ommani tashkil etgan kambag'al dehqon, hunarmandlarning ijtimoiy tengsizlik, adolatsizlik va haqsizlikdan noroziligini o'zida aks ettirar edi. Bu jarayon to' IX asr oxirigacha bo'lgan davrda mavjud bo'lib keldi. Y.E.Bertels "Har qalay mashhur xonaqohlar qishloq joylarida bo'lsa-da, ularning katta qismi shaharlarda markazlashgan edi. Ayniqsa, dastlabki davrlarda Kufa, Basra va Bag'dod, keyinroq, Nishopur bu sohada muhim rol o'ynay boshladi" deb yozgan edi. Tasavvufning keyinchalik ikki: Eron va Markaziy Osiyo kabi o'choqlari paydo bo'ldi. Tasavvuf taraqqiyotini Eron va Markaziy Osiyodagidek hech bir mamlakatda kechmaganligini qayd etish mumkin. Birinchi davrda O.Aki-mushkin fikricha, "Sufizm, faqatgina eskizlardan chiqqan boshlagan" davr edi."

¹ Bertels, E. S. Суфизм и суфийская литература. М., 1965, с. 42.

Tasavvuf ikkinchi davrda din bilan uyg'unlashuv bosqichini o'z boshidan kechiradi. Tasavvuf va islom g'oyalari buyuk islohotchilar Abu Homid G'azzoliy (1158–1111), Ibn Arabiy (1165–1240) kabilar tomonidan uyg'unlashtiriladi. "Sufizm harakatini rahbariyatga qanday yo'l bilan bo'lsa-da, bo'ysindirish yo'lini topish lozim edi. Bu vazifani G'azzoliy o'z zimmasiga oldi", deb yozadi Y.Bertels. Tasavvuf va islom dini oralig'idagi "buyuk xitoy devori"ni olib tashlash missiyasini tarixda G'azzoliy va Ibn Arabiy bajardi. Islom ma'nalan, mazmunan tasavvuf bilan keyingi davrda qorishib ketdiki, ular orasidagi chegara va tafovutni keyingi davrda farqlab bo'lmay qoldi. Bu jarayon esa kelgusi islom va tasavvuf taraqqiyotida faqatgina ijobiy rol o'ynadi, xolos. Islohotchilar esa o'z xizmatlari evaziga "islom hujjati", "ulug' ustoz", "shayx al-akbar" kabi sharaflil nomlarga musharraf bo'ldilar. Tasavvuf yaxlit ta'limot sifatida, to' o'z davrigacha, ya'ni VIII asrgacha mavjud bo'lgan ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy va diniy irfoniy g'oya va ta'limotlar zamirida vujudga keldi. Tasavvuf otashparastlik, buddizm, qadimgi turkiy Ko'k Tangri e'tiqodlari, qadimgi yunon falsafiy maktabi, xristianlik, eng avvalo, islom zamirida, bazasida vujudga keldi.¹ Hatto, unda moniylik ta'limotining ham ta'sirini ko'rish mumkin, deb qayd etadi S.N.Grigoryan.² Tasavvuf o'zining bir necha ma'naviy-irfoniy ildizlari bilan birga, o'z ma'naviy asoslariga ham ega. Uning bosh asosi, bu islom ta'limoti va uning mohiyatini ifoda etuvchi Qur'oni karimdir. Tasavvufning asosini panteistik dunyoqarash tashkil etadi. Panteizmning o'ta murakkab diniy-falsafiy ta'limot sifatidagi o'ziga xosligi butun o'rta asr sharqi-yu g'arbi diniy-orifchilik ta'limotlari, bid'at va hurfikr harakatlar falsafiy negizini tashkil etadi. Islom ta'limoti asosida tasavvuf o'z aqidalarni ishlab chiqarib, "so'fizm IX–X asrlarda yaxlit bir tizimli ta'limotga aylandi".³ Tasavvufning:

- a) ontologik;
- b) gnoseologik;
- v) psixologik nazariyalar unsurlari mavjuddir.⁴

XX asming so'nggi choragida mintaqamiz olimlari tasavvufning yuqorida ko'rsatilgan asosiy unsurlarini, xususan, tasavvufdagi gnoseo-

¹ Из истории суфизма: источники и социальная практика. Под ред. акад. М. Хайруллаева. Т., 1991, с. 7. Зокидов В. Улуг' шоир илдодининг калби. Т., 1970, 318-бет.

² Григорян С.Н. Из истории философии Средней Азии и Ирана VIII – XIII вв. М., 1960.

³ Бертельс Е.С. Суфизм и суфийская литература. М., 1965, с. 39.

⁴ Уша асар, 36 – 39-бетлар.

logiya muammolarini maxsus tadqiq etishga urindilar.¹ Lekin tasavvufning psixologik va aksiologik jihatlari hali yetarli darajada o'rganilgan emas. Y. Bertelsning fikricha, tasavvufning ontologik asoslari:

1. Ahadiyyat – yakka-yu yagonalik;

2. Vahidiyyat – birlik, ya'ni vahdati vujudan iboratdir.²

Tasavvufning bosh g'oyasi so'fiyni Haqqa vosil bo'lish yo'llarini ko'rsatishdan, targ'ib etishdan iboratdir. Bu jarayon to'rt bosqichdan iborat holda kechadi:

1. Shariat-islom marosimlarini, shariatning amaliy talablari, qonun-qoidalarini bilish va ularga rioya etish.

2. Tariqat – so'fiy tomonidan “vosil bo'lish” uchun tanlangan yo'l. Bunda so'fiy nafsidan voz kechib, biror pir yo'lini tanlaydi va uning amallarini unga ergashgan holda bajarib boradi.

3. Ma'rifat – so'fiy tomonidan Allohni tanish va uni qalban bilish. Shu bilan birga Allohni butun mavjudotning, borliqning asoschisi, yaratuvchisi ekanligini bilishdir.

4. Haqiqat (fano bosqichi ham deyiladi)³ – bu bosqichda so'fiy xudo vasliga yetadi. Bu darajaga yetgan so'fiy avliyolik, “anal-haqlik” darajasiga erishgan bo'ladi. Tasavvuf tarixiy taraqqiyotida Boyazid Bistomiy (vafoti 875-yil) “Menga sharaf”, “Men qanchalik buyukman”. Mansur Xalloy (857–922) “Men haqman” (Anal-haq) deya o'zlarini fano bosqichiga yetganliklarini qayd etganlar. Bundan tashqari, Fariddin Attor, Nasimiy, Boborahim Mashrablar ham bu darajaga erishganlar.

Tasavvuf tarixida XII asrga kelib shunday bir jarayon yuzaga keldiki, bu paytda tasavvuf tarkibidan alohida oqimlar ajralib chiqa boshladi. Bunday tariqatlar soni sharqshunos I. Petrushevskiyning qaydicha, bir necha o'nlab tariqatdan iborat bo'lib, XIV asrda ulardan 12–14 tasi omaviy tariqatlar edi.

Ushbu ta'limotning el orasida yoyilib, fikriy yangilanishlarga qanot bergan, haq va haqiqatga tashna ziyolilar yuragini band etganining sababi shu. Qolaversa, tasavvufning ayni shahar hunarmandlari, qadimdan madaniyati rivojlanib kelgan ilm-ma'rifat markazlarida taraqqiy et-

¹ Karanq: A. Muxammadxo'djaev. Gnoseologiya sufizma. D., 1989; Nixra B. M. Mirovozrenie i sufiyskie konseptsii Abu Xafsa Umara Shixabuddin Suxravarana. AKD. 09.00.03. Istoria filozofii. T., 1990. Xazritkulov M. Filozofiya Ishrak (Ozarenia): istoki, problemi, tendentsii razvitiia. A.D. 09.00.03. T., 1991; Olimov K. Xorasanskiy sufizm. A.D. I., 1994.

² Bertels E. S. Sufizm i sufiyskaya literatura. M., 1965, s. 39, 109, 361, 469, 479.

³ Xo'zidov B. Ulug' shoir ijodining kalbi. T., 1970.

gani ham bejiz emas. Yana bir o'ringda bir hodisasi, ya'ni tasavvufning futuvvat bilan qo'shilib ketish hodisasini ham qayd etib o'tmoq joizdir.

Futuvvat ahli o'z hayotlarini do'st-birodar, yaqin kishilarining hojatini chiqarish, muhtojlarga moddiy va ma'naviy yordam berishga baxshida etgan odamlar bo'lib, aksariyati oddiy xalq ichidan yetishib chiqqan hunarmandlar, omil va san'atkorlar edilar. Ular orasida sipohiylar, nom chiqargan pahlavonlar ham bo'lib, shaxsiy hayotda halol yashash, zohiran va botinan pok bo'lish, nokas, nomardlarga yaqinlashmaslik uchun intilganlar: yashirin jamiyatlar tuzib, bir-birlarining manfaatlarini himoya etganlar, uyushib, tashqi dushmanlarga qarshi kurashganlar. Chunonchi, sarbadorlar va Sharqdagi boshqa ko'p ozodlik harakati namoyondalari javonlardan edilar. Ular tasavvufni nazariy ta'limot sifatida qabul qilib oldilar, o'z navbatida, ko'pgina shayxlar futuvvat qoidalarini tariqatga singdirib yubordilar.

Shu tariqa, tasavvuf musulmon sharqining mallakatlari ijtimoiy va ma'naviy hayotiga chuqur kirib bordi, fan, madaniyat va adabiyot rivojiga katta ijobiy ta'sir ko'rsatadi. XII asrdan boshlab, Sharqning deyarli barcha nufuzli shoir va yozuvchilari, mutafakkir va olimlari tasavvufdan oziqlanib, uning insonparvarlik va haqsevarlik g'oyalari ruhlanganlar. Shuning uchun ham yoshlarga ta'lim-tarbiya berish yo'lida salmoqli ishlarni izchillik bilan amalga oshirish kerakligini davr taqozo etib turibdi. Mana shunday bir vaziyatda odam o'z mustaqil fikriga, sobit e'tiqodiga, o'zi tayanib yashaydigan hayotiy-milliy qadriyatlariga, shakllangan dunyoqarash va mustahkam irodaga ega bo'lmasa, har turli mafkuralarining bosiniga, ularning goh oshkora, goh pinhona ko'rinishdagi tazyiqlariga bardosh berishi amrimahol. Buni kundalik hayotda uchrab turadigan ko'plab voqealar misolida ham kuzatish mumkin. Masalan, Yaponiyadan tarqalgan "AUM Senrikyo" degan diniy oqim vakillarining faoliyatini eslaylik. Ular dunyoning turli mamlakatlaridagi yuzlab yosh yigit-qizlarni irodasidan, ong-shuuridan mahrum qilib, zombi, ya'ni manqurtga aylantirib qo'ygani yaxshi ma'lum-ku.

Yoki din niqobi ostida Markaziy Osiyo, jumladan, O'zbekistonga ham kirib kelishga urinayotgan vahhobiylik oqimi namoyandalarining zararli kirdikorlarini olaylik. Bu kabi holatlarning qanday mudhish oqibatlariga olib kelishini, menimcha, uzoq tushuntirib o'tirishning hojati yo'q.

Ko'rinib turibdiki, tabiatda ham, jamiyatda ham vakuum – bo'shliq bo'lishi mumkin bo'lmaganidek, mafkura sohasida ham bo'shliq vujud-

ga kelishiga aslo yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi. Ayniqsa, butun dunyoda, jumladan, informatsiya olamida globalashuv jarayoni kechayotgan hozirgi paytda, ya‘ni lo‘nda qilib aytganda, jahonning bir chekkasida sodir bo‘layotgan voqealar va harakatlarning tez tarqalib ketayotganini hisobga olganda, bu masalaning ahamiyati va dolzarbligi yanada ortib bormoqda.¹

“Tasavvufni har tomonlama va jiddiy tahlil qilishning dolzarbligi yana bir sabab bilan bog‘liq. Milliy mustaqillikni qo‘lga kiritgandan so‘ng matbuotda tasavvufiy tariqatlar (yassaviya, kubraviya, naqshbandiya, malomatiya, ...) va ularning asoschilari xususida maxsus risola-maqolalar e‘lon qilindi”².

Darhaqiqat, qadimiy va barhayot tasavvuf ta‘limoti sobiq sho‘rolar tuzumi davrida ta‘qiq va tazyiq ostiga olindi. Hukmron mafkura nuqtayi nazaridan, ikkinchi darajali ilm deb hisoblandi.

Mazkur ilmiy merosga mana shunday salbiy munosabat, jamiyatning ma‘naviy va axloqiy hayotiga katta ziyon yetkazdi. Zero, bu ilmni egallamasdan turib, milliy madaniyat, an‘ana va qadriyatlarimizning ilidizi, serqirra ma‘naviy merosimizning hayotbaxsh imkoniyatlarini to‘g‘ri anglash, falsafiy jihatlarini idrok etish mumkin emas.

Tasavvuf ta‘limotini o‘rganmasdan turib, o‘rta asrlar musulmon sharqi madaniy hayoti haqida aniq tasavvur hosil qilib bo‘lmaydi. Mazkur ta‘limot mazmunini tahlil qilish natijasidagina ajdodlarimiz ruhiyati, ma‘naviy-intellektual merosi mazmunini yoshlarga yetkazish va shu orqali ular ma‘naviyatini shakllantirish mumkin. Chunonchi:

1. Tasavvuf ta‘limotining paydo bo‘lishi va rivojlanishi haqida H.V.Koshifiy “so‘fiy” qadimiy bo‘lib, Odam a.s. o‘g‘illari Shish a.s. davrida paydo bo‘lganligini bayon qiladi.³ Demak, so‘fiylik Shish a.s. davrida vujudga kelgan.

Islom dini paydo bo‘lgach (Muhammad payg‘ambar s.a.v.), tasavvuf ta‘limoti ham vujudga kelgan. Bu haqida M.A.Jo‘shon shunday fikr bildiradi: “...tasavvuf ho‘l ilmi bo‘lib, payg‘ambarimiz (s.a.v.) davrida sahobayi kiromda mavjud edi. Hazrati payg‘ambarimiz mutasavvufning sultoni edilar. Ul zot hayotlari mobaynida tavoze bilan, ibodatga

¹ Barxanov avlod o‘quvchisi. Nazir uchun ma‘yul T.Riskiev. Tuzuvchilar: Sh.Kurbonov, X.Saidov, P.Ahmedov. T. “Sharq”, 1999. 33 – 34-betlar.

² Burovov K.B. Tasavvuf falsafasi xususida. T., “Ezuvchi”, 2000. 7-bet.

³ Koshifiy X.V. Futuvalatnomai sultoniy E‘ud javonmardlik tariqati (tarj. V.Komilov). T., A. Koliyiy nom. “Xalq merosi” nashr., 1994. 17 – 18-betlar.

mushtoqligi bilan voqealarga ko'rsatgan xatti-harakatlari bilan tasavvufiy hayot tarzining eng go'zal namunasi bo'ldilar.

Ul zot dunyo saltanatini orzu qilmadilar, dunyo matosiga mayl etmadilar, mol-davlat to'plamadilar, qo'llariga pul tushguday bo'lsa, o'sha kundayoq kech tushmasdan sadaqa qilishga harakat qilardilar.¹ O'sha davrlarda bugungi kundagidek "tasavvuf", "so'fiy" so'zlari qo'llanilmagan. Tobeindagi e'tiqod, taqvo, jiddiyat va Alloh sevgisini ko'rgan keyingi nasllar ham ularning izidan yurdilar. Bu an'ana avloddan avlodga o'tib kelaverdi. Tasavvuf iborasi, keyinchalik, paydo bo'ldi. Tasavvuf yo'lining, keyinchalik, tariqatlar sifatida davom etishi, bu mavzudagi eng asosiy ma'naviy va ijtimoiy yo'nalish yana Rasullulloh (s.a.v.)ning o'quv-ta'lim uslublariga ergashish natijasida hosil bo'ldi.

Ma'lumki, payg'ambarimiz kishilarni suhbat yo'li bilan tarbiyalar edilar. Masjidi Nabaviy faqatgina ibodatgoh emas, ayni vaqtda, talabaga ziyo tarqatuvchi ta'lim-tarbiya dargohi bo'lgan. Sahobalar, talabalar Payg'ambardan hadislarni tinglab, Qur'on oyatlarini o'rganish natijasida diniy bilimlar va axloq-odob me'yorlarini o'rganganlar. Payg'ambarning ilmi, Qur'on ma'rifatidan bahramand bo'lishni istaganlar, mazkur masjidida tun-u kun qolar edilar. "Ahli Suffa" yoxud "Ashobi Suffa" deya sifatlangan sahobalar kechalari 70-80 kishini, kunduzlari 400-450 kishini tashkil etardi. Guruh-guruh holida u yerga oqib kelgan omma Rasullullohdan ilm o'rganish ishtiyoqida bu yerda to'planishardi² ko'rinib turibdiki, Muhammad Payg'ambar mutasavvuf - ustoz bo'lganlar. Islom dini va ma'naviyati asoslarini o'rgatish uchun atrofdagi xalqlarga "Ashobi suffa"dan vakillar tanlab jo'natganlar. Suffa ahli davrasida tonggacha suhbat qilganlari ham ayni haqiqatdir. Suhbat asnosidagi zavq-u shavq tufayli uyqu nimaligini bilmay, saharga qadar qiziqarli ilmiy muloqotlar davom etgan. Suhbat - eng ta'sirli ta'lim-tarbiya usuli. Tolibning aybi, xatosini ko'rgan o'rnak zot darhol uni xafa qilmay, nozik ishora bilan tuzatish imkoniga ega bo'ladi. Bu yo'l Rasullullohning yo'li bo'lgani uchun tasavvuf ham ushbu "shayx-murid suhbat" ta'lim yo'lini tanlagan".³

O'sha davrda islom ma'naviyati sahobalar tomonidan yoshlarga faol tarzda singdirilgan. Mazkur davrda yashagan xalqlar, bir tomondan, jome-masjidlarida ilm sirlarini o'rgansalar, ikkinchi tomondan, o'z dav-

¹ Жулюн М.А. Тасаввуф ва нафс тарбияси (Н.Хисан тарж.). Т.. Чўпон. 1998. 57-бет.

² Уша манба, 60-бет.

³ Уша манба, 60-бет.

latlarining chegaralari hamda islom dini ma'naviyati qamrovini kengaytirishga intilganlar. Islom diniga qiziqib, mazkur ma'naviyatni egallovchilar chegaralardagi qal'alarda ta'lim olish uchun to'planishgan. Bunday qal'alar "Rabot"lar deb atalgan.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, tasavvuf ahli chor yori Uzam va Rasulullohning yaqin sahobalaridan Salmon Forsiy bilan Imom Ja'fari Soddiqni so'fiylik va valiylik hislati ko'ringan ulug' insonlar sifatida ehtirom bilan tilga olganlar.

Tasavvuf ilmining vujudga kelish sabablari haqida tasavvufshunos olim N. Komilov shunday fikr bildiradi: "Tasavvuf tadrifiy taraqqiyotga ega bo'lgan bir ta'limot bo'lib islom olamida VIII asrning o'rtalarida paydo bo'lgan".¹

Darhaqiqat, islom ma'naviyatida Muhammad Payg'ambardan keyin uchinchi xalifa Usmon Zunnurayn davrlaridan (644–656) boshlab, ayniqsa, arab xalifaligining Ummaviylar (661–750-yillar) hukmronligi davrida, ayrim musulmon jamoalari orasida mahalliychilik, tanish-bilishlik, oshna-og'aynigarchilik, bir-birini siylash, hokimiyat lavozimlariga qarindosh-urug'larini tayinlash, boylik yig'ishga ruju' qo'yish kuchaygan. Jamiyat a'zolari orasida Alloh yo'lidagi toat-ibodat o'rmini dunyoviy ishlar, dunyo moliga hirs qo'yish, zeb-ziynatlar, hoyyu-havaslariga berilish kabi salbiy illatlar ildiz ota boshlagan. Hashamatli uylar, dabdabali saroylar qurish, qimmatbaho bezaklar, oltin-kumush, boylik to'plash avj olib ketdi. Bunday ishlar e'tiqodi mustahkam taqvodor musulmonlarning noroziligiga sabab bo'ldi. Bu ishlarning oldini olish uchun Muhammad Payg'ambarimiz hadislarini yig'a boshladilar. Ba'zi musulmonlar bunday holga qarshi norozilik belgisi sifatida tarkidunyo-chilik -- zohidlik g'oyalarini targ'ib qilib, surunkali toat-ibodat bilan shug'ullanishga kirishdi.

Ular xalqqa jannat ta'masida yoki do'zax qo'rquvi bilan Alloh taologa toat-ibodat qilmay, Allohni jon-dilidan sevish, ko'ngilni cheklash, o'zini ruhiy poklash orqali Alloh roziligiga, vasliga yetish va bundan lazzatlanish g'oyalarini keng targ'ib qilish, insonning bu dunyodagi asosiy maqsadi ilohiy olamga borib qo'shilmoq harakatida bo'lishi lozimligini targ'ib qila boshladilar. Natijada asta-sekin dunyo vasvasalaridan ko'ngil uzgan, ammo quruq zohidlarga o'xshamagan, oddiy dindorlardan farqlanadigan, mutafakkir saylasuflardan ajralib turadigan, aql-u fa-

¹ Комиллов Н. Тасаввуф ёки қомилт нисон ахлоқи. 1-китоб, 1.. "Фан". 1996, 16-бет.

rosatda, zakovatda tengsiz, shariat ilmini to'la, mukammal egallab olgan, toat-ibodatlari mustahkam, ajoyib xislatli pok insonlar toifasi vujudga keldi.

Ularning dunyo lazzatlaridan voz kechishlari, g'ayrioddiy so'zlari, ishlari, karomatlari xalqni lol qoldirar, shuning uchun ham xalq ularni hurmatlab, avliyo, ahli hol, ahli botin, darvesh, qalandar, faqir degan nom bilan tilga olar edilar. Keyinroq ularga nisbatan umumiy qilib "so'fiy" degan nomni qo'llay boshladilar.

Tasavvuf (so'fiylik) ta'limoti haqida turlicha qarashlar mavjud. Biroq, ularga berilgan ta'rif mazmun-mohiyatiga ko'ra bir xil bo'lib, "Islom madaniyatining tarkibiy qismi tasavvuf yoki sufizm falsafasidir" kabi.

Ayrim tadqiqotchilar tasavvuf va so'fiylik (sufizm) bir-biridan farqlanadigan turlicha oqimlar, deb hisoblaydilar. "Agar so'fiylikning ma'lum bir tarmog'i, yo'nalishi, ya'ni so'fiyning tanlagan yo'li "tariqat", "suluk" deb atalgan bo'lsa, tasavvuf esa so'fiylikning nazariy, falsafiy dunyoqarash tizimidir".¹

Demak, tasavvuf ta'limoti tarixiy-falsafiy jihatdan ham, pedagogik nuqtayi nazardan ham inson qalbi va ruhiyatiga taalluqli bo'lganligi uchun ham talabalar ma'naviyatini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

Tasavvufning vujudga kelishi haqidagi fikrlar turli-tumandir. Chunki:

a) bir guruh olimlar mazkur ta'limotni Eronda paydo bo'lganligi haqida da'vo qiladilar. Mazkur aqidalarga ko'ra go'yoki: "Arablar falsafiy tafakkur jihatidan qobiliyatsiz emishlar, eronliklar bu bobda qobiliyatli emishlar. Shu bois nozik tafakkur tarzi bilan tasavvuf arablarga eron ta'siri orqali o'tgan degan da'voni ilk bor Kante de Gobinyu "Eron tarixi" nomli asarida o'rtaga tashlagan".²

Holbuki, ilmiy dalillarning tasdiqlashicha, tasavvuf ta'limoti eronga arab millatiga mansub bo'lgan mutasavvuf va so'fiylar orqali kirib kelgan;

b) bir guruh olimlar tasavvuf ta'limoti Hindistonda vujudga kelgan degan g'oyani ilgari surganlar: buyuk mutafakkir Abu Rayhon Beruniy (973-1051)ning "Tahqiqi malil Hind" asarida hind falsafasining islom diniga ko'rsatgan ta'siri haqida ma'lumotlar berilgan. Masa-

¹ Абдурахмонов А. Саodatга элгувчи билим. Т., "Мовароуннахр", 2001, 353-бет.

² Бобомурод Ахмаджон Хужа. Баркамол инсонлар йулидан. Т., "Мовароуннахр", 2003, 42-бет.

lan, Pantanjali degan butparastlik falsafasining Islom mutasavvufilaridan Boyazid Bistomiy, Mansur Xalloy va Mahmud Shabustariyga ta'sir qilganligi aytilgan. Biroq sharqshunoslarning ta'biricha, mazkur da'vo ishonchsizdir, chunki tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, Pantanjali falsafasi mazkur zotlar yashab o'tgandan keyin vujudga kelgan. Shu bilan bir qatorda, ushbu falsafiy dunyoqarash Islom ta'limotiga ziddir. Chunki Islom "Borliq"ni tan olib, yo'qlikni rad etadi. Islom dinida mol-dunyoga ko'ngil qo'ymaslik, mutlaq borliq hisoblangan Allohga yaqinlashishga harakat qilinadi. Islom madaniyati Hindistonga jang-u jadallar bilan emas, mutasavvufilar: kubraviya, naqshbandiya, shattariya, ravshaniya va nurbaxshiya tariqatlari vositasida kirib borgan.

"Mazkur islom ta'limoti Hindistonga yoyilganidan keyin, xilma-xil turlarga bo'linib, har bir hind muhitida o'ziga xos tus oldi. Masalan, "Chashtiya" tariqatining payrovlari zikr, samo' (so'fiylarga xos tarzda raqsga tushish)ni musiqa bilan ijro etadilar. Bu esa Hindiston muhitining tasavvufga to'g'ridan to'g'ri ta'siri uchun yaqqol misol bo'la oladi".¹

Tasavvufdagi "fano" bilan budparastlikdagi "nirvona" nazariyalari va ilk so'fiylardan Ibrohim Adham bilan Budda hikoyalari orasidagi o'xshashlik, mazkur qarashlarning asosiy dalillaridir. Biroq, bular ishonchli manbalardan ofingan fikrlar emas. Hind ta'limotidagi "fano"-dan maqsad, achchiq hayot dardidan qutulish salbiy ma'noda bo'lsa, islom tasavvufida ushbu aqida so'fiyning baqo (boqiy billoh) darajasiga erishishiga qaratilgan. Shu dalilning o'zi ham ko'rsatadiki, tasavvuf Hindistonda vujudga kelgan emas;

d) bir guruh mutaxassislar tasavvuf ta'limoti yangi afltunchilik oqimi ta'sirida vujudga kelgan, degan fikrni ham asoslashga harakat qiladilar. Bu haqida Usmon Turar o'zining "Tasavvuf tarixi" kitobida quyidagicha fikrlarni bayon qilgan: "Yangi afltunchilik hind mistitsizmidan va Orfeos dinidan ta'sirlanib shakllangan. Orfeos dini esa sharq dinlari ta'siriga uchragan. Yangi afltunchilik asoschisi Platonus Afloton falsafasi bilan sharq falsafasini birlashtirgan. Shu bois, bu falsafa ham g'arbliklarning hamda sharqliklarning e'tiborini tortib kelgan. Tasavvufning ilk davri bo'lgan zuhd bosqichida yangi afltunchilik ta'sirini ko'rish imkonsiz. Chunki tarjimalar orqali yunon falsafasining mu-sulmonlar orasida yoyilishi bu davrdan keyin sodir bo'lgan. Chunonchi ilk so'fiylar bu odatlariga amal qilib, doim falsafaga qarshi turdilar. Mazkur

¹ Жульжоний А.И. Тасавуф ва исмон. Т., "Адолат", 2001. 34-бет.

falsafa tasavvufga ta'sir ko'rsatdi, deguvchilar, "vahdati vujud" falsafasi bilan Ibn Arabiydan ta'simi ko'zda tutmoqdalar. Olim Erol Gungo'r: "Yangi afлотunchilik ta'siri tasavvufning ikkinchi davrida tasavvufiy tafakkur bir tizimga kirgan davrda ta'sir ko'rsatdi" deydi. Shu bilan birga, Erol Gungo'r Ibn Arabiy mazkur falsafadan ko'p ta'sirlanganligini ta'kidlaydi. Ammo shu narsa aniqki, Ibn Arabiy va undan keyin chiqqan mutasavvuflarda yangi afлотunchilik ta'siri sezilmagan. Lekin bu mutasavvufilar ushbu falsafadan oziqlangan bo'lsalar ham, islomiy nuqtayi nazarlarini unga singdirib, o'zlarining falsafiy hamda ta'lim-tarbiyaviy qarashlarini islomiy poydevor ustiga qurganlar;

g) ba'zi olimlar tasavvuf ta'limoti Ibroniya – nasroniylikdan kelib chiqqan degan qarashni ham ilgari suradilar: Ibroniya-nasroniy unsurlardan arablarga o'tgan va mutasavvufilar tomonidan qo'llanilgan "Lahut", "Nasut", "Jabarut", "Malakut" kabi bir qancha istilohlarga asoslangan. Sharqshunolar islom dini va tasavvuf ibroniy-nasroniy muhiti-dan ta'sirlanish natijasida kelib chiqqan, degan da'voni ilgari suradilar. Ammo o'zaro bir qadar aloqador bo'lgan, farqli e'tiqod va an'analar orasidagi tabiiy umumiylikni istisno qilganda, islom dini va tasavvuf ta'limoti birtorta din yoki falsafiy oqim ta'sirida vujudga kelgan emas. Mazkur dinlar e'tiqod jihatdan islom diniga muvofiq kelmasligi bilan ushbu fikrni tasdiqlay oladi. Tasavvuf ta'limotining vujudga kelishi haqida turlicha qarashlarni tahlil qilish natijasida quyidagilarni bayon qilish mumkin. Islom tasavvufi tashkil topar ekan, hech qanday tashqi ta'sirga asoslanmagan holda bevosita islomiy tamoyillar ustiga qurilgan.¹

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, faqatgina G'arb mutaxassislari tasavvuf ta'limotining vujudga kelishi haqida fikr yuritib, islom dinidan tashqari manbalar izlaganlar. Buning natijasida esa, tasavvuf Islom dinidan tashqari, undan ayricha bo'lgan ta'limot, degan noto'g'ri xulosaga kelganlar.

Islom dini va uning zaminida vujudga kelgan tasavvuf ta'limoti nuqsonlardan holi bo'lgan mukammal ta'limotdir. U, o'z navbatida, boshqa dinlar va ta'limotlarga ijobiy ta'sir ko'rsatgan.

Bir so'z bilan aytganda, "Tasavvuf Islom olamida tan olingan ulug' yo'lligini tasavvuf ilmidan zavq olmagan, fikri faqatgina zohirdan nariga o'tmagan, dunyo martabalarini shuhrati qalbini egallab olgan, ko'zi, ya'ni qalbi ko'r bo'lgan olimlar tushuna olmaydilar".²

¹ Турар У. *Тасаввуф тарихи*. Т., "Истиқлол", 1999, 34 – 35-бетлар.

² Бобомурод Ахмадjon Хoжи. *Баркамол инсонлар йўлидан*. Т., "Мовароуннахр", 2003, 46-бет.

Tasavvuf ta'limoti barkamol inson haqidagi g'oyalarning vujudga kelishida alohida o'rin egallagan.

Tasavvuf tarixi o'z ichiga ikki davrni qamrab oladi: birinchisi – zohidlik; ikkinchisi – oriflik va oshiqlik davrlari.

Zohidlik davri mutasavvuflari (Ibrohim Adham Hasan Basriy, Abduhoshim Kufiy va b.) taqvo va parhezkorlikni bosh maqsad deb bilganlar.

“Birinchi davrni tasavvufning ibtidoiy davri (“avvalgi davri”) sifatida tilga oladilar”.¹

Ikkinchi davr – oriflik davri esa IX asr o'rtalaridan boshlanadi. Bu davr bir necha bosqichlardan iborat:

Birinchi bosqich – IX–X asrlar – xonaqohlar; tariqat urf-odatlarining paydo bo'lish bosqichi.

Ikkinchi bosqich – XI–XII asrlar tasavvuf maktablari, silsilalarning tarkib topish davri.

Bu davrda Misr, Bag'dod, Basra, Buxoro, Nishopur, Termiz, Balx kabi shaharlar tasavvuf ta'limoti rivojlangan markazlar sifatida muhim ahamiyatga ega. Natijada tasavvuf ta'limoti namoyandalari Misr, Xuroson, Movarounnahr, Iroq va Turkiston mamlakatlarida paydo bo'lgan.

Uchinchi bosqich – XII asr oxiri – XIV asr boshlarini o'z ichiga oladi. Bu bosqich tasavvuf ta'limoti taraqqiyotida sermahsul davr hisoblanadi. Mazkur yillarda tasavvuf ta'limoti o'zining taraqqiyot cho'qqisiga erishdi. Ayniqsa, bu davrda Ibn Arabiy (1165–1240), Yaxyo Suxravardiy (1145–1234–35), Najmiddin Kubro (1154–1226), Ahmad Yassaviy (1105–1166–67), Jaloliddin Rumiy (1273–y. v.e.) kabi ulug' mutasavvuflar tasavvuf ilmi doirasini kengaytirdilar.

“Agar IX–XI asrlarda tavhid asoslarini chuqurlashtirishga katta e'tibor berilib, tasavvufning fano va baqo kabi tushunchalari targ'ib qilingan bo'lsa, XIII asr o'rtalaridan boshlab tafakkuriy-aqliy yo'nalish yetakchilik qila boshladi.... Natijada Ibn Arabiy va Jaloliddin Rumiy kabi zotlarning asarlarida butun bir falsafiy tizim o'z ifodasini topdi, ular ilohiy kashf-u karomat, ruhiy-psixologik holatlar, botiniy latifliklar bilan birga real insoniy hayot haqida ham juda ko'p ajoyib fikrlarni bayon etdilar”.²

Shu tariqa, tasavvuf ta'limoti Sharq tafakkuri taraqqiyotidagi ko'p asrlik tajribalarni o'zida mujassamlashtirib, uni rivojlantirdi, din va fals-

¹ Комилов Н. Тасаввуф ёки камил инсон ахлоқи. 1-китоб, Т., “Фан”, 1996, 12-бет.

² Комилов Н. Тасаввуф ёки камил инсон ахлоқи. 1-китоб, Т., “Фан”, 1996, 13-бет.

fa, hikmat va vahdat, kalom va hadis ilmlarini uyg'unlashtirdi, ilohiy-ruhoniylar bilan dunyoviy ilm-fan orasidagi o'zaro aloqadorlikni ta'minladi. Natijada tasavvuf musulmon ahlining tafakkur tarzi va axloq me'yorlari, ma'naviy olamini belgilab beruvchi ta'limotga aylandi.

To'rtinchi bosqich – XIV–XVI asrlarga mansub bo'lib, bu davrda Bahouddin Naqshband asos solgan naqshbandiya tariqati o'z taraqqiyotining yuqori bosqichiga ko'tarildi. Mazkur tariqat, ayniqsa, Movarounnahr va Xurosonda rivojlandi. Xoja Ahror Valiy va Mahdumi A'zam kabilarning faoliyatlari, sa'y-harakatlari tufayli naqshbandiya tariqati mustahkamlandi. Buning natijasida naqshbandiya tariqatining qamrovi kengayib, u Hindiston, Arabiston, Turkiyaga ham tarqaldi. Bu davrda barkamol insonni shakllantirish g'oyasi takomillashdi. Mazkur g'oyalarning yordamida yosh avlodni ma'naviy jihatdan yetuk, jismonan barkamol shaxs sifatida tarbiyalash imkoniyati kengaydi. Maktab va madrasalarda talabalarga naqshbandiya g'oyalari chuqur singdirila boshlandi. Tasavvuf ta'limotida qalb, ruh, aql va nafs tarbiyasi yetakchi o'rin egallaydi. "Tasavvufda qalb, ruh, aql va nafs deb ataladigan ma'nolarni aniq bilib olish katta ahamiyat kasb etadi".¹ Ularning har biriga xos bo'lgan haqiqatni anglab yetish va bir-biridan farqlash mushkuldir. Biz ularning har birini qisqacha tavsiflashga harakat qilamiz. Chunki bugungi kunda ham talabalar ma'naviyatini shakllantirishda mazkur tushunchalar muhim ahamiyatga ega.

1. Qalb va qalb tarbiyasi: qalb, yurak, dil – ilohiyot va tasavvuf tushunchasi. Qur'oni Karimda qalb so'zi 133 marta uchraydi. ...Tustariy, Balxiy, Nuriy, Termiziy, G'azzoliy kabi allomalar fikricha, qalb inson ichidagi ilohiy sir bo'lib, shu tufayli u hatto farishtalardan ham yuqori turadi.²

Inson qalb yordamida har bir narsa va hodisaning asl mohiyatini anglab yetadi. Qalb inson hatti-harakatlarini aks ettiruvchi ko'zgidir. Inson o'z qalbini yumshatib, ilohiy bilimlarni o'zlashtirib borishi lozimligi tasavvuf ta'limotida alohida uqtirib o'tilgan.

Tasavvuf ilmida qalb deyilganda inson vujudidagi yurak nazarda tutilmaydi.

Qalb – rabboniy (ilohiy), ruhoniylar, latif narsa bo'lib, uning inson vujudidagi yurak darajasidagi qalbgacha bog'liqligi mavjud hodisa. Ular orasidagi aloqadorlik go'yoki sifatning sifatlangani bilan bo'lgan aloqa-

¹ Мухаммад Юсуф Мухаммад Содиқ. Шайх. Тасаввуф ҳақида тасаввуф. Т., "Мовароуннаҳр", 2004, 53-бет.

² Ислам энциклопедияси. Т., Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2004, 200-бет.

sig'a o'xshaydi. Bu inson tafakkurida aks etgan haqiqatdir. Voqea-hodisalarni idrok qilish, bilim olish, ma'rifatga intilish, xitob qilish ham qalbga xosdir.

2. Ruh va ruh tarbiyasi. Ruh haqida odamlar, hatto mutaxassislar ham juda oz ma'lumotga ega. Ba'zi islomshunos olimlarning fikricha, ruh – qon, ayrimlarining ta'biriga ko'ra esa ruh latif va nafis havodan iborat moddiy hodisa.¹

Bir so'z bilan aytganda, ruh – ilohiy sir. Uning yordamida ilohiy qudrat namoyon bo'ladi. U Allohning eng ulug' ne'mati. Jamiki tiriklik ruh bilan bog'liq. Abu Ali ibn Sino bu haqida shunday fikr bildiradi: "Ulug' Tangri yurakning ikki bo'shlig'idan chap bo'shlig'ini ruhga o'rin va uning vujudga kelish joyi qilib yaratdi, ruhni nafsoniy quvvatlar uchun ulov qilib yaratdikim, u (quvvatlar) ruh vositasida gavdaning turli a'zolariga tarqaladi. Nafsoniy quvvatlar, birinchidan, ruhga taalluqli bo'lib, ikkinchidan (ruh), vositasi bilan badan a'zolariga yoyiladi. Tangri ruhni xilt (modda)larning latif va bug' qismidan yaratdi. U fayzi ilohiy bilan vujudga kelur".

Darhaqiqat, ruh latif va nafis havo bo'lib, inson qoniga qo'shilib, yurak orqali butun tanaga tarqaladi. Ruh pokiza bo'lsa, insonning butun tanasi poklanib, sayqal topadi. Aksincha, u nopok bo'lsa, inson hoyyuhavas va dunyo lazzatiga berilib, "ruhul habis", ya'ni yomon ruh egasi bo'ladi.²

Demak, ruh ilohiy hamda tabiiy kuchga ega bo'lib, u insonni imtihon qilish va poklash uchun unga ato etilgan. Bu poklanish Allohni qalban yodlash, uning mavjudligini e'tirof etish orqali amalga oshadi. U o'zining ilohiy makoniga qaytish jarayonida poklanadi. Bunday obyektiv haqiqat orqali tasavvuf ta'limotida ruh tarbiyasining muhimligi g'oyasi ilgari suriladi. Qalban, ruhan hamda jismonan poklangan inson go'zal axloq-odob, yuksak ma'naviyat sohibiga aylanib, barkamol inson darajasiga ko'tariladi.

3. Nafs va nafs tarbiyasi. Tasavvuf ta'limotida nafs tarbiyasi yetakchi o'rin egallaydi. Nafs – bu insonning o'zligi, "men"i demak. Nafs faqatgina yeb ichish, kiyinishga bo'lgan intilishdan iborat emas, u jaholat, ilmsizlik, manmanlik, dunyoparastlik, o'g'rilik, ta'magirlik, poraxo'rlik, hasad, baxillik, mansabparastlik, shahvat, g'azab, xasislik, riyokorlik, zolimlik, rahmsizlikka hirs qo'yishdir.

¹ Ислам энциклопедияси. Т., Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2004. 103-бет.

² Абу Али ибн Сино. Юрак дорилари. Т., "Фан", 1966, 71-бет.

Nafs muntazam rivojlanib boruvchi holatdir. U insomning dunyo lazzatlariga bo'lgan ehtiyoji tufayli o'sib rivojlanib boradi. Nafs har doim insonni yomonlikka, gunoh ishlarni qilishga undaydi. Inson o'z nafsini qanchalik qondirsa, u shunchalik kuchayib, kengayib boradi.

Tasavvuf ta'limotida agar inson halol narsalarni iste'mol qilsa, uning qalbi va ruhi pok, yaxshilikka intiluvchan, xayrli ishlarga moyil bo'ladi. Aksincha, inson harom narsalarni iste'mol qilsa, u insonni jirkanch, dag'al, berahm, beshafqat, shahvatga beriluvchan, zolim va nafs bandasi qilib tarkib toptiradi, deb uqtiradi.

"Nafsni o'ldirib bo'lmaydi. Uni o'ldirsa, insonning o'zi ham o'ladir. Chunki nafs, nafas – bir so'zdir. Ammo nafsni tarbiyalab bo'ladi, uni jilovlab, boshqarib bo'ladi".¹

Nafs o'z navbatida bir necha turlarga bo'linadi.

a) nafs ammora – yomonlikka beriluvchi nafs. Bunday nafs egasi kibr-u havoga beriladi, gunoh va savobning farqiga bormaydi. Inson kamolotiga monelik qiladigan kuch mol-dunyoga berilish hissidir. Bunday tuban holatdan chiqish uchun insonga umid yordam beradi. Nafsi ammoraga qarshi kurash jarayonida inson axloqi yuksaladi va unda matonat shakllanadi. Nafsi ammorani to'liq mahv etgan inson keyingi nafs bosqichiga o'tadi;

b) nafs lavvoma. Inson o'zi yo'l qo'ygan xato-kamchiliklarini anglagan holda, o'z-o'zini tanqid qilishidir. Bunda inson o'zi qilgan gunohlarini anglay boshlaydi va unda afsuslanish, pushaymonlik hissi paydo bo'ladi. Allohni yod etish (zikr) natijasida uning ezgulikka intilish holati kuchayadi. Nafsi lavvoma bosqichida inson o'z quvvatlarini idora qilib, o'zini-o'zi anglaydi, boshqaradi, ruhiy kamolotga erishadi;

d) nafs mulhima – ma'naviy hayotning go'zalliklarini anglab, Alloh sifati bilan ilhomlanadi. Bu bosqichda insondagi barcha salbiy xislatlar barham topadi. U ilohiy sirlarni idrok etadi. Uning qalbida Allohga bo'lgan muhabbat ustuvorlik qiladi. Bu bosqichga erishgan inson oz gapiradi, oz uxlaydi, unda sabr-bardosh, sahoovat, qanoat kabi sifatlar tarkib topadi;

e) nafs mutmainna – taskin topgan nafs. Bunday inson Alloh tomonidan ato etilgan sifatlarini o'zida mujassamlashtiradi, oxirat azobini anglab yetadi va ulug'vor sifatlarini o'zida namoyon qiladi;

¹ Бухорий Раззоқ Абдуноғфир Хожи. Тарикатга йўлданма (накибқония таълимисти вососила). Т. "Моваро-ушшахр", 2003, 51-бет.

f) nafs roziya – Allohning barcha ne'matlaridan rozi, o'z hayotidan mamnun inson. Alloh tomonidan ato qilingan har bir ishni yaxshilikka yo'yadi;

g) nafs marziya. Mazkur nafs sohibi Alloh tomonidan sevishga loyiq deb topilgan insonga aylanadi;

h) nafs sofiya – bu Payg'ambarlarga xos bo'lgan nafs. Ushbu sifatlar turli sabab va usullar orqali Alloh tomonidan insonlarga eng ulug' ne'mat tarzida taqdim etiladi.

4. Aql va aqliy tarbiya. Aql insondagi anglash va fikrlash xususiyati bo'lib, u Allohning insonga berilgan eng ulug' ne'matidir. Turli majburiyatlarning inson zimmasiga yuklanishi uchun u aqlan yetuk bo'lishi kerak. Insonning aqli ikki xil: tug'ma va kasbiy xarakterga ega. Tug'ma aql uning sohibiga Alloh tomonidan ato qilinadi. Kasbiy aql esa ta'lim-tarbiya jarayonida muayyan kasb-hunar sirlarini egallash natijasida hosil bo'lib, u xususiy xarakterga ega.

Tasavvuf ta'limotida aql quyidagi ikki yo'nalishda tavsiflanadi:

a) narsa-hodisalar va borliqning haqiqiy manzarasini idrok etishga asoslangan bilimlarning ifodasidan iboratdir;

b) insonning mavjud bilimlarni idrok etish imkoniyatidir.

Demak, tasavvuf ta'limotining vujudga kelish sabablari va unda ifodalangan pedagogik g'oyalar, shaxsga ta'lim-tarbiya berish vositalari va yo'llari, shaxs ma'naviyatini shakllantirishga xizmat qiladigan qarashlar va axloqiy me'yorlar bugungi kunda barkamol shaxsni shakllantirishda muhim bo'lib, o'quv jarayoni mazmunini boyitadi. Chunki tasavvuf ta'limotining asosiy maqsadi ham insonni ma'naviy-axloqiy kamol toptirish, uni ruhiy-ma'naviy va jismoniy jihatdan poklashdan iboratdir.

1.2. Xo'ja Ahmad Yassaviy tariqati, uning falsafiy-adabiy merosi

Sharq mutafakkirlarining ta'lim-tarbiyaga oid qarashlari bu boradagi umumbashariy tajribaning shakllanishiga ulkan ta'sir ko'rsatgan va ular bugungi kunda ham zarracha ahamiyatini yo'qotmagan. Lekin pedagogik tarbiya bilan bog'liq boy ma'naviy merosimizdan mustaqillik yillariga qadar uzoq vaqt to'liq foydalanishning iloji bo'lmadi. Istiqloq tufayli bu durdonalardan keragicha foydalanish imkoniyatini qo'lga kiritdik. Endilikda ma'naviy tarbiya sohasida olib borilayotgan ishlarda aj-

dodlarimiz tajribalari samaralari yaqqol ko'rina boshladi. Bu imkoniyatlar maktablar, maktabdan tashqari tarbiya muassasalari va mahallalarda o'tkaziladigan tarbiyaviy tadbirlarni o'ziga xos ma'naviyat darslariga aylantirish uchun qulay sharoitlar ochib berdi. Jumladan, Mahmud Koshg'ariy, Ahmad Yugnakiy, Yusuf Xos Hojib, Kaykovus, Nizom ul-mulk, Jaloliddin Rumiy, Hofiz Sheroziy, Sakkokiy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Muhammad Sodiq Koshg'ariy, So'fi Olloyor, Boborahim Mashrab, Abdulla Avloniy singari ko'plab buyuk mutafakkirlarning odob-axloqqa oid asarlarini o'rganish, ularning mazmunini yan-gicha, xolisona sharhlash, bugungi hayotning pedagogik muammolarini yechish uchun ulardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Mutafakkir ajdodlarimiz asarlarini tahlil qilish, ularning hayoti, ijodi va merosining pedagogik qimmatini o'rganish muhim masaladir. Bu orqali o'tmishda buyuk allomalarimiz o'zlarining yuksak darajadagi ma'naviyati; odob-axloqqa oid saboqlarida Vatan, xalq istiqboli, farovon turmush, halol mehnat, fan taraqqiyotiga nisbatan qarashlari; inson mehnati, atrof-muhit va butun borliqqa ezgu niyatlar asosida farosat bilan oqilona munosabatda bo'lish haqidagi tushunchalarini mukammal bayon qilib berganliklariga guvoh bo'lamiz. O'tmishda ilm-fanning turli sohalari namoyandalarining yuqorida ko'rsatib o'tilgan masalalar yuzasidan bildirgan fikr, qarashlari bugungi kunda ham o'quvchi yoshlar va talabalar ma'naviy tarbiyasini shakllantirishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Bunday allomalar jumlasiga Muso al-Xorazmiy (783–850), Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy (810–870), Abu Nasr Forobiy (873–950), Abu Abdulloh al-Xorazmiy (v. 997), Abu Rayhon Beruniy (973–1048), Ibn Sino (980–1037), Abu Hafs Najmiddin Umar an-Nasafiy (1068–1142), Mahmud Zamaxshariy (1075–1144), Ahmad Yassaviy (v. 1166), Najmiddin Kubro (1145–1221), Bahovuddin Naqsh-band (1318–1389), Alisher Navoiy (1441–1501) kabi yana bir qancha mutafakkirlar va ijodkorlar kiradi. Bu ro'yhatni yana cheksiz davom ettiraverish mumkin.

Buyuk ajdodlarimizning axloqiy-tarbiyaviy qarashlarini bugungi yoshlarga yetkazish, ularni bahramand qilish uchun ma'naviyat va ma'rifatning rivojlanish bosqichlarini, turli oqim asoschilari va a'zolarining sermazmun hayot tajribalarini va ular yozib qoldirgan meroslarni puxta bilib olmoq kerak. Bunda masalaning bir muhim jihatiga alohida e'tibor qaratish zarur bo'ladi. O'rta asrlarda tarixiy, siyosiy va madaniy hayot voqealari o'z davriga xos xususiyatlarga ega bo'lgan. Ularning dunyo-

qarashi va jamiyatga bo'lgan munosabatini XXII asr voqealari, taraqqiyot talablari mezonlariga xos xususiyatlar bilan o'ichash, ularni aynan ko'chirib, bugungi hayotga tatbiq qilishga harakat qilish kutilgan ijobiy natijalarni bermaydi. Bu masalaga doir muammolarni ilmiy izchillikda tahlil qilish uchun ularga tarixiy tamoyillar asosida yondashish tadqiqotlarning xolis va samarador bo'lishiga xizmat qiladi. Turk musulmon olamida shayx, pir deb e'zozlangan, XII asr va keyingi davrlarda ham davomiy yuksak sharaf va ehtiromga musharraf bo'lgan Xoja Ahmad Yassaviy shaxsi hamda uning ma'naviy-tarbiyaviy dunyoqarashi asoslarini tadqiq qilishda mazkur xususiyatlar, albatta, inobatga olinishi zarurdir.

IX–XI asrning ilk davrida (819–1005-yillar) qariyb Movarounnahr va Xuroson hududlarida Somoniylar sulolasi hukmronlik qilardi. Tarixchi olimlarning e'tirof etishicha, u mazkur mintaqada Bag'dod xalifaligi butunlay zaiflashib qolgan bir paytda tashkil topgan yirik mustaqil feodal davlatdir. Unga Nuh ibn Asad asos soladi. Somoniylar davlati Ismoil ibn Ahmad davrida (892–907) gullab-yashnaydi. Uning davrida Movarounnahr, Xuroson, Eron, hozirgi Afg'oniston hududining katta qismi, Turkmaniston, Toshkent va Ispijob (Sayram) viloyatlari ham somoniylar davlati tarkibiga kirardi. Ular mamlakatdagi yirik feodallar, nufuzli ruhoniylar hamda omma orasida katta obro'-e'tiborga ega bo'lgan savdogarlar yordamiga tayanib, feodal tarqoqlik va ichki nizolarga barham beradi, natijada mamlakatning iqtisodiy va madaniy hayoti yuksalishiga yo'l ochiladi.

Somoniylar davrida ilm-fan, madaniyat, hunarmandchilik, savdosotiq ishlari kabi ijtimoiy hayotning barcha sohalari o'rta asr sharoitida benihoya rivojlangan davr hisoblanadi. Xuddi shu paytlarda somoniylarga qo'shni bo'lgan ma'muniy xorazmshohlar davlati ham o'zining yuksak rivojlanish pallasini boshdan kechirayotgan edi. IX–X asrlarda Movarounnahr va xorazmshohlar davlatida insoniyat madaniyati, ilm-fani taraqqiyoti tarixida yangi bir uyg'onish davri sodir bo'layotgan edi. Bu davrda Rudakiy, Abul Qosim Firdavsiy singari bir qancha mashhur shoirlar, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Iroq, Ibn Sino, Maslahiddin Xo'jandiy, Jaysaburiy, Abu Mansur as-Saolibiy kabi zabardast olimlar yetishib chiqdi.

X asrning oxirgi o'n yilligiga kelib, somoniylar davlati tanazzulga yuz tutdi. Hokimiyat markaziy davlat tarkibidagi ayrim viloyatlarni nazorat qilolmay qoldi. Chekka viloyatlar birin-ketin mustaqil mayda dav-

latlarga aylana boshladi. Bu paytlarda somoniylar davlatining sharqiy chegaralariga qo'shni hududlarda yirik va qudratli qoraxoniylar davlati vujudga kelgan edi. Ular qo'shni mamlakatda yuz bergan ijtimoiy-siyosiy parokandalikdan o'z vaqtida va juda ustalik bilan foydalandi. 996-yili Zarafshonning shimolidagi barcha yerlarni, 999-yili esa Buxoroni ishg'ol etib, somoniylar hukmronligiga zarba berdi. Qoraxoniylar¹ 996-999-yillari Nasr ibn Ali (v.1012) boshchiligida bostirib kirib, butun Movarounnahrni bo'ysundirdi. Akademik B.Ahmedovning ta'kidlashicha, somoniylarning ayrim vakillari, masalan, lashkarboshi Abu Ibrohim Ismoil (Muntasir) 1001-yilgacha qoraxoniylar bilan kurashgan, lekin bu urinish hech bir natija bermagan.²

Nasr ibn Alidan keyin Movarounnahrni Ilikxon Ali Takin (v. 1034) idora qildi. 1025-yili Koshg'ar xoni Qodirxon bilan Mahmud G'aznaviy (998-1030 yillari hukmronlik qilgan) bir paytda Movarounnahrda yurish boshladi. Ali Takin Buxoro va Samarqandni tashlab, cho'lga chekinishga majbur bo'ldi. Lekin baribir, ittifoqchilar Movarounnahrda o'z mavqeyini mustahkamlay olmadilar va tez orada uni tashlab chiqishga majbur bo'ldilar.

Xorazm hukmdori Oltintosh (1017-1032) ham 1032-yili Movarounnahrda o'z hukmronligini o'rnatishga urinib ko'rdi. Ammo uning harakati ham natijasiz yakun topdi. Tarixchi Abulfazl Bayhaqiy bergan ma'lumotlarga qaraganda, Movarounnahrda Ali Takindan keyin taxminan, 1040-yilga qadar uning o'g'illari, ulardan keyin 1060-yili Abu Is'hoq Ibrohim ibn Nasr hukmronlik qilgan. U qoraxoniylar poytaxtini Farg'ona vodiysidan Samarqandga ko'chirdi. Uning vafotidan keyin o'g'illari o'rtasida qonli kurash boshlandi. Bu kurashda Shamsulmulk Nasr g'olib chiqdi. Uning davrida (1068-1080) qoraxoniylar va saljuqiylar o'rtasida Termiz hamda Balx uchun kurash kuchaydi. Xuddi shu paytlarda Tamg'ochxon Nodir Yusuf va uning o'g'illari Shamsulmulk Nasrga qarshi urush boshlaydi va Sirdaryoning shimoliy sohilidagi yerlar hamda Farg'ona vodiysini undan tortib oladi.

Abu Is'hoq Ibrohim ibn Nasr va uning avlodlari bilan musulmon ruhoniylari o'rtasidagi ziddiyatlar Shamsulmulkning taxt vorislari Xidr va Ahmad (1081-1089) davrida benihoyat kuchaydi. Saljuqiy Sulton Malikshoh 1089-yili Movarounnahrda qo'shin tortib, Buxoro va Samar-

¹ Qoraxoniylar X asrning 90-yillarida Sharqiy Turkiyaga, Ertisuv va Taniri to'g'ri (Tan-Shan) janubiy qismida tashkil topgan feodal davlat asoschilari edi.

² Абдурахмон Сидди. Иссавий ким эди? Т., "Инкилоб", 1922, 2, 119 - 129, 130, 131-бетлар.

qandni zabt etdi. Lekin saljuqiylar tez orada sulh tuzib, Movaraunnahrdan chiqib ketishga majbur bo'ldi. Keyinchalik 1130-yildan boshlab, Sulton Sanjar davrida qoraxoniylar saljuqiylar davlatiga tobe bo'lib qoldi. Mamlakatda feodal tarqoqlik kuchaydi. Viloyat va o'lkalarning ko'pchiligi mustaqil davlatga aylandi. Ana shunday mustaqil viloyatlardan biri Buxoro bo'lib, bu yerda hokimiyat tarixda sadrlar (burhoniylar) nomi bilan mashhur bo'lgan ruhoniylar sulolasi (1130–1207) qo'lga o'tdi.

Qoraxoniylar hukumati inqirozga yuz tutib, feodal tarqoqlik iskanjasiga tushib qolgan bir davrda uning shimoli-sharqiy va g'arbiy tarafida ikkita yirik harbiy-siyosiy kuch paydo bo'ldi. Bulardan biri qoraxitoylar bo'lib (etnik tarkibi noma'lum), ba'zi ma'lumotlarga ko'ra, ularning asli tungus (ayrim tadqiqotchilarning fikricha, turklashgan no'g'oylar edi), ular XII asr boshlarida, dastlab, Chuguchak, ko'p o'tmay, Bolasog'un shahri bilan birga butun Yettisuv vohasini ishg'ol qildilar. Qoraxitoylarning oliy hukmdorlari Turxon deb atalgan. Ikkinchi yirik harbiy-siyosiy kuch Xorazm davlati edi. Ilgari saljuqiylarga tobe bo'lgan Xorazm 1127-yili mustaqillikka erishdi.

XII asr 30-yillarining dastlabki paytlaridan qoraxitoylarning Movarounnahrda talonchilik xurujlari boshlandi. Ular Shosh va Farg'ona bilanгина kifoyalanib qolmay, Zarafshon hamda Qashqadaryo vohalariga ham kirib bordilar. Qoraxitoylar 1138-yili Samarqandda Qoraxoniylar Mahmudxonni (1132–1141) tor-mor keltirdi va katta o'lpon olib, Yettisuvga qaytib ketdi. 1141-yili ular Samarqandga yaqin Qatag'on degan joyda Mahmudxon va Sulton Sanjarning birlashgan kuchlarini yengib, avval, Samarqand, so'ngra Buxoroni egalladi. Lekin ular Yettisuvdan Movarounnahrda ko'chib o'tnadi, balki har yili kelib o'lpon yig'ib ketish bilanгина kifoyalandi.

Xorazmshoh Otsiz (1127–1156) qisqa vaqt ichida Sirdaryoning quyi oqimida joylashgan Jand shahri va Mank qishlog'ini egalladi. Sulton Sanjar Xorazmni yana o'ziga bo'ysundirmoqchi bo'ldi, lekin bunga erisha olmadi. El Arslon (1156–1172) va Sulton Takash (1172–1200) vaqtida xorazmshohlar davlati ancha kengaydi va mustahkamlandi. Xorazmshohlar 1156–1192 yillar orasida Hind daryosidan Iroqqacha bo'lgan yerlarni bo'ysundirishga muvaffaq bo'ldi. Xorazmshoh Muhammad (1200–1220) Xorazm davlatini yanada kengaytirdi. U 1206–1212-yillari Buxoro va Samarqandni qoraxitoylardan tortib oldi. 1210-yili Yettisuvda Turxon qo'shinlariga qaqshatqich zarba berdi va bu bilan qoraxitoy-

larning Movarounnahrda egalik qilishga bo'lgan barcha da'volariga chek qo'ydi.

Lekin xorazmshohlar tuzgan bu ulkan saltanat qat'iy yagona ma'muriy-boshqaruv tartiblariga amal qiluvchi markazlashgan va mustahkam davlat emas edi. Chunki bosib olingan mamlakatlar etnik jihatdan turlicha bo'lib, ularning iqtisodiy va madaniy taraqqiyot darajasi ham har xil edi. Buning ustiga, hokimiyat tepasida turgan xorazmshoh Muhammad bu paytlarda erishgan yutuqlaridan kekkayib, davlat boshqaruvi ishlariga zarur darajada e'tibor qaratmay qo'ygandi. U unvrining oxirgi yillarida anchagina subutsiz va shijoatsiz shaxsga aylanib qolgandi. Shuning uchun ham bu davlat mo'g'ullarning kuchli zarbalariga o'z imkoniyatlari darajasida javob qaytara olmadi. Chingizxon boshchiligidagi mo'g'ul qo'shini qisqa fursatlarda Xorazm davlati tarkibida bo'lgan qariyb barcha o'lkalarini o'z tasarrufiga kiritdi. Shunga qaramay, Muhammad xorazmshohning o'g'li va bo'lg'usi taxt vorisi Jaloliddin Manguberdi dushman bilan ayovsiz kurashlarda mislsiz qahramonliklar ko'rsatib, xalq qalbida asrlar osha chin yigit, haqiqiy vatanparvar timsoliga aylanib yashab kelmoqda.

Qoraxitoylar davrida davlat tepasida xon Tamg'ochxon turgan. U rasman oliy hukmdor hisoblansa-da, aslida nomigagina shunday bo'lib, ulus hokimlarining¹ ijtimoiy-siyosiy hayotda tutgan mavqeyi kuchli bo'lgan. Ulardan ayrimlari mustaqil siyosat yuritgan. Farg'ona² iligxonlari ham shular jumlasidan edi. Qoraxitoylarning davlat tuzilishi haqida ma'lumotlar juda kam. Lekin ularning tarixiga oid manbalarda ma'muriy-boshqaruvdagi mansab, lavozim va biror amalni ifodalovchi "vazir", "sohibbarid", "mustavfiy" singari atamalarning mavjud bo'lishiga qaraganda, somoniylar davlatining tuzilishiga xos jihatlar qoraxitoylar davrida ham ba'zi farqlar bilan saqlanib qolganini ko'rsatadi. Bir tarafdin, qoraxitoylar davlat boshqaruvinin tubdan va keskin o'zgartirib yuborishlari mumkin emasdi. Chunki bu paytlarda islom dini O'rta Osiyo mintaqasiga keng yoyilishga ulgurgan, aholining katta qismi islom dinini qabul qilib bo'lgan va uning huquqiy qonunlariga rioya qilib yashardi (Ahmad Yassaviyning tariqatdagi va ijodiy faoliyati ham xuddi shu paytlarga to'g'ri keladi. Bunga quyida hali alohida to'xtalamiz.)

XI asr asrdan boshlab O'rta Osiyoda yerga egalik qilishning yangi shakli "iqto" (toj-u taxt oldida ko'rsatgan xizmati uchun shahzoda va

¹ Bu hokimlar - iligxonlar deb atalgan.

² Farg'ona iligxonlarining bosh qarorgohi Uzun shahri bo'lgan.

xonzodalar, amir va mansabdorlarga mukofot tariqasida beriladigan yersuv) taraqqiy eta boshladi. Qoraxitoylar, yuqorida aytilganidek, qoraxoniylardan farqli ravishda, bosib olingan yerlarga ko'chib kelmadilar. Faqat o'lp on olish (har bir xonadondan bir dinor miqdorida) bilangina kifoyalandilar.

XI–XII asrlar turli hukmron sulolalarning keskin siyosiy kurashlari va ular o'rtasida kechgan yirik harbiy to'qnashuvlarga boy bo'lishiga qaramay, Markaziy Osiy mintaqasida ilm-fan va madaniyatning gullab-yashnashi davom etdi. Mazkur asrda Buxoro, Samarqand, Urganch,¹ Marv, Nasaf, Termiz va Toshkent kabi shaharlar kengaydi, har tomonlama rivojlandi. Bu davrda Abu Rayhon Beruniy (973–1048), Abu Ali ibn Sino (980–1037), Mahmud Koshg'ariy² (XI), Yusuf Xos Hojib Bolasog'uniy (XI), "Hujjat ul-islom" Abu Homid Imom G'azzoliy (v. 1111), Abu Hafs Najmiddin Umar an-Nasafiy³ (1068–1142), Abulqosim Mahmud ibn Umar az-Zamaxshariy⁴ (1074–1144), Rashididdin Vatvot (XII), Xoja Yusuf Hamadoniy (1048–1140), Xoja Abduxoliq G'ijduvoniy (1103–1179), Xoja Ahmad Yassaviy (v. 1166), Sulaymon Boqirg'oniy (v. 1186) kabi ko'plab zabardast allomalar, shoirlar va tasavvuf ta'limotining ko'zga ko'ringan vakillari yashab ijod etdi.

Xullas, X–XI asrlarda Markaziy Osiyo hududlarida yuzlab mutafakkirlar, allomalar va adabiyot hamda madaniyatning turli sohalaridagi ko'plab ijodkorlar o'z ijodiy faoliyatlari bilan butun islom olami, Sharqu G'arbnl lol qoldirgani, olis o'zga o'lkalarda ham beqiyos shuhrat qozongani, ma'naviy tarbiya, ilm-fan, adabiyot va san'atning rivojlanishiga o'zlarining munosib hissalarini qo'shgani ko'rinib turadi.

Tadqiqotda asosiy e'tibor qaratilayotgan XI–XII asrlarda Markaziy Osiyoda ma'naviy, ma'rifiy tarbiya ishlari izchil rivojlanishda davom etganiga guvoh bo'lamiz. Bu mavzuda gap borganda, albatta, Imom G'azzoliy ("Kimyoi saodat"), Abu Hafs an-Nasafiy ("Matla' an-nujum va majma' al-ulum"), Mahmud az-Zamaxshariy ("Muqaddimat ul-adab")

¹ XI–XII asrlarda yashagan va Chingizxon bosqini arafasida bir necha oy (k'xna) Urganchda yashagan mashhur olim E'kut al-Xamaviy U'na pайtda bu shaharda 2 millionidan ortiq aholi yashagan haqida ma'lumot e'lib koldirgan.

² U 1029–1038-yillar oralig'ida tug'lgan, deb taxmin qilinadi.

³ U'z davrida "Imom un-nas va jin" (Insonlar va jinlar imomi) nomi bilan shuhrat qozongan. U ibodatga imomlik kilaётган pайtda odamlar orkasidan jinlar ham ibodat kilish uchun safga tizilib turishar экан.

⁴ Mahmud az-Zamaxshariyning zamonlolarini uning izmlagi m'azkenni k'rsatish va ifodalash uchun "J'ru'uloh" (Ollolx'ning k'ushnisi) lakabi bilan atagan va bu bilan unga nisbatan ishlarining yuksak ehtiromini bildirishgan.

kabi yana bir qancha ijodkorlarning ko'plab asarlarini namuna sifatida ko'rsatsa bo'ladi.

1219–1227-yillar oralig'ida Chingizxon boshchiligidagi mo'g'ul-tatarlar qo'shini Yettisuv, Koshg'ar, Movarounnahr, Xorazm, Xuroson, Sind daryosi sohillari va Kavkazgacha bo'lgan hududlarni shafqatsiz janglar bilan qo'lga kiritdi. Bu o'lkalarda ilm-fan, madaniyat, adabiyot va san'at taraqqiyoti qisqa muddat to'xtab qoldi. Ammo hayot davom etardi. Kishilik jamiyati taraqqiyotini sekinlashtirish mumkindir, biroq uni bir joyda to'xtatib turishning sira iloji yo'q. Ahmad Yassaviy asos solgan “yassaviya” tariqati, ushbu maktab vakillari tomonidan qoldirilgan boy, rang-barang ma'naviy meros ham xuddi shunday tarixiy xatarli va fojiali taloto'mlar orasidan o'tib, bizning davrimizgacha yetib keldi.

Ajdodlarimiz orasidan yetishib chiqqan ulug' allomalar, islomdagi tasavvuf maktabining yirik namoyandalari asarlarida aks etgan ijtimoiy qarashlarda diniy tushunchalar, shariatning huquqiy me'yorlari hamisha falsafa va ma'naviy tarbiya bilan bog'liq holda o'zaro uyg'unlikda rivojlanib kelgan. Ular insoniyat taraqqiyoti tarixining bir bo'lagida mutlaqo yangi va o'ziga xos ma'rifiy, tarbiyaviy ta'limotlar yaratdilar. Ularning ilmiy qarashlari, ta'lim-tarbiya sohasidagi g'oyalari amalda XXI asrga qadar yashab kelayotir. Ahmad Yassaviy va “yassaviya” tariqati ma'naviy, ma'rifiy merosi ham shular qatoridadir.

Professor N.Komilovning ta'kidlashicha, so'fiylar o'zlarini har doim faylasuflarga va kalom ahliga (shariat ahli, ulamolari) qarama-qarshi qo'yib kelganlar. Chunki kalom ahli Qur'on oyatlari, payg'ambar hadislarini zohiran o'rganish, olamning yaratilishi va tuzilishini faqat diniy tasavvurlar bilan tushuntirishdan nariga o'ta olmas edilar. Ular islomni ham, iymonni ham aql bilan qabul qilish va xalqlarning rasm-rusumlari, odatlarini mustahkam saqlash uchun kurashganlar. So'fiylar ahli kalomni “muqallidlar”, ya'ni “o'tganlarga taqlid qiluvchilar”, “quruq aqidaparastlar” deb ataganlar. Faylasuflar (Forobiy, Ibn Sino, al-Kindiy, Ibn Rushd va yunon donishmandlari Aflotun, Arastu va boshqalar) tajriba va kuzatuv, mantiqiy tahlil va umumlashmalar orqali tabiat, inson va jamiyatni tadqiq etish yo'lidan borganlar.¹

Professor Abdurauf Fitratning ta'kidlashicha, “Ahmad Yassaviyning adabiy faoliyati jabrlanib, hayotdan bezib, umidsizlangan sinf orasida bo'ldi. Yassaviy jamiyatning yuqoridagi voqealaridan zararlanma-

¹ Комилов Н. Тасаввуф. Ф.Фулдом номидаги Адабиёт ва санъат ҳамда “Ўзбекистон” нашриёти. 1–2-китоблар. Т., 1996–1999, 3-бет.

gan, balki foyda ko'rgan beklar, oqsuyaklar, askar boshliqlari, ularning quyruqlari bo'lib yashagan mulla, eshonlar qatorida bo'lmadi, ul mazlum sinfning orasida bo'ldi", – deb ta'kidlaydi.¹

Professor Fitratning "ul mazlum sinfning orasida bo'lgan", deb aytayotganiga e'tibor beraylik. Shu o'rinda: "Islomiy ta'limotni chuqur egallagan Ahmad Yassaviy nega dinni himoya qilib, ochiq kurashga otlanmadi-yu, qanoat va zuhdni asosiy maqsad qilib olganlar safiga qo'shildi?" degan savol tug'iladi.

Bizning fikrimizcha, tasavvuf o'sha davr sharoitida islom qoidalari, shariat qonunlari va tartiblarini buzmaganda, norozilik bildirishning qulay vositasi bo'lib, u keng xalq ommasi uchun tushunarli va ularning dunyoqarashini aks ettirar edi.

Albatta, Yassaviyning qanoat va zuhdni afzal bilishiga boshqa omillar ham ta'sir ko'rsatgan bo'lishi mumkin. Masalan, har qanday kurash kishilarni bevosita vazifasidan chalg'itadi, jamiyatdagi ishlab chiqarish jarayonida to'liq ishtirok etishiga to'sqinlik qiladi. Tasavvuf yo'liga kirganlar esa mehnat bilan mashg'ul bo'lardilar. Mavjud manbalarning shohidlik berishicha, islomda kasb-hunar egallash, uning vositasida oilalarini halol mehnat bilan boqish shart qilib qo'yilgan. Masalan, payg'ambarimiz Muhammad alayhissalom tabiblik bilan shug'ullanganlar. Bu kabi xislatlarni tasavvufning yana ko'plab mashhur vakillarida ham ko'ramiz. Keyingi davrlarda izchil chop etilayotgan va bizga ma'lum bo'lgan ko'pgina nashriy manbalardan ma'lum bo'lishicha, so'fiylar ham dinning kasb-hunar va halol mehnat orqali oilani boqish shartlariga sidqidildan rioya etishgan. Jumladan, Mansur Halloj paxta savash, Bahouddin Naqshband naqsh solishni kasb qilib olganlar. Yassaviy esa chiviqdan suzgich to'qish, qoshiq va cho'nich yo'nib sotish bilan tirikchilik qilgan.

Nega Yassaviy o'zi halol mehnat bilan tirikchilik o'tkazgan holda, ta'limotiga, tariqatiga qanoat va zuhdni asos qilib oldi? Yassaviy "Hikmatlar"ni mazmunini tahlil qilsak, undagi g'oyalarning asosiy tarkidunyochilik ekaniga ishonch hosil qilish mumkin. Lekin bu Yassaviy odamlar va barcha maxluqotlar yashayotgan ushbu dunyodan, uning g'am-tashvishlari, dolzarb muammolaridan tamoman yuz o'girgan ekan, degan xulosaga olib kelmaydi. Aksincha, inson masalasi uning qarashlarida markaziy o'rinni egallaydi. Yassaviy o'zining "Hikmatlar" to'pla-

¹ Fitrat A. Yassaviy kim edi? T., "Meros", 1994, 23 – 24-betlar.

mida insonparvarlik g'oyalari, axloq va xulq-odob qoidalarini targ'ib qiladi.

Masalaning mohiyatini to'g'ri tushunmoq uchun kengroq izoh berish, birinchi galda, Ahmad Yassaviy yashab o'tgan muhit xususida fikr yuritish joiz. Yassaviy yashagan davrda turkiy xalqlarning bir qismi hali islomni qabul qilmagan, ko'chmanchilik holatida yashar edi. Ayrim qabilalar esa islom dinini qabul qilgani bilan hali ular ongida islom aqidalari mustahkam o'rin olmagan edi. Shuning uchun Yassaviy tariqati bir yo'la ham tasavvuf, ham din targ'iboti tarzida maydonga keldi. J.S. Trimmingem xuddi shu holatni nazarda tutib: "Yassaviylik ta'limoti talay diniy, ijtimoiy va madaniy asoslarga ega. U turkiy qabilalarning musulmonlashuvida, turkiy ko'chmanchilar orasida islomni targ'ib etishda muhim o'rin tutadi", deb ta'kidlagan edi.¹

Demak, Ahmad Yassaviy o'z tariqati tamoyillarini yaratishda, avvalo, "aholining ruhiy-ma'naviy darajasi, diniy-ma'rifiy tayyorgarligi"ni nazarda tutgan. Shuningdek, ko'chmanchi chorvador tabaqalarning iqtisodiy imkoniyatlarini hisobga olgan. Aholi zich joylashgan hunarmandchilik yoki dehqonchilik bilan tirikchilik qilinadigan yerdarda esa darveshlar xalqning xayr-ehsonlari hisobidan yashab turganligi uchun ular yassaviylikning barcha talablarini bajarish imkoniga ega bo'lmagan. Natijada, yassaviya, asosan, Turon zaminining ko'chmanchi chorvador elatlar orasida vujudga kelib yoyildi. Abduxolik G'ijduvoniylar va Naqshbandning kishilarni mehnatga, hunarmandchilik bilan shug'ullanishga davat etuvchi ta'limotlari esa ko'proq shaharlarda va tevarak-atroflarda tarqaldi. Albatta, o'quvchiga naqshbandiya va yassaviya tariqatining shakllanishi va atrofga tarqalishini bunday "jug'rofiy-etnik" chegaralash orqali tushuntirish ilmiy jihatdan juda ham to'g'ri uslub bo'lmasa kerak...

Yassaviya tariqatining, dastlab, turkiy xalqlar o'rtasida yoyilishi sabablari xalqning ruhiy-ma'naviy ehtiyojlari va yana bir tarafdin Ahmad Yassaviy aynan shu hududlarda tug'ilib, kamolga yetgani bilan ham bog'likdir. Yuqorida aytganimizdek, Ahmad Yassaviy o'z ta'limotini hali islom dinini qabul qilmagan, arab tilidan, islomiy qoidalardan ancha yiroq bo'lgan ko'chmanchi chorvadorlar orasida targ'ib etgan. Har qanday ta'limotni, jumladan, islom falsafasini ham to'la-to'kis o'zlashtirish uchun o'sha ta'limot yoxud falsafa mujassamlashgan tilni (bizning miso-

¹ Trimmingem Ж.С. Суфийские ордена в исламе М., "Наука", 1989, с. 156.

limizda arab tilini) mukammalroq bilish taqozo qilinadi. Ahmad Yassaviy tariqatining turkiy tilda ifodalangani, xalq ruhiy-ma'naviy, diniy-ma'rifiy darajasiga muvofiq kelishi uning tasavvufiy g'oyalari atrof hududlarga tez tarqalishini ta'minladi.

Mustaqillik davridan o'zbek va qozoq matbuotida ham Ahmad Yassaviy hayoti va ijodiy faoliyatiga oid ko'plab tadqiqotlar va maqolalar e'lon qilina boshladi. Ularda ham yassaviya tariqati, uning mohiyati, dunyoga tarqalishi sabablari turlicha talqin qilinib kelmoqda. Ulardan ayrimlari biz yuqorida bildirgan fikrlarni qo'llab-quvvatlaydi. Jumladan, shoir Tohir Qahhor bu borada shunday deydi: "Islomni qabul etgan turk eli avvalgi yozuvi, adabiyoti, xullas, ma'naviy va ruhoniy hayotidan ayrilgan edi – mavjud arab va fors tili mafkuraning ma'naviyat vositalarining tub el tilidan uzoqligi sababli dilidan ham uzoqlashgan. ... Yassaviy davrida ham mafkura va madaniyat vositalarining arab yo fors tilida ekanligi xalqni o'z ona tilidagi bilimlarga, ayniqsa, o'ziga yot tillarda o'qib ololmayotgani islomiy bilimlarga chanqoqligini yanada kuchaytirgan edi. Ahmad Yassaviyning "Hikmatlar"i, ya'ni keyinchalik "Devoni hikmat" tarzida kitob qilingan she'rlari mazmunan va ruhan islomiylik, ohanglari va she'r iy shakli jihatdan turklarning eski, an'anaviy she'r usullariga asoslanganligi uchun ham darhol xalq diliga kirib bordi. Bu she'rlar Yassaviyga zamondosh turk ellariga va undan so'ngroq butun dunyodagi turkiy millatlarga ma'naviy yashash yo'li sifatida xizmat qildi".¹

Yassaviy ta'limotining keng yoyilishiga sabab bo'lgan omillardan yana bittasi, uning islomgacha bo'lgan xalq rasim-rusumlari, turmush tarzi bilan yaqinligi, ular bilan uyg'unlashib ketganidadir. Masalan, tarki-dunyochilikning bir ko'rinishi – uzlatga chekinish Turkiston hududida islomdan ilgari budda hamda nasroniy diniy-orifchilik an'analari bilan ham bog'liq bo'lishi mumkinligini yoddan chiqarmaslik lozim.

Albatta, Yassaviy ham o'z qavmi uchun "eng maqbul, eng o'ng'ay" yo'l – tariqatni birdaniga topgan yoki yaratgan emas. Bu borada u ustozlaridan madad olgani, muntazam ravishda ilmini rivojlantirib, takomillashtirib borgan va keyinchalik katta tajribaga ega bo'lib, irshod bilan shug'ullangani manbalarda ko'p bor qayd etiladi.

¹ Тоҳир Қаҳҳор. Аҳмад Яссавий. "Ўзбекистон адабиёти ва санъати" газетаси, 1990, 26 октябрь.

1.3. Ahmad Yassaviy ta'limotining ma'naviy-axloqiy asoslari

Xoja Ahmad Yassaviy tariqatini batafsil o'rganish uchun, avvalo, "tasavvuf" tushunchasining lug'aviy ma'nosini, so'ngra mohiyatiga berilgan ta'riflarning ma'naviy-axloqiy asoslarini qarab chiqmoq kerak.

Ilk so'fiylardan Hasan Basriyning aytishicha, payg'ambar bilan Badr jangida ishtirok etgan 70 sahoba kiyimi sufdan ekan. Muhammad payg'ambarning e'tiborli sahobalaridan Abu Mas'ul Ash'oriyning xabar berishicha, Rasuli xudoning o'zi ham doimo sufdan to'qilgan libos kiyib yurgan. "G'iyos-ul lug'at"ning muallifi: "So'fiy – xirqapo'shdir, zeroki, yungni suf deyishadi, fuqaroning istilohida o'z diliga nigoh qaratgan, xayolini Haqdan boshqa narsadan poklagan kishi so'fiy deb ataladi" – deb yozadi. Shuningdek, Muhammad G'iyosiddin sufiiy "sufa" so'ziga mansub bo'lib, so'fiylarning johiliyat ayyomida Ka'bada xalqni Haqqa da'vat etish bilan shug'ullanganliklari sababli tasavvuf ahli mavqeyiga erishganliklarini yozgan. Shu ma'noda, so'fiy muxlis mazmunida ham keng qo'llangan.

Abulhasan Ali Hajviriyning sharhlashicha, xirqapo'shlar – azaliy soflikka vosil bo'lganlar: ashobiy – suhfa, ya'ni tilovat va tavallochilar guruhiga ham sufiylar nomini berishgan.¹

Manbalarda faqat Xudo bilan bo'lgan, vujudi mutlaqning mavjudliginigina tan oluvchilar so'fiylar deb ataladi, degan fikr ham mavjud. Bulardan tashqari, so'fiy so'zi umuman, etimologik mohiyatdan mahrum bo'lib, undagi harflar psixofiziologik taassurot uyg'otadi, degan qarash ham bor. Bunga qarshi nuqtayi nazar bo'yicha "suf"dagi har bir harf aniq ma'noga egadir: "S" – sadoqat, siyonat, salo; "V" – vasl, vajd, vafu; "F" – farah, fataha, farajadan iborat.

Ayni chog'da, "suf"ni yunon tilida "safos" – donishmand so'zidan olingan, deb izohlovchilar ham xato qilmasliklarini ta'kidlamog joiz. Bu haqida Abu Rayhon Beruniyning quyidagi sharhini o'qiyimiz: "Yunoncha "suf" so'zi bizda hikmatdir. Shuning uchun faylasufga "pilosupo", ya'ni "hikmatni suyuqchi" deb ism berilgan. Shunga yaqin fikrga borganidan ular suffiya, deb atalganlar.

Musulmonlarning ba'zilar suffiya so'zining atama ekanligini bilmasdan, "sof" bilan yozib, uni suffa so'ziga nisbat berib, "Suffa suhbatdoshlari – ashobi suffadan iborat kishilardir", dedilar, Undan keyin

¹ Курбонмамдoв А. Эстетическая доктрина суфизма. Душанбе, 1987, с. 19.

bu soʻzni “Suf attuyustaka juni” soʻzidan qisqatirilgan deb tushunishdilar”.

Beruniy Abul fath Bustiyning “suf” soʻzini tushunishdagi chalkashlikni taʼkidlab, uning qoʻyidagi fikriga diqqatni qaratgan: “Odamlar soʻfiy soʻzida tortishib, qadimdan turli fikrda boʻlishib, uni suf, yaʼni jun soʻzidan olingan, deb gumon qildilar. Men soʻfiy soʻzini sofiy (yaʼni, sof, sodda) yigatdan boshqa narsa deb bilmayman. Shunday qilib, oʻsha “sofiy” lafzi xato yozilib, “sufiy” lafziga aylanib ketgan, nihoyat (bu soʻz), bizga maʼlum soʻfiylarga laqab boʻlgan”.¹

Tasavvuf tadqiqotchisi M.Hazratqulov Shahobiddin Suxravardiyning “Avorif ul-maorif”da: “Soʻfiy kalimasi muqaddas kalomda uchramaydi, lekin soʻfiylar taqvo ahlidandur”, – deb yozgan soʻzlariga diqqatni jalb etadi.³ Suxravardiy soʻfiy kalimasining “muqaddas kalom”da uchramasligini shunchaki eslatib oʻtmasdan, qaysi tilga mansubligini ham aytgan. Ozarbayjon olimi A.G.Aliyev “Suxravardiya tariqati toʻgʻrisida qaydlar” nomli maqolasida xuddi shu muammoni ochishga intilgan. U qadimiy turklarning dunyoqarashida suv muhim oʻrin tutishini tasdiqlovchi qator dalillar keltirib, “suf” – “suv” soʻzidan yasalgan, degan fikrni ilgari suradi.² Oʻlis oʻtmishda turkiy xalqlar suvning xaloskorlik va ilohiy qudratiga ishonganliklari maʼlum. Ularda suv insonni har qanday ofat, baxtsizlik, hatto oʻlimdan ham muhofaza etadi, degan sobit ishonch boʻlganligi isbotlangan. Qadimda ajdodlarimiz dunyoqarashlarida suv – jon, ruh, boylik, mayitlik ramzi, abadiy tiriklik najoti, hayot asosi edi.

Abdulqodir Gʻiloniy uqtirganidek, soʻfiyning ideali–dunyoga hirs-havasni magʻlub etib, taqdir qoʻrquvlaridan tozalanmoq ekanligi va qadimiy turkiy xalqlarda “shuv” yoki “suv” soʻzlari “uygʻonish”, “tiri-lish”, “muvaqqafiyat” maʼnolarini ham ifodalaganligi inobatga olinsa, Shahobiddin Suxravardiyning “soʻfiy”ga bergan izohi tasodifiy yoki yuzaki emasligi ravshanlashadi. Bugina emas, axir hamma soʻfiylar ham xirqa yopinavermagan-ku! Ammo ular ilohiy nur tajalliyisini, koʻpincha, suv orqali idrok qilganlar. Hatto baʼzi tariqat aʼzolari dastlabki harakati-ni tuz qoʻshilgan suv ichish bilan boshlaganlar bu vohid qudrat oldidagi ramziy poklanish hisoblanarkan. “Tasavvuf” soʻzining izohida boshqa maʼnolarni kashf etgan tadqiqotchilar ham mavjud. Ular “suf” istilohi

¹ Абу Райхон Беруний. Хикматлар. Т. 1973. 41 – 42-бетлар.

² Уша манба.

poklik, musaffolik, shuningdek, tuya juni ma'nolaridan tashqari, quyidagi mazmunlarni ham bildirishini qayd etishadi;

1) "so'fiy" so'zi "saff" (safda turish)dan olingan bo'lib, so'fiylar xudoga yaqin turuvchi insonlar, deb sharh etiladi;

2) "suf" degani, "sufa" (supa) so'zidan olingan, ya'ni Muhammad payg'ambar zamonida Yasrib – Madinadagi masjidning shimol tomonida katta bir so'fa bo'lib, unda har tarafdan kelgan va islom diniga e'tiqod qo'ygan kishilar yashaganlar. Ular payg'ambar oldida katta e'tibor qozonib, muttasil ibodat bilan mashg'ul bo'lishgan.¹ Qovurilgan arpadan tayyorlangan to'lqon ularning kundalik ovqati sanalgan. Ular turfa noz-ne'matlardan voz kechganlar. Bunday odamlar "ahli sufa" deb atalgan;

3) "so'fiy kalimasi, "sufvot"dan olingan, "sufvot" g'ashlik, xiralik va har qanday yomonliklardan toza, degan ma'noni ham beradi. Allohga ishonchlari har qanday shubhadan xoli kishilardir, degan fikr ham mavjud".

Yuqorida keltirilgan ta'riflarning barchasi ham asossiz emasligini ta'kidlagan holda, shuni aytilish joizki, ular orasida Abu Rayhon Beruniyning "Yunoncha "suf" so'zi bizga hikmatdir", degan fikri, bizningcha, mantiqqa muvofiqdir.

Zero, mutasavvuf'larga, ya'ni so'fiylarga "hikmatni suyuvi"lar sifatida qaraganimizda, bizning fikrimizcha, ular ta'limotidan falsafiy ma'no axtarish huquqiga ega bo'lib qolmay, ushbu falsafiy ma'no mohiyatini ham teranroq anglaymiz. Sufiylarga faqat "tuya junidan to'qilgan dag'al kiyimlarni kiyib yuruvchi"lar sifatida qarash esa ularning ma'naviy qiyofalarini ilmiy-nazariy jihatlardan chuqurroq anglashimizga xalaqit beradi.

Ahmad Yassaviy 1097-milodiy yili Turkistonda Sirdaryoning o'ng sohilida Sayram (qadimiy Isfijob) qasabasida² tavallud topgan. Otasi-ning ismi manbalar va bir qancha saqlanib qolgan shajaralarda Ibrohim ibn Mahmud ibn Iftixor tarzida ko'rsatiladi. Nasabi jihatdan kelib chiqishi payg'ambar Muhammad alayhissalomning kuyovi hazrati Alining imom Muhammad Hanifa ismli o'g'liga borib taqaladi. Shuningdek, shajaradan ma'lum bo'lishicha, Ahmad Yassaviy nasabda o'n bir bo'g'indan keyin Turkiston hududlarida ma'lum va mashhur bo'lgan avliyo Is'hoq bobga tutashadi. Onasi Qorasoch oyimning ham xalq orasida hur-

¹ Karant: Сейидев М.А. К вопросу трактовки понятий древнетюркских памятников "Советская поркотолия", Баку, 1973, с. 3.

² Хозир ушбу тарихий манзил Қозғистон Республикасининг Чизкент вилояти ҳудудда жойлашган.

1099/1

mati va nufuzi juda baland edi. Turkiston va Sayramda hozirgacha shoirning otasi Ibrohim shayx va onasi Qorasoch oyim mozorlaridan ziyoratchilar qadami uzilmaydi.

Shoir Tohir Qahhor maqolalaridan birida Ahmad Yassaviyning "xo'ja" deb atalishi tarixini quyidagicha talqin etishi e'tiborga molikdir: "O'sha davrda Sayram aholisi uch urug', uch sinfga bo'lingan. Birinchisi – nisbalari eski shohlarga borib taqaluvchi "shoh" urug'i. Ikkinchisi – eski amir va mirzolariga bog'liq "amir" urug'i. Uchinchisi – ajdodlarini Hazrat Aliga bog'laydigan "xo'ja" urug'i. Xo'ja urug'i, tabiiyki, boshqa urug'lardan sharafli bo'lgan: xo'jalar o'zlarini Imom Muhammad Hanifiy avlodlaridan deb hisoblaganlar. Mullo Muso bin Mullo Iso Sayramning "Tarixi amini" asarida bu haqda keng to'xtalgan".¹

Ilmiy va ilmiy-ommabop adabiyotlarda Ahmad Yassaviy tarjimaiy holiga oid turlicha ma'lumotlar uchraydi. Ayrim mualliflar uning 120 – 125 yil umr ko'rganini rivoyat qiladi.² Ba'zi tadqiqotchilar esa o'z ishlarida u taxminan 65 – 66 yil atrofida yashaganini uqtiradi. Biroq deyarli barcha adabiyotlar va bizga ma'lum bo'lgan manbalarda uning hijriy 562 (1166–1167)-yili vafot etgani qariyb bir xil tarzda ko'rsatiladi.³ So-biq sho'rolar saltanati o'rnida paydo bo'lgan mustaqil davlatlarda amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlarning birortasida hozirgacha Xoja Ahmad Yassaviy hayoti mukammal va qoniqarli darajada yoritib berilmagan va tarjimaiy holidagi muammolar haligacha uzil-kesil hal etilmagan. Shunga qaramay, uning ijodiy merosi deyarli barcha tadqiqotchilar tomoni-

¹ Yassaviy nasabnomasi turkumida kўnlab tarixiy manbalar saqlanib koltan. Birok ularning barchasi bir xil emas va ularning orasida ham ixtilofli ma'lumot kўp uchraydi. Masalan, ularдан birida: "Naxlaur, xazrat Sulon kaddas sirrahuvi umri sharifi latifalari 63ga kirganlarida. "On xazrat salolukho adaliki vassalam ham 63da vafot bulgan zanlar", – deb 63 da xilvatga kiradilar. Xilvat ichida ana 63 yil umr kўrub, 126 esha kiradilar. Xilvatka kirganlaridan кейин кайта чикмадилар, xilvatda vafot buldilar Jasadi muboraklari andin чикtilar.

Tarix vafoti xazrat Sulon Xoja Ahmad Yassaviy sanai 514 dur (1120), deb e'lonladi (Yassaviy nasabnomasi va Amir Yemur. Tabdil kilduvchi va nashrga tayёрlovchi Rasulmuhammad хoji Abdushukurov Ashurbой ўglin. T., "Хазина", 1996, 20-бет).

"Ахмад Яссавий хаёти ва ижоди билан махсус шугулланган Мирахмад Мирхолдторов бу муаммо тўғрисида: "Хазрат Ахмад Яссавийнинг ота юрти, туғилган Ватани Сайрамдир. Улуғ туркий шоирнинг еши хақда ҳам хар хил фикрлар бор. Айрим олимларнинг Ахмад Яссавий 63 йил яшаган деган фикрига қўшилмаймиз. Маълумо Хусомидин Сигнокий рисоласида Хожа Ахмад 130 йил умр кўрган дейди. Туркия олимлари, жумладан, яссавийшунос Муҳаммад Кўлириязода уния 120 йил ёшлар кўн яшаганинига далил келтиради. Туркистонлик Алиш бобо қўллаган китобда 128 йил яшаган деган сўзлар бор. Яқинда ўқганимиз Туркия комунида 105-бетда Хазрат 125–133 ёшларгача ер остида яшаганини ёзган... Демак, хулоса килиб айтганда, Хожа Ахмад Яссавий 126–128 йил умр кўрган" (Хожа Ахмад Яссавий. Чимкент, 1992, 11-бет). Бошқа талкиотчилар ишларида ҳам шу хаби фикрларни учратамиз.

³ Усмонов О. Ахмад Яссавий. Маънавият юлдазлари. Т., Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1999, 135-бет. Садриддин Салим Бухорий. Икки юз етмиш етти шир. Бухоро. "Бухоро", 2006, 97-бет.

dan e'tirof etilgan. Biz tadqiqotimiz davomida, asosan, masalaning ushbu tomoniga tayanib ish yuritamiz.

U boshlang'ich ilmi Sayram va Yassi mavzellarida oladi. So'ngra bobosi Arslonbob xohishi bilan Buxoroga borib, ta'lim olishini davom ettiradi. Bu paytda Xuroson va Movarounnahr ahli orasida shuhrat qozongan tasavvuf olamining dovrliq olimi Xoja Yusuf Hamadoni (1048-1141) mazkur shaharda yashayotgandi. U tasavvuf ahli orasida juda mashhur so'fiylardan biri hisoblanadi. Uning faoliyati haqida ko'plab manbalarda ma'lumotlar saqlanib qolgan. Jumladan, Faxruddin Ali Sa'fiyning bu boradagi aytganlari, ayniqsa, diqqatga sazovordir. U mazkur shayxni: "Hazrati qutb ul-avliyo Xoja Muhammad Porso qaddasallohu sirrahu kitobi "Fasl ul-xitob"da kelturub tururlarkim, xizmati Mavlono Sharaf ul-millat vad-Din al-Uqayliy al-Ansoriy al-Buxoriy ravvahallohu ruhahukim, kibori ulamodin tururlar va xonadoni xojagon qaddasallohu arvohahumdin erdilar. Alarning xati shariflari bila maktub tururkim, Shayx Yusuf Hamadoni qaddasallohu sirrahu o'n sakkiz yoshlarida erdilarkim, Bag'dodga bordilar va Abu Is'hoq faqihdin ilmi fiqh o'qudilar va ilmi nazarda darajayi kamolg'a yetushdilar. Va Abu Hanifaning mazhabida erdilar va Isfahonda va Buxoroda ilm o'rgandilar. Iroq va Xuroson va Xorazm va Movarounnahrda sohibi qabul erdilar. Va necha mud-datlar Ko'hizarda sokin bo'ldilar va shayx Abdulloh Juvayniydin xirqa kiydilar va tasavvufda intisoblarini Shayx Abdulloh Juvayniy va Shayx Hasan Samosiy va Shayx Abu Formadiy rahimahumullohg'a qilur erdilar va valodatlarida sana to'rt yuz qirqda (1049) erdi va vafotlarida sana besh yuz o'ttuz beshda (1139) erdi",— deya yuksak maqomlarda ta'riflaydi.¹

O'z davrining juda ko'p mashhur kishilari, ijodkorlar va olimlar Yusuf Hamadoni atrofiga yig'ilgandi. Ijtimoiy hayotning diniy, mazhabiy, tasavvufga oid masalalari bo'yicha, falsafiy va yana bir qancha fanlardan ilm toliblariga ta'lim berish bilan mashg'ul edi. Shogirdlari — Xoja Abdulla Barqiy² (v. 1160), Xoja Hasan Andoqiy³ (1069–1158),

¹ Фихриддин Али Сафий, Рашихоту айнил-хавт. Т. 1. "Абу Али ибн Сино", 2004, 19-бет (булдан сўни кискагина "Рашихот" шаклида келтирамиз).

² Хожо Абдуллох Баркий Бухорода яшарди. Юсуф Хамадоний Бухорога келгач, унинг биринчи халифасига айланади. Қабри Бухоро шаҳридаги Калобод дарвозаси ташқарисидо Абу Исхок Калободий мазори ёнида жойлашган. (Рашихот, 20-бет)

³ Юсуф Хамадонийнинг иккинчи халифаси эди. Устози билан Хоразм, Бағдод ва Бадхшон ўлкаларида бирга булган. У тўғрисида "Китаб ал-ансоб" муаллифи Абдукарим ас-Самъоний кизиқари маълумотлар ёзиб келдирган. Унинг қабри Калобод дарвозаси ташқарисидо шайх Абу Исхок Калободий мақбараларида устози кибритининг кунчиқар тарафидо булган (Рашихот, 22-бет); Садриддин Салим Бухорий уларнинг иккисининг ҳам қабри шўролар дарида йўқ килиб юборилгани ва сақланиб қолмагани хақида ёзади (Икки юз еттинч

Xoja Ahmad Yassaviy va Xoja Abdulxoliq G'ijduvoniyl (v. 1179) bo'lganligi, oxirgi ikkisi, ayniqsa, mamlakatlarga tanilib, xos-u omma ichida tanilib ulgurandi.

Rivoyat qilishlaricha, Muhammad payg'ambar tasodifan emas, balki o'z nasliga yaqin bo'lganligi uchun Ahmad Yassaviyning ruhini ko'rib, farzandim deb atagan, uning imonli, e'tiqodli va, albatta, ilmli ummatlaridan biri hamda uning fayzosa ilmidan dunyo ahli bahramand bo'lishini bashorat qilgan ekan. Shu sababdan unga bir xurmoni yetkazishlarini so'rab, Arslonbobga omonat qoldirgan ekan. Bu xurmo, aslida, ramziy ishoradir, ya'ni rasulullohning omonati – uning ilmi, e'tiqodi, amallari, ezgu g'oyalari. Hadislarda aytilganidek, olimlar u kishining haqiqiy merosxo'rlaridir. Xoja Ahmad Yassaviy xuddi shunday merosxo'rlardan biri edi.

Hikoyatlarga ko'ra, Muhammad payg'ambarga hazrat Jabroil janatdan keltirgan xurmolardan bir donasi yerga tushadi. Shunda payg'ambar bu xurmo Yassaviy qismati ekanini bashorat qiladi. Shoirning "Hikmatlar"ida ham bu haqda "Me'roj uzra Haq Mustafo ruhim ko'rdi", deb rivoyat qilinadi, ya'ni Muhammad payg'ambar bir kechada Quddusga va u yerdan Alloh huzuriga – "Me'roj"ga ko'tarilganida, Yassaviy ruhini ko'radi va uning dunyoga kelishini bashorat qiladi.

Orif Usmon: "Xoja Ahmad Yassaviyning aniq ilmiy tarjimai holi shu paytgacha Sharq tasavvufi she'riyati muxlislari oldida ma'lum bo'lmay kelayotganligini taassuf bilan qayd etishga to'g'ri keladi",² – deganda, ana shu rivoyatni nazarda tutgandi. Xoja Ahmad Yassaviy tarjimai holini aniqlashda uning "Hikmatlar"ini ham nazardan chetda qoldirmaslik kerak. Unda shoir o'zining ahvoli haqida ham ba'zi ma'lumotlarni yozib qoldirgan:

Bir yoshimda arvoq menga ulush berdi,

Ikki yoshda payg'ambarlar kelib ko'rdi,

Uch yoshimda chilton kelib holim so'rdi...

To'rt yoshimda Haq. Mustafo berdi xurmo...

Besh yoshimda belim bog'lab toat qildim...

ettin sир. 97-бет)

¹ Xoja Abdulxoliq G'ijduvoniyl zambalarda "Xoja Jaxon" lakabi bilan ham kўp tilga olinadi. Xoja-sonlar tarikatining buyuklaridan edi. Keyinchalik bu tarikat *naqibandiy* nomi bilan mashhur buldi. Yusuf Hamadoniyning uchinchi xalifasi edi. Kabri Buxoro viloyatining G'ijduvon tumani da joylashgan, har doim ziyoratchilar bichan gavjum bulgan fayzli bir maskanidir.

² Usmon Orif. Vaxdet sharbatini yadim (Yassaviy tarikati). T., "Muloqot". 1991, 6-sav, 6-бет; Zohiyon A. Turkiystonda urta asr arab-musulmon madaniyati. T., 1994, 68-бет.

Olti yoshda turmay qochdim xaloyiqdan...

Yetti yoshda Arslon bobom izlab topdi.¹

Muallifning ushbu satrlaridan ko'rinib turibdiki, uni yetti yoshida Arslon bobosi izlab topadi. Garchi bu bir rivoyat tarzida hikoya qilinsada, u hikmatlar ichida kelmoqda. Allohning rasuli Muhammad alayhis-salom 63 yoshida foniylar dunyodan baqo olamiga rixlat etishi oldidan ashoblarini chaqirib: "Qay biringiz omonatimni² kelgusi izdoshlarimdan biriga yetkazgaysiz?"--deb so'raganlar. Shunda avliyo Arslonbob bu yumushni zimmasiga olgan. Rivoyatlarga ko'ra, o'sha paytda sayyoh darvesh (qalandar) Arslonbob dunyodagi o'ttiz uch xil din bilan tanishib, shular orasidan islom dinini tanlagan ekan. Payg'ambar shundan so'ng omonatini Arslonbobga topshirib, ko'ngillari tinchigach, Alloh dargohiga yo'l olibdi. Oradan 400 yil o'tgach, hazrati Arslonbob cho'lda yetti yoshli Ahmad Yassaviyni uchratgan. Go'dak Ahmad avliyo Arslonbobni tanib: "Ustoz, mening omonatimni bering!" -- deb so'ragan ekan.

Arslonbob yetti yoshgacha juda teran ma'naviy ta'lim olishga ulgurgan Ahmadni ko'rib, uni o'z tarbiyasiga oladi. Bir yil davomida ustozlik qilib, uni ma'naviy dunyoning yanada yuksak maqomiga yetkazadi. So'ngra sha'riy va tariqat ilmlarini mukammalroq o'rganish uchun Buxoroga jo'natib yuboradi. Xuddi o'sha paytlarda Yusuf Hamadoniylar Buxoro shahrida edi.

Shunday qilib, Ahmad Yassaviy 1124-yili 27 yoshida Buxoroga Yusuf Hamadoniylar huzuriga keladi va uzoq vaqtdan so'ng taxminan, 1158-yili Yassiga, o'z vataniga qaytadi. Ko'pchilik mualliflar Xoja Ahmad Yassaviyning Buxorodan yurtiga qaytishini shunchaki qayd etib o'tishadi. Lekin "qaytish"ning sababi aniq ko'rsatilmagan. Sho'rolar davrida esa mazkur holatni izohlashga urinishlar bo'lgan. Masalan, Po'lotjon Domulla Qayyumov bu voqeani: "Buxorog'a borib ilm tahsil etdi. Bunda tasavvufning mashhur shayxlaridan bo'lmish eronli xoja Yusuf Hamadoniylar qo'l berib, halqa tadrisdan bo'ldi va xizmat etdi va muridiy tarbiya etishga ruxsat oldi. Buxoroda xonaqoh qurib shayxlik etish boshladi. Bu bilan birga ham nabirasi bo'lmish xoja Abdulxoliqlar G'ijduvoniylar nomli bir kishi ham shayx edi. Bular orasida muxosimat paydo bo'ldi (Bu to'g'rida tasavvufga doir tazkira va manobalarda ko'p voqe'alar yozilmishdir). Bu ikki shayx bir shaharda turishi bo'lmay qol-gach, shahar savdo-sanoat namoyandalari ulamolar Abdulxoliqlar G'ijdu-

¹ Ahmad Yassaviylar. Xizmatlar. T. 1990. 51-bet.

² Albag'at. bu omonat - islom dini asoslari, o'lamiyat, uzal xalq ilmi.

voniyning tomonida bo'ldilar. Sahroviiy hayot kishisi bo'lmish xoja Ahmad bularga maqbul bo'lmadi. Oxirda butun muridlarining xoja Abdulxoliqqa topshirib, o'z vatani bo'lmish Turkiston shahriga keldi. Bundayi turk qabilalari yaxshi kutdilar. Rivojlanib, shuhratlanib ketdi";– deb tushuntirmoqchi bo'ladi.¹

Bizning fikrimizcha, Xoja Ahmad Yassaviyning Buxorodan Turkistonga ketishi sababini bu tarzda izohlash mutlaqo o'rinsizdir. Avvalo, u mustaqil irshod qilishi uchun ustozidan ijozat olgan edi. Buning ustiga, u Turkistonda kuni o'tmay qolganidan Buxoroga yashab qolish uchun bormagan edi. U bor-yo'g'i Buxorodan ilm olib kelish uchun borgan va bu vazifani muvaffaqiyat bilan uddaladi. U o'rgangan ilmlarini jamiyat rivoji uchun juda muhim bo'lgan hayotiy zarurat va ehtiyoj, deb hisoblagan. Bu uning "Hikmat"larida ham yorqin aks etib turadi.

Yana bir toifa tadqiqotchilar Ahmad Yassaviy g'oyalari, asosan, ko'chmanchi chorvadorlar; Abdulxoliq G'ijduvoni ta'limoti esa ko'proq shahar aholisi va o'troq hayot tarzi olib boruvchi qavmlar uchun manzur bo'lganini talqin qilishadi. Agar vatanimiz tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, Ahmad Yassaviy asos solgan tariqat – "yassaviya"ning ko'plab buyuk vakillari Turkiston, Sayram, Toshkent, Xorazm, Samarqand, Buxoro, Nasaf, Kasbi, Kesh, Qo'qon, Xo'jand, Balx va boshqa bir qancha shahar hamda viloyatlarda hayot kechirgani va mazkur tariqatning bu o'lkalarda ham juda mashhur bo'lganiga duch kelamiz. Bu holat yuqoridagi kabi talqinlarning xato ekanligini ko'rsatadi.

Shu nuqtayi nazardan, go'yo Ahmad Yassaviy xojagonlik (xo'jalar yo'li) tariqatiga asos solgan, uning sakkiz darajasi maqomini aniqlab, xususiyatlarini ta'riflab bergan Abdulxoliq G'ijduvoni maslagi bilan o'zaro manfaat talashib to'qnashishi mumkinligi to'g'risidagi gaplarning ilmga aloqasi yo'q. Ular o'rtasida xo'fiy² va jahriy³ zikr masalasida ham ixtiloflar mavjud bo'lishi mumkin emas. Chunki Yusuf Hamadoni ta'limotida hali xo'fiy va jahriy zikrdan qay biri afzalligi xususida qizg'in bahslar paydo bo'lmagandi. Xuddi shunday, Xoja Ahmad Yassaviy va Abdulxoliq G'ijduvoni ham ularning qay biri afzalrog'–u, qay biri xa-

¹ Пулатжон Домудла Каюмов. Таъқрифи Қайюми. Т. ЎзРФА Қўлезмалар институти таъририй нашриёт бўлими. 1998, 26-бет

² Хўфий зикр, асосан, Баҳоуддин Нақшбанд асос солган "нақшбандия" тариқатида солиқнинг муҳим амалларидан бири сифатида катъий шартланади. Буни солиқ белгиланган барча зикрларни овоз чиқармасдан ичида, ҳеч кимга билдирмай айтилади.

³ Яссавия тариқати вакиллари, асосан, овоз чиқариб зикр тушишган. Барча манбаларда овоз билан айтиладиган зикр жаҳрий, сўзи билан ифодаланган.

tarliroq (yoki botil) ekani haqida targ'ibot olib borgani hech bir manbada kuzatilmaydi. Ehtimol, olam va jamiyat haqida ularning dunyoqarashlarida farqlar bo'lgandir. Bunday bo'lishi tabiiy hol edi, albatta. Biroq bu dohida ilmiy tadqiq va talqin etilishi lozim bo'lgan masala hisoblanadi. Zikrlar masalasidagi behuda, hech bir samarasiz tortishuvlar, shayxlarni to'chmanchi va o'troq xalqlarga xos xususiyatlarga ajratish sira to'g'ri emas. Bunday masalalar ilm susayib, mayda-chuydalarga tobora qalintroq o'ralib borayotgan XIX va o'tgan buyuk ateistik XX asr tadqiqotchilari va kitob ahliga xosdir. Aslida bularning barchasi behuda bahslar ekani Fخرuddin Ali Safiyning quyidagi gaplaridan bilib olish qiyin emas. U Xoja Ahmad Yassaviy haqida: "To Arslonbob qaydi hayotda ordilar Xoja (Ahmad) bir sabili davom alarning mulozamatlarida qiyom ko'rguzdilar. Vafotlaridan so'ng ham alarning ishoratlari bila Buxorog'a keldilar. Va suluklari Xoja Yusufning xizmatlarida tamom bo'lub, darajayi takmil va irshodg'a yetushdilar.

Bu xonadon mashoyixlari qaddasollohu arvohahumning mutaaxirlaridind ba'zising risolasida mazkurdukim, Xoja Abdulloh Baraqiy va Xoja Hasanning vafotlaridind so'ng, vaqtekim, navbati xilofat Xoja Ahmad Yassaviyg'a yetushdi. Buxoroda xalqni da'vat etmakka mashg'ul bo'ldilar. Necha vaqtlardind so'ng alarg'a ishorati g'aybiy bo'lub, Turkiston tarafg'a azimat etdilar. Ketar vaqtida hamma ashoblarni hazrati Xoja Abdulxoliq G'ijduvoniyy quddisa sirrihumning mulozamat va mutob'atlarig'a buyurdilar. Andind so'ng jonibi Yassig'a tavajjuh qildilar", — deb anchagina ishonchli tarixiy ma'lumot beradi.¹

Bu ma'lumot yuqorida ko'rilgan masalalarga deyarli to'liq aniqlik kiritadi. Bundan tashqari, tarixiy manbalarga tayanadigan bo'lsak, Xoja Ahmad Yassaviy va Xoja Abdulxoliq G'ijduvoniyy ham tasavvuf ahli zikrning istagan shaklini ixtiyor qilishini qo'llab-quvvatlaganini ko'ramiz. Bu ulardan keyingi davrlar va bugungi kun kishisi uchun bag'rikenglik, sabr-toqatning jamiyat hayotida qanchalar muhim o'rin tutishini anglab olishimiz uchun ajoyib namuna bo'lib xizmat qiladi.

Ahmad Yassaviy ta'limotining asosiy maqsadi islom dinini xalqlar o'rtasida kengroq yoyish, bosh g'oyasi esa jamiyatdagi shaxsning axloqini tarbiyalash edi. Shunday bo'lmaganida edi, u Turkistonga qaytgandan so'ng Yassida xonaqoh va madrasalar qurdirib, ilm toliblarini to'plamagan va yuzlab shogirdlarni tarbiyalashga kirishmagan bo'lardi.

¹ Duhayot. 23-6er.

Yassaviy tariqati juda murakkab va tez-tez o'zgarib turgan tarixiy-ijtimoiy muhitda shakllangan. To'g'ri, tasavvufning visolga yetkazguvchi olis va mashaqqatli yo'lida uning borlig'ini har lahzada lovullab yondirib, kuydirib turgan ilohiy ishq azoblariga faqat Yassaviy duch kel-magan. Bu yo'lida "33 ming sahoba ham yoronlar" ham g'ariblikka mahkum va g'urbatning azob-uqubatlarini ta'tib ko'rishga majbur bo'lishgani ma'lumdur. Ayni paytda, Yassaviy ijodida ko'p ma'nolilik (polifoniya) hukmronligi, hikmatlar satrlarida majoziy ishoralar, fikrlar, ifodalar ko'pligini ham nazardan qochirish kerak. Shu nuqtayi nazardan qaralganda, uning "qarindoshlik valoyatiga", "ulug' bobosi"ning "ravzalariga" hamisha "orzulik"da yurgani ko'zga chalina boshlaydi. Qul Xoja Ahmadning:

G'urbatlanib o'z shahriga qaytib yondi,

Turkistonda mozor bo'lib qoldim mano,

satrlariga diqqat qilaylik. Ushbu misralarda ham shoirning hayot yo'li mazmuni va ma'naviy olamdagi tariqati muammolari aks etib turibdi.

Xoja Ahmad Yassaviy Turkistonga qaytishining, balki yana biz bilmagan boshqa sabablari ham bordir. Masalan, bu voqeani o'sha davrlarda O'rta Osiyo hududlarining katta qismini o'z tasarrufida ushlab turgan qoraxitoylar davlatining ko'chmanchi chorvadorlarga munosabatidan qidirish kerakdir. Tarix darsliklarida: "Qoraxitoylar hunarmandlarga, xususan, ta'mirchi, tikuvchi, etikdo'z, suv tashuvchi, egarchi, toshkesar, o'qchi, yoy yasovchi va boshqa xil kasb egalariga yaxshi munosabatda bo'lgan. Savdogarlar ham qadrlanardi", – deb yoziladi.¹ Lekin Yusuf Xos Hojib o'z asarida chorvador ko'chmanchilarga munosabatida ularning madaniyat, ilm-ma'rifatdan bebahraligini nazarda tutib, ulardan rivojlangan o'troq madaniyat qadriyatlarini va odatlarini talab qilib bo'lmasligini ta'kidlagan.

Haqiqatan ham, bu kasb egalari ishonchli, chin bo'lishlari (yolg'on so'zlamasliklari), foydali kishilar ekani, hiyla-nayrangni bilmasliklari yaqqol anglashiladi. Yusuf Xos Hojib nozik didli tinglovchisiga chorvadorlarning "tarzu raftorlari keng bo'lishi"ni tushuntiradi:

"Bulardan tartib-qoida (va) bilim istama".²

Shundan so'ng muallif chorvadorlar "tartibsiz, qoidasiz, mulohazasi past bo'lishi", "bilimsiz chigillar jaholatli bo'lishlari", ularni "do'st

¹ Ўзбекистон халқлари тарихи. Ижилд, Т., "Фан", 1991, 122 – 123-бетлар.

² Юсуф Хос Хожиб. Қутадғу билиг. Т., "Фан", 1971. 665-бет.

(bo'ladi) deb hisoblamaslik" lozimligini bayon etib, "Ularga aralashmoqlikni istasang, so'zlarim senga rahnamo"dir deydi.¹

Xoja Ahmad Yassaviy shunday sifatlarga ega bo'lgan Movarounnahr aholisining katta qismini tashkil etuvchi bu toifani o'z tariqatiga tortmoqni rejalashtirar ekan, hukmdorlarning chorvador ko'chmanchilarga nisbatan tutgan yo'lini o'zgartirishga erishishni ham mo'ljallagan bo'lishi kerak.

Shunisi muhimki, Xoja Ahmad hali islom dinini qabul qilmagan, butparastligicha qolib kelayotgan qarluqlar qavmini musulmonchilikka o'ttib, ularni shariat qonunlari asosida yashashga o'rgatishni o'z oldiga bitta maqsad qilib qo'ygan.

Xullas, Xoja Ahmad Yassaviy tarjimai holidagi "Turkistonga qaytish" masalasini ilmiy tahlil etishda yuqoriroqda bayon qilingan jihat, ya'ni o'sha paytda Abdulxoliq G'ijduvoniy asos solayotgan xojagonlik tamog'i bilan to'qnashish muqarrarligi ishonchli ilmiy asosga ega emas. Bu masalada baribir shoir yashagan davr va ijtimoiy ahvol – ko'chmanchi chorvadorlar, jumladan, buddaparast qarluqlarga nisbatan qoraxitoylarning hukmdor doiralari o'tkazib kelayotgan siyosatning kelajakdagi oqibatlarini Yassaviy valiylik iqtidori ila anglab yetganligini inobatga olmoq lozim. Shundagina Xoja Ahmad Yassaviyning ilmiy tarjimai holini yaratish yoxud qayta tiklash borasidagi urinishlar ijobiy natijalar berishi mumkin bo'ladi.

Bu yechimi zarur bo'lgan muammo xususida mufassal to'xtalayotganimizning boisi shuki, ilmiy-falsafiy adabiyotimizda Xoja Ahmad Yassaviy yashab faoliyat ko'rsatgan ijtimoiy-tarixiy muhit to'g'risidagi ma'lumotlar yetarli emas. Hozircha sharqshunoslik, tarix, adabiyotshunoslik va diniy bilimlar mutaxassislarining mavjud tadqiqotlarini qiyoslab o'rganish natijasida olingan ma'lumotlar bilan cheklanishga majburmiz.

Shuningdek, "Xoja Ahmad Yassaviy 63 yoshga (Allohning rasuli Muhammadning vafot etgan yoshiga) yetgach, yer ostida hujra qurdirib, qolgan umrini toat-ibodat bilan riyozat chekib, xilvatda o'tkazgan. Hatto o'zining "Devoni hikmat"ini ham uzlatda bitgan" kabi ma'lumotlar uchraydigan manbalarni boshqa turkumdagi asarlar bilan qiyoslash asosida ham yangicha xulosalarga kelish mumkin. Tasavvuf tariqatlari qatorida Xoja Ahmad Yassaviy va Abdulxoliq G'ijduvoniy kabi ulug' ajdodlari-

¹ O'zbekiston asar.

mizning o'ziga xos ikki yo'nalishga asos solgani va ularga oid ma'naviy merosning hozirga qadar yetib kelgani, mavjudligi bugungi sharqona tarbiyada ham aks etmasdan qolmaydi, albatta.

Xullas, Respublikamizda milliy istiqlol g'oyasining tarixiy ildizlarini xalqimiz dunyoqarashi, yashash va ijod qilish manbayiga aylantirishning nazariy asoslari ishlab chiqilgan va takomillashtirilgan hozirgi davrda Xoja Ahmad Yassaviy ta'limotiga murojaat etish, bir tomondan, serqirra va murakkab hodisa hisoblanadigan shaxs ma'naviyatini shakllantirishning tarixiy-an'anaviy yo'llarini o'rganish uchun zarurdir. Zero, shaxs ma'naviyati tez sur'atlar bilan o'zgarayotgan dunyoda o'zligimizni anglash va saqlab qolish, bizning kinligimizni, qanday buyuk ajdodlarning merosiga, necha ming yillik tarix, zabardast va chuqur ma'naviy ildizlarga ega ekanligimizni his etishga, bu boyligni asrab-avaylash kabi milliy qadriyatlarimizni butun umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirib o'sib kelayotgan yosh avlodlarga yetkazishga xizmat qilmog'i zarur.

Xoja Ahmad Yassaviy pedagogik merosining ma'naviy tarbiyaga oid qirralari, ularning ma'naviy va ma'rifiy rivojlanish bosqichlarida tutgan o'rni va ahamiyati shu paytgacha maxsus tadqiq qilinmagan. Holbuki, mustaqillikka erishgan xalqimiz mafkurasini, umuman, yoshlarimizning g'oyaviy-siyosiy ongini tarbiyalashda Xoja Ahmad Yassaviy ta'limoti muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma'naviy tarbiya asoslarini yirik fundamental darajalarda o'rgangan olimlarimiz tomonidan shaxs ma'naviyatining takomillashuv bosqichlari yoki ma'rifat yo'llari sifatida ibrat ko'rsatish, ilmga intilish, riyozatga (ya'ni qanoatli bo'lish) o'rgatish va mehr ko'rsatish alohida ta'kidlanadi.¹ Xoja Ahmad Yassaviy qarashlari ilmga intilish va riyozatga o'rgatish tarbiyasiga to'g'ri keladi.

Ko'rinib turibdiki, shoir va olimlarda ilm-ma'rifat to'plash va uni yoshlarga yetkazish asosiy o'rinda turadi. Bu esa X–XI asrda Movarounnahrda ijtimoiy tarbiya yo'nalishlarini ijtimoiy, madaniy, ma'naviy, siyosiy hayot tarzi belgilab berishini ko'rsatadi. Xoja Ahmad Yassaviyning pedagogik qarashlari, ma'naviy tarbiyaga oid qimmatli fikrlari ana shunday ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy muhit ta'sirida yuzaga kelgan.

Pedagogika fanning inson ta'lim-tarbiya jarayonida shakllanib, rivojlanib, kamol topishini turli vositalar asosida hech bir e'tirozga o'rin

¹ Иномова М. Очлада болаларнинг маънавий-ахлоқий тарбияси. Т., "Фан", 1999.

qoldirmasdan isbotlab beruvchi ilmiy sohasidir. Bunday yondashuvni bir necha asrlar ilgari sharq mutafakkirlari Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy va Abu Bakr ar-Roziy kabi yana bir qancha olimlar o'z asarlarida e'tirof etganlar.¹ Tasavvuf ham inson shaxsining ilm-ma'rifat asosida yuksalishi haqidagi ta'limotga tayanadi. Tasavvuf ta'limotiga ko'ra, insonning bosh maqsadini muhabbat, poklik tashkil qiladi. Olamga, borliqqa bo'lgan muhabbat Xudo ishqiy sifatida talqin qilinadi. Bunday muhabbat esa odamdan faqat yuqori darajadagi ko'ngli poklik va nafs ehtiyojlaridan ozod bo'lishni talab etadi.

Bu holat Xoja Ahmad Yassaviy dunyoqarashini shakllantirgan ma'naviy ildizlardan birini tashkil qiladi. Chunki uning muhim va ibratli xususiyatlaridan biri – shaxsning o'z-o'ziga tanqidiy qaray olishi, o'ziga murosasizligi. Ahmad Yassaviyning nuqtayi nazariga ko'ra, ayyorlik, gunohlarni yashirish o'zgalarga xiyonat hisoblanadi. Bu fikrlari bilan Xoja Ahmad Yassaviy rostgo'ylik, halollik, o'z-o'ziga talabchanlikni targ'ib qiladi. "Insonni eng og'ir gunohlari uchun hatto tog'-u toshlar ham la'natlaydi", – deydi Ahmad Yassaviy. Bu esa gunoh qilishdan, noqonuniy ishlarni bajarishdan, jamiyat a'zolarining nafratiga duchor bo'lishdan saqlanishga da'vatdir. Shuning uchun ham Xoja Ahmad Yassaviy: "Ishq yo'lida jon berganni armoni yo'q", – der ekan,² inson ma'naviy-ruhiy tozalanish uchun mashaqqatlarga bardosh berishi, halollikka, poklikka intilishi lozimligini quyidagi hikmatida ifodalaydi:

Jafo chekmay oshiq bo'lmas, tingla g'ofil.

Jafo chekib sobir bo'lg'il, bo'lma johil.³

Shoir ushbu satrlarida "zahmat chekkan odam sabrli, bardoshli, nodali bo'ladi", degan fikrni ilgari suradi. Hushyorlik shaxsni jamiyatda faol bo'lishga undaydi. Xoja Ahmad Yassaviy hikmatlari o'quvchisini hushyorlikka chaqiradi va jamiyat hayotida faol ishtirok etish, yovuz fitnalar, fisq-u fasad ishlaridan o'zini olib qochishga da'vat etadi. Shuning uchun ham ta'lim-tarbiya jarayonida ulardan keng foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Chunonchi:

Xudovando, meni solg'il o'z yo'lingga,

Nafs ilkida horib, ado bo'ldim mano,

Fisq-u fujur to'lib-toshib, haddan oshti,

G'arqob bo'lib, isyon ichra qoldim mano.⁴

¹ Моисеєв В.А. Ўзбек адабиєти тарихи. Т. "Ўқитувчи", 1990, 121-бет.

² Ахшир Яссавий. Девони хикмат. Т. Ғ.Ғулом номидиги нашриёт матбааси. 1992, 106-бет.

³ Ушш манба, 94-бет.

Yassaviy “G‘arqob bo‘lib isyon ichra qoldim mano”, deganda insonning haqiqat yo‘lida “nafs”dan qutulishi, o‘z nafsining quli bo‘lib qolmaslik va yon-atrofidagi yomon qarashlarning ta‘siriga berilmasligini ko‘zda tutmoqda. Bu satrlar o‘quvchilar va talabalarni turli ekstremistik oqimlarning ta‘siridan saqlab qolishga xizmat qiladi. Ular qariyb ming yil naridan bizgacha yetib kelmoqda. Bobolarimiz ularni shu kungacha asrab-avaylagan. Mazkur misralar orqali odob-axloq, izzat, hurmat, mehr, muhabbat dunyolarini kashf qilgan. Bugungi jamiyat kishisi millatimizga, milliy qadriyatlarimizga yetti yot bo‘lgan, xorijda ba‘zi “allo-ma”, “shayx”lar tomonidan turli siyosiy maqsadlarni ko‘zlagan holda tayyorlangan, shakllangan g‘oyalarga ko‘r-ko‘rona ergashib ketmasliklari uchun Xoja Ahmad Yassaviy kabi buyuk ajdodlarimiz ma‘naviy merosini o‘rganishimiz, ulardan saboq olishimiz lozim.

Shoir ijodini sinchiklab kuzatar ekanmiz, uning ma‘naviy tarbiyaga oid qarashlarida tarkidunyochilik, ya‘ni jamiyatdan uzilib, xalqdan chetga chiqqan holda yashashni targ‘ib qilish hollari uchramaydi. Aksincha, u jamiyat ichida yashab o‘z ichki olamidagi yomonlik, nodonlik, jaholat, molparastlik, mansabparastlik tuyg‘ulariga yo‘l bermaslik va ijtimoiy hayotdagi illatlarga qarshi tura olishga chaqiradi. Bugungi kunda faqat o‘z manfaatlarini o‘ylab ish qiluvchi, mol-dunyo to‘plash, yanada balandroq mansabga intilishga harakat qilayotgan ayrim kimsalarning haqiqiy qiyofasini ajratib olish va ularga ergashishdan inson o‘zini tiya bilish uchun ham bu hikmatlarning tarbiyaviy ahamiyati beqiyosdir. Shu ma‘noda, Yassaviy hikmatlari juda katta pedagogik qimmatga egadir.

Tasavvuf olamining Uvays Qaraniy, Ibrohim Adham, Shibliy, Sarri Saqatiy, Ma‘ruf Karxiy, Junayd Bag‘dodiy, Boyazid Bistomiy, Yusuf Hamadoniy va uning shogirdi Ahmad Yassaviy, Abdulxoliq G‘ijduvoniy, Xoja Ali Romitaniy, Shamsiddin kulol, Bahovuddin Naqshband, Alouddin Attor, Muhammad Porso, Yoqub Charxiy, Xoja Ahror Vali kabi yana ko‘plab yirik namoyandalari nomlari va ularning tarixdagi xizmatlarini hozir qariyb barcha kitob mutolaa qiluvchi o‘quvchilar juda yaxshi biladi. Zero, ularning har biri o‘z davrida shaxs ma‘naviyatini rivojlantirishga oid targ‘ibot ishlarini amalga oshirganlar. O‘zlarining hayot tarzi bilan xosu ommaga namuna bo‘lishgan. Jumladan, Abu Homid G‘azzoliy ta‘limotida jamiyat a‘zolari bilan totuv yashash, shaxslararo hurmat, xushmuomalalik g‘oyalari ustuvordir. U tariqat yo‘liga kirgan

¹ Ahmad Yassaviy. *Devoni hikmat*. T. 1. Gulom nomidagi nashriyat matbaa birlashmasi, 1992, 39-bet.

kinsa haqida gapirar ekan, uning go'zal islomiy axloqqa erishishi va haqqa yetishuvi uchun uzoq hamda mashaqqatli yo'lni bosib o'tishiga to'g'ri kelishini ko'rsatib o'tadi. Bu yo'lni u shariat, tariqat, ma'rifat va haqiqat bosqichlariga bo'ladi. Solik Haqqa yetishishi uchun ularning har birida bo'lishi shartdir. To'rtinchi, ya'ni oxirgi haqiqat bosqichini egalagan kishi Haqqa yetadi. Haqqa yetishgan inson *visolga* musharraf bo'ladi. Aslida bosqichlar tushunchasi so'fiyning shunchaki oddiy va jo'n tasavvurlari emas. Bizning davrimizdagi eng yaxshi faylasuf, islomshunos yo sharqshunos ham ularni to'liq va mukammal sharhlab berolmasa kerak. Mazkur tushunchalarga eng yaxshi izohlarni Fariddin Attor¹ ("Mantiq ut-tayr") va Alisher Navoiy² ("Lison ut-tayr") asarlaridan topish mumkin. Xoja Ahmad Yassaviyning "Hikmatlar"i ham xuddi shu bosqichlar mohiyatini ochib berishga xizmat qiladi. Bu bosqichlarning har birida insonning (solik) badaxloqi poklanadi va tuzatiladi, so'ngra sayqallanadi, unga zeb beriladi. U barcha illatlardan mosuvo bo'lgach, visolga tayyor holga keladi. Buyuk murshid o'z muridini visolga shunday tayyorlab boradi. U ishning boshidan oxirigacha faqat axloq masalasi bilan shug'ullanadi. Xoja Ahmad Yassaviy ham xuddi shunday murshidlardan edi.

Rivoyat qilishlaricha, hayotdagi iqtidorli kishilarning oliy namoyandalari anbiyo (nabilar), avliyo (valilar) xalqni Haqqa yetaklovchi, ularga Haqni tanituvchi payg'ambarlar ham qariyb xuddi shunday vazifani bajarganlar va ishlarining samaralari darajasida yuksak obro'-e'tiborga ega bo'lganlar. Bu holatni bugungi kunga qiyoslaydigan bo'lsak, hozir ham ilm ahli – olimlar, fozillar, mutafakkirlar, ijodkorlar va har bir sohaning o'z murabbiylari keng omma va yoshlarga turmush mashaqqatlarini yengib o'tishni o'rgatib, ularning ongiga ilm durdonalarini yetkazib, hayot haqiqatlarini anglab yetishlariga yordam berib, katta e'tiborga loyiq bo'ladilar.

Mirahmad Mirxoldor o'g'lining "Xoja Ahmad Yassaviy" risolasida keltirilgan rivoyat shogirdlar tarbiyasiga oid mazkur fikrlarimizga muvofiqdir:

"Navbatdagi saboqlardan biri tugagach, ustozlari Shahobiddin Istobohiy talabalarga: "Har biringiz keyingi darsga bir xo'roz yoki tovuqni illohi taolo ko'rmaydigan joyda "bismil" qilib (ya'ni so'yib) keling-

¹Fariddin Attor. Mantiq ut-tayr. T.
²Alisher Navoiy. Lison ut-tayr. T.

lar", – deb topshiriq berdi. Ertasiga hamma bolalar ustozni aytganlarini qilib kelsa, Ahmad bir xo'rozni tiriklayin olib keladi.

– Ustoz, uzr, men xo'rozni "bismil" qila olmadim. Qayerga yashirib so'ymoqchi bo'lsam ham, Tangri taolo ko'rib turar edi.

– Barakalla, ofarin, – deb ustoz yosh shogirdining mustahkam imon e'tiqodiga qoyil qoladi.

Ustoz Ahmadning xulq-odobiga ofarinlar aytadi".¹

Chunki, Tangri taolo uchun pinhon narsa yo joyning o'zi yo'qdir. Biror buyumni eng qorong'u joyga bekitsangiz ham, tubsiz chuqurlikka ko'mib qo'ysangiz ham Unga kunduzdagidan-da, ravshanroq ko'rinib turadi. Mazkur hikoyatning ma'nosi shu edi. Demak, bizning har bir fikrimiz, amalimiz u yaxshimi yo yomon, kichikmi yo katta farqsizdir, barchasini u ko'rib, kuzatib turadi.

Movarounnahrda so'fiylik g'oyalarning tarqalishi va rivojlanishida Yusuf Hamadoniy maktabi va undan hosil bo'lgan yangi tarmoqlar vakillarining xizmati o'ziga xos o'rin tutadi. Bu borada Abdulxoliq G'ijduvoniy (xojagon) va Xoja Ahmad Yassaviy (yassaviya) tarmoqlari faoliyati va ularning keyingi davrlardagi Movarounnahr va unga qo'shni bo'lgan hududlar ijtimoiy hamda madaniy hayotiga ta'sirini alohida ta'kidlab o'tish joizdir.

Vaqt o'tib, ilmiy adabiyotlarda Xoja Ahmad Yassaviy asos solgan, deb hisoblanadigan *yassaviya tariqati* ham o'zi alohida maktab bo'lib shakllandi va rivojlandi. Omma orasida mashhurligi va keng tarqalishi bo'yicha ham hududlar ko'lamini bitta-ikkita mamfakat bilan o'lchab bo'linay qoldi. Movarounnahr tasavvuf maktablari haqida so'z ketsa, u, albatta, *naqshbandiya, kubroviya, ishqiya* kabi tariqatlar qatorida ko'rsatilardi. Hatto ba'zan uning shon-shuhrati va ta'siri boshqalarini ortda qoldirib ketgan davrlar ham bo'lgandi. Bu holat ko'plab birlamchi manbalarda aks etgan. Umuman, Xoja Ahmad Yassaviy ma'naviy olami, dastlab, Buxoroda, Yusuf Hamadoniyning tariqat maktabida shakllangandi. Keyinchalik uning tariqatda odob, axloq va ma'rifiy g'oyalari o'zining ashoblari (suhbatdoshlari) o'rtasidagi muloqotlar va ularga beradigan saboqlari, talabalarga o'qitadigan darslari mobaynida takomillashib bordi, rivojlandi. Uning tutgan yo'li va ta'limotini izdoshlari davom ettirdi.

¹ Мирходдор М. Хўжа Аҳмад Яссавий. Чимкент, 1992, 4-бет.

Hazratning keyingi izdoshlari safiga nazar soladigan bo'lsak, ular qatorida Mansur Ato, Abdulmalik xoja, Toji xoja, Sayyid Ato, Sulaymon Ato, So'fi Muhammad Donishmand, Hakim Ato kabi yirik va mashhur tarixiy shaxslarga duch kelamiz.

Mansur Ato shayxning birinchi ilg'or o'rinbosari (xalifasi) edi. Arslonbobning farzandi bo'lgan. Otasi vafoti arafasida uning Xoja Ahmad Yassaviy xizmatiga kirishini tayinlaydi.

Abdulmalik xoja Mansur Atoning o'g'li edi. Otasi vafotidan so'ng Turkistonda u irshod masnadiga o'tiradi.

Toji xoja yuqorida aytilgan Abdulmalik xojaning o'g'li va mashhur Zaangi Atoning padari buzrukvori edi.

Sayyid Ato hazratlari Xoja Ahmad Yassaviyning ikkinchi o'rinbosari bo'lgan. Umrining oxirgi davrlarida Xorazmda yashagan. Uning avlodlari Sayyid Atoyilar nomi bilan uzoq asrlar nom qozongan.

Sulaymon Ato hazrat Xoja Ahmad Yassaviyning uchinchi o'rinbosari (xalifasi) edi. U turkiy adabiyot tarixida *Sulaymon Boqirg'oniy* ta'allusi bilan mashhur bo'ladi va har jihatdan ustozini takrorlaydi. U ham mohir so'z ustasi – shoir edi.

Biroq uning tarjimai holida ba'zi chalkashliklar bor. Ayrim tadqiqotchilar va qadimgi mualliflar Sulaymon Ato va Hakim Atoni ikkita laxs sifatida talqin qilishadi.

Hazrat Mir Alisher Navoiy esa bu to'g'rida: "Hakim Ato r.t. – oti Sulaymondur va Xoja Ahmad Yassaviy q. s.ning murididir. Hamonaki, bir kun Xoja tabxe (ovqat pishirishni) buyurg'andurlarki, mutabxiiy (osh-saz) o'tun yetmaydur deb kelgandur. Alar ashobg'a degandurlarki, yozidin o'tun terib kelturun! Va ul zamon yog'in yog'adur ekandur. Ashobtim, o'tun teribturlar, alar xizmatig'a kelguncha yog'in jihatidin o'tunlar o'l bo'lg'andur. Hakim Ato tergan o'tunlarini to'nig'a chirmab, quruq keltirgandur. Xoja Hazratlari degandurlarki, ey farzand, hakimona ish qilding va alarg'a bu laqab andin qolg'andur va Hakim Atog'a hikmat tili go'yo bo'lubtur. Andoqki aning favoidi atrok orasida mashhurdur. Ul jumladin, biri budurkim:

*Tiki turg'an butadur,
Borg'anlarni yutadur.
Borg'anlar kelmas bo'ldi.
Magar manzil andadur",*

kabi qiziqarli axborot beradi.¹

Biz ham ma'lumotlar ichida ushbuni ishonchliroq bilib, Hakim Abo va Sulaymon Atoni bitta shaxs sifatida qabul qildik. Shuningdek, tazkiranavisi Po'lotjon Domulla Qayyumovning ham bu boradagi ma'lumoti e'tiborga loyiqdir. U tazkirasida: "Fig'onli tasavvuf shoiridir. Nomi Hakimxoja bo'lib, she'rda taxallusi Sulaymondur. Ustoziga ergashib "Qul Sulaymon" deb ham yuritadir",– deydi.² Shundan so'ng tazkiranavisi shoirim:

*"Turkistong'a boroling,
Xizmatida bo'loling,
Ulush bersa ololing,
Shayxim Ahmad Yassaviy.*

*Bobo Mochin ul sulton,
Murid bo'ldi begumon,
Hakim Xoja Sulaymon,
Shayxim Ahmad Yassaviy",*

satrlarini ham misol keltiradi.³

Sulaymon Boqirg'oniyning tavallud vaqti hozircha aniq emas. Ilmiy adabiyotlarda Xorazmning Boqirg'on kentida tug'ilgani va 1186-yili vafot etganiga oid ma'lumotlar uchraydi. Asosan, turkiyda ijod qilib, ustozi kabi "hikmatlar" meros qoldirgan. U she'rlarida Ahmad Yassaviyni "ikki jahon ko'zgusi", "haqiqatda shoyista", "avliyolar sarasi" kabi sifatlar bilan ulug'laydi.

*Qarchig'ani qishlag'an, shunqor, lochin ushlag'an,
Sonsiz murid boshlag'an, shayxim Ahmad Yassaviy.*

*Yassi, Suyri orasi, yotur gavhar porasi,
Mashoyixlar sarasi, shayxim Ahmad Yassaviy.*

*Shariatni so'zlagan, tariqatni ko'zlagan,
Haqiqatni izlagan, shayxim Ahmad Yassaviy.*

*Shariatda orasta, tariqatda pirosta,
Haqiqatda shoyista shayxim Ahmad Yassaviy*

¹ Алишер Навоӣ. Насоим ул-мухаббат. Т.: "Фан", 2001. –Б. 420-бет.

² Тазкирани Каюмий. 86-бет.

³ Тазкирани Каюмий. 87-бет; Сулаймон Боқирғоний. Ҳикматлар. Т.: "Ўзбекистон", НМИУ, 2011, 438-бет.

*Vizr birlan ish bo'lg'an, Qadr tunga tush bo'lg'an,
Turkistong'a bosh bo'lg'an shayxim Ahmad Yassaviy.¹*

O'rni kelganda, ushbu tariqatning yana bir taniqli namoyandasi sifati Zangi otani (Xoja Ahmad Yassaviyning jiyani) aytib o'tish lozim, albatta.

Xullas, Xoja Ahmad Yassaviy dunyoqarashi shakllanishining ilk bosqichlari, tasavvuf va hayot ilmining buyuk bilimdoni va targ'ibotchisi, uning ustozlari Yusuf Hamadoniyning Movarounnahrda faoliyati bilan bog'liqligi aniq bo'ldi.

Yusuf Hamadoniy ta'limoti uning shogirdlari – Xoja Ahmad Yassaviy, Abdulxoliq G'ijduvoni tomonidan rivojlantiriladi. Ushbu jarayon davomida oradan bir qancha vaqt o'tib, Yusuf Hamadoniy tariqati "Yassaviya" va "Naqshbandiya" suluhi deb atalgan ikkita tarmoqqa ajralib ketadi.

Xoja Yusuf Hamadoniy va uning ustozlari fikrlari Xoja Ahmad Yassaviy dunyoqarashining shakllanish ildizlari bo'lib xizmat etadi. U ushbu jarayonda o'zining ilmi va e'tiqodi natijasida valiylik maqomiga yetishadi. Bu maqomga, shuningdek, Abdulxoliq G'ijduvoni, Bahouddin Naqshband kabi yana ko'plab solih ajdodlarimiz erishganlar va ustozlarining yo'riqlarini o'zlariga dastur qilib, ularning qarashlari, ma'rifiy o'yularini rivojlantirishgan. Jumladan, Xoja Ahmad Yassaviy tariqati e'tiqodiy ta'limotining bir bo'lak sifatida Allohga shak keltirilmaslikka, qasbiy baxtsizlikka ettuvchi nafsni yengishga, zaif, beva-bechoralarga yordam berishga undaydi. Xalqni, hukmdorlarni iymon-e'tiqodga, imloq-diyonatga, mardlikka da'vat qiladi. Ammo yassaviya ta'limotida uning mazharlaridan voz kechish, kamtarona hayot g'oyalari olg'a suriladi. Xoja Ahmad Yassaviy o'z e'tiqodiga umrining oxirigacha amal qilib yashaydi. Ta'magirlik, g'arazgo'ylikdan uzoqda bo'ladi. Faqirona kiyimlar, p'ariblaracha yeb-ichar, tilovat va ibodat bilan mashg'ul edi. Ruhini qaytib, kamil inson Xoja Ahmad Yassaviy xalq orasida kambag'al, g'ariblarining himoyachisi sifatida katta shuhrat topdi. Ularni har tarafdin himoya qilish uslubi sifatida o'z qarashlarini bayon qiladi.

¹ Boshqa nusxalarida: "Bosh birlan ish bo'lg'an, Qadr tunga tush bo'lg'an, Turkistong'a bosh bo'lg'an shayxim Ahmad Yassaviy". Boshqa nusxalarda bu satrlar farq bilan nashr kilingan (Sulaymon Bokiromov, Bokiromov kitobi, T., "Ezuvchi" nashriyoti, 1993). Biri keyingi davrda tugatilib va tuzatilib nashr etilgan nusxani afzalroq hisoblab, uning aslidan foydalandik.

² Boshqa nusxalarda: "Bosh birlan ish bo'lg'an, Qadr tunga tush bo'lg'an, Turkistong'a bosh bo'lg'an shayxim Ahmad Yassaviy". 1993.

Yusuf Hamadoniy vafotidan keyin Xoja Ahmad Yassaviy salaflarining orasida (uchinchi) yetugi sifatida Buxoroda suluk yetakchisi bo'lib qoladi. Ammo manbalarda ta'kidlanganidek, g'aybiy ishora sabab bo'lib, u o'z o'rnini Yusuf Hamadoniyning boshqa bir shogirdi Abdulxoliq G'ijduvoniya qoldirib, Turkiston viloyatiga qaytib ketdi.

Xoja Ahmad Yassaviy o'z tariqatida din va tasavvuf g'oyalarini targ'ib qilish uchun she'r san'atidan samarali foydalangan. Uning shogirdlari zikr chog'ida Yassaviy nazmiy tafakkuri bo'lmish – "hikmatlar"ni ham yodlab olishgan, o'qib o'rganishgan.

Xoja Ahmad Yassaviy barcha oddiy musulmonlar kabi hayot kechirgan. Vaqti-soati yetganda Oyshayi Hushtoji bibiga uylanadi. Bu nikohdan ikki nafar farzand dunyoga keladi. O'g'liga Ibrohim va qiziga Gavhar Xushtoji deb ism qo'yishadi. Shayxzoda Ibrohim yoshlikda johil kimsalar qo'lida qurbon bo'lgani, qizlari Gavhar Xushtoji¹ Yassaviy avlodlarining davomchisi ekanligi ayrim tarixiy manbalarda qayd qilingan. Gavhar Xushtoji bibining hayoti tarixi ham ancha qorong'uligicha turibdi. "Nasabnoma"lardan birida u Xoja Ahmad Yassaviyning inisi Sadr xojaning Abdol Ali ismli o'g'liga nikoh qilingani va ulardan Abdul Vali ismli o'g'il farzand tug'ilgani haqida ma'lumot beriladi.²

Tadqiqotchilar bu to'g'rida yana bir boshqa manbani ko'rsatishadi. Unda esa: "Hazrat Ibrohim shayxning ikki o'g'li bor edi. Birlari Xoja Ahmad, birlari Sadr Atodir. Hazrat Xoja Ahmad Sayramdan chiqib baldayi Yassi vatan qildilar. Yoshlari yigirmada erdilar. Hazrat Ahmad Yassaviyning ikki farzandi bor erdi. Birlari o'g'il, birlari qiz. O'g'illari Shayxzoda erdi (yoshligida shahid bo'lgan). Qizlarining oti Gavhar Xushtoji erdi. Qizini Xo'ja Vali Sulaymon Valining o'g'li nikoh qilib oldi", degan axborotga duch kelamiz.³ Mazkur manbalardagi ma'lumotlardan qay biri to'g'riligini isbotlab ko'rsatgan biror tadqiqotni hozircha uchratmadik.

Ulug' o'zbek shoiri Atoiy, hazrat Bahovuddin Naqshbandga ta'lim bergan Husayn Shayx Xoja Ahmad Yassaviy avlodlaridandir. Uning tog'alari Latif ota va Mustafo quli ota xam shayxlik bilan nom chiqargan. Shoir Tohir Qahhorning yozishicha, ayni shu kunlarda ham Xoja Ahmad Yassaviyning avlodidan Shahobiddin Yassaviy Turkiyada yashamoqda.⁴

¹ Bizning davrimizda chop etiladigan ba'zi risola va kitoblarda uning ismi Gavhar Xushtorij shaklida e'zlangan. (Mirqolldor M. Xujra Ahmad Yassaviy. Chikent, 1992, 30-bet).

² Yassaviy nasabnomasi. T., "Xazina", 1996, 25-bet.

³ Mirqolldor M. Xujra Ahmad Yassaviy. Chikent, 1992, 24-bet.

⁴ Mirqolldor M. Xujra Ahmad Yassaviy. Chikent, 1992, 27-bet.

Xoja Ahmad Yassaviy bir qator asarlar yozgan. O'tmishda Xoja Hofiz Sheroziy (1320/1324–1380) “Devon”i va Jaloliddin Rumiy (XIII) “Masnaviy”larini “Qur’oni forsiy” deb atasalar, Xoja Ahmad Yassaviyning “Devoni hikmat”i “Qur’oni turkiy” deya e’zozlangandir. O’zi bu haqda: “Mening hikmatlarim koni hadisdur”, – deb ta’kidlaydi.

Darhaqiqat, Yassaviy o’z she’rlariga hadislarni singdirib, ularni hukmatga aylantirdi. Yassaviy tariqatida suluk amallarini ado etish asno-
.ida jahriy zikr qilish odatiy holdir. “G’iyosul lug’at” asarida: “Jahr – oshkor kardan, ovozero baland karda xondan”, ya’ni *jahr* – oshkoro, baltand tovush bilan o’qiladigan zikrdir, deb aytilgan. Yassaviy “Hikmat”-
lari, albatta, baland ovoz bilan o’qilgan. Uning tariqatida jahriy zikrning ustuvor yo’nalishga aylanishiga ehtimol, shu kabi holatlar ham kuchli ta’sir etgandir. U “Devoni hikmat”ida yozadi:

*Meni hikmatlarim xo’blarga ayting,
Duo, takbir qilib rahmatga boting,
Agar hikmat o’qusa ayyuhannos,
Erur farzand menga ul tolibi xos.¹*

Bu misralar yassaviyada jahriy zikrning qanday shakllanib borganini anglashimizga yo’l ochadi. Xoja Ahmad Yassaviy o’zining butun hayotini hikmatlar yozish bilan bir qatorda, qo’l mehnatiga bag’ishlagan. U chiviqdan suzgich to’qish, yog’ochdan qoshiq va cho’mich yo’nib soch bilan tirikchilik qilgan.² Shuningdek, o’zining shogirdlariga ham ilm olish bilan birga, kasb-hunar egallab, hunari orqasidan kun ko’rish lozimligini uqtirgan.

Ahmad Yassaviyning “Devoni hikmat”i – “Daryoyi shariat”, “Robbi tariqat”, “Qulzumi haqiqat”, “Daryoyi rahmat” kabi alohida-alohida to’rtta qismdan iboratdir.

Shuni ta’kidlash joizki, Ahmad Yassaviyning dunyoqarishi boranla qizil imperiya davridagi islomshunoslar yassaviya va naqshbandiya tariqatini bir-biriga qarama-qarshi qo’yishardi. Yassaviya tariqatida tarbiyachilik, go’shanishinlik ustun bo’lib, naqshbandiyada esa qo’l mehnati bilan band bo’lgan holda Allohni dilda saqlab, ya’ni bu dunyodan yuz o’girmay, jamiyat hayotida faol ishtirok etib yashash ta’limoti taq’rib qilinishining ustun ekanligi ko’proq talqin qilinar edi. Ularning ta’limlaricha, yassaviyada tilanchilik qilish mumkin, naqshbandiyada esa bunga qattiq qarshi kurashilgan emish. Bunday fikr noto’g’ri. Yas-

¹ Ahmad Yassaviy. Devoni hikmat. T. Faqir Fudol nomidagi nashriyat-matbaa birlashmasi. 1992. 198-bet.
² Viriyuzov Z. F. Uzbek xalq pedagogikasi. T., 1973, 34-bet.

saviy tariqatida ham mehnat qilish farz, tekinxo'rlik bilan kun ko'rish gunoh sanalgan. Bu borada Xoja Ahmad Yassaviy shunday fikrni keltiradi: "Shayx uldurkim, niyoz olsa, uni miskin, g'arib, bechora, yetim-esirlarga bergan. Agar bu narzu niyozni yesa, go'yo murdor et yemishini tanovul qilgan bo'lur".¹ Bugungi kunda yetim-esirlarning haqqiga xiyonat qilayotgan kimsalar uchun bu hikmatlar katta ibrat bo'la oladi.

Hadislarni ravon she'riy tilga ko'chirib, turkiy tilda so'zlashuvchi xalqlar orasiga yoyish Ahmad Yassaviyning buyuk xizmati hisoblanadi. Alloh taolo ta'limini, payg'ambar alayhissalom o'gitlarini turkiy tilda xalq o'rtasida oson va qulay tarzda targ'ib qilish Yassaviy tariqatining o'ziga xos jihati. Shunisi alohida diqqatga sazovorki, naqshbandiya ta'limoti arabiy, forsiy va turkiydagi aralash manbalarda targ'ib qilinadi. Mazkur yo'nalishda forsiy va arabiy manbalar ko'proqni tashkil etadi. Bu bir qancha asrlar davomida davlat ishlarida Buxoro xonligida, asosan, forsiy til rasmiy ish yuritish vositasi vazifasini bajarib kelgani bilan ham bog'liq edi.

Yassaviya ta'limoti ham ayrim tadqiqotchilar ta'kidlashganidek, faqat turkiy til asosida targ'ib qilinmagan. Ushbu tariqatning tashviqot ishlari forsiy va arabiy tillarda ham olib borilgan. Hozir turkiy asarlar qatorida yassaviya tariqati ta'limoti masalalari, muammolari yechimlari o'z ifodasini topgan yuzlab forsiy manbalarni ham uchratish mumkin.

Xoja Ahmad Yassaviy ijodi esa boshqa masaladir. U o'z asarlarini, asosan, turkiyda yaratdi. Shuning uchun ham Yassaviy ta'limotini o'zida mujassamlashtirgan hikmatlarni o'zbek o'quvchisi to'g'ridan to'g'ri anglab, ongiga singdira oladi. Har ikkala ta'limot namoyandasi ham bid'at, xurofot, jaholat, nodonlik, bosqinchilik, millatchilik kabi illatlarga qarshi kurashganlar. Zero, har ikkala suluk manbaya va boshlanish joyi payg'ambarimiz Muhammad alayhissalomga borib taqaladi. Bu fikrning mazmunini ochishni Xoja Ahmad Yassaviy tug'ilib o'sgan diyoy tarixi bilan bog'lash kerakligini o'rinli deb topdik. Xoja Ahmad tug'ilgan paytda Sayram shahri turkiy xalqlarning taraqqiy etgan ilm-fan va madaniyat markazlaridan biri edi. Bo'lajak oriflar sulтони Ahmad Yassaviyning tug'ilgan joylarini aniq tayin qilishda "Sayram" risolasidagi ushbu to'rtlik g'oyat muhim ahamiyatga egadir. Jumladan, unda shunday misralarni o'qiymiz:

Asli Sayram Turkiston.

¹ Ahmad Yassaviy. Devoni hikmat. T., F. Gulom nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi, 1992, 8-bet.

Xoja Ahmad bundan chiqqan.

Yassida vatan tutgan,

*Shahri Sayram emasmu!*¹

Bu satrlar bundan qariyb 1000 yil ilgari bitilganligini e'tiborga olib, bu yerda o'z vaqtida 400 masjid, madrasa kabi ma'rifat maskanlari o'lgani va ularda yuzlab olimu fozillar kamol topganiga shubha qolmaydi. Mo'tabar kitoblarda berilgan ma'lumotlarga qaraganda, u yerdan sur'oni karimni tafsir qilgan Qozi Bayzoviy, o'titizdan ortiq kitoblar yozgan Lutfulla Saryomiy yetishib chiqqan. Xoja Ahmad Yassaviy ana bunday zaminda tarbiyalanib, voyaga yetgandi.

Suluklarning g'oyaviy mazmuniga e'tibor qaratadigan bo'lsak, Bahouddin Naqshband "Zohirda Xalq bilan va botinda Haq bilan" shiorini o'tarib chiqqan bo'lsalar-da, xilvatni butunlay inkor etmaganlar.²

Tadqiqotchilarning bunday fikrlari Xoja Ahmad Yassaviy sulukiga ham tegishlidir. Chunki u Arslonbob va Sayramdagi yetuk olimlardan diniy-ilohiy ilmlar bilan bir qatorda, turli dunyoviy fanlardan ham sabbq olgan edi. U o'zining "Rasoil" asarida Xudo suygan chin so'fiylar va shayxlar qodir xoliqqa ham, ongsiz xaloyiqqa ham qay tarzda sadoqatli yo'ldosh bo'lishlari kerakligini tushuntirib shunday yozgan:

"Chin shayx olgan sadaqalarini shunga ehtiyoj sezgan muhtojlar, talabalarga ulashur. Mabodo, olgan sadaqalarini o'z nafsigaga ishlatsa, itlikkan taomdan harom bo'lur. Agar zakotga olgan matosidan libos tikib o'zi kiysa, ro'za namozi Xudo dargohida qabul bo'lmas. Agar shayx olgan sadaqalarini o'zi yesa, oxiratda Haq taolo unga do'zaxda turli azob-og'ri berur. Andog' shayxlarga qo'l bergan muridlar ham kofir bo'lurlar. Biri zamonda mundog' la'natkarda shayxlar ko'payur, ular qo'zg'agan g'alayonlar dajjol g'alayonlaridan ortiq bo'lur. Mundog' shayxlar shariqatga va tariqatga va haqiqatga va ma'rifatga xiyonat qilurlar..."³

Ko'rinib turibdiki, Ahmad Yassaviyning dunyoqarashi uning hikmatlari, o'git-nasihatlari nafaqat shogirdlariga, balki barcha haloyiqqa olib yetib borar va ta'sir ko'rsatar edi. Xoja Ahmad Yassaviy o'zining "Faqimoma" asarida faqirlik, darveshlik, so'fiylikdan o'tish maqomlarini ochib beradi, ya'ni faqirlarni ulug'lab, bu maqom anbiyo, oriflar va shayxlar maqomi ekanligini tasdiqlaydi va uning isbotini hazrat Rasuli

¹Orxondor M. Nuxta Ahmad Yessaviy. Chirchikent, 1992, 4-bet.

²Omilov H. Gasavvuf, T., "Fafur Gulom nomidagi Adabiyat va san'at" xlamda "Uzbekiston" napriyela-ri. L'kiyoblar, T., 1996 - 1999.

³Amid Yessaviy. Devoni hikmat. 8-bet.

Akram sallallohu alayhi vassalamning maqomi deydi. Dahri yaxshi ko'rmoq imondan turur, faqirni xor tutmoq kufir turur, deb ko'rsatadi. Shu boradagi Hazrati la bino sallallohu alayhi vassalamni "Xubbu ul-fuqaron min-al imon va bugzu-l-fuqaroi minal kufri" degan hadislarini tahlil qiladi. Bu bilan faqirlik, kamtarinlik martabasi va hurmati yetti qat yerdan ulug'roq turur, deb tasdiqlaydi.

Keyin uning sifatлари, tariqati, yeb-ichish, mehnat faoliyati, niyati, nafi, yurish-turishi, tashqi qiyofasi, kiyinishi kabilarni ochib beradi. Ularning yig'indisi 80 maqom deb ko'rsatiladi. Har birini payg'ambarning maqomi deb ulug'laydi. Ular, avval, Hazrati Odam alayhissalomning va oxiri Muhammad Mustafo sallallohu alayhi vassalamniki turur, deb o'zining dunyoqarashini "70 ilm bilmaguncha, kezmaguncha, har kim shayxlik maqomi da'vosi qilsa, ul hamon but bo'lgay" deb aniqlik kiritadi.¹ Xoja Ahmad Yassaviy o'z aytganlarini hazrat rasululloh Muhammad alayhissalom, shayx ul-mashoyix Junayd Bag'dodiy, Shayx Ahmad Nomaqiy Jomiy, Shayx Shaqiq Balxiy, Shayx Qutbiddin Haydar, Xoja Abdulloh Haydar, Shayx Mansur Halloj, Shayx Boyazid Bistomiy, Luqmon Saraxsiy kabi bir qancha taniqli so'fiylar fikrlari bilan tasdiqlaydi.

Ularning fikr-mulohazalaridan:

"Faqr bir tog' erur, barcha konlarning makoni.

Faqr bir daryo turur, ul daryoning poyoni yo'g', aning poyonini kishi ko'rgani yo'q.

Faqr bir pushta erur...

Faqr nuri Xudo turur, har kimga ul nurning ziyosi tegsa, aning ziyosidan kamol topar.

Faqr bir toji davlat turur, har kim boshiga kiydi – ikki jahonda sultoni abadiy bo'ldi.

Faqr bir sharob turur, har kishi jur'at no'sh qildi. to qiyomatgacha masti liqo bo'ldi.

Faqr jazabai Xudovanda erur, har kimga tegsa, ikki jahonda murodi hosil bo'ldi.

Faqr hidoyati rabbano turur, har kimga yo'liqti, jovidona turur har toati.

Faqr diydori Haq taolo turur, har kim ko'rdi ko'rmadi.

¹ Ahmad Yassaviy. Devoni hikmat. 11-bet.

*Faqr shahbozi himmat turur, har kimga qo'ndi, ul kishi parvoz qil-
lomakonni sayr qildi*", – deya namuna keltiradi.

So'ngra aytilgan mazkur fikrlarning barchasini umumlashtirib:

*"Faqr – Haq taoloning bog'i vaslidin daraxte turur. Ul daraxti-
ning butog'i aql turur, reshasi hidoyat turur, mevasi hayru saxovat tu-
rur, soyasi qanoat turur, aning bo'yi shavq turur. Aning bargi har kimga
qildi, amali solih hosil qildi. Har kim mevasidan hayoti jovidona topti
u agar bo'yi har kimga tegsa, mastu hayran bo'lgay va agar soyasida
otini olsa, oftohi haqiqat anga tushgay"*, – deydi.¹

Ahmad Yassaviyning dunyoqarashida ilm, ma'rifat, odob, axloq tarbiyasi masalalari mujassamlashgandir. U asarida faqirning ongi, odobi, sakkizta (8) maqomi va yettita (7) martabasini ko'rsatib, o'zining "Inqirnomasi" kitobidagi vasiyatlari har kimga tegishli ekanligini tasdiqlab, "Kimki bularga amal qilib hayot kechirsa, dunyo va uqboğa muvaffaq bo'lgay, agar amal qilmasa, og'ir damda pushaymon qilgay va sharonday oxirat bo'lgay", – deydi. Ahmad Yassaviy dunyoqarashining ilmlari haqidagi bo'limning yakuniy qismida xulosa qilib, uning barcha tushunchalari va qarashlarini mohiyatini umumlashtiruvchi quyidagi fikrlarini keltirish mumkin:

Maqomi jabarut – shariat turur,

Maqomi malakut – tariqat turur,

Maqomi lohut – ma'rifat turur,

*Maqomi nosut – haqiqat turur.*²

Ularining mazmunini ochish va yoshlar tarbiyasida tutgan o'rnini muvaffaq ravjda e'tibor berish va ularni o'zlashtirish ishlarini yanada rivojlantirish va yanada rivojlantirish ishlarini yangi bo'limlarini tashkil qiladi.

Xullas, Xoja Ahmad Yassaviy islom ahkomlarining turkiy xalqlar orasida yoyilishiga, yosh avlodlarni islom diniy qadriyatlarini asosida tarbiyalash nazariyasi va uslubiyatiga katta hissa qo'shdi. Keyinchalik, O'rta Osiyoda ta'lim-tarbiya sohasida mashhur bo'lib ketgan "Hikmat" nomli turkiy janri orqali poklik, halollik, yolg'ondan saqlanish, kishi moliga, onomatiga xiyonat qilmaslik, to'g'rilik kabi ko'pgina insoniy fazilatlarini tarbiyalash, ularni shakllantirishga xizmat qiluvchi o'g'it, she'rlar yaratildi. Uslublar izlab topdi. Bu bilan u turkiy tilli yo'nalishdagi tasavvufni rivojlantirishga xizmat qiluvchi, turkiylar ma'naviy olamini boyitish yo'llarini belgilab beruvchi va ilm toliblariga ta'lim berishda o'ziga xos maktabga asos soldi. Bu butun turkiy ma'naviyat, san'at, adabiyot, mil-

¹ Ahmad Yassaviy. *Devoni hikmat*. T., F. Gulom nomidagi nashriyat-matbaa birlashmasi, 1992, 17-bet.

² Ahmad Yassaviy. *Devoni hikmat*. 17-bet.

liy tarbiya nazariyasi va amaliyotida o'chmas iz qoldirdi. Biroq kommunistik mafkura ulug' alloma ijodiyotini sinfiy nuqtai nazardan baholab, yassaviya tariqati haqida hech bir ilmiy asosga ega bo'lmagan qarashlarni targ'ib qildi. Sho'rolar davrida Xoja Ahmad Yassaviy va yassaviyn tariqatiga yondashuv qanday bo'lganligini quyidagi hujjat -- spravochnik ham juda yaxshi ifodalaydi:

"Yassaviy Ahmad (1105–1166-yillar) so'fiylik tariqatining asoschisi, shoir va din targ'ibotchisi. Qadimiy o'zbek (turk) tilida yozgan. Yassaviy asarlari majmuasi 1878-yili nashr etilgan "Devoni hikmat" nomi bilan ma'lum. Bu asar islom mafkurasining sodda ifodasi bo'lib, so'fiylik asoslarini targ'ib qiladi. Uning fikricha, dunyoning noz-ne'matlarini iltijo qilgan kishi so'fiy emas, balki baxtsizlik va g'urbatni ixtiyor etib, umrini toat-ibodat hamda yig'i bilan o'tkazgan kishi so'fiydir. Yassaviy va uning tarafdorlari xalq ommasini o'z tomoniga qaratishga urinib, o'sha davrdagi zolimlarni, amaldorlarni, poraxo'rlarni, shayxlarni tanqid qilsalar-da, shu bilan birga ommani ruhiy jihatdan tinchlantirish maqsadida jannat lazzatlarini tasvirlashga, bu dunyoni bevafo, o'tkinchi va undagi hayot haqiqiy emas, deb ko'rsatishga uringanlar. Bu dunyodagi zulm va jafolarga bardosh berish, shukr qilishga chaqirganlar."¹

Yassaviylik – islomdagi so'fiylik tariqati bo'lib, XII asrda O'rta Osiyoda paydo bo'lgan va Eron, Hindiston, Sharqiy Turkiston, Turkiya, Tatariston kabi o'lkalarga ham keng yoyilgan. Asoschisi – Ahmad Yassaviy. Uning eng mashhur tashviqotchilaridan biri Sulaymon Boqirg'oni – Hakim Atodir. Yassaviya tariqati ruhiy osoyishtalikka, so'fiylik yo'liga kirishga, ustoz rahbarligida "kamolot" sari borish yo'l-yo'riqlarini o'rgatadi. Kishi butun hayotida ishonch, mehr, muhabbat bilan yashashi zarurligi, hayotning mohiyati ezgu ishlarga intilib yashashdan iborat ekanligi Xoja Ahmad Yassaviy qarashlarining yetakchi g'oyasi hisoblanadi. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, Xoja Ahmad Yassaviy ijodiy, ma'naviy merosiga bo'lgan qiziqish yana ham ortdi. Bu merosning ma'naviy ildizlari nihoyatda boy ekanligi, u insonni ezgulik, kamtarinlik, qanoatga undashi Xoja Ahmad Yassaviy hikmatlarining tahlilidan yaqqol ko'rinib turadi. Bu hikmatlar sahih hadislarini o'zida jo qilgan xalqchil she'riy misralar bo'lib, bugungi kun o'quvchisini ham ezgulik, sabr, bardosh, qanoat, kamtarinlik ruhida tarbiyalash yo'lida

¹ Исхандаров Б. Тасаввуф фалсафаси. Т., 1995. 187 – 188-бетлар.

Uatta xizmat qiladi va jamiyatda shaxs tarbiyasi bo'yicha ijobiy samaralarga erishishga ko'maklashadi.

II BOB. XOJA AHMAD YASSAVIY TASAVVUFİY DUNYOQARASHIDA INSON KAMOLOTI MASALALARI

2.1. Xoja Ahmad Yassaviy ta'limotida barkamol inson tarbiyasi

Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarida keng tarqalgan tariqat va suluklarning umumiy va mushtarak xususiyati Alloh vasliga yetishga, islom dini, Qur'on va shariat qonun-qoidalariga amal qilishga da'vat etishdir. Bahouddin Naqshbandga pir bo'lgan hazrat Mir Kulolning ta'kidlashicha, "Tariqat, shariatni muhofaza etuvchi ilohiy amaldir". Ahmad Yassaviy ham o'zining diniy-falsafiy qarashlarida Qur'on va shariatga asoslangan. Taniqli olim I.Sultonning Ahmad Yassaviy ta'limotining asosiy jihatlari haqidagi quyidagi fikrlariga qo'shilsa bo'ladi: "To'rt mavzu, yana ham to'g'rirog'i – to'rt maqsad Yassaviy adabiy merosining asosini tashkil etadi, – deb yozadi u. – Buyuk mutafakkirning birinchi maqsadi – odamlarni Allohni tanishga, uning yaqini bo'lishga da'vat etishdir. Ikkinchisi – dunyodagi gunohni, ayniqsa, adolatsizlikni qoralash, uchinchisi adolatsizlik kurboni bo'lgan insonni himoya etish va adolatga da'vat etishdir. To'rtinchi maqsadi – bu dunyoning dog'larini insonga yuqtirmaslik uchun, uning gunohlaridan insonning tozaligini saqlash yo'li yoki vositasi sifatida bu dunyodan nari turishga, ya'ni tarkidunyochilikka da'vat etish. Yassaviy ijodining hamma boshqa g'oyalari shu to'rt mavzu, maqsad doirasidan uzoqqa ketmaydi".

Darhaqiqat, Allohni tanish uchun birinchi galda islom asoslari bo'mish "Qur'on karim" hamda hadisi shariflarga suyanmoq, ularning g'oyalariga sadokat ko'rsatish taqozo qilinadi.

Xoja Ahmad Yassaviy so'fiylik ta'limotining aksariyat qismi imon-e'tiqod tarbiyasiga bag'ishlangandir. Unda qirqta (40) maqom ko'rsatilgan bo'lib, ulardan o'ntasi lohut, ya'ni ma'rifat va ilm olishga qaratilgan. Bunda, asosan, inson aqliy jihatdan tarbiyalanishi asoslanadi. Shu nuqtayi nazardan, buyuk alloma ma'rifat maqomi insonda aql va tafakkur shakllanishining poydevori ekanligini ko'rsatadi hamda bu maqom insonning axloqiy shakllanishini ham o'z ichiga qamrab oladi, deb tushuntiradi. Shuningdek, u aqliy tarbiya va axloqiy shakllanish jarayonlarini o'zaro uzviy bog'liqlikda ham asoslab bera olgan. Quyida ilma'rifatga bag'ishlangan ushbu 10 ta maqomni ko'rsatib o'tamiz:

Ma'rifat – bu, avvalo, fano bo'lmoq,

Ikkinchi – darveshlikni qabul qilmoq,

Uchinchi – har ishga tahammul qilmoq,
To‘rtinchi – haloli tayyib talab qilmoq.
Beshinchi – ma‘rifat qilmoq,
Oltinchi – shariat va tariqatni barpoy tutmoq,
Yettinchi – dunyoni tark qilmoq,
Sakkizinchi – oxiratni ixtiyor qilmoq,
To‘qqizinchi – vujud maqomin bilmoq,
O‘ninchi – haqiqat asrorini bilmoq turar.¹

Birinchi maqom. Xoja Ahmad Yassaviyning “*Ma‘rifat bu, avvalo, no ho‘lmoq*” deb ko‘rsatilgan birinchi maqomida “fano” tushunchasi zidan va butun borliqdan kechib, ilohiyatga sig‘inish ma‘nosini anglatadi. Har bir insonning nafs xirslardan tozalangan musaffo yuragida ilm olishga ehtiros, ijod qilishga ishtiyoq uyg‘onadi. Shu sababdan Yassaviy o‘zining ma‘rifat manzilida Xudo mohiyatini to‘la anglab, ilm-u axloqning kamillikka yetishini binobarin, u oriflik darajasiga ham ko‘tarilishini bildiradi. Bu bilan inson hayoti davomida murakkab kamolot yo‘lini o‘zlashtiradi va o‘zidan yaxshi va yomon nom qoldiradi.

So‘fiylikning *ikkinchi maqomi “darveshlikni qabul qilmoq”* deb ko‘rsatiladi. Yassaviy darveshlik maqomi 40 ta ekanligini ko‘rsatib, agar o‘larga bilib amal qilinsa, darveshlik pok turur va agar bilmasa, o‘rganmasa, darveshlik maqomi unga harom va johil turur, deydi. Bu 40 ta maqomdan 10 tasi shariatda, 10 tasi tariqatda, 10 tasi ma‘rifatda turur va keyingi 10 tasi haqiqatda turur, deb har biriga nisbatan o‘zining munosabatini ifodalaydi va ularni bajarish uchun 10 ta ulug‘ yo‘lni ko‘rsatadi.²

Ushbu maqomda “darveshlikni qabul qilish” deganda dunyo nozomatlari, uning lazzatlaridan kechish lozimligi tushuniladi. Chunki butundan xolos bo‘imagan kishi nopok, nodon, zulmkor, molparast, manlabparast kabi illatlariga ega bo‘lib, o‘zini baxtsizlik va g‘urbatga ixtiyor etishi, ya‘ni molparastlar mol-dunyo uchun bir-birlariga shafqat qilmasdan, nodonlik bilan johillik ko‘rsatishlari ham mumkin. Xuddi shu nuqtai nazardan mazkur maqomni yoshlarga tushuntirish va ularning ongini singdirish ularda ijobiy insoniy fazilatlarini tarbiyalashda qo‘l keladi. Mazkur maqomdan o‘quvchilarda qimmatbaho zebu ziynatlarni taqish, to‘plash; rang-barang jiloli matolardan turli ko‘rinishdagi kiyim-kechaklar tiktirib kiyish; pul, siym-u zar va mol-dunyoga nisbatan o‘chlik kabi salbiy sifatlarni bartaraf etishda foydalanish mumkin.

¹ Ahmad Yassaviy. Devoni hikmat. 12-bet.

Ahmad Yassaviy. Devoni hikmat. T. 1. F. F. ulom nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi, 1992, 11-bet.

Uchinchi maqomda "har ishga tahammul qilmoq", ya'ni bu so'z dagi "tahammul qilmoq" tushunchasi "bardosh bermoq", "sabr-toqat bilan kutmoq" ma'nolarini anglatadi. Bunda o'quvchi va talabalarga har qanday zahmatli mehnat, turmush qiyinchiliklariga bardosh berish lozimligini o'rgatish hamda sabr-toqat bilan oxirigacha yetkazilgan ishning natijasi samarali bo'lishini uqtirib borish lozim. Bu bilan o'quvchilar optimistik ruhda tarbiyalanib, ularda bardoshlilik, sabr-toqatlilik kabi xislatlar shakllantiriladi.

To'rtinchi maqom "haloli tayyib talab qilmoq" deb nomlangan bo'lib, bunda kishi halol deb hisoblangan narsalardan tanovvul qilishi, o'zini gunoh ishlardan tiyib halol turmush kechirishi, o'zgarar mol-dunyosiga ko'z tikmasligi, dunyoga kuchli havas uyg'otmasligi, halol bilan haromni ajrata olishi, halollik, poklik va adolat kabi xususiyatlarni o'ziga singdirishi lozim.

Beshinchi maqom "ma'rifat qilmoq" deb yuritilib, bunda insonning komillikka erishuvi to'g'risida fikr bildiriladi. Xoja Ahmad Yassaviy Muhammad payg'ambarimizning "Ilm egallang, ilm sahroda do'st, hayot yo'llarida yo'ldosh, baxtiyor daqiqalarda – rahbar, qayg'uli onlarda – madadkor, odamlar orasida – zeb-u ziynat, dushmanlarga qarshi kurashda–quroldir", degan hadisiga amal qilgan, ya'ni bu bilan inson bilimiga intilishi, o'qish va o'rganish orqali ushbu o'tkinchi dunyoning yolg'onchi huzurlaridan voz kecha olishi hamda uni yomon yo'llarga undovchi nafs vasvasasidan o'zini xalos qila olishga o'zida kuch-quvvat, iroda to'play olishi ta'kidlanadi.

Oltinchi maqom "shariat va tariqatni barpoyn tutmoq" deb belgilanadi, ya'ni, bunda inson musulmonchilikning barcha qonun-qoidalarini o'rganib rioya qilishi, undagi barcha farz qilingan amallarni bajarishi, o'zini gunohlardan saqlashi, man qilingan ishlardan tiyishi, g'araz va yomonliklardan tozalashi, o'ziga berilgan ne'matlar uchun shukronalar qilib yashashi va yolg'iz Allohgagina sig'inishi lozimligi uqtiriladi.

Ettinchi maqom "dunyoni tark qilmoq" deb ko'rsatilgan. Bunda bu yolg'onchi dunyo lazzatlaridan voz kechish, kamtarona hayot kechirish g'oyalari ilgari suriladi. Shuningdek, insonni baxtsizlikka eltuvchi nafsni yengishga, ta'magirlik va g'arazgo'ylik kabi illatlardan yiroq bo'lishga undaydi. Kamtarona hayot inson ruhini xotirjam qilib, uni tetiklashtiradi. O'tgan XX asrda agar nafs yetagida yugurmay, u o'z vaqtida jilovlanganda edi, Oroldek buyuk dengizdan ajralib qolmasdik. Sho'rolar olti million paxta yetishtirib dunyoda birinchi o'ringa ko'tarilishni is-

lidi. Natijada bunday vasvasa qanday oqibatlariga olib kelgani bugun umimga ma'lum bo'lib turibdi.

Sakkizinchi maqom "oxiratni ixtiyor qilmoq" deb nomlangan bo'lib, unda bu o'tkinchi dunyodagi barcha narsalar yolg'onchi "noz-ne'tlar" ekanligi, oxiratdagi dunyo esa abadiy ekanligi tushuntiriladi, uni bu dunyoda har birimizga in'om etiladigan mol-dunyo, uy-joy, shina, martaba, mansab va hatto farzand ham agar hushyor bo'lmagan bo'lsa, bizga quvonch bag'ishlab, qalbimizni aldab imondan chiqaruvchi dalalardir. Shu sababdan Yassaviy ta'limotida kishining oxirat haqida o'ylashi, qayg'urishi, ya'ni oxiratni ixtiyor etishi uni abadiy baxt-fulatga eltadi, deb e'tirof etiladi. Biz o'quvchi yoshlarimiz va talabalarimizga bunday tushunchalar mohiyatini ko'rsatishimiz, oddiy insoniy fushga o'rgatishimiz ularning atrofidagi kishilar, ota-onalari, ustozlari opa-singil-u aka-ukalariga nisbatan mehr-oqibatli va hayotda imon-qodli bo'lib shakllanishi hamda mukammal shaxs darajasiga yaqinlashishiga xizmat qiladi.

To'qqizinchi maqomda "vujud maqomini bilmog" deb ko'rsatiladi. Unda kishi vujudini, tanasini boshqara olishi, uni turli xil ofatlardan ehtiyot qilishi, saqlashi zarurligi uqtiriladi. Darhaqiqat, bu ota-bobolarimiz ta'limot tajribalarida isbotlangan fikr. Kishiga vaqtida uxlash – uning miya faolligini yaxshilashi; nafsga ortiqcha ruju qo'ymasdan, kam yeb-ichish – unda ichki kasalliklarning oldini olishi; kamtarona oddiy kiyinish – uni turli tana-teri kasalliklari kelib chiqishidan asrash; tilovat va ibodat qilish esa uni jismoniy hamda gigienik jihatdan juda foydali bo'lib, bu hech qanday shubhaga o'rin qoldirmaydi.

O'ninchi maqom "haqiqat asrorini bilmog turar" deb belgilangan bo'lib, unda yuqorida aytib o'tilgan maqomlarning barchasini to'la egallagan kishi yetuk, komil shaxs bo'lib shakllanishi bilan birga, uning ruhi ham poklanishi bildiriladi. Xuddi shu holatdagina inson Haqqa yetishuvchi Alloh bilan bevosita muloqot qilish sharafiga muyassar bo'lishi uqtiriladi. Tarixiy manbalarda ko'rsatilishicha, mazkur maqomlarga to'la va mukammal amal qilgan ajdodlarimiz orasida ko'plab avliyolar yetishib chiqqan.

So'fiylik maqomidagi ushbu tamoyillar tarbiya sohasida bugungi kunda ham o'z qimmatini yo'qotmagan. Ayniqsa, ta'lim-tarbiya tizimida Xoja Ahmad Yassaviyning "Rasoil", "Faqirnoma", "Devoni hikmat" asarlaridagi diniy va dunyoviy bilimlar bilan ta'minlovchi hikmatlaridan foydalanish o'quvchi va talabalarni aqliy va axloqiy tarbiyalash bilan bir

qatorida, ularni kuchli e'tiqod egasi qilib shakllantirish imkonini beradi. Imon-e'tiqodli kishi sabrli barcha yomon sifatlardan xoli bo'lishi, ya'ni u pok, halol, to'g'riso'z, o'zga moliga, omonatiga xiyonat qilmasligi, noatli, sabr-toqatli, saxovatli, diyonatli va sadoqatlilik kabi sifatlarga bo'lishi bilan boshqalardan ajralib turadi. Shu sababdan ham bugungi kunda ta'lim-tarbiya tizimida o'quvchi-yoshlar va talabalarning e'tiqod tarbiyasi bilan ham jiddiy shug'ullanishimiz faqatgina foydali bo'ladi.

Endi, e'tiqod tarbiyasi bilan bog'liq tarixiy manbalardan olingan yassaviya tariqatiga oid ma'lumotlarni keltiramiz. Tarixchilarning guvohlik berishlaricha, madrasa va maktablarda Qur'oni karim va payg'ambar hadislaridan keyin Xoja Ahmad Yassaviy hikmatlaridan ham yoshlarni tarbiyalashda keng foydalanilgan ekan.

Xoja Ahmad Yassaviy shogirdlariga faqat ruhoniy ustoz, pir bo'libgina qolmay, insonlarga halol va adolatli bo'lish, o'z mehnati bilan beminnat yashash yo'llarini o'rgatardi. Xususan, ularni bilim olishga chaqirib, hech bir kimsaga, hatto u g'ayri din yo kofir bo'lsa ham, ozor bermang, deya ta'kidlaydi:

Sunnat ermish kofir bo'lsa, herma ozor,

Ko'ngli qattiq dilozordan xudo bezor.¹

Ushbu hikmatda bugungi kun uchun nihoyatda ahamiyatli bo'lgan millatlararo bag'rikenglik, xushmuomalalik, shirinso'zlik targ'ib qilingan.

Yosh Ahmad bolaligidanoq o'zining farosati, aql-u zakovati bilan tengdoshlari orasida ajralib turardi. Uning bilimdonligi, aql-zakovati haqida bir qancha rivoyatlar mavjud. Xoja Ahmad Yassaviy hayotnomasida unga yetti yoshlik chog'ida turkiy xalqlar avliyolaridan Arslonbobning nazari tushgani aytiladi. "Devoni hikmat" kitobida ham bu haqda uning o'zi shunday xabar beradi:

Yetti yoshda Arslonbobga berdim salom,

Haq Mustafo omonatin qiling in'om.

O'shal vaqtda ming bir zikrin qildim, tamom

Nafsim o'lub lomakong'a oshdim mano.²

Shoir ushbu satrlarida o'zining olgan ilmi asosida martabasi ulug'langaniga ishora qiladi. Rivoyatlarga ko'ra, Rasuli akram Muhammad alayhissalom 63 yoshda vafoti oldidan ashoblarini chaqirib: "Qay biringiz omonatimni (islom dini ta'limotini) falon ummatimga yetkazgay-

¹ Ahmad Yassaviy. Hikmatlar. 9-bet.

² Ahmad Yassaviy. Hikmatlar. 45-bet.

” – deb so‘raganlar. Shunda Arslon Bob bu ishni o‘z zimmasiga olgan. O‘sha paytda sayyoh darvesh Arslonbob 100 yoshga kirib, dunyoda 33 xil din bilan tanishib, shular orasidan islom dinini tanlagan ekan. Yig‘ambar shundan so‘ng omonatini Arslon Bobga topshirib, ko‘ngilini tinchib, haq dargohiga yo‘l olgan ekan. Oradan 400 yil o‘tganda, Arslon Bob cho‘lda ketayotib, 7 yoshli Ahmad Yassaviyni uchragan. Go‘dak Ahmad avliyo Arslonbobni tanib: “Ustez, mening omonatini bering!” – deb so‘ragan ekan.

Ushbu rivoyatda keng ko‘chma ma‘no mavjud bo‘lib, birinchidan, insonning madaniyatining o‘z madadning yoshligidan bilimdonligi, donishmandligi, ikkinchidan, hazrat Arslon Bobni boshqa birov emas, go‘dak Xoja Ahmad Yassaviy yaratgani va uni tanib, e‘tiqod va imon ilmini kelgusi yosh avlodlarga o‘tkazishdek olamshumul vazifani o‘z zimmasiga olgani bejiz emas, albatta. Bunday sharaf ko‘ngli pok va xudo yo‘lida beg‘araz jasoratlar ko‘rsatuvchi valiy (Allohga yaqin) sifatiga erishgan odamlargagina nasib etgan.

Aqliy tarbiya borasida fikr yuritar ekanmiz, shuni, albatta, nazarda tutishimiz joizki, ya‘ni inson ko‘nglini poklab olishi uchun avvalo, o‘zidagi son-sanoqsiz illatlardan xalos bo‘lishi zarur. U, birinchi navbatda, jaholat changalidan qutulishi uchun o‘zi bilan o‘zi kurashishi, o‘ziga tanqidiy munosabatda bo‘lib, nafs va g‘araz, kibr-u havo, ta‘magirlik kabi nuqsonlarini yengishi, hamisha o‘zini qat‘iy ta‘na-yu dashnomlar bilan nazorat qilishi lozim. Bu borada Xoja Ahmad Yassaviy nodon, ilmsiz, ma‘rifatsiz kishilarga qarata shunday deydi:

Zolimlarni shikva qilma, zolim o‘zung.

Xuyung riyo, ta‘sir qilmas xalqqa so‘zung.

Dunyo molin to‘la berdim, to‘ymas ko‘zung.

Harislarni siffin ichra soldim mano.¹

Bu satrlar bilan Yassaviy nodon zolimlar, dunyo va nafs uchun intiluvchi aqlsiz, farosatsiz kishilarni tanqid qilishdan oldin aql-zakovat bilan fikr yuritib, ko‘z dunyo moliga to‘ymasligini, bunday kishilarning hech qanday so‘zi xalqqa ta‘sir qilmasligini ko‘rsatib, har bir kishida havas qiluvchi sifat – imon, e‘tiqod va bilim bo‘lishi kerakligini ta‘kidlaydi.

“Devoni xikmat” asarida yozilishicha, Xoja Ahmad Yassaviy piri Arslon Bobni dafn etgach, dunyo kezish, bilim olish uchun olis yo‘lga

¹ Ahmad Yassaviy. Devoni xikmat. 35-bet.

otlanadi.¹ Islom dinining Sharqda yongan chirog'i Buxoroyi sharif ilmga intiluvchi yosh Ahmad Yassaviyni o'ziga tortar edi. Ovro'poliklar o'sha vaqtlardayoq bu shaharni ikkinchi Rumo (Rim) deb atardilar. Biz oldingi bobda ko'rsatib o'tganimizdek, Buxoroda zamonasining eng buyuk allomalaridan biri, ko'plab shogirdlar va aynan Ahmad Yassaviyning ham ustozlari hisoblangan Shayx Yusuf Hamadoniy yashar va shogirdlariga saboq berar edi.

Xoja Ahmad Yassaviy turli mashaqqatli bosqichlar va riyozatlar vositasida o'zini tarbiyalab, og'ir imtihonli uzoq yo'lni bosib o'tib, oliy ruhiy olam sirlariga yetishgani, ya'ni valiylikka erishgani uchun o'z nafsidan, kibr-u havodan ustun kelgan edi. Quyidagi baytlarda buni yaqqol ko'rish mumkin:

*Jondin kechgan chin oshiqlar dunyo demas,
Bu dunyoda sud-u ziyon bo'lsa bilmas,
Nafsi o'luk, ob-u taom g'amin yemas,
Dunyo kelib, jilva qilsa boqqani yo'q.*²

Ayni vaqtda ulug' shoir o'zini o'zgalardan ustun qo'ymaydi, valiyman, deb kibr-u havoga berilmaydi, Aksincha, o'ziga tanqidiy nazar bilan qaraydi, o'zini va o'zgalarni bilimdonlikka, kamtarlikka chaqiradi:

*Yo'ldan chiqib, ozganimni bilmadim men,
Haq so'zini qulog'imga olmadim men,
Bu dunyodan ketarimni bilmadim men,
So'rar bo'lsa, men qul anda ne qilg'ayman?*³

Sohibqiron Amir Temur 1395-yili Xoja Ahmad Yassaviy qabri ustida ulkan maqbara qurdirdi. Uning sirliligi, mahobati va go'zalligi Bibixonim, Oqsaroy, Buxoro Arki, Shayxul Olam (Sayfiddin Boxarziy) tarixiy obidalari bilan bimalol bellasha oladi. Maqbaraning 35 ta xonasi mavjud. Qozog'iston respublikasi hududida joylashgan Yassidagi Xoja Ahmad mozorlari ayni shu kunlarda butun dunyodan keladigan muqaddiy muxlislar uchun obod va fayzbaxsh ziyoratgohdir. Yassaviy ta'limoti esa muntazam ravishda oldimizni to'sib turadigan hayot murakkabliklari va chigalliklari orasidan to'g'ri yo'l topib odimlashimiz uchun eng yaxshi tarbiya dasturlaridan biriga aylangan.

Xoja Ahmad Yassaviy maqbarasi – ziyoratgohi haqida muayyan bilim, ma'lumotga ega bo'lish ham yoshlarning aqliy tarbiyasi ishlarini

¹ Ahmad Yassaviy. Devoni hikmat. 27-bet.

² Ahmad Yassaviy. Devoni hikmat. 128-bet.

³ Ahmad Yassaviy. Hikmatlar. 183-bet.

rivojlantirish uchun ba'zi jihatlari bilan foydalidir. Shu sababdan ayrim ilmiy manbalardan quyidagi fikr-mulohazalarni ishinizga kiritishni zarur, deb hisobladik.

Maqbara binosining asosiy peshtoqi janubi sharq tomonga qaratib qurilgan. Ushbu maqbarani muhtashamligi jihatidan Misrdagi Xeops ch-romiga va boburiy Shoh Jahon Hindistonning Agra shahrida qurdirgan Tojmahal¹ maqbarasiga qiyoslash mumkin.²

Xoja Ahmad Yassaviy tariqati bilan yaqindan tanishib, uning ilmiy ma'naviy merosi muxlisiga aylangan Yevgeniy Yefimovich Berezikov "Nasafiy" taxallusi bilan 1993-yili "Xoja Ahmad Yassaviy" kitobini nashrdan chiqardi.³ Bu kitobda u jumladan, o'zi ham 1990-yilning dekabr oyida Xoja Ahmad Yassaviy ma'naviy merosini o'rganishga bag'ishlab o'tkazilgan xalqaro anjumanda qatnashgani to'g'risida so'zlaydi. Muallif ushbu anjumanda YUNESKOning "Buyuk ilak yo'li"dagi madaniy aloqalar: Xoja Ahmad Yassaviy olami" dasturnomasi bo'yicha dunyoning 25 mamlakatidan kelgan vakillar ishtirok etganini ma'lum qiladi. Maqbaraning muqaddas mehrobi oldida Qur'on tilovati chog'ida o'zi ham unga qo'shilgani hamda buyuk Xoja Ahmad qabrini tavof aylab, hazratning mo'jizaviy qudratini his qilgani va undan quvvat olganini jo'shqin mamnuniyat bilan ta'riflaydi. Shuningdek, u Yassaviyning bizga qadar yetib kelgan "Devoni hikmat" nomli asari hamma zamonlarda, barcha turkiyzabon qavmlarga manzur va maqbul bo'lib kelganligi, mazkur asar insonni asl komillikka eltadigan, e'zgulik uchun fidoyilik va e'tiqodda sobitlik, haloilik, poklikni targ'ib-tashviq etadigan she'riy to'plamligi, shu bilan birga kishilarni asl maqsad - Alloh vasliga erishmoq yo'lida kamolot mashaqqati, axloq tarbiyasi, riyozatini chekmoqqa, ma'rifat kasb etmoqqa, islomiy va dunyoviy ahkamlarni egallamoqqa chorlashi haqida to'xtalib o'tadi.⁴

Xoja Ahmad Yassaviy masjidida hazrati Rasulullohning "Talab ul-ilmi farizatur ala kulli mustima va muslimatin" (ya'ni "Ilm olmoq har bir musulmon va muslima uchun farzdir"), degan hadisi bitigi va u bugungi kunda ham qadimiy binoning husniga yanada ko'rk ba-

¹ Shoh Jahon Hindistonning asosiy ma'naviy merosi muhtashamligi jihatidan Misrdagi Xeops ch-romiga va boburiy Shoh Jahon Hindistonning Agra shahrida qurdirgan Tojmahal maqbarasiga qiyoslash mumkin.

² Nasafiy (Евгений Ефимович Березиков) Xoja Ahmad Yassaviy. T. 1. Gafur Gulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyati. 1993. 14-bet.

³ Nasafiy. Xoja Ahmad Yassaviy. 116 bet.

⁴ Ushu maqba.

g'ishlab turibdi. Bulardan yoshlarga ilm berishda hadislardagi boy tarbiyaviy o'g'itlarni, hayot haqiqatlarini turkiy tilda tarqatish Yassaviy tariqatining maqsadi ekanligi yaqqol ko'rinib turadi. Bu o'rinda Ahmad Yassaviyning birinchi hikmati hech bir o'quvchini e'tiborsiz qoldirmasa kerak:

*Bismilloh deb bayoy aylab, hikmat aytib,
Toliblarga 'a durru gavhar sochdim mano.
Riyozatni qottig' tortib, qonlar yutub,
Men "Daftari soniy" so'zin sochdim mano.¹*

Ya'ni, o'z shogirdlariga qanday qiyinchiliklar, riyozatlar orqali bilim gavharini sochganligini aytib, o'zni talab qilganlarga va qalb orqali seza bilganlarga, g'arib, yetim, faqirlarning ko'nglini olib, ilm berganligini quyidagicha tasdiqlaydi:

*So'zni aytdim har kim bo'lsa diydor talab,
Jonni jong'a payvand qilib, rangni ulab,
G'arib, faqir, yetimlarni ko'nglin ovlab,
Ko'ngli qattiq xaloyiqdan qochtim mano.²*

Keyingi misraga hikmat majmuasi sifatida e'tibor qilsak, bu misrada "ko'ngli qattiq xaloyiq" deb u "ilmning cho'qqisiga yetdim", ya'ni "ilm chegaraga ega" degan fikrlovchilardan qochganligini ko'rsatib, ilmning cheksizligiga, uni qancha ko'p bilsang, shuncha ko'p narsani bilmasliging ma'lum bo'lib boraverishiga ishora qiladi. Yana bir hikmatida Xoja Ahmad Yassaviy o'zi shaxsiy namuna ko'rsatib, aqlli, ilmi odam g'ariblarning ko'nglini olishi, elni kezib ularning dardlariga malham topishi va ma'rifiy suhbatlar qurishi, dunyoparast bilimsiz kishilardan uzoqroq yurishga da'vat qiladi:

*Oqil ersang, g'ariblarni ko'nglin ovla,
Mustafodek elni kezib, yetim kovla,
Dunyoparast, nojinslardin bo'yun tovla,
Bo'yun tovlab, daryo bo'lub toshtim mano.³*

Ayni paytda, Yassaviy nodonlik, jaholat va diniy aqidaparastlikni razolat deb qattiq qoralagan. Shuning uchun ham o'tmishda hikmatlari singari o'zining shuhrati ham Turkistonda keng tarqalgan. Xalq orasida Yassaviyni denishmand, bashoratchi alloma qiyofasida tasvirlovchi ko'plab rivoyatlar yaratilgan.

¹ Ahmad Yassaviy. Hikmatlar. 41-bet.

² Usha manba

³ Ahmad Yassaviy. Devoni hikmat. 20-bet.

Xoja Ahmad Yassaviy ilm-ma'rifat targ'ibotchisi sifatida ko'zga ko'ringan mohir muallim hamdir. Bu ma'noda mol-dunyo yig'uvchilarga, boylik ortirish niyatida bir-biriga shafqat qilmasdan nodonlik, aqida-parastlik, johillik qiluvchilarga kuchli nafrati uning quyidagi hikmatida yaqqol ko'zga tashlanib turadi.

*Nodonlarga esiz so'zum, hayf hikmat,
Odammen, deb belin bog'lar, qani himmat!
Dunyo uchun bir birig'a qilmas shafqat,
Zolimlarga asir bo'lib o'ldim mano.¹*

Ushbu hikmatda teran ijtimoiy pedagogik ma'no bor, ya'ni unda nodonlarga so'zning bekor ketishi, ular "odamman" deb belini bog'lashlari, lof urganlari bilan hech kinga hech qachon himmat ko'rsata olmasliklari, mol-dunyo uchun bir-birlariga shafqat qilmasliklari fosh qilinmoqda. Inson tabiatida aynan zolimlikning paydo bo'lishi, uning kelib chiqish sabablarini ham Xoja Ahmad Yassaviy bilimsizlik va nodonlikda ko'radi. Shu o'rinda yurtboshimiz Islom Karimov tomonidan aytilgan "Kuch-bilim va tafakkurda" degan hikmatli so'zlar ham naqadar teran va asosli tarixiy zaminga ega ekanligi yaqqol ko'zga tashlanadi.²

Yassaviy yoshlarga murojaat qilib, bilim egallash oson emasligini tushuntiradi. Uni qo'lga kiritish uchun uzoq yillar davomida har qanday qiyinchiligu mashaqqatlarga qaramasdan tinmay izlanish va o'z ustida qunt bilan ishlash, kishidan metindek irodaga ega bo'lish talab qilinadi. Shunday sifatlarga ega bo'lgan shaxsgina bilim va fan cho'qqilarini asta-sekin egallay olishi ta'kidlanadi. Bu borada u 20 yoshlari atrofida Buxoro va boshqa shaharlarda turli ustozlari rahnamoligida ilm, ma'rifat hosil etgani, ustozlari ko'rsatmalariga amal qilib, barcha insonlarda bo'lgani kabi o'zidagi xilma-xil illatlardan qutulish va yomonliklardan o'zini himoya etish yo'llarini izlab topishga uringani, hamisha o'zini nazorat qilishga intilganini quyidagi misralarda ifodalaydi:

*O'n to'qqizda yetmish maqom zohir bo'ldi,
Zikrin aytib, ich-u toshim tohir bo'ldi,
Qayda borsam, Xizr bobom hozir bo'ldi,
G'avs ul-g'iyos may ichurdi, to'ydin mano.*

Yoshim yetti yigirmaga, o'tdim maqom,

¹ Ahmad Yassaviy. Devoni hikmat. 35-bet.

² Karimov I.A. Barqamol avlod - Uzbekiston taraqqiyyatining пойдевори. Uzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi 1X sessiyasida suzlagan nutqi. 1997 yil 29 avgust. T., "Sharq", 1997, 8-bet.

*Bihamdilloh, pir xizmatin qildim tamom,
Dunyodag'i qurt-u qushlar qildi salom,
Ul sababdan Haqqa yovuq bo'ldim mano.*¹

Xoja Ahmad Yassaviy tasavvufiy ilm-ma'rifat hosil qilib, tariqat qoidalari va amallarini o'zlashtirib, ustozidan xalq irshodiga² ruxsat olganidan keyin ham faqirlik yo'lini tanlab, biror yerda muqim uy-joy qilmasdan, shaharma-shahar, qishloqma-qishloq yurib, xalqni ilm, ma'rifatga, hukmdorni imon-e'tiqod, insof-diyonatga boshlovchi, jamiyat rivoji uchun xizmat qiluvchi bilimlarni targ'ib qilgan. U hikmatlarida mehr, muhabbat tuyg'ularini tarannum qiladi. Ishqni har narsadan, hatto zuhd va taqvodan ham ustun qo'yadi. Uni yashashning mazmuni, asosi, deb hisoblaydi. Bunday fikrlar quyidagi baytlarda ko'rinadi:

*Ey bexabar, ishq ahlidin bayon so'rma,
Dard istagil, ishq dardiga darmon so'rma.
Oshiq bo'lsang, zohidlardin nishon so'rma,
Bu yo'llarda oshiq bo'lsa, tovonni yo'q.*

Yoki:

*Zohid bo'lma, obid bo'lma, oshiq bo'lg'il,
Mehnat tortib, ishq yo'lida sodiq bo'lg'il,
Nafsnii tiyib, dargohiga loyiq bo'lg'il,
Ishqsizlarni ham joni yo'q, iymoni yo'q.*³

Ushbu satrlar o'sha davrlarda so'fiylar orasida ham olimman, shayxman, falonman... deb maqtanib nopok ishlar qilib yuradigan riyokor kimsalar mavjud bo'lganidan darak beradi.

Xoja Ahmad Yassaviy o'zining "hikmatlar"larida ustozlari Arslonbob so'zlarini eslatib, ana shunday bilimsiz, nodon kimsalarni qattiq qoralaydi:

*Pir xizmatin qilduk deb, tolibmen deb yurarlar,
Yoyib harom-harishni, qo'lbarig'a urarlar.
Ko'zlarida nami yo'q, xalq ichra kirarlar,
Arslon bobom so'zlarin eshitingiz, tabarruk.*⁴

"Hikmatlar" asaridagi ilm va aqliy tarbiyaga doir fikrlarni o'rganish va ularni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, Xoja Ahmad Yassaviy fa-

¹ Ahmad Yassaviy. Devoni hikmat. 26-bet.

² Irshod - tuzgiri yuzga bo'shlash. tuzgiri ta'lim berish olish; murshid - diniy-dunyo'viy masalalar yuzasidan pайdo buladigan savollarga javob topib berishga kurbi etadigan, maxsus malaka va talqiribaga ega bulgan ilmi-dinonidir.

³ Ahmad Yassaviy. Hikmatlar. T. F. Fudom nomishviti ashobit va san'at nashriyati, 1991, 81-bet.

⁴ Ahmad Yassaviy. Devoni hikmat. 132-bet.

qat yirik din arbobi bo'libgina qolmay, ajoyib shoir va buyuk ma'rifatparvar, pedagog ekanligi bilan ham ko'z o'ngimizda namoyon bo'ladi. Uning atrofida mavjud bo'lgan hayot va uning ziddiyatlarga to'la olamini sinchkovlik bilan kuzatishlari juda nozik va teran pedagogik mushohadalarga boyligi bilan ajralib turadi. Bir zamonlar gullab-yashnagan, ilm-u urfon yuksakligiga erishgan Buxoroda ham, boshqa shaharlardagi kabi shohlar va hokimlar, vaziriar va, hatto ba'zi olimlardan himmat, ma'rifat, insof-diyonat yo'qolib borayotgani, ijtimoiy-ma'naviy tarbiyada bo'shliqlar paydo bo'la boshlaganidan qattiq tashvishga tushayotganini shoir quyidagicha ifodalaydi:

*Ahli dunyo, xalqimizda saxovat yo'q,
Podshohlarda, vazirlarda adolat yo'q,
Darveshlarning duosida ijobat yo'q,
Turlik balo xalq ustig'a yog'di, do'stlar.¹*

Yoki:

*Nokas, xasis, bediyonat qullar hokim,
Manmanlik haddin oshib, bo'ldi zolim,
Xalq ichinda xor bo'ldilar darvesh, olim,
Himoyati xalqni kofir bo'ldi, ko'ring...²*

Bu satrlar barcha xalqni ogohtiruvchi aqliy, ta'lim-tarbiyaviy kuchga ega bo'lgan misralardir. Komillikning asosini u hamma vaqt tarbiya, ilm vositasida aqlni peshlab borish hamda ma'naviy, ruhiy poklikda deb bilgan. Bu kabi ma'rifiy, nisonparvarlikni targ'ib qiluvchi qarashlar shoirga xalq orasida katta shuhrat keltiradi.

Shu bilan birga, Xoja Ahmad Yassaviy johil yo'chala ilm egalarini tanqid qilish orqali haqiqiy olim, chuqur bilimga ega bo'lgan kishining jamiyatdagi o'rini ko'rsatib beradi. Har bir so'zning ma'nosini bilib olgan holda ularni xalqiga, o'sib kelayotgai yosh avlodga ishonch deb keltirgan hikmatlaridagi so'zlarini dur va gavhar bilan tenglashtiradi. Xoja Ahmad Yassaviy o'z vazifasiga yuzaki qarovchi, pala-partish bajaruvchi, bilimi sayoz olimlarni ayovsiz tanqid qiladi va "haqiqiy olim kim?" degan savolga qator hikmatlari orqali javob beradi:

*Olim uldur, xisht yostanib tahsil qilsa,
Kecha-kunduz Tangrisiga zori qilsa.
"Falyaz haq-u" oyatini tafsir qilsa,
Andog' olim olim bo'lur, do'stlarimo!¹*

¹ Ahmad Yassaviy. Devoni hikmat. 67-bet.

² Ahmad Yassaviy. Devoni hikmat. 141-bet.

Olimlik va undagi yuksak aqliy salohiyatni Yassaviy qanday tushunadi? Uning satrlariga diqqat qiladigan bo'lsak, shoir uchun bu so'z nihoyatda ulug', insonga najot yo'lini ko'rsatuvchi tushunchadir. U olimlikning mas'uliyati, uning oldida turgan ijtimoiy vazifani qalbdan his qiladi va uning sifatlari bilan o'quvchini tanishtirib borishga urinadi. Uning bunday xatti-harakatlari ham jamiyatda ilmni targ'ib qilishning bir ko'rinishi edi. Yassaviy sodda va tiniq she'riy satrlarida ilm va ilmli shaxsni turli sifatlarda tinimsiz ko'rsatib boradi.

*Olim uldur, shariatda javlon qilsa,
Tariqatning bozorig'a o'zin solsa.
Muhabbatning daryosidan gavhar olsa,
Andog' olim olim bo'lur, do'stlarimo!*²

Ushbu satrlarda Olim – shariat, tariqat va muhabbat olami fuqarosi tarzida ta'riflanadi. Ushbu olamni bizga to'liq ko'rsatadigan, ular bilan tanishtiradigan, ularning tabiati, mohiyatini ko'rsatadigan asosiy vosita esa, albatta, Qur'oni karim va hadisi sharifdir. Ular bilan tanish bo'lmasdan turib, olim muhabbat daryosi gavharidan tera olmaydi... Haqiqiy olimgina u gavharlardan istalgancha yig'a oladi, uning ishidan jamiyatda barcha manfaatdor bo'ladi. Shu sababli shoir olimlikka da'vogarlarining bilimlariga tanqidiy nazar bilan qarab, olim deb kitob o'qishni emas, balki uning ma'nosini tushunish, har bir so'zning mohiyatini oyat mazmunidek anglab, shaytoniy illat, manmanligini mahv etgan, johillikdan uzoqlasha olgan kishini olim deb ko'rsatadi. Yassaviy kitobning ma'nosini tushuntirib, quruq yodlab, yuzaki o'qishni bilim olish deb hisoblamaydi. Shuningdek, u oyatlarning tagida yotgan ulug' g'oyalarni tahlil qila olish, ularning mohiyatini bilish va hayotga tatbiq eta olish lozimligini uqtiradi:

*Olimman der, kitob o'qur, ma'no uqmas.
Ko'p oyatning ma'nosini hargiz bilmas,
Takabbur, manmanlikni hargiz qo'ymas.
Andog' olim johil turur, do'stlarimo!*³

Xoja Ahrnad Yassaviy ushbu tanqidiy qarashlarini ilm ahli va bo'l-g'usi olimlarga qarata nasihat tarzida yetkazadi. Bu esa ular uchun yanada ko'proq o'qish va izlanish, bilim egallash, olgan bilimlarini o'z tur-

¹ Ахмад Яссавий. Девони хикмат. 46-бет.

² Уша манба.

³ Ахмад Яссавий. Девони хикмат. 46-бет; Ахмад Яссавий. Хикматлар. Т. "Ўзбекистон", 2001. 319-бет.

muoshi, jamiyat hayotiga bog'lab amaliy natijalarga erishishlari uchun hamisha bir turtki vazifasini o'tab keldi.

Keyingi misralarda Xoja Ahmad Yassaviy bilimlarni bilib olish bilimgina chegaralanib qolmasdan, balki ularni tanqidiy nazar bilan yanada chuqurroq o'rganish lozim, deb belgilaydi. U inson egallaydigan bilimlarni ikki turga ajratib, farqlaydi, ya'ni olimlikni ikki xil daraja – jon va tan olimlariga ajratib beradi. Jon olimi hazratiga, ya'ni ustoziga yaqin tursa, tan olimi zolimlarga yaqin turadi, deya ta'kidlaydi. Shuningdek, u tan olimi do'xarda kuydirilishi haqida quyidagi fikrlarni keltiradi:

Ilm ikkidur – tan-u jonga rahbar turur,

Jon olimi hazratig'a yaqin turur.

Muhabbatning sharobidan ichib turur,

Andog' olim olim bo'tur, do'stlarimo!

Tan olimi zolimlarg'a o'xshar ermish,

"Baroat"ni oyatida chun buyurmish.

Do'xax ichra tinmay doim kuyar ermish,

*Zahar-zaqqum ichib doim, do'stlarimo!*¹

Shoir jon ilmuni, ya'ni insonning ruhiyatiga bog'liq muammolarini birinchi masala deb hisoblab, jonning inson ma'naviyati takomillashuvdagi xizmatiga katta e'tibor qaratadi. U insonning joni uni har qanday ishga boshlovchi, deb tushuntirib, jonni tanga nisbatan ustun qo'yadi. Yassaviy jonni ilmning mazmuni, tanni esa uning shakli sifatida qabul qiladi. Shu nuqtayi nazardan u ilmning shakliga emas, balki uning ichkari olami, mazmuniga nazar solish zarurligini ta'kidlab, yoshlarga avvalambor, fanning mohiyatiga e'tibor qaratish kerakligini uqtiradi.

Tan ilmuni o'rganadigan olimlarni u, ko'pincha, nafsini tiya olmaydiganlar, nafs balosiga yo'liquvchilar, deb hisoblaydi. U senga ta'lim beradigan olim va sen oladigan ilmning ahamiyatli hamda haqiqiyisini tashlash zarurligi haqida maslahat beradi.

Xoja Ahmad Yassaviy yoshlarga bilim olishning hayotdagi o'mi naqadar katta ekanligini tushuntirib, hayotiy misollar keltiradi va yoshlarni aqliy jihatdan tarbiyalashda ustozlariga xizmat qilish, ularning so'zlariga doimo amal qilish va Haq yo'lida jonlarini ayamaslikka chaqiradi:

¹ Ahmad Yassaviy. Devoni hikmat. 47-bet; Keyingi bosqichda bu satrlar sal bosqichlarok berilgan. Ammo mazmunida unchalik katta farq sezilmaydi (Ahmad Yassaviy. Hikmatlar. T., "Uzbekiston", 2001. 319-320-betlar).

*Qul Xoja Ahmad, olimlarga 'a xizmat qilg'il,
Olimlar so'zin eshitib, amal qilg'il.
Amal qilib, Haq yo'lida joning berg'il,
Amalsizlar diydor ko'rmas do'stlarimo!*¹

Olimlar aytgan nazariy fikrlarni amalda sinab ko'rish, qo'llash zarurligini yana bir bor ta'kidlagan Ahmad Yassaviy, chunki ilm amaliga suyanmasa, ul o'z maqsadiga erisha olmaydi, ya'ni maqsadga erishish uchun ilm o'z amaliyoti bilan tasdiqlanishi kerak, deb tushuntiradi.

Xoja Ahmad Yassaviy olimlar, ilmi kishilar va zolimlar, xalqqa zulm qiluvchilarning hayoti va oxirlari haqida ham o'z fikr-mulohazalarini bildirib,

*Xoja Ahmad, olimlarga 'a xizmat qilg'il,
Olimlar ilmi birlan amal qilg'il.
Amal qilib, jannat mulkin borib oig'il,
Amalsizlar hayron qotur, do'stlarimo!*

Ilmi kishilarni jannatiy – bihishtga borishi, zolimlarning esa oxirlari do'xaiy ekanligini do'xax va bihisht aytishuvlari orqali tasvirlaydi:

*Do'xax aytur: "Men ortuq, zolim qullar manda bor,
Zolimlarga berurga zahr-u zaqqum chandon bor".
Behisht aytur: "Men ortiq, olim qullar menda bor,
Olimlarni ko'nglida oyat, hadis, Qur'on bor".²*

Keyingi misralardan ko'rinib turibdiki, ilmi kishining ko'nglida doimo oyat, hadis, Qur'on mazmuni, ilmga da'vat mavjud ekan. Shuning uchun ham o'rta asrlarda ulardan maktab va madrasalarda talabalarni ilm o'rganishga safarbar qiluvchi katta tarbiyaviy kuch sifatida foydalanilgan.

Xoja Ahmad Yassaviy o'z fikrini davom ettirib, ikki yuzlamachi, tovlamachi, munofiq va lo'ttibozlarga pokdomon zokirlarni, taqvo sohibi bo'lgan ilm ahli, bilimdonlarni qarshi qo'yadi. Asarda yaxshilik va yomonlik, ezgulik va yovuzlik, haqiqat va yolg'on kabi sifatarning yonma-yon qo'yilib tavsiflanishi, ular ta'riflanayotganda har bir so'zning o'z o'rnida ishlatilishi Yassaviy "Hikmat"larining tarbiyaviy ahamiyati, badiiy qiymatini oshirib yuboradi. Uning bunday jihatlari bugungi kunda yanada yorqinroq ko'rinib qolmoqda.

¹ Ahmad Yassaviy. Devoni hikmat. 47-bet.

² Ahmad Yassaviy. Hikmatlar. 230-bet.

*Do'zax aytur: "Man ortuq, munofiqlar manda bor,
Munofiqlar bo'ynida o'tdin ishkil-kishon bor".*

*Behisht aytur: "Man ortuq, zokir qullar manda bor,
Zokirlarni ko'nglida zikr-u fikri subhon bor!"¹*

Xoja Ahmad Yassaviy insonga bu so'zlarni anglatguvchi Yazdon, ya'ni Xudo deb tan olib, unga bilim o'rgatuvchi ham Yazdon, Xudo ekanligini uqtiradi. Bilim o'rganish – Alloh aytgan yo'ldan yurishni, Allohga yaqinlikni anglatadi, deydi shoir:

Do'zax anda tek turdi, Behisht uzrini aydi,

Qul Xoja Ahmad ne bildi, bildirguvchi Yazdon bor!²

Bu bilan Xoja Ahmad Yassaviy xar bir narsani o'rganishda unga yo'l ko'rsatuvchi ustoz, o'qituvchi bo'lishi lozimligini tasdiqlaydi. U Muhammad mustafo salolohu alayhi vassalam, Xizr alayhissalom, sahobalar, Arslonbob, G'avsul A'zam, Yusuf Hamadoniy kabi bir qancha ustozlarining hikmatli hikoyatlari orqali ularni yo'l ko'rsatuvchi va ilm beruvchilar, deb tasviflaydi. Bunday ustozlar bergan bilim esa, albatta, har bir mo'minni murodiga yetkazishini zikr qiladi:

Ahmad murodi sensen, zikri-yu yodi sensen.

Ishlar kushodi sensen, yo Mustafo Muhammad.³

Ko'rinib turibdiki, Xoja Ahmad Yassaviy hikmatlari nafaqat g'oyaviy jihatdan, balki pedagogik nuqtayi nazardan ham XII asr sharqdagi ta'lim-tarbiya ishlari, shaxs axloqi shakllanishining yorqin namunasidir. Hikmatlardagi har bir so'z va ibora aqliy ta'lim beruvchi qat'iy mezon uslubi va shakliga ega. Bundan tashqari, ushbu satrlar o'quvchilarni tarixiy shaxslar bilan tanishtiradi. Ularning nihoyatda qiziqarli va bugungi kunda qariyb ertakka aylanib ketgan hayotidan istalgancha ibrat uchun misollar, namunalar keltiradi. Asarning mazkur xususiyatlari o'quvchilar va talabalarning ma'naviy tarbiyasi bilan birga tarixiy bilimlarini ham uyg'unlashtirib, takomillashtirib borishiga xizmat qiladi. Chunki biz Xoja Ahmad Yassaviy hikmatlari orqali Fir'avn, Qorun, Fa-ridun, Muso, Iso, Vomiq, Uzro, Yusuf, Farhod, Majnun, Od, Shaddod, Shibliy, Boyazid, Junayd, Zunnun, Ya'qub, Zulayho, Zol, Rustam kabi o'nlab afsonaviy va tarixiy nomlar bilan tanishamiz. Bu tarixiy shaxslar haqidagi hikmatlar yoshlarning aqliy bilimlar doirasini kengaytirishda juda foydali-dir:

¹ Ahmad Yassaviy. Hikmatlar. 230-bet.

² Usha manba, 231-bet.

³ Ahmad Yassaviy. Devoni hikmat. T., F. Gulom nomidagi nashriyat-matbaa birlashmasi, 1992. 53-bet.

*Yunustek ham daryo ichra baliq bo'lsam,
Yusuftek ham quduq ichra tun-kun bo'lsam,
Yoqubtek ham Yusuf uchun zor ingrasam,
Bu ish birla, yo Rab, seni topqaymu men?*

*Shibliytek oshiq bo'lub samo' ursam,
Boyazidtek tun-kun tinmay Ka'ba borsam,
Ka'ba ichra yuzum surtib zor ingrasam,
Bu ish birla, yo Rab, seni topqaymu men?*

*Ma'ruftek (ham) ushbu yo'lg'a qadam qo'ysam,
Dor uzra shavqlanibon Haqni aytsam.¹*

Ushbu misralardagi har bir so'z yoshlarni o'ylash, fikrlashga undab, zehn qirralarini charxlashga, tafakkurini rivojlantirishga yordam beradi.

Ko'rinib turibdiki, Xoja Ahmad Yassaviy hikmatlarida insoniyat paydo bo'lgandan buyon davom etib kelayotgan tarixiy jarayon, afsonalar, rivoyatlar, turli diniy arboblar, diniy falsafiy oqimlar asoschilari-ning hayoti, turmush tarziga doir ma'lumotlar o'tmishda bo'lib o'tgan voqealardan ijodiy yondoshuv orqali tanlab olingan.

*Ma'rifat maydoni ichra bu ko'ngilni shod etib,
Dunyosin tark aylaganlar Haq bilan savdo etar.²*

Demak, muallif ushbu baytida aytishicha, ma'rifat maydoniga yetishgan har bir ko'ngil shod bo'lishi bilan birga, olamda mavjud bo'lgan ko'plab bilimlarni anglab yetadi, qurbi yetganicha ularni qo'lga kiritadi. Ilm sohiblari esa Allohndan nima istash, undan nimalarni tilash mumkinligini aniq bilish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Shoir o'quvchiga murojaat qilib, hayotda insonlar hali bilmagan narsalar, xilqatlar ko'pligini, bilimlarni egallash uchun shom-u sahar o'zini, dunyoni bilishga, haqni tanishga intilish zarurligini qattiq ta'kidlaydi. Olimlik sifatleri va ularga erishish yo'lidagi mashaqqatlarni aniq va teran ifodalaydi:

*Andog' olim, ikki ko'zi giryon bo'lur,
Saharlari erta turib, nolon bo'lur,
Ishq yo'lida kayub, yonib biryon bo'lur,*

¹ Ahmad Yassaviy. Devoni xislati. T. F. Gulom nomidagi nashriyat-matbaa birlashmasi, 1992, 155-bet.

² Ateyev U. Становление и развитие педагогической мысли в Каракалпакстане (с древнейших време до 30-х годов XX в.). Нукус, "Билим", 1996. с. 59.

Jonu dilda Haq zikrini ayting, do'stlar.

Bugungi davrimizda maktab va oliy o'quv dargohlarida mehnat qilyotgan o'qituvchilar o'quvchilar va talabalarga ta'lim berish jarayonida o'rgatayotgan bilimlar, shuningdek, kundalik hayotda ommaviy axborot vositalari orqali olinayotgan ma'lumotlar bilan cheklanib qolish insonning har jabhada yetuk va komil bo'lib shakllanishi uchun yetarli emas. Ta'lim-tarbiya sohasi xodimi o'quvchiga o'quv dargohida olayotgan ilmidan tashqari, o'zi ham tinmay izlanishi, dunyoda kechayotgan voqealardan muntazam xabardor bo'lib borishi, ayniqsa, millatimizga tegishli bo'lgan tarixiy ma'naviy meroslarimiz bilan yetarlicha tanishib, ularga munosib voris bo'lishlari shartligini ham atroflicha tushuntirishlari lozimdir.

Xoja Ahmad Yassaviy yana bir hikmatida ilm toliblarini mushohada qilishga undab, shunday deb yozadi:

*Yirtib shafqat pardasin, tilah diydor va'dasin,
Ochib ko'ngil diydasin mushohada qilinglar.²*

Va yana quyidagi misralarida o'zining bilim yo'lida qul, shogirdlari esa ko'p (mo'l) bo'lganiga ishora qilib, yoshlarga o'z hayotini ibrat etib ko'rsatadi:

*Qul Xoja Ahmad, qul bo'lgan, yo'l ustida qul bo'lgan,
Toliblarga mo'l bo'lgan, andin ibrat olinglar.³*

Aslida, tariqat ahlining birortasi boshqalarni o'zidan ibrat olishga chaqirmaydi. Bir qarashda bu maqtanish va kibrga o'xshab ko'rinadi. Bu ikki sifat so'fiyning azaliy va o'ta qaysar dushmanidir. Mazkur satrlarda esa "andin ibrat olinglar", deb shoir o'zini ko'rsatmoqda. Diqqatni oshirsa, bu satrlarda sira ham kibr yo'qligini ko'ramiz. Shoir ilm yo'lida chekkan zahmatlari, adashishlari, qiynalganlari, bu yo'lning oson emasligi, umuman, qul bo'lish va nafs hukmron bo'lgan bu dunyoning og'ir yukini ko'tarib yashash va hokazo... bu shunday davom etaveradi. Xoja Ahmad Yassaviy hayoti, agar uning "Hikmatlar"i bilan to'liq tanishib chiqsak ko'z o'ngimizda shunday namoyon bo'ladi. U ilm toliblariga ibrat olish uchun huddi mana shu hayotini taklif qilmoqda.

Bu satrlar bugun yosh o'quvchining o'ziga ta'lim berayotgan ustoziga ergashib, ilm yo'lida adashmay qadam tashlashga, bilim degan ulkan bir "davlat"ni qo'lga kiritish uchun yuragida havas uyg'onishiga

¹ Ahmad Yassaviy. Hikmatlar. T., F. Gulom nomidagi adabiyet va san'at nashriyati, 1991, 239-bet.

² Ahmad Yassaviy. Devoni hikmat. T., F. Gulom nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi, 1992, 82-bet.

³ Ahmad Yassaviy. Hikmatlar. T., F. Gulom nomidagi adabiyet va san'at nashriyati, 1991, 232-bet.

maydon yaratadi, uning ezgulik sari harakatlanishi uchun turtki bo'ladi. Bu satrlar o'qituvchilarga hamma zamonlarda ham eng yuqori darajada dolzarb bo'lib qolaveradigan inson va yosh avlodning axloqiy tarbiyasi-dek yo'qolmas va muhim muammo borligini eslatib turadi. Axir shoirning o'zi ham mohir va tajribali ustoz edi. Tarixiy manbalardan Xoja Ahmad Yassaviydan ko'plab ilm toliblari tarbiya olgani va uning maktabidan bir qancha buyuk tarixiy shaxslar yetishib chiqqani haqida ma'lumotlar uchrashini yuqorida aytib o'tgandik. Masalan, uning shogirdi Sulaymon Boqirg'oniy (Hakim Ato) ham o'z davrining ulug'laridan, jahonga mashhur bo'lgan turkiy tasavvuf ilmi va she'riyatning taniqli arbobi hisoblanadi. U ustoz Ahmad Yassaviyning ilm va mehr bulog'idan bahramand bo'lganini quyidagi baytlarida ifodalaydi:

*Shariati orasta, tariqati payvasta,
Haqiqatda shoyista shayxim Ahmad Yassaviy,*

*Shariatni so'zlagan, tariqatni izlagan,
Haqiqatni bildurgan shayxim Ahmad Yassaviy.*

Yoki:

*Xizr birla suhbatlik, Ilyos bilan ulfatlik,
Haq qoshinda hurmatlik shayxim Ahmad Yassaviy.*

*Turkistonga boroling, xizmatida bo'loling,
Ulush bersa oling. shayxim Xoja Ahmad Yassaviy.¹*

Shogirdlar tomonidan bitilgan ushbu satrlar she'riy nafosat, fikrlar uyg'unligi, ma'no va mazmun to'qligi, tilining shirinligi jihatidan ham ustoz – Xoja Ahmad Yassaviy tili, e'tiqodi, bilimiga yaqindir. Mazkur satriarda Sulaymon Boqirg'oniyning o'z ustoziga e'tiqodi, hurmat-ehtiromi, shariat va tariqatda shaxsning axloqiy tarbiyasiga munosabati aks etgan. Bugungi kunda ustoz-shogird munosabatlarini oydinlashtirishda bu misralar yoshlarga ibrat va saboq bo'la oladi.

Xoja Ahmad Yassaviy hayoti va ijodi haqida ayrim tadqiqotlarni amalga oshirgan domla Orif Usmon bu masalaga qisman to'xtalib o'tadi. U kishi yassaviya tariqatida ustoz va shogird munosabatlariga alohida e'tibor qaratadi va bu borada o'quvchiga quyidagi ma'lumotlarni yetkazadi:

¹ Ahmad Yassaviy. Devoniy hikmat. T., F. Gulom nomidagi nashriyat-matbaa birlashmasi. 1992. 195-bet.

“Darvoqe, tasavvufning boshqa tariqatlarida bo‘lganidek, yassaviyaning o‘ziga xos qat’iy qoida (odob)lari bor. “Yassaviy”lik ta’limotidagi soliklar quyidagi qoidalarni so‘zsiz bajarishga majbur bo‘lganlar:

1. Murid hech kimsani o‘z shayxidan afzal ko‘rmasligi, unga mutlaqo taslimiyat izhor etmog‘i lozim.

2. Murid shunchalik zukko va idrokli bo‘lishi kerakki, to o‘z shayxining barcha rumuz va ishoralarini mukammal anglay bilsin.

3. Shayxning barcha ahvoli (so‘zlari) va af‘oli ishlariga murid solik bo‘lib unga mutlaqo mute va mu‘taqid bo‘lmog‘i lozim.

4. Murid o‘z murshidi (piri)ning barcha topshiriqlarini mustu chalolik (chaqqonlik) ila va sidqidildan bajarib, uni hamisha rozi qilib yurmog‘i zarur.

5. Murid o‘z so‘ziga sodiq, va‘dasiga rosix bo‘lib, murshidi ko‘nglida hech qanday shak-u shubha tug‘dirmasligi zarur.

6. Murid o‘z va‘dasiga vafodor va so‘zida ustivor turishi shart.

7. Murid o‘z ixtiyoridagi barcha mol-mulkini, butun bor-u yo‘g‘ini shayxiga nisor etmoq uchun doimo tayyor turmog‘i lozim.

8. Murid o‘z shayxining barcha sir-asroridan ogoh bo‘lib, uning ifshosini hech vaqt xayoliga keltirmasligi kerak.

9. Murid o‘z shayxining barcha takliflarini nazarda tutmog‘i, uning mushkulotini oson qilmog‘i, pand-u nasihatlarini bajo keltirmog‘i shart.

10. Murid Alloh visoli uchun o‘z shayxi yo‘lida butun moli va jonini nisor etmoqqa tayyor turishi, uning do‘stiga do‘st, dushmaniga dushman bo‘lib yashamog‘i shart”!

Tariqat yo‘liga kirgan kishi (solik) murshid va muridlikning (ustoz va shogird) ushbu shartlariga rioya qilishga butun vujudi bilan chin qalbdan rozi bo‘lgachgina, Yassaviy shayx dargohiga xizmatga kirganlar.

Xoja Ahmad Yassaviy tariqatida, ko‘p hollarda, ustoz va shogird munosabatlari, tariqatning tarbiyaviy ishlari maxsus “xonaqoh”larda olib borilgan. Ammo bu uning kashf etgan tarbiya usuli emas edi. “Xonaqoh” ham Ahmad Yassaviydan ilgariroq (faqat boshqacha nomda) paydo bo‘lgandi. Movarounnahrda islom ta’limoti kirib kelguncha, Buxoroda, hazrat Bahouddin Naqshband davrigacha, “Qasri Hindiyon”da mavjud bo‘lgan “Vagn vixara”, “Nigoshak”lar, ya’ni Budda sutralari saqlangan. Buddaviy avliyolar hamisha muqim ravishda ibodat marosimlarini o‘tkazadigan, tavba-tazarru ishlarini bajaradigan muqaddas ibodatxona an’-

¹ Услон Ориф. Вахдат шаробин ичдим (Яссавия тариқати). “Мулоқот”, 1991. 6-сон. 6-бет, Ахмад Яссавий. Девони хикмати. Т., Ғ.Ғулом номдаги нашриёт-матбаа бирлашмаси. 1992, 155-бет.

anasi va nomining forsha-tojikcha buzilgan shakli – “Xonayi Nig(osh) ak” ma’nosiga ega. Bunday “Vixara”, “Nigoshak”lar Marv, Balx, Buxorodan to Taroz, Balosog’un va Sharqiy Turkistonning Beshbaliq (Pekin) kabi shaharlarigacha bo’lgan hududlarda ko’plab qurilgan edi.

Ahmad Yassaviyning asarlari falsafa, psixologiya, mantiq, adabiyot fanlari kabi pedagogika fanining rivojida ham alohida o’rin egallaydi. Uning har bir hikmatidagi so’zlar, iboralar, ramzlar, tarixiy ma’lumotlar, ibratlardan iborat barcha pand-nasihatlar yoshlarni tarbiyalash va ularning milliy ma’naviy qarashlarini shakllantirish uchun muhim vosita hamda ilm manbai bo’lib xizmat qiladi.

Qul Xoja Ahmad har bir so’zing dardga darmon,

Toliblarga bayon qilsam, qolmas armon.

To’rt ming to’rt yuz hikmat aydim,¹

Haqdin farmon bo’lsa, to o’lguncha so’zlasi men.²

Shoirning o’zi ham bu misralarida hikmatlarning katta pedagogik ahamiyatga ega ekanini ta’kidlaydi. Umuman, Yassaviyning barkamol inson haqidagi g’oyalari yosh avlodni tarbiyalashda barcha davrlarda va, hatto, hozir ham eng ilg’or dastur sifatida xizmat qila oladi. Ahmad Yassaviyning tasavvuf nuqtai nazaridan barkamol insonni shakllantirishga oid ta’limoti ishimizning keyingi sahifalarida yanada to’ldiriladi.

Ahmad Yassaviyning “Devoni hikmat” asari tarkibidagi quyidagi ma’naviy-tarbiyaviy talablar undagi axloqiy, ma’rifiy, insoniy mulohazalarning umumlashmasiga o’xshab ko’rinadi. Chunki bu baytlarda inson komillikka yetishish yo’lida amal qilishi va bajarishi lozim bo’lgan axloq tarbiyasiga oid nazariya, amaliyot; yaxshi xulq foydalari va yomon xulq oqibatlarini g’oyatda aniq tarzda o’z ifodasini topgan:

Xayr-u saxo qilg’anlar, yetim ko’nglin ol’ganlar,

Chahor yorlar hamrohi, kavsar labinda ko’rdim.

Mufti bo’lgan olimlar, nohaq fatvo berganlar,

Andoq mufti joyini sirot ko’frugda ko’rdim.

Zolim bo’lib zulm etgan, yetim ko’nglin og’ritgan,

Qora yuzlug mahsharda qo’lin orqada ko’rdim.

Tun-u kuni uxlamay, hu, zikrini aytg’anlar,

Maloyiklar hamrohi arshini ustida ko’rdim.³

¹ Ahmad hozirgacha shoirning tadqiqotchilar tomonidan ifodalangan hikmatlari hali ko’zga ham etmaydi. Balxi bu erda *baini* nazarda tutilmashtadi.

² Ahmad Yassaviy. Devoni hikmat. T., F.Fulom nomidagi nashriyat-matbua birlashmasi, 1992. 155-bet.

³ Ahmad Yassaviy. Hikmatlar. T., F.Fulom nomidagi alabiёт va san’at nashriёti, 1991. 224-бет.

Bu satrlar nimalarni anglatadi? Bizningcha, ustoz bugun ularni o'quvchi va talabalarga axloqiy tarbiya berish jarayonida yetim-yesirlarning ko'nglini nohaq og'ritmaslik, har bir kishi xayrli ishlar qilishi, saxovatli bo'lishi hamda bu amallari bilan inson hayotida savobli ajrimlarni qo'lga kiritishi mumkinligini tushuntirib bergan bo'lardi. Lekin yaxshi, savobli ajrim nima? Bu, albatta, jamiyat uchun foydali ish qilishning kutilgan ijobiy natijasi, qalb xotirjamligi, odam va olam birligini anglab yetish, dunyoni bilgan sari ko'ngildagi mavhum tasavvurlar va noaniqliklar qutqusidan qutilishi, yo ularning barchasini umumlashtirib aytadigan bo'lsak, jamiyatda yashayotgan shaxs haqiqiy inson bo'lib, sharafli hayot kechirishidir. Jamiyatda ma'naviy o'sish, ijtimoiy barqarorlik, tinchlik, birodarlik, do'stlik shunday sifatlar asosidagina qaror topadi. Tabiiy qonuniyatlarning barchasi Tangri taolo tomonidan boshqarilishiga hech bir shak-shubha yo'q. Lekin ijtimoiy hayotdagi qonuniyatlar insonlar tomonidan tuziladi. Shu sababdan ular ba'zan to'g'ri yo butkul noto'g'ri yo'lga tushib qoladi. Hayotda komil insonlar qanchalik ko'p bo'lsa, bu qonuniyatlar to'g'ri yo'lga shunchalik yaqinlashadi. Bugungi kunda o'z dunyoqarashini shakllantirib borayotgan yoshlar ajdodlarimizning bu boradagi fikrlaridan yetarli darajada xabardor bo'lishlari lozimdir.

Xoja Ahmad Yassaviyning tasavvuridagi insonda komillik sifatining shakllanish omillarini aniqlash uchun birinchidan, tasavvuf ta'limotiga murojaat qilishimiz lozim bo'ladi. Tasavvuf ilmida komillik maqomiga har bir inson o'zligini anglash, Alloh yagonaligini tan olish va uni sevish kabi yana bir qancha sifatlarni hosil qilishi orqali yetishadi. Shaxsning o'z-o'zini anglashi – bu o'z nuqson va aybu qusurlarini ko'ra olish imkoniga ega bo'lishi hamda ularni o'zidan bartaraf eta olishi demak.

Ikkinchidan, Xoja Ahmad Yassaviy insonda Vatanga muhabbat tuyg'usi ustuvor bo'lmog'i kerakligini yuqori o'ringa qo'yadi. Shuningdek, u shaxsning ona Vatanida o'sib ulg'ayishi, butun umri davomida yaxshilarga ergashishi kerakligini ham ko'rsatib beradi.

Tushdim o'zor, buroq to'zor, ketsa hozor.

Dunyo hozor ichra kirib qullar ozor.

Boshim bezor, yoshim sizor, qonim tuzor.

Otim Ahmad, Turkistondur elim maning.

*Yoshim yetib, unrim o'tib, tavba qilmay,
Oxiratni ashobini qo'lga olmay.
Yaxshilarni xoki poyi bo'lib yurmay,
Quloq solgil xos ummati bo'lay desang.¹*

Yuqoridagi misralardan tasavvufni insonning o'z vujudi, nafsi va ularga qarshi isyoni, o'z-o'zining takomil darajasidan qoniqmaslik sifatida talqin etish ham o'rinlidir. Xoja Ahmad Yassaviy butun hayoti davomida komillikning yuqori darajasiga erishsa-da, o'zida mujassamlashgan hatto ijobiy sifatlardan ham qoniqmaydi. Shu holatning o'zi aslida uning komillikka yetishganining belgisi edi. Inson dunyo haqida qancha ko'p bilsa, uni shunchalik kam bilishini anglab yetish holati shu bo'lsa kerak. Shu sababdan har bir inson fursatni g'animat bilib, shaxsiy hayoti va dunyoqarashidagi kamchiliklarni uzluksiz davomiylilikda bartaraf qila borishi lozim. Sho'ir hikmatlari umumlashtirilib qaralganda xuddi shu tushunchalar ularga yuklanganining guvohi bo'lamiz.

*Qul Xoja Ahmad, yo'l'ga kirgil, holo fursat,
Alloh degil, umrung o'tti, dam g'animat,
Qayda borsang, takbir aytib qil'gil suhbat,
Quloq sol'gil xos ummati bo'lay desang.²*

Xoja Ahmad Yassaviy ta'limotiga ko'ra, buyuk bir ruhoniylar poklik olamiga intilish shaxs kamolotining shakllanishi, kamolotga yetishish esa hayotda og'ir mashaqqatlar chekish, tinimsiz izlanishlar orqali amalga oshadi. U shaxsni bunday insoniylikning oliy darajasiga olib chiqish mumkin bo'lgan o'ziga xos diniy va dunyoviy tarbiya uslublari tizimini umumlashtirib, asoslab beradi.

Xulosa qilib shuni ta'kidlashimiz joizki, Xoja Ahmad Yassaviyning ma'naviy-tarbiyaviy ta'limotidagi diniy va dunyoviy yondashuvlar asosida keltirilgan ushbu rang-barang pedagogik omillar o'quvchi va talabalarda imon, e'tiqod, diyonatni tarbiyalashga, ularni ruhiy poklanib, ma'naviy kamolotga yetishishi uchun muhim dasturiy manba bo'lib xizmat qiladi.

¹ Ahmad Yassaviy. Devoni hikmat. T. F. Gulom nomi dagi nashriyat-matbaa birlashmasi. 1992, 146-bet.

² Ushbu manba. 147-bet.

2.2. Xoja Ahmad Yassaviy timsolida inson olijanob fazilatlarining ifodalanishi

Barcha zamonlarda xos-u avom, ilm ahli tomonidan mashoyixlarining eng ulugʻi, deya eʼtirof etilib kelayotgan Xoja Ahmad Yassaviyning taʼlim-tarbiya muammolarini tasavvuf bilan bogʻlab tushinishi va ularga yechim topishga intilishi Sharq, xususan, Markaziy Osiyo xalqlari pedagogikasi (taʼlim tarbiya ishlari) tarqqiyoti tarixida katta ijobiy voqea boʻldi.

Tasavvuf – maʼnaviy tarbiya orqali odamlarni faqat yaxshilik sari daʼvat qilib, notoʻgʻri ish tutganlarni toʻgʻri yoʻlga solishning oʻziga xos ijtimoiy pedagogik tizimi taʼlimotidir. Ayniqsa, u inson oʻz xato va kamchiligini tushunib, tavba qilish, oʻzini zohiran va botinan poklash, qayta tarbiyalash muammolariga alohida eʼtibor qaratadi.

Tasavvuf taʼlimotida komil insonni shakllantirish gʻoyasi hamda uni tarbiyalash masalasini chaqaloqlik davrdan boshlab, har bir yoshga xos xususiyatlarni bilgan holda amalga oshirish zarurligi, ularga yoshiga mos davrlariga muvofiq keladigan tarbiyaviy taʼsir koʻrsatish lozimligi koʻrsatiladi. Xoja Ahmad Yassaviy timsolida insonning olijanob fazilatlarini – ilmga tashnalik, bilimdonlik, riyozat chekish, sabr-bardosh, ruhiy poklik, maʼnaviy goʻzallik, javonmardlik, elsevarlik kabi sifatlar yoshdan yoshga oʻtgan sari shakllanib, takomillashib boradi. Inson maqsadiga intilishi va bu yoʻlda barcha qiyinchiliklarni chidam bilan yengib oʻtishi natijasida barkamol shaxs darajasiga koʻtariladi. Xoja Ahmad Yassaviy shaxsining yillar davomida qay tarzda takomillashib borganini oʻquvchilarga ibrat qilib koʻrsatish mumkin. Bugungi yoshlar oʻz shaxslarida komillik sifatlarini tarbiyalay olishlari uchun bu juda foyda beradi.

Xoja Ahmad Yassaviy “Devoni hikmat” asarida bolaning inson sifatida shakllanishida umrning har bir boʻlagi – yoshning (goʻdaklik, bolalik, oʻsmirlik, yigitlik...) alohida bosqich ekanligini taʼkidlaydi. Ular shoirning oʻz hayotiy tajribalaridagi misollar orqali koʻrsatilishi, 12 oydan iborat har bir yilning oʻziga xos yetukliklari borligini, tasavvuf tartib-qoidatari asosida taʼlim olib, insoniy sifatleri shakllanib boradigan yoshlarning ota-onalariga bola tarbiyasini toʻgʻri yoʻlga qoʻyish borasidagi tavsiyalardir, deyish mumkin.

Demak, oʻn olti–oʻn yetti yoshgacha boʻlgan muddat inson har qadamda oʻz shaxsida barkamollik sifatlarini hosil qilish uchun keng imkoniyatlarga ega boʻlgan muhim davr hisoblanadi. Bu davrda har bir

shaxs qunt bilan ilm egallashi, biror kasb-hunar sohibi bo'lishi, odamiylik tushunchalarini anglab yetgan, atrofida yashayotgan jamiyat a'zolari bilan samimiy va insoniy munosabatda bo'la olish kabi xususiyatlarni o'zida mujassamlashtirib borishi lozimligini Ahmad Yassaviy hikmatlari va o'z hayoti misolida ko'rsatib beradi. Bundan ming yil oldin aytilganidek, bugungi ta'lim-tarbiya tizimida ham, haqiqatan, har bir shaxs balog'at yoshiga yetgunga qadar, ilm-ma'rifat va odamiylik saboqlarini egallagan taqdiridagina, uning kelajagi porloq bo'lishi ta'kidlanadi. To'g'ri yo'lga qo'yilgan ta'lim ishigina bolaga ilk yoshidan boshlab zarur tarbiya berish hamda uning ijtimoiy turmushdagi shaxsini izchil takomillashtirib borishga ko'maklashadi. XII asrlarda tasavvuf ilmi shaxs axloqini tarbiyalashda juda muhim va katta tajribalar asosiga qurilgan mukammal ta'lim usullaridan biri hisoblanardi. Shu sababdan minglab odamlar yirik tasavvuf namoyandalari orqasidan ergashgan, ularning gaplariga quloq solgan. Hatto oliy hukmdorlar ham tasavvuf ahli fikrlari bilan hisoblashgan. Ularning pand-nasihatlarini tinglashgan, ba'zi holalarda siyosiy muammolarga duch kelishganda ulardan maslahatlar so'rashgan. Farzandini o'qitish imkoniga ega bo'lgan ko'pchilik ota-onalar bolalarini tasavvuf ahlining biror taniqli vakili dargohida tarbiyalanishini istagan. Iloji boricha farzandini ularning tarbiyasiga bergan. Shu sababdan odamlar tasavvuf tarbiyasi natijalarini tez ko'rishgan. Mazkur jarayonlar rivoji silsilasida tasavvuf ham odamlar orasida keng tarqalishi uchun katta imkoniyatlar va sharoitlar yuzaga kelgan.

Ta'kidlab o'tganimizdek, Xoja Ahmad Yassaviy o'n olti yoshning balog'atga yetish davri ekanligini aytish bilan birgalikda yoshlar uchun 7 yoshdan 20 yoshgacha ilm o'rganish, ustoz izlab topib, olgan bilimni takomillashtirib borishni ularning zimmasiga vazifa qilib yuklaydi. U olingan ilmlar vositasida kishi yaxshi xulqqa erishishi va jamiyatda tinchlik-osoyishtalik ta'minlanishi mumkinligini ta'kidlaydi. Ilm-ma'rifat insonga olamni tanitishi, ilm bilan tajriba uzviy bog'liq bo'lishi, tarbiya va ilmdan hosil bo'ladigan yaxshi xulq kishiga ikki dunyoda ham kerakligini tushuntirishga alohida e'tibor qaratadi.

Xoja Ahmad Yassaviy insonga barkamol shaxs bo'lib yetishishning bir qancha shartlarini asoslab ko'rsatadi:¹

- yaxshi fazilatlarni egallash;
- o'zining tani, ruhi pok bo'lib yashashga intilish;

¹ Ахмад Яссавий. Хикматлар. Т. Ғ. Ғулум номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1991, 51-бет.

- ichki olamini ilm nuri bilan to‘ldirish;
- har qanday vaziyatda ham o‘z-o‘zini tuta bilish;
- gunohdan xoli bo‘lish;
- men qilayotgan narsani hech kim ko‘rayotgani yo‘q, deb gunoh ishlarni qilmaslik;
- Xudo haqida o‘ylab, uni unutmagan holda xalqni o‘ylash, xalqni esa Xudoning bandalari deb bilish;
- xudoning diydoriga mushtaq bo‘lish;
- xudoga ishonch – bu uning o‘ziga ishonchi, ushbu ishonch o‘zining ruhiga ham tayanch, ham madad bo‘lishini anglamoq;
- o‘z gunohlarini tirikligida yuvishga harakat qilish;
- inson dunyoni, Xudoni tanish imkoniyatini qo‘lga kiritishi – bu uning o‘zidagi xohish, aql va zehnga bog‘liqligini bilish.

Xoja Ahmad Yassaviyning bu falsafiy ijtimoiy qarashlari hozirgi zamonimizda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. U shaxsni shakllantiruvchi omil sifatida, eng avvalo, ustozni qo‘yadi. Insonning yaxshi xulq, odob, biror foydali kasbni o‘zlashtirishi hamda orzu qilgan ezgu maqsadlari, barcha yaxshi ishlarining ro‘yobga chiqishi ustozsiz amalga oshmaydi, deb hisoblaydi. Ayni paytda yoshlar tarbiyasini o‘z zimmasiga olgan ustozlar oldiga ham qat’iy va yuksak talablarni qo‘yadi. Savodsiz ustozlarni tanqid ostiga oladi. Shuningdek, badiiy so‘z, musiqaning yoshlar qalbida nafosat olamini paydo qilishda ahamiyati kattaligi; so‘z, suhbat – jon, ruh ozig‘i ekanligini tushuntiradi. Odamni boyligi emas, balki uning xayrli ishlari, ilmi azoblardan qutqaradi. Shu sababli inson har bir xatti-harakatining me‘yori, o‘lchami va u keltirib chiqaradigan natijani hisobga olib ish qilishi zarur. Barcha yomon ishning asosida dunyoparastlik, ochko‘zlik yotadi. Johil kimsalar pul, mol-u dunyo yig‘ish uchun Xudoni, podshoni, odamlarni aldaydilar, o‘zlarining aslini (odamligini) unutadilar. Fozil kishi esa, aksincha, yolg‘ondan qochadi, har nafasda o‘zidan xabardor bo‘lib turadi, ya‘ni u odam – Xudoning bir bandasi ekani va har lahzada Yaratguvchining nazari uni kuzatib turganini unutmaydi, his qiladi. Zulm va nafs fitnalaridan o‘zini qutqarib qoladi. Albatta, bu ishlarni u ustoz tarbiyasini olmasdan, o‘z-o‘zicha bajara olishi juda mushkuldir. Ustoz va shogird munosabatlari, inson tarbiyasi haqida hikmatlarda juda ko‘plab misollarni uchratish mumkin.

Inson o‘zini-o‘zi boshqara olishi, kuchli iroda egasi bo‘lishi, ya‘ni yomon ta’sirlarga berilmasligi lozim. Shoir bunday fazilatli xususiyat-

Jarni egallash uchun harakat qilayotgan inson uchun ilmga ixlos qo'yishi zarur bo'lishini quyidagi satrlarida ifodalaydi:

*Boshim berib, belim bog'lab, qilsam ixlos,
Nafsi shayton changalidin bo'lsam xalos,
Jon berarda madad qilsa Xizr Ilyos,
G'avsul-g'iyos xatmi "yosun" qilarmukin?¹*

Ushbu satrlarda shoir "ilm" so'zini ishlatmagan. Ammo bu tushuncha "Xizr Ilyos" so'zi orqali yuksak mahorat bilan ifoda qilingan. Chunki sharq xalqlari nazarida, "Xojayi Xizr", "Xizr Ilyos" Tangrining eng ilmli, bilimdon bandasi hisoblanadi. Ilm imonga olib borsa, ixlos ilmga olib boruvchi vositadir. Bunday bog'liqlar orqali ixlos va uning insonga qanchalik zarurligi ko'rinib qoladi.

Xoja Ahmad Yassaviy yashab ijod qilgan davrda mavjud bo'lgin turli mafkuraviy g'oyalarning hammasi ham uning ijodida aks etgan, deb bo'lmaydi. Shuning uchun ham shaxsni shakllantiruvchi omillar sifatida qaraladigan o'sha paytdagi barcha falsafiy qarashlarni Xoja Ahmad Yassaviy ijodidan axtarish foydasiz xatti-harakatdir. Bu tadqiqotda sun'iylikni keltirib chiqargan bo'lardi. Biz ishimizda faqat shoir ijodidagi shaxs va axloq tarbiyasi, ilm va uning ahamiyati kabi tarbiyaviy jihatlarni aniqlash va tahlil qilishni maqsad qilganmiz.

Xoja Ahmad Yassaviy "Hikmatlar" to'plamida shaxsni shakllantiruvchi omillardan biri sifatida, avvalo, u shaxsning faol, mustaqil imkoniyatlarga ega, o'zini-o'zi tanqidiy baholay oluvchi bir mavjudot ekanligini ko'rsatadi. Shuningdek, u insonni yomonlikdan nafratlanuvchi, ezgulikni himoya etuvchi shaxs, deb hisoblaydi:

*Dunyo uchun g'am yema, Haqdan o'zgani dema,
Kishi molini yema. sirot uzra tutaro.²*

Ko'rinib turibdiki, Amad Yassaviyning juda ko'p fikrlari dunyo o'tkinchi ekanligi, qilingan barcha yaxshi va yomon ishlarning, albatta, yodga olinishi va u shaxs hayoti mazmunini tashkil etishi, ro'zi mahsharda inson ularning har biriga munosib ajrim olishi Qur'oni karim oyatlari bilan hamohang tarzda ifodalanadi.

Xoja Ahmad Yassaviy zulm, qiyinchiliklarga chidash, ishq-muhabbat, so'fiylar, shayxlar va darveshlarning riyozat-u karomatlarini haqida yozadi. Uning ezgulik tarannum etilgan insonlar qalbidan o'rin oluvchi jo'shqin nidolari komil inson tarbiyasiga ta'sir qiluvchi omil sifatida

¹ Ahmad Yassaviy. Hikmatlar. T. F. Gulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyati. 1991. 193-bet.

² Usha manba, 221-bet.

zamondoshlari va bugungi yosh avlodni ham faqat yaxshilik, mehnatsevarlik, ulug'lik, mardlik, poklik, ilmsevarlikka undaydi:

*Qul Xoja Ahmad er bo'lmasang o'lgan yaxshi,
Qizil yuzing qaro yerda so'lgan yaxshi,
Tufroq sifat yer ostida bo'lgan yaxshi,
Zoti ulug' Xojam, sig'inib keldi sango.¹*

Xoja Ahmad Yassaviy qarashlarining yana bir jihati tarkidunyo-chilik g'oyasidir. Ammo u hayotdan yuz o'girish, degani emas, balki buning aksidir. Ya'ni, u targ'ib qilgan tarkidunyo-chilikda odam gunoh, fisq-u fasod, ochko'zlik, mo'parastlik kabi yuraklarga nafs qutqusini soluvchi bu dunyoning yana ko'plab xilma-xil "vasvas"larini tark etishi kerak bo'ladi. Bunda ikkita g'oya – shaxs o'zidagi yaxshi fazilatlarini takomillashtirishi va nuqson hamda kamchiliklarni bartaraf qilishi vazifasi o'zaro uyg'unlashib ketadi, bir-birini to'ldiradi.

Har bir kishi umri davomida xatolar qilishi mumkin. Xoja Ahmad Yassaviy o'z xatolarini tuzatishning birdan bir yo'li – tavba ekanini ta'kidlaydi. Tavba – kishi o'z xatosini anglab yetishi, uni tuzatishga intilishi, o'zini tarbiyalab borishi, deb hisoblaydi. Bu tushunchaga butun umri mobaynida o'zi amal qilib yashaydi.

Shoir "odob bir daraxt bo'lsa, hayo uning mevasidir", deydi. Uning fikricha, agar shaxsda takabburlik mavjud bo'lar ekan, undagi saxovat, odob, axloq, hayo chiroqlari o'chadi:

*Ulug', kichik yoronlardin odob ketti,
Qiz-u zaif juvonlardin hayo ketti,
"Al-hayo-u min al-imon" deb Rasul aytti,
Hayosiz qavm ajoyiblar bo'ldi, do'stlar.²*

Shoirning ushbu baytlari negizini Rasulullohning "al-hayo-u min al-imon" (hayo imondandur) hadisi tashkil etadi. Demak, imonli kishidagina hayo bo'ladi. Hayoning jamiyatdan ketishi, uning meva-chevasiz, huvillagan qo'rqinchli fayzsiz boqqa aylanib qolishiga sabab bo'ladi. Endi bir lahza o'zingiz yo farzandingizning uyatsiz, andishasiz jamiyatga tushib qolgan holatini tasavvur qiling. Bundan har qanday es-hushi joyida bo'lgan musulmon kishining etlari junjikib ketadi... XXI asrning darvozasi ochilishi bilan hayotimizga kompyuterlar orqali axborotlarning ilgari sira ko'rilmagan shiddatli oqimiga qo'shilib behayolikning ham minglab xillari kirib kelmoqda. Ular, ayniqsa, murg'ak yosh avlod

¹ Ahmad Yassaviy. Devoni hikmat. T., F. Fulom nomidagi nashriyat-matbaa birligimasi, 1992. 29-bet.

² Ushbu manba, 67-bet.

ongi va qalbini tezlik bilan ishg'ol qila boshladi. Endi ularga qanday bas kelish mumkin. Xuddi shu joyda ajdodlarimizning ma'naviy merosi yordamga keladi. Ularning orasida Xoja Ahmad Yassaviy hazratlari ham bor, albatta. O'quvchi bugungi kunda hayo va behayolik, mardlik va nomardlik, to'g'rilik va egrilik, halol va harom kabi juda muhim ijtimoiy tushunchalarni bir biridan farqlay oladigan bo'lishlari juda ham shart bo'lib bormoqda. Bunday natijaga erishish ko'p jihatdan ta'lim va tarbiyani to'g'ri yo'lga qo'ya olishimizga bog'liqdir.

Hayo jamiyat hayotining ziynatidir. Xoja Ahmad Yassaviy uni "odob daraxti" mevasi deydi, Rasululloh esa ularning ikkisi ham faqatgina imon zaminida rivoj topishi mumkinligini ta'kidlaydi. Hayoning ketishi birgina "odob daraxt"i, ya'ni bitta shaxsga emas, balki butun bir millat hayotiga ham juda kuchli va talofatli salbiy ta'sir ko'rsatadi. Asriy milliy ma'naviyat, madaniyat, an'analar, qadriyatlarga putur yetadi. Bu esa o'z navbatida odamlar o'rtasida hurmatsizlik, oqibatsizlik, shafqatsizlik kabi sifatlarni kuchaytiradi, urchitadi. Bunday ijtimoiy-ma'naviy muhitda manmanlik, ochko'zlik, riyo, yolg'on, bir-biriga ziyon yetkazish, qavmlar orasidagi mojarolar va makkorlik kabi jamiyat rivojiga qattiq zarar yetkazadigan holatlar kundalik odatga aylanadi.

Bunday illatlarning yuzaga kelishi va jamiyatda ustuvor maqega ega bo'lishi oxir-oqibat shaxs tarbiyasida fojiali holatlarni keltirib chiqaradi. Xoja Ahmad Yassaviy hikmatlarida aynan shunday fojialarning tarbiya bilan bog'liq sabablarini tahlil qilib beradi. Aslini olib qaraganimizda uning hikmatlaridagi barcha satrlar shu maqsadga qaratilgandir. Hikmatlardagi har bir satrda ezgulik va yovuzlik, ma'rifat va jaholat, zulm va adolat o'rtasida ayovsiz kurash ketayotganligini ko'rish mumkin. Muallif ularni oralab, hayotga mazmun beruvchi Haqni axtaradi.

Haqiqatning ma'nosiga yetgan kishi,

Behud bo'lib, kuyub yonar ichi toshi.¹

Haqiqatning ma'nosiga yetgan har bir kimsa komil, bilimdon kishidir. U befarq, loqayd emas. Shu tufayli ham u "ichi-toshi" yongan odamlar diydori, suhbatini qo'msaydi. Ular bilan birga bo'lishnn orzu qiladi. Ularni xayolan izlaydi. Botin va zohir, ya'ni agarda kishining ichi va tashqarisida o'zaro uyg'unlik bo'lsa, bu uni komillikka eltadi. Chunki bu ikki jihat bir-birini to'ldirib takomillashadi. Ba'zilar uning nazarida komil, e'tiqodiga sodiq kishilardek tuyuladi. Lekin bunday kishilarda

¹ Ahmad Yassaviy. *Devoni hikmat*. T. F Gulom nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi, 1992, 37-bet.

ham u bir qator nuqsonlarni sezadi va nuqsonli kishi hech qachon komil shaxs bo'lmaydi, degan fikrga keladi. U loqayd, dunyotalab, mol-dunyo qayg'usida yurgan, ko'p balandparvoz va puch so'zlar bilan ommaning ko'ngliga yo'l topishga urinuvchi kishilarni shunday kimsalar qatoriga kiritadi:

*Ey bexabar, g'aflat bilan uyquda sen,
Dunyo tilab, kecha-kunduz qayg'uda sen,
Toat qilmay, so'zlar so'zlab behuda sen,
Haq jamolin ko'rsatmasa, zomin bo'lay.¹*

Tasavvuf ta'limotiga ko'ra, komil inson dunyoparast bo'lmasligi lozim. Aks holda, g'aflatda qolib, hayotdagi maqsadini anglay olmaydi. Biroq u bunday shaxslarga e'tiborsiz kishilarni ham qattiq tanqid ostiga olib, nasihatlarini davom ettiradi:

*Qul Xoja Ahmad, nasihatni o'zungga qil,
Ey bexabar, xalqni qo'yib, o'zingni bil,
Tog'dan og'ir gunohing bor, o'zungga kel,
Haq jamolin ko'rsatmasa zomin bo'lay.²*

Bu bilan Xoja Ahmad Yassaviy har bir insonda ma'lum darajada gunoh mavjud ekanligini ko'rsatib, u kishining o'z-o'ziga tanqidiy nazar bilan qaray olishi, o'z xatolarini bartaraf etishga harakat qilishini talab etadi. Buning uchun, avvalo, inson o'zini-o'zi anglashi, tahlil qilib o'rganishi, ayniqsa, Haqqa intilish uchun o'z tayyorgarligini aniqlashi lozim, deydi. Ya'ni, bu bilan u inson o'zini-o'zi tushunib yetib, qilgan xatolarini anglab tavgaga kelishi, o'zini qaytadan shakllantirishi, tarbiyalashi kerak, deb tushuntiradi.

Xoja Ahmad Yassaviy o'z hikmatlarida qaysi elda ichki zo'ravonlik va ruhiy toliqish g'olib ekan, o'sha joyda nodonlik avjga chiqishini ta'kidlaydi. Shuningdek, u qaysi yurtda ma'naviy qadriyatlar qimmatini pasaytirilib, adolat ustunlari qulatilsa, bunda g'ofil va munofiq bandalarning baland martaba va mavqelarga ko'tarilmog'i uchun keng yo'l ochiladi, deb e'tirof etadi. Demak, mana shunday elda shaxs kamolotiga ham putur yetkaziladi. Shu bilan bir qatorda, nodonlik ofatlari yuzaga keladi, komil insonni shakllantirish yo'liga to'siqlar qo'yiladi. Ushbu nodonlik atalmish ofatdan Ahmad Yassaviychalik hech bir adib ranj, azob-uqubat chekkan bo'lmasa kerak. Shu sababdan ham u: "Duo qiling

¹ Ahmad Yassaviy. Hikmatlar. T., F. Gulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyati. 1991. 188-bet.

² Usha manba, 188-bet.

nodonlarni yuzin ko'rmay", deb xalqqa iltijolar qiladi. Uning ko'p hikmatlari nodonlikdan shikoyat mazmunida yaratilganligi ham bejiz emas.

*Yer ostiga qochib kirdim nodonlardin,
Ilgim ochib, duo tilab mardonlardin,
G'arib jonim yuz tasadduq donolardin,
Dono tobmay yer ostig'a kirdim mano.¹*

Yassaviy komil insonlarni dono mutafakkirlar deb tushungan. Shu bois ham yuqoridagi satrlarda u komil insonlarning hayotda kam ekanligidan yer ostiga qochib kirdim, deb yozadi. U butun hayoti davomida komil insonlar safining ko'payishi tarafdori bo'ladi.

Xoja Ahmad Yassaviy o'ziga qadar o'tgan mutafakkirlarning komil inson va uni tarbiyalash haqidagi fikrlarini yuksak hurmat qilgan. Chunki X–XI asrlarda yashab ijod qilgan bir qator buyuk allomalar komil inson tushunchasini payg'ambarlarga nisbatan ishlatganlar. Ularning izdoshlari va davomchilari bo'lgan avliyolar, allomalar, fozil va solih insonlarning ijtimoiy hayotdagi maqomlari ularniki bilan qiyoslangan, komillik darajasi belgilangan. Xoja Ahmad Yassaviy ham yillar davomida ilmni rivojlantirib, olamni mushobada qilib bu fikrlarga qo'shiladi. Chunki u "nodon bilan ulfat" bo'lib ham ko'rgan, lekin bunday "ulfatchilik"lardan bag'ri kuyib, jondan to'ygan.

Mabodo, egrilik, nohaqlik kabi salbiy odatlar – yo'1, deb ataladigan bo'lsa, bunda nodonning yo'li noto'g'ri, egri yo'ldir. Shuning uchun bunday shaxsni yaxshilik, ezgulik, to'g'rilikka yo'llash natijasiz bir harakatdir. Chunki nodon o'zganing fikrini qabul qilmagani uchun ham nodon. Natijasiz harakat esa dono, bilimdon odam uchun hijron dog'iday azobli, uning qoni dardlidir.

*Dog'i hijron ezdi bag'rim, qonim dardmand.
Dono tufrog', nodonlarni ko'ksi baland
Oyat, hudis bayon qilsam, qilmas pisand.
Ko'ksim teshing, dard-u g'amga to'ldim mano.²*

Ahmad Yassaviy asaridagi bir-birining mazmunini to'ldirib boruvchi hikmatlarida faqat "zoti bilim libosidan mahrum", ya'ni kaltafahm va xudbin kimsalargina nodon hisoblanmaydi. U olimman, deb kitob o'qib, ma'nosini uqmaydiganlar, fikrsizlik zulmatidagi kishilar, ruhiy olami nochor, qalbi qorong'u amaldor shaxslarni ham ashaddiy nodonlar safiga qo'shadi. Komil insonni shakllantiruvchi omillar – bilim hamda

¹ Ahmad Yassaviy. Devoni hikmat. T., F. Fulom nomidagi nashriyat-matbaa birlashmasi, 1992. 40-bet.

² Usha manba, 40-bet.

yoronlar “adab”ining jamiyatdan ketishini ham, albatta, nodonlik tazyiqi oqibati, deb biladi. Xoja Ahmad Yassaviy keyingi fikrlarida halol bilan haromning farqiga bora olmaydigan nafs quliga aylangan xaloyiq uchun “maloik”lardan sharm qiladi. Shoirning fikriga ko‘ra, komil inson o‘zi-dagi mardlik, donolik, oyat va hadislarni tushunib yetish, nafsni har qanday sharoitda tiyib tura olish kabi yana qanchalab zarif sifatlarni to‘g‘ri tarbiya orqali paydo qiladi.

*Nodonlarni mendin so‘rma, ko‘ksun jaqa,
Haqdin qo‘rqub, motam qursam, kular qah-qah,
Og‘zi ochuq, nafsni ulug‘, misli laqqa,
Nodonlardin qo‘rqub, senga keldim mano.¹*

Yuqorida keltirilgan bir qator hikmatlardan ko‘rinib turibdiki, Xoja Ahmad Yassaviy uchun yoshlarning komil inson bo‘lib shakllanish asosini ruhiy poklanish, nafsni tiyish, irodani kuchaytirish, o‘zini o‘zi qayta tarbiyalash kabi omillar tashkil qiladi. Bularning barchasi shaxs ma‘naviyati, dunyoqarashi, ruhiy holatlari bilan bog‘liq jarayonlardir.

Albatta, insonning yetuk shaxs, komillik sifatlariga ega bo‘lib shakllanishida biologik omillardan tashqari, u tarbiyalanayotgan jamiyat, u yashayotgan ijtimoiy muhitdagi shart-sharoitlar ta‘siri, ahamiyati muhim o‘rin tutadi. Xoja Ahmad Yassaviy yashab ijod qilgan paytda tarki-dunyochilik aqidasi ham ijtimoiy omillar qatoridan mustahkam o‘rin olgan davrlar hisoblanadi. Bu holat ayrim olimlarning ilmiy tadqiqotlarida o‘z tasdig‘ini topgan. Jumladan:

*Ayo do‘stlar, pok ishqini qo‘lg‘a olib,
Bu dunyoni dushman tutub yurdum mano.
...Lomakonni sayr etibon maqom oshtim,
Dunyo uqbin yuz ming taloq qo‘ydim mano.²*

Tasavvufshunos professor Najmiddin Komilov “dunyo harom”, “dunyo palid”, “dunyo moli hirs-u havo koni” kabi ta‘rif-tavsiflar Xoja Ahmad Yassaviy she‘rlarida ko‘p uchraydi, deya tasdiqlaydi. Shundan so‘ng: “Nega dunyo dushman?” “Nega uni tark etish kerak?” degan savollarga javob axtaradi va ularni o‘quvchiga tushuntiradi. U kishining javoblari ham komil insonni shakllantiruvchi omillar bilan bog‘liqdir. Ya‘ni, Xoja Ahmad Yassaviy va umuman, barcha tariqat ahli fikriga

¹ Ahmad Yassaviy. Devoni hikmat. 40-bet; Ahmad Yassaviy. Hikmatlar (Hikmatlar kuллиёти). T., “Uzbekiston”, 2011, 56-bet.

² Ahmad Yassaviy. Devoni hikmat. 33–36-bet; Ahmad Yassaviy. Hikmatlar. (Hikmatlar kuллиёти). T., “Uzbekiston”, 2011, 44, 48-bet.

ko'ra, Alloh yo'lini tanlagan solih inson barcha dunyoviy aloqalardan – mol-mulk bilan bog'liq tashvishlardan xalos bo'lishi lozim. Ana shundagina solih kishining qalbi butkul Alloh xayoli, uning jamoliga yetishish orzusi bilan band bo'ladi. Solikni to'g'ri yo'ldan chalg'ituvchi bu dunyoning fitq-u fasodlari uchun uning qalbida joy qolmaydi. Chunki Alloh muhabbati va dunyo muhabbati bir-birini inkor etuvchi qarama-qarshi kuchdir. Ajdodlarimiz ham tiriklik manbai sifatida ruhni va uning sohibi deb Tangrini bilganlar. Bundan komil insonni shakllantiruvchi omil – uning ruhi, ilohiy kuchidir, degan hulosasi kelib chiqadi.

Yassaviyning hikmatlarida insonparvarlik g'oyasi keng va teran maqomlarda ifodalangan.¹ Masalan, dunyo tariqat ahli nuqtayi nazaridan turli ma'nolarga ega:

1. Dunyo – maxluqot olami, moddiy borliq.

2. Dunyo – jism, inson tanasi.

3. Dunyo – davlat, boylik.

4. Dunyo – nafs, zulmat, qorong'ulik timsoli.

5. Dunyo – boqiy (haqiqiy) dunyoning aksi (yolg'on) bo'lgan foniy olamdirdir.

Bir so'z bilan aytganda, Borliq – Xoliq tomonidan yaratilgan maxluqotlar dunyosi. U o'tkinchi bo'lib, hech kimga vafo qilmaydi. Shu sababdan u muhabbatimizga, mehrimizga arzimaydi. Faqat parvardigorga bo'lgan muhabbatgina haqiqiy va boqiy. U ma'naviyat va fayz-u barakat koni, butun insoniyat va olamning boshqaruvchisi, rahnamosidir.²

Bu fikrlar inson xilqatining jism va ruhdan iboratligi, insonni jismi emas, balki ruhi mukarram etishi haqidagi qarashlar bilan uyg'unlashib ketadi. Buning afzalligi esa insonning barkamol shaxs sifatida uning ruhiy javhari, ya'ni bir tarafdin ilohiyligini ham hisobga olishdadir.

Shu sababli insonning ruhi qanchalik kamol topsa, u shunchalik mukammallashib, shakllana boradi va poklanadi. Shoir baqo va fano dunyosi haqidagi tushunchalarni juda chuqur tushungan. Shu sababdan u mehr-muhabbatga arzimagan bu dunyodan (boylik, mol-davlat) bir "lahza forig' bo'lmoq qayda", deb yozadi. U insonning ilohiyotga yaqinlashishiga qanchalik to'sqinlik qilmasin, undan bir yo'la va birdan voz kechish ham oson ish emas. Xoja Ahmad Yassaviy insonning eng katta mas'uliyati – sabr-qanoatli bo'lish, komillikka intilish, bilim olish, kasb-hunar egallash kabi vazifalarda bo'lmoq'i lozim, deb ta'kidlaydi. Hik-

¹ Ahmad Yassaviy. Hikmatlar. T., F. Gulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyati. 1991. 31-bet.

² Usha manba. 34-manba.

matlarida inson va ruh, lohut (ma'rifat) va nosut (jismoniy olam) olami munosabatlari, ruhning jism ichida chekayotgan iztiroblari, jismoniy talablar bilan ruhiy-ma'naviy ehtiyojlar orasidagi ziddiyatlar xususida fikr yuritadi. O'quvchiga har bir inson ta'lim-tarbiya vositasida o'zidagi nuqsonlardan forig' bo'lish imkoniyatlarini ko'rsatadi. Shunday imkoniyatlardan biri kishi o'ziga tanqidiy nazar bilan qarash hissini tarbiyalab borishidir. Insonni tarbiyalash – uning nuqson va gunohlarini ko'rsatish, uni to'g'ri yo'lga boshlash demakdir. Xoja Ahmad Yassaviy tariqatda riyozat chekish, mashaqqatli mehnatlar evaziga va ilm, imon hosil qilish yo'li bilan insonni poklab, uni turli nuqson va zararli fe'l-atvorlardan xalos etish mumkin, deb hisoblaydi.

Ahmad Yassaviyning nuqtayi nazariga ko'ra, komil inson bo'lib shakllangan shaxsni har lahzada ma'naviyatga intilish, poklik, halollik, mehr-u vafo va Haqni sevish, uni qo'msash va izlash tuyg'ulari harakatga keltirib turadi. U mazkur holatlarni umumlashtirib: "Dunyo ko'rmay, hol ilmni bilsa bo'lmas", – deya ta'rif etadi. Ushbu satrlardan ilm o'rganmay turib, uzoqni ko'ra bilmalik, yashash jarayonida yuzaga keladigan qiyinchiliklarni yengib o'tib bo'lmaslikni anglash mumkin.

Har bir shaxsning e'tiqodli bo'lib tarbiyalanishiga ustozining uzoq va mashaqqatli mehnati singan bo'ladi, albatta. Xoja Ahmad Yassaviyning mustahkam e'tiqod egasi bo'lib shakllanishida ham ustozlari – Arslonbob va Yusuf Hamadoniy tarbiyasi muhim o'rin tutganini yuqorida aytib o'tgandik. Yassaviy tarkidunyochilikni aslida avliyolar tavbasi, deydi. Tarkidunyochilik inson tabiatini tartibga keltiradi, qalbini tozalaydi, deb hisoblaydi. Biroq avliyolar tarkidunyo qilishni barchadan talab qilgan emaslar. Chunki uzlatnishinlik, zikr, raqs-u samo kabi holatlar kishining xohish-istagi, ixlosi bilan bog'liqdir. Yassaviy o'zini faqirlar jumlasiga kiritadi va bu bilan doimo faxrlanadi. Uning ta'kidlashicha, faqir kishi dunyoning asbobi ahvolidan hech narsaga ega emas, hech bir ta'ma va davosi bo'lmagan shaxs. Faqirlarning Alloh diydoridan o'zga talablari yo'q. U faqirlikni so'fiylik (musulmonlik) bilan bog'lagan holda xudojo'ylar sifatlarida ko'proq e'tibor beradi. Xudojo'y bo'lsang, musulmonlikka amal qilgin, degan ma'noda quyidagi fikrlarni bildiradi:

*So'fi bo'lsang sof bo'lg'il, jurm-u isyon bo'lmasun,
Toat-u taqvo qilib, ko'nglung parishon bo'lmasun,
Jon-u dildan yig'lag'il, mahsharda yolg'on bo'lmasun,*

*So'finaqsh bo'ldung, vale hargiz musulmon bo'lmading.*¹

Bu bilan u xudojo'yilar tafrid va tajrid bilan ruhini poklab, Haqqa yaqin martaba sari ko'tarilishini, fano holati (ilohiyotga sig'inishi) nashidasidan lazzat olishni aniq tasvirlaydi. Shunga asosan, Yassaviyning muqaddas ruh ko'magida aytgan hikmatlarini reaksiya, g'ayriinsoniy de-yish noto'g'ri. Uning hikmatlaridan ko'rinib turibdiki, u umr bo'yi maz-lumlar, yetim-g'ariblarni himoya qilgan va ko'p hollarda ularni o'z bag'-riga oigan. Shu sababdan ham sofdil, solih odamlar uning ta'limotini qa-bul qilib, el orasiga yoyganlar. Yassaviy poraxo'rlik, hirs-u hasad va ja-holatni qattiq tanqid ostiga olgan.

Shoir odamzotni yovuzlik qilishdan qaytarish uchun quruq tashvi-qot yurgizmaydi. Uning asl maqsadi jo'shqin nolalar, nazmiy ohanglar va tirik so'zlar ko'magida tinglovchi yuragida o'chmas iz qoldirishdir. Uning hikmatlari orqali aynan, din va diniy ta'limotlarning ham konil insonni shakllantirishda eng muhim omillaridan biri ekanini ko'ramiz. Hikmatlardagi she'rlarni o'qib, o'quvchida dinga nisbatan samimiy va sof tuyg'ularga yo'g'rilgan munosabat paydo bo'ladi. Tangriga ishonch, qalbning unga bo'lgan munojoti, undan najot kutish, xudojo'ylik va Al-loh ishqini ta'rif-tavsif qilgan so'zlar ortidan o'quvchining ruhiy olami-ga mo'minlik tashrif buyurganday bo'ladi. Bu jarayonning barchasini bir kishi – shoir va so'fiy Xoja Ahmad Yassaviy boshqarib turadi.

Ko'rinib turganidek, din o'z xizmatiga turli kasb egalari qatorida ko'plab iste'dodli olimlarni ham jalb etgan edi. Ularning chuqur izla-nishlari diniy ta'limotga oid atamalar, tushunchalarni sharhlash, ularni xalq ongiga singdirib borishga xizmat qilgan. Xoja Ahmad Yassaviy hikmatlaridagi misralarning boshdan oxirigacha diniy tushunchalar, ularga amal qilib yashagan bir insonning botiniy va zohiriy borlig'i yuk-langan.

Zolim agar jafu qilsa, Alloh degil,

Ilking ochib, duo aylab, bo'yun sungil.

Haq dodingga yetmas bo'lsa, gila qilgil,

*Haqdin eshtib, bu so'zlarni aydim mano.*²

Bu yerda Yassaviy o'quvchini Xudoga sig'inishga chaqirib, el-u yurtni vayron qilayotgan Zolim zulmiga qarshi bosh ko'tarishga da'vat qiladi. Afsuski, sho'rolar – qizil imperiya davrida ateistik ta'limot na-moyondalari (dahriylar) Xoja Ahmad Yassaviy hikmatlarini noto'g'ri

¹ Ahmad Yassaviy. Devoni hikmat. 141-bet.

² Ahmad Yassaviy. Devoni hikmat. T. F. Fudom nomidagi nashriyat-matbaa birlashmasi. 1992. 35-6-ett.

talqin qilib, uning fikrlarini “zolimlarga bo‘yin eg” qabilida tushuntirib keldilar. Bu noto‘g‘ri talqin uning ta‘lim-tarbiyaviy qarashlari haqida ham noto‘g‘ri xulosalar paydo bo‘lishiga olib kelgan edi.

Ahmad Yassaviyning hikmatlarida har bir shaxsning turmush tarzi-ga aloqador ma‘naviy, iqtisodiy olam, ta‘lim-tarbiya va oilaviy munosabat-larga oid mulohazalar bildirilgan. Bu tabiiy holdir. Zero, barcha davr-larda ham tirikchilik, insoniyatning turmush tarzi, eng avvalo, moddiy mol-mulkchilik va u bilan bog‘liq muammolarni hayotda birinchi o‘rin-ga chiqarib kelgan. Biroq eng og‘ir damlarda ham dilida ezgu g‘oyalarni saqlay olgan kishi ruhan tushkunlikka tushmaydi. U qalbini to‘ldirib tur-gan go‘zallik va ruhini samoviy maqomlarga yetaklab borayotgan niyat-laridan kecha olmaydi. Chunki uni hamisha ruhning vatani – Tangri hu-zuri, jabarut olami chorlab turadi, og‘ir fursatlarda uni ovuntiradi. U agar xohlasa, arshu samolarni sayr qila oladi, Haqqa roz aytadi. O‘zidagi jismoniy talablar, ya‘ni nafsning hirs-u havas, hasad va man-manlik, ish-ratparastlik kabi qo‘shiniga qarshi kurash (jihod) boshlaydi. Dilida mehr muruvvat uyg‘onadi. Bu, albatta, diniy tarbiya ta‘siri, qolaversa, shaxs-ni o‘rab turgan saxiy tabiatning kishilar ongida aks etishi natijasidir. Bu shaxsning shakllanishiga uning ruhi bilan tabiat uyg‘unligi ham ta‘sir qi-luvchi omil ekanini tasdiqlaydi. Lekin har bir alohida olingan shaxs xat-ti-harakatida ustuvor bo‘lgan ma‘lum bir motivlarni ajratib ko‘rsatsa bo‘ladi. Demak, turli toifadagi musulmonlarda diniy psixologiyaning fa-qat ayrim jihatlari – ularning faqat o‘zlarigagina xos bo‘lgan xususiyat-larini ko‘rish mumkin. Ahmad Yassaviyning xudojo‘y shaxs sifatida uning tafakkuri faoliyatida ustunlikka ega motivlar, harakatining asosiy ustuvor maqsadlari mavjudligi bilan izohlanadi. Ularni ajratib ola bilish, diniy tarbiya usullari bilan bog‘liqligini hisobga olish zarur. Bu bilan, asosan, uning xatti-harakatlarining asl mazmuni aniqlab olinadi.

Shu o‘rinda aytish joizki. Xoja Ahmad Yassaviy komil inson sifati-da oltmish uch yoshiga qadar oilasi, farzandlari bilan oddiy bir shaxs ka-bi umr kechirgan. Hayotda oilasini tebratish uchun bog‘bonlik qilgan, ilm toliblariga dars berib, ko‘pdan-ko‘p shogirdlar trabiyaagan. Biroq har qanday vaziyatda ham uning qalbida ilohiy muhabbat (ichki motiv) ustuvor edi. U dunyoga, mol-mulkka e‘tibor qilmas, nafs odamni buza-digan narsa, deb qarar edi.

Bu e‘tiqod unga ota meros bo‘lib, uning shaxsi esa oldinroq aytib o‘tganimizdek, ustozlari Arslon Bob va Yusuf Hamadoniyning tarbiyasi tufayli yanada kuchaygan, komillik darajasiga yetgan edi. Zotan, tarki-

dunyochilik avliyolar tarbiyasi hisoblangani uchun u shunga amal qilgandi.

Xoja Ahmad Yassaviy ham o'zining tabiati, olamga qiziqishi va ijodiy qobiliyati, aqliy rivojlanganlik darajasi, ma'naviy ehtiyoj va inson mehnat faoliyatiga munosbati bilan boshqalardan farq qiladi. Uning o'ziga xos shaxsiy ruhiy xususiyatlari mavjud. Ana shu ruhiy xususiyatlar rivojlanib, uning shaxsi kamolot darajasiga yetishdi. Natijada biz o'rganayotgan ushbu hikmatlar dunyoga keldi va islom olamida yassavi-ya, deb atalgan yangi bir tariqat paydo bo'ldi. Xoja Ahmad Yassaviy-ning tariqatda tutgan maqomi, ma'naviy kamoloti darajasi uning ijtimoiy voqelik, mehnat, kishilar va jamiyatga bo'lgan munosabatlarida aks etdi.

Xoja Ahmad Yassaviyning inson kamoloti haqidagi qarashlari imon, e'tiqod, Alloh ishq, ilm, qalb pokligi, niyatning xolisligi kabi yana bir qancha ma'naviy ustunlar asosiga qurilgan edi. Shoir hikmatlarida bunday sifatlersiz shaxs kamolotiga erishib bo'lmagligini muntazam ta'kidlaydi. Ilm solikka Alloh sari olib boruvchi yo'lni ko'rsatsa, ishq Tangri taoloning unga e'tiborini qaratishga xizmat qiladi. Tangri va solik o'rtasidagi munosabatlar shu tariqa yo'lga qo'yiladi.

Yassaviy hayoti va qarashlarini ilohiyatsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Hikmatlardagi satrlarga ko'ra, u hali tug'ilmasidanoq ilohiy olam bilan bog'langan edi. U: "Hazrati payg'ambar alayhissalom me'roj tuni ko'kda faqrning siyratini nur shaklida ko'rdilar. Bu mening ruhim edi", deb yozadi.

*Ayo do'stlar, quloq soling aydug'img'a,
Na sababdin oltmish uchda yerga kirdim,
Me'roj uzra Haq Mustafo ruhim ko'rdi,
Ul sababdin oltmish uchda yerga kirdim.*

*Haq Mustafo Jabroildin qildi savol,
"Bu nechuk ruh, tanga kirmay tobti kamol,
Ko'zi yoshliq, xalqqa boshliq, qaddi hilol?"
Ul sababdin olumish uchda yerga kirdim.¹*

O'sha ilohiy olamda kamol topgan ruh Ahmad onasi homilador bo'lgan kuni uning vujudiga kirgan edi. U tanaga kirmasdan burun ham Allohga oshiq, ma'naviy komil bo'lib, "ko'zi yoshli, boshi egik, qaddi hilol" edi. Ya'ni u toat-ibodatli musulmon ruh edi. Shu sababli ruh ta-

¹ Ahmad Yassaviy. Hikmatlar. T., F. Fulom nomidagi ashobit va san'at nashriyati, 1991, 48-bet. Ahmad Yassaviy. Hikmatlar (Hikmatlar kuliyati). T., "Uzbekiston", 2011, 14, 15-bet.

ruga kirgan zahoti moddiy vujudi bilan kelisha olmay, o'z asliga qarab intiladi. Buni Xoja Ahmad Yassaviy quyidagicha izohlaydi:

*To'qqiz oy-u to'qqiz kunda yerga tushdim,
To'qqiz soat tura olmadim, ko'kka uchdim.¹*

Bu fikrini davom ettirgan holda Xoja Ahmad Yassaviy ilohiy sifatlar bilan birga, tana tuzilishi, umumiy ko'rinish, rang, ba'zi bir harakatlardan hamda ayrim xastaliklar ham irsiyat orqali ota-onadan bolaga o'tishi mumkinligini ta'kidlaydi. Biroq ular ba'zi hollarda tashqaridan ta'sir qiluvchi muhit orqali o'zgaradi ham. Shoir o'zidagi sifatlar faqat irsiyat orqali emas, balki tashqi ta'sirlar natijasida ham yuzaga kelganligini quyidagi satrlarda bayon qiladi:

*Ayo do'stlar, hasbi holim bayon aylay,
Na sababdin Haqdin qo'rqub g'orga kirdim.
Chin dardlikka bu so'zlarni ayon aylay,
Ul sababdin Haqdin qo'rqub g'orga kirdim.²*

Bu misralardan ma'lum bo'lishicha, Xoja Ahmad Yassaviy yorug' dunyoni tark etish bilan moddiy olam boyliklaridan yuz o'girish, o'z nafsini ortiqcha yeb-ichish, haromdan tiyishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Shuning uchun ham uning hikmatlari bugungi yoshlar uchun haromdan hazar qilish, mehr-oqibatli bo'lish, yomonlikdan qochish, yaxshilikka intilish, nafsni tiyish, fursat borida ulug' va ezgu ishlarni amalga oshirishga da'vat bo'lib yangraydi:

*Tariqatni shavq-u zavqi kuymak, yonmoq,
Haqdin qochqan nojinslardan qochib tonmoq,
Yuz ming turluk jafu tegsa, bo'yun sunmoq,
Bo'yun sunmay ishq do'konin qursa bo'lmas.³*

Bu yerda Yassaviy Haqdin qochganlar deganda – imonsizlar, nojinslar, kazzob va firibgarlarni nazarda tutadi. Haqdan tonganlardan tonish esa tasavvuf ta'limotining bosh masalalaridan biri. Shu sababdan Xoja Ahmad Yassaviy umrining oxirida uzlatni qabul qiladi. Uning hikmatlaridagi g'oyalardan biri insonning boshqalarga haqiqatni ulug'lash, mehnatsevarlik, halollik, poklik birla ibrat bo'lishdir. Shunga o'xshash yana biri esa nodon va nojinslar, Xudo bexabarlardan qochish edi.

*Yer ostig'a qochib kirdim nodonlardan,
Dono tobmay yer ostig'a kirdim mano.⁴*

¹ Ahmad Yassaviy. Hikmatlar. T., F. Gulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyati. 1991, 50-bet.

² Ahmad Yassaviy. Devoni hikmat. T.: F. Gulom nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi. 1992, 153-bet.

³ Usha manba. 109-bet

Ahmad Yassaviyning hayoti va faoliyatidan ko'rinib turibdiki, odamning ijtimoiy mavjudot sifatida shaxs nomini olishi uchun unga ijtimoiy muhit, iqtisodiy ehtiyoj, ta'lim-tarbiya, nasl (irsiyat) va o'zining mustaqil faoliyati kerak ekan. Shaxsning kamolotga yetishi murakkab jarayon ekanligini yuqoridagilar tasdiqlaydi. Lekin shaxs kamolotida ruhiy-jismoniy jihatdan taraqqiy etish turli yosh davrlarida turlicha namoyon bo'lib kelishi Ahmad Yassaviyning kamolga yetish jarayonida o'z ifodasini topgan. Bu barcha insonlarga xos holatdir. Chunki har bir bola ta'lim-tarbiya natijasida yoshdan yoshga o'tgan sari aqliy, ruhiy va jismoniy rivojlanib tadrijiy takomil topib boradi. Demak, har bir shaxsning yoshi, individual xususiyatlari doimo rivojlanishda, o'zgarishda bo'ladi. Xuddi shularni hisobga olib, pedagogika, psixologiya fanlari yosh davrlarini guruhlashtirishni qabul qilgan. Bu jarayonlarni albatta, Xoja Ahmad Yassaviy boshdan kechirgan va ustoz sifatida shogirdlari-ning holatini ham to'g'ri baholay olgan.

Eranlardan fayz futuh ololmadim,

Yuz yigirma beshga kirdim, bilolmadim.

Haq taolo toatlarin qilolmadim,

Eshitib, ugib, yerga kirdim Qul Xoja Ahmad.²

U bosib o'tgan hayot yo'liga tanqidiy munosabatda bo'lib, umri davomida qilgan savob ishlariyu qalbidagi istak-xohishlari, kelajakka intilishi, shuningdek, hayotining mazmuni hisoblangan Haqqa yetishish, faqirlik, darveshlik kabi holatlar haqida shogirdlari bilan fikr-mulohazalar yuritadi.

Uch yuz oltmish suv kechdim,

To'rt yuz qirq to'rt tog' oshdim,

Vahdat sharobin ichtim, tushtum maydon ichinda.

Chunki tushtum maydong'a, maydonni to'la ko'rdim,

Yuz ming orifni so'rdum, barcha javlon ichinda.

G'avvos bahriga kirdim, vujud shahrini kezdum.

Durni sadafda ko'rdum, gavharni kon ichinda.

Arsh-u Kursini yurdim, Lavh-u Qalamni ko'rdim,

Vujud shahrini kezdum, aydi bu jon ichinda.

Erni ko'rdum ergashtim, istadug'umni so'rdum,

Barchasi senda dedi, qoldim hayron ichinda.

¹ Ahmad Yassaviy. Devoni hikmat. T. F. Fudom nomidagi nasriyot-matbaa birlashmasi. 1992. 40-bet.

² Ahmad Yassaviy. Hikmatlar. T. F. Fudom nomidagi adabiet va san'at nasriyoti. 1991. 237-bet.

*Hayron bo'lubon qoldim, behush bo'lubon toldim,
O'zunni dardga soldim, toptim darmon ichinda.
Miskin Xoja Ahmad joni ham govhardur ham loni,
Jumla oning makoni, ullomakon ichinda.¹*

Ushbu satrlarda Ahmad Yassaviy hayoti mazmuni, ko'ngil dardlari va iztiroblari ifodalangan. Mazkur tuyg'ularning barchasi uning barkamol shaxs bo'lib yetishuviga xizmat qilgan omillardir.

Xoja Ahmad Yassaviyning o'zi ham komil inson va uning shakllanishida ta'lim-tarbiyaning ahamiyatiga, ayniqsa, katta e'tibor qaratadi. Shaxsning voyaga yetishida nasl, tarbiya, muhit va boshqa qator omillarni ham hisobga oladi. Shu bilan birga, o'z zamonasidagi ta'lim tarbiyaga oid mavjud boshqa ta'limotlarda ko'rsatilgan qator omillarning o'rnini ham alohida ta'kidlaydi. Xoja Ahmad Yassaviyning hayotda yuksak maqomlarga yetishishi, o'zida haqiqiy insoniy tuyg'ularni hosil etishiga xizmat qilgan. Keyinchalik uning o'zi ham xuddi shu tushunchalarni komillikka yetishish vositalari sifatida talqin qiladi, ularni komillik tarbiyasining asosiy omillaridan, deb biladi.

2.3. Ahmad Yassaviy qarashlarida odob-axloq g'oyalari va ayrim mezonlarining aks etish masalalari

Inson ma'naviy olamining yuksalishi bilan bog'liq turli holatlar haqida ko'p gapirish mumkin. Zero, Prezidentimiz ta'kidlaganidek, "Allohning o'zi bizga buyurgan komil inson bo'lish, halollik va adolat bilan hayot kechirish kabi olijanob fazilatlarining ma'no-mazmunini na-faqat chuqur anglash, balki ana shunday xususiyatlarga ega bo'lish, ularga amal qilib yashash – odamzotning ma'naviy boyligini belgilab beradigan asosiy mezon, desak hech qanday xato bo'lmaydi".

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov "Milliy istiqbol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar" risolasiga yozgan so'z boshisida: "Hozirgi murakkab sharoitda xalqimiz, avvalo, unib o'sib kelayotgan yosh avlodimiz ongi va qalbida mafkuraviy immunitet hosil qilish muhim ahamiyatga ega. Bu ishni bamisoli yosh niholga mevali daraxt kurtagini payvand qiladigan usta bog'bondek noziklik va mehr bilan, oqilona yo'l bilan amalga oshirish lozim", deb yozgandi.² Yurtbo-

¹ Ahmad Yassaviy. Devoni hikmat. T.: F. Gulom nomidagi nashriyat-matbaa birlashmasi, 1992. 173-bet.

² Karimov I. A. Milyard istiqbol mafkurasi – xalq etikodi va buyuk kelajakka ishonchdir. T.: "Uzbekiston", 2000. 1-bet.

shimizning bu soʻzlari yoshlarimizda diniy mutaassiblik, aqidaparastlik, vahhobiylik, “Hizbut tahrir”, “Nurchilik” va boshqa voyronakor gʻoyalardan taʼsiriga qarshi mustahkam mafkuraviy immunitetni shakllantirishning oʻta muhim tamoyillarini aniqlash, ilmiy tadqiq etish va ularni hayotga tatbiq etishga daʼvatdir. Shu sababli ajdodlarimiz azaldan amal qilib kelayotgan moʻtadil islom va uning taʼlim-tarbiya uslublari, musulmon kishiga xos asl fazilatlar qanday boʻlgani, bunday koʻnikmalar qay tarzda shakllantirilganligini pedagogik jihatdan oʻrganish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Mazkur zarurat tufayli jamiyatimiz taraqqiyoti jarayonida Xoja Ahmad Yassaviy hikmatlarining hozirgi yoshlarda milliy maʼnaviy fazilatlarini shakllantirishdagi ahamiyatini maxsus oʻrganish zarurligi tobora aniqroq koʻrinib qolmoqda. Maʼlumki, taʼlim-tarbiyani oʻquvchilarning umumiy rivojlanishi bilan uygʻunlashtirib amalga oshirish muhim pedagogik tamoyillardan biri hisoblanadi.

Mazkur pedagogik jarayonda taʼlim texnologiyalarini ilmiy asoslagan tarzda oʻzaro bogʻlanishda qoʻllash oʻquvchilar tomonidan bilim, koʻnikma va malakalarining chuqur, puxta, ongli va samarali oʻzlashtirishini taʼminlaydi. Bunda taʼlim jarayoni taʼlim-tarbiya birliklari asosida boshqarib boriladi. Biroq bugungi kunga qadar oliy oʻquv yurtlari talabalari uchun moʻljallangan 1995-yili “Oʻqituvchi” nashriyotida chop etilgan “Oʻzbek pedagogikasi antologiyasi” hamda “Maʼnaviyat asoslari” kursi kitoblarida Ahmad Yassaviyning hikmatlarini oʻrganishga doir materiallar zarur boʻlganidan kam darajada oʻrin olgan.¹ Shunga qaramay, ushbu oʻquv qoʻllanmalari asosida talabalarga Xoja Ahmad Yassaviyning hikmatlari orqali milliy-maʼnaviy fazilatlarini oʻzlashtirib, oʻzlaridagi salbiy sifatlarini bartaraf qilish yoʻllarini qiyosiy-tirixiy hamda pedagogik talqin qilish yoʻli bilan oʻrgatish imkoniyati mavjuddir.

Maʼlumki, axloq ijtimoiy ong shakllari majmuasidan tashkil topgan boʻlib, u insonlarning oʻzi, oilasi, doʻst-u birodarlari, jamoa aʼzolari va tabiatga boʻlgan munosabatlarini tartibga soluvchi xulq, odob qonun-qoidalaridan iboratdir. Axloqiy, maʼnaviy tarbiya esa ana shu qoidalarni yoshlar ongi, hayoti, turmush tarziga singdirish uchun koʻrsatiladigan taʼsirlar tizimini hosil qiladi. Demak, maʼnaviy tarbiya maqsadining negizi hisoblangan axloq kishining oila, mehnat va jamiyatga boʻlgan munosabatlarida namoyon boʻlib turadi.

¹ Зиёмухаммедов Б. Маънавий асослари. Т. „Ўзбекистон миллий энциклопедияси“, 2000, 133-бет.

Davrlar davomida shakllanib va rivojlanib kelayotgan musulmon ma'naviyati va axloqi turmush tarzimizda mazmunan boy, rang-barang ko'rinishlarda aks etib kelmoqda. Markaziy Osiyo xalqlari axloq tarbiyasi borasida boy tajribaga egadirlar. Muqaddas Qur'oni Karim va Hadisi sharif kitoblarida axloqiy tarbiyaga oid ibratli maslahatlar, hikmatlar, rivoyatlar hamda asrlar davomida ota-bobolarimiz hayotida tarkib topgan milliy urf-odatlarimiz, an'analarimizning durdona asoslari hisoblangan Muhammad ibn Muso al-Xorazmiyning "Vasiyatlar kitobi", Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriyning "Al-Jome' as-sahih", Abu Iso Muhammad ibn Iso at-Termiziyning "Sunan", "Kitob shamoil", Abu Nasr Muhammad Forobiyning "Risola fi fusus al-hikma" ("Hikmat gavharlari haqida risola"), "Risola fi tanbeh alo ashobi-s-saodat" ("Baxt saodatga erishish yo'llari haqida risola"), "Kitob mabodi-u orom ahli madinat al-fazila" ("Fozil shahar aholisining boshlang'ich qarashlar"), Abu Rayhon Beruniyning "Mineralogiya" (Qimmatbaho toshlarni bilish), Ibn Sinoning "Hikmatlar"i, Abu Bakr Muhammad ibn al-Abbos Xorazmiyning o'g'itlari va Ahmad Yassaviyning "Devoni hikmat", "Faqrnoma" asarlari bugungi kun yoshlarida milliy-ma'naviy fazilatlarini tarkib toptirishda juda muhim manba vazifasini o'tamoqda.

O'zbekiston Respublikasi prezidenti I.A.Karimov mamlakatimiz istiqloli va taraqqiyoti yo'llari hamda ularni to'g'ri rivojlantirish ustida to'xtalib: "Kattalarni hurmat qilish, oila, farzandlar to'g'risida g'amxo'rlik qilish, ochiq ko'ngillilik, millatidan qat'iy nazar odamlarga xayri-xohlik tuyg'usi – kishilar o'rtasidagi munosabatlarning me'yori hisoblanadi. O'zbeklar diyoriga, o'z Vataniга mehr-muhabbat, mehnatsevarlik, bilishga, ustozlarga, ma'rifatparvarlarga nisbatan alohida hurmat-eh-tirom O'zbekiston millatiga xos fazilatlaridir",– deya alohida ta'kidlab o'tgan edi.¹

Demak, ma'naviyat va axloq me'yorlari barkamol insonni tarbiyalashda, unda insoniy sifatlarni shakllantiruvchi hamda uni mukammallikka erishtiruvchi pedagogik vositalar bo'lib xizmat qiladi.

Ma'naviy boy kishi o'zini ham boshqalarni ham hurmat qiladi. Unda ichki intizom kuchli bo'lib, u muloqot odobiga rioya qila oladi. O'zgalarga suhbatdosh bo'lganda ularning dilini og'ritmasdan, ular ko'ngliga qarab gapiradi, tashqi muomalasi bilan o'zga qalblarga huzur va yengillik bag'ishlaydi.

¹ Karimov I.A. Ўзбекистоннинг ўз истиклол ва тараккиёт ёўди. Т.. "Ўзбекистон". 1992, 11-бет.

Xoja Ahmad Yassaviy fikriga ko'ra, agar kishi o'zgalarni hurmat qilsa, yaqinlari va muhtojlar holidan xabar olib tursa, bu uning insoniy sifatlaridan darak beradi.

Qattig'lanib qul Xoja Ahmad, yo'lg'a kirg'il.

Qulni ko'rsang, quli bo'lib ma'no so'rgil.

Yo ilohim, ro'zi qilsa, ma'no olg'il,

Ma'no so'rab, ma'no olgan chin qul bo'lur.¹

Bu satrda "qul"lik tushunchasi, aslida, "kamtarin"lik sifati o'rniida berilmoqda. Shu tariqa, shoir odamlarni kamtarinlikka, bag'rikenglikka da'vat qiladi.

Xoja Ahmad Yassaviy oila va farzandlar to'g'risida gapirib, oiladagi o'zaro mehribonlik, g'amxo'rlik, halol yashash, mehnat qilish va to'g'ri turmush tarzi har bir farzandning kelajakda jamiyatda tutadigan o'rnini belgilashini aytadi. O'g'il-qiz – bu ota-onaning umidi, orzusi, keksaygandagi suyanchig'i, nasl davomchisi. Ota-ona va farzandlar o'r-tasidagi bunday bog'liqlik qariyb barcha insonlarga xos xususiyatdir. Shu sababdan ajdodlar aksariyat hollarda avlodlarining jamiyatda yuqori mavqega ega bo'lishi, ma'naviy shakllanishi uchun kurashadi (Bu kurashlar natijasida buyuk tarixiy voqealar, hatto buyuk fojialar sodir bo'ladi.

Qo'lidagi yarog'i zulfiqori,

Chopushqanda uzalur qirg'qori.

Alini bor edi o'n sakkiz o'g'li.

Ani har qaysisidur katta tug'li.²

Ha, farzand ota-onaning kuch-quvvati, hayotdagi eng katta yupanchi, ovunchidir. Shoir barcha insoniy fazilatlar katta davlat va baxt-saodat kalitidir, hayot davomida farzandlarni ular bilan ta'minlash zarur, deb hisoblaydi. Shuning uchun ham har bir ota-ona farzandlarining kelajagi uchun qayg'urishi ularning asosiy vazifalaridan biridir.

Xoja Ahmad Yassaviy yana bir fazilat, ya'ni millatidan qat'iy nazar, odamlarga xayrixohlik bilan munosabatda bo'lish va o'zaro yordam tuyg'usini kishilar o'rtasida ibrat bo'lishi mumkin bo'lgan axloqiy me'yor deb biladi. Bu bugungi global muammolar girdobiga tushib qolgan va jon-jahdi bilan undan chiqib ketishga yo'l axtarayotgan bizning dunyomiz uchun uning bu xatarli dardlaridan qutulishiga malham bo'ladigan tushunchadir.

¹ Ahmad Yassaviy. Hikmatlar. T. 1. F. Gulom nomiдаги алабиёт ва санъат наприёти, 1991. 151-бет.

² Ahmad Yassaviy. Devoni hikmat. T. 1. F. Gulom: nomiдаги наприёт-магбаа бирлашмаси, 1992. 86-бет.

*Sunnat ermish, kofir bo'lsa, berma ozor,
Ko'ngli qattig', dilozordan xudo bezor.
Alloh haqi, andoq qulga sijjin tayyor,
Donolardan eshitib, bu so'z aydim mano.¹*

Mazkur satrlarda kuyulanayotgan insoniy fazilatlarini hosil qilish – xalqlar o'rtasida millatlararo totuvlik, dinlararo bag'rikenglikka (tolerantlik) erishish g'oyalari ni targ'ib etishni ta'lim-tarbiya ishlaridagi muhim vazifalardan biri, deb hisoblayotgan bugungi pedagogika fanining ham ijobiy va samarali yechimini kutayotgan bosh muammolaridandir. Vatanparvarlik, Vatanga muhabbat tuyg'usi, uning ravnaqi yo'lida fidokorlik qilish, taraqqiyotiga o'z hissasini qo'shish g'oyalari ham Xoja Ahmad Yassaviy hikmatlarida muttasil jaranglab turadi. U ilm o'rganish, olamni bilish maqsadida yurtidan uzoq-uzoqlarga safar qiladi, musofirlikning ko'p azob-uqubatlarini boshdan kechiradi. Bunday safarlar, o'zga o'lkalardagi g'ariblik hayoti uning qalbida Vatan qadri, yurt sog'inchi, xalq mehri kabi oliy tuyg'ularni tarbiyalaydi. Pedagog yosh avlod tarbiyasida xuddi shunday tuyg'ularni kamol toptirish uchun ko'p urinadi. Ammo hamisha ham kutilgan natijaga erishib bo'lavermaydi. Xuddi shunday vaziyatlarda Xoja Ahmad Yassaviydan yordam olish, uning aytganlarini yoshlarga namuna qilib ko'rsatish ishning ancha oldinga siljishiga ko'mak beradi.

*Vo darig'o, nechuk qilgum g'ariblig'da,
G'ariblikda g'urbat ichra qoldim mano
Xuroson-u Jom-u Iroq niyat qilib,
G'ariblikni ko'p qadrini bildim mano.²*

Bu satrlarda muallif sharqning qanchadan qancha mashhur shaharlari va obod o'lkalarini kezmasin, baribir o'zini g'urbatda qolgandek his qiladi. O'z ona-Vatanini qo'msab, Turkistonga qaytishni orzu qilganini ifodalaydi. Vatanparvarlik hissi, ayniqsa, Vatandan tashqarida yashagan-da yaxshiroq bilinadi, deb buni o'z tajribasidan bayon qiladi.

*G'ariblig'da yuz yil tursa, erur mehmon,
Taxt-u baxt-u bo'stonlari erur zindon.
G'ariblikda qul bo'ldi ul Mahmud Sulton,
Ey yoronlar, g'urbat ichra kuydim mano.³*

¹ Ahmad Yassaviy. Hikmatlar. T. F. Gulom nomiдаги Adabiyet va san'at nashriyati, 1991, 47-бет.

² Ahmad Yassaviy. Hikmatlar. T. F. Gulom nomiдаги Adabiyet va san'at nashriyati, 1991, 71-бет.

³ Usha manba, 72-бет.

Shoir she'rini davom ettirib, Vataniga qaytishiga sababchi bo'lgan ustози Arslon Bobni ulug'laydi. Shuningdek, u do'stlariga g'ariblikdan voz kechishni pand-nasihati qiladi va har bir insonning mozori, ulug'ligi o'z Vatanidir, deb Turkistonni madh etadi:

*G'ariblikda Arslon bobom izlab tohti,
Har sir ko'rib, parda birla bo'kub, yopiti,
Bihamdulloh, ko'rdim dedi, yuzim o'пти,
Ushbu sirni ko'rib, hayron goldim mano.¹*

Fikrlar yanada rivojlanib, tobora kuchayib boraveradi. Oxir-oqibat, shoirming Vatan bilan bog'liq tuyg'ulari yanada tiniqlashadi. Uning o'y-larining tub-tublarida, butun borlig'ining har go'shasida Vatan qiyofasi ilohiy bir kuch sifatida gavdalanadi. Sog'inch shoirmi chuqur iztiroblar girdobiga uloqtirib, uni azoblaydi, qiynaydi. Shoir g'urbatda tuproqqa aylanadi. Tuproq, xok bo'lish ko'p mashhur so'fiylar orzu qilgan buyuk maqomdir. Hikmatlarda shoir shu maqomga yetishganini ko'ramiz.

*Qul Xoja Ahmad so'zlagani Haqni yodi,
Eshitmagan do'stlariga qolsun pandi,
G'urbatlanib, o'z shahriga qaytib yondi,
Turkistonda mozor bo'lib goldim mano.²*

Bugunga qadar Xoja Ahmad Yassaviy qabri muqaddas sajdagoh timsoli bo'lib keldi. Minglab odamlar har yili uning ziyoratiga shoshiladi, poklanishni o'rganadi... Balki Vatanni tanish shu tariqa boshlanar. Uning avlodlari, Hakim Ota (Sulaymon Boqirg'oniy), Zangi Ota, Sayyid Ota, Atoiy, Shayx Xudoydod Vali, Qosim shayx, Oshiq Ota, Mavlono Sharif Husayniy singari yana ko'plab izdoshlari biz "Vatan" deb biladigan tushunchaning mustahkam va ilohiy ustunlari hisoblanadi. Ular o'zligimizni muhofaza qilishimiz uchun juda zarur bo'lib turgan milliy immunitet sohiblaridir.

Xoja Ahmad Yassaviy hikmatlarida halol mehnat bilan kun kechirish masalasi ham bosh o'rinlardan birida turadi. U barcha donishmandlar kabi axloq tarbiyasida insonlardagi mehnatsevarlik, rizqni mehnat orqali topish, mehnatni ulug'lash kabi fazilatfarni olqishlaydi, bu toifadagi insonlarga o'zini juda yaqin tutadi.

*Sizni, bizni Haq yaratti toat uchun,
Ey bul a'jab, ichmak, yemak rohat uchun,
Qo-tu balo ruhim bori mehnat uchun,*

¹ Уша манба.

² Уша манба, 73-бет.

*Alam bo'lib, yer ostiga kirdim mano.*¹

Bu misralarda Haq insonni taot-ibodat, yemak-ichmak, mehnatdan rohat topmoq uchun yaratgan bo'lib, bunga faqat mehnat orqafi erisha olish mumkinligi uqtiriladi. Xoja Ahmad Yassaviy hikmatlaridagi xuddi shunday g'oyalar bilan Bahouddin Muhammad Naqshbandiyning mashhur "dil ba yoru, dast ba kor" shiori aynan muvofiq keladi. Muallif mehnat qilgan kishi doimo Alloh nazarida ekanligi, unday odam baqo olamida do'zax azoblariga giriftor qilinmasligi va jannatda va'da qilingan g'amxo'rliklarga sazovor bo'lishini shunday ifodalaydi:

Jondin kechib, mehnat torttim, bandam dedi,

Qonlar yutib, Alloh dedim, rahm ayladi,

Do'zax ichra qolmasin, deb g'amim yedi,

*Xurram bo'lib, yer ostiga kirdim mano.*²

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, shoir hikmatlarida donishmanddan olijanoblik, saxovatpeshalik, javonmardlik fazilatlarini; nodondan nokaslik, nomardlik, kaltafahmlik, jaholat kabi salbiy odatlarni kutish mumkinligini aks ettiradi:

Qul Xoja Ahmad, nosih bo'lsang, o'zunga bo'l,

Oshiq bo'lsang, jondin kechib, bir yo'li o'l,

Nodonlarga aysang, so'zing qilmas qabul,

*Mahkam bo'lib, yer ostiga kirdim mano.*³

Xoja Ahmad Yassaviy milliy ma'naviyat, odob, axloq targ'ibotchisi sifatida ko'zga ko'ringan olim bo'lib, nodonlikka donishmandlikni, johillikka yaxshilikni, qo'rqqolikka mardlikni qarama-qarshi qo'yib, nodonlarga, johillarga, qo'rqqolarga nafrati zo'r ekanligini quyidagi hikmatlarda ifodalaydi:

Qul Xoja Ahmad, er bo'lsang o'lgan yaxshi,

Qizil yuzing qaro yerda so'lgan yaxshi,

Tufroq sifat yer ostida bo'lgan yaxshi,

Zoti ulug' Xojam, sig'inib keldim sango.

Yoki:

"Anal haq"ni ma'nosini bilmas nodon,

Dono kerak, bu yo'llarda poki mardon,

¹ Ahmad Yassaviy. Hikmatlar. T., F. Gulom nomiдаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1991, 77-бет; Ahmad Yassaviy. Hikmatlar. Hikmatlar kuлiёti. T., "Uzbekiston", 2011, 59-бет.

² Ал-Бухарий. Ал-Жомия ас-сахих (Ишонарли тўплам). Т., Қонуслар беш тахририяти, Т., 1-4, 1991.

³ Ahmad Yassaviy. Hikmatlar. T., F. Gulom nomiдаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1991, 79-бет.

*Oqil qullar Haq yodini aydi jonon,
Jondin kechib jononani suydin mano.¹*

Axloq masalasi ta'lim-tarbiyaning asosi hisoblanadi. Xoja Ahmad Yassaviy ijodining markazida ham jamiyatda odob, axloq, mo'minlik, musulmonlikni shakllantirish, ma'rifat va ilmni rivojlantirish muammolari turadi. U hikmatlarida kishilardagi mardlik, donolik, olijanoblik kabi sifatlarni ulug'laydi. Nodonlik va jaholatni qattiq qoralaydi, ma'rifat vositasida o'quvchini ulardan uzoqlashtirishga harakat qiladi. Uning bunday urinishlarini quyidagi satrlarda ham ko'rish mumkin:

*Imo qildim, dono bo'lsa, ma'no olsun,
Qol ilmidin bitib aydim, nishon qolsun,
Durru gavhar so'zlarimni ichga solsun,
Holdin aytib, oshiq'larga berdim mano.²*

Hikmatlarda odob-axloqning ayrim mezonlari aniq aks ettiriladi. Shoir ijodining asosiy yo'nalishlaridan biri muhtoj, zaif, miskin va yetim-yesirlarning ko'nglini ovlash, molu dunyoga mukkadan ketmaslik, nafs vasvasasiga uchmaslikni targ'ib qilishdir. Ta'lim mobaynida hikmatlarning bunday jihatlari yoshlar e'tiborini qaratish zarur. Ular yordamida yoshlar ongiga yaxshini yomondan ajrata bilish xususiyatlarini singdirib borish juda muhimdir.

*Oqil ersang, g'ariblarni ko'nglin ovla,
Mustafodek elni kezib, yetim kovla,
Dunyoparast, nojinslardan bo'yun tovla,
Bo'yun tovlab, daryo bo'lib toshitim mano.³*

To'rtlikning birinchi satrida aqlli kishi qanday bo'lishi kerakligiga urg'u berilsa, ikkinchi satrda Muhammad alayhissalom kabi ko'ngli ochiq bo'lishga chaqiriq, ya'ni elni kezish, hamisha xalq ahvolidan xabardor bo'lib turishga da'vat qilinadi. Uchinchi satrda nojins, axloqi buzuq kishilardan ehtiyot bo'lishga ogohlantiriladi va to'rtinchi satrda ulardan yiroqroq yurgan kishining ko'ngli pok, daryo kabi jo'shqin bo'lishi bilan xulosalanadi. Ayniqsa, uning quyidagi satrlarida bu fikrlar tugal yakunlanadi va o'quvchining axloq haqidagi tasavvurlarini yanada tiniqlashtiradi.

*Dunyo uchun g'am yema,
Haqdin o'zgani dema.*

¹ Ahmad Yassaviy. *Devon-i hikmat*. T., F. Gulom nomi bilan nashriyat-matbaa birlashmasi, 1992, 34-bet.

² *Ush mabta*, 34-bet.

³ Ahmad Yassaviy. *Hikmatlar*. T., F. Gulom nomi bilan nashriyat-matbaa birlashmasi, 1991, 42-bet.

*Kishi molini yema,
Sirot uzra tutaro.¹*

Bu satrlar mamlakatimizda ziyolilar, ilm va ijod ahli, ayniqsa, nuroniy keksalarimiz o'rtasida juda mashhur hikmatlardan biri, desak so'zlarimiz sira xato bo'lmasa kerak. Bir qarashda, juda oddiy gaplar... Ammo qalblarga juda yaqin. Shoir so'zlarni shu qadar aniqlik bilan o'rninga qo'yganki, qancha zamonlar o'tishiga qaramay, shu oddiy satrlar yanada yarqiraydi, jon tomirlarga yanada yaqin keladi. Ular nodon inson dunyo uchun g'am yeb, turli ofatlarga yo'liqishidan xuddi qiyomatgacha yozilgan shiorday barchani ogohlikka chorlab turadi, chunki insonni har qadamda nafs poylab turadi. Ozigina hushyorligini yo'qotgan kimsani u g'orat qilishga shaydir.

*Nafsim meni yo'ldin urib, xor ayladi,
Termultirib xaloyiqqa zor ayladi,
Zikr ayturmay, shayton bilan yor ayladi,
Hoziyrsen, deb nafs boshini yanchdim mano.²*

Ahmad Yassaviyning fikricha, yaxshi fazilatli inson bo'lish uchun nafsni jilovlash, ya'ni odam o'zini-o'zi boshqara olishi lozim. Demak, biz ham o'quvchi yoshlar va talabalarni nafsini boshqarishga o'rgatib borishimiz shart. Hikmatlarda ham nafsini jilovlay oladigan farzand o'zidagi salbiy odatlarni yo'qotish imkoniyatiga ega bo'ladi, deya tushuntiriladi.

Xoja Ahmad Yassaviy hatto, tariqatning qariyb barcha sir-asrorlarini o'rganib bo'lgan, o'zi yuzlab tariqat yo'liga kirgan toliblarga murshidlik qilayotgan chog'larida ham nafs balosidan qutilishda qiynaladi. Uning ta'ziyqlaridan o'zini omon saqlash maqsadida biru bor – Haq daroghiga munojot qilib, yolvoradi, undan panoh so'raydi:

*Elligimda yerman, dedim, fe'lim zaif,
Qon to'knadim, ko'zlarimdan bag'rim ezib,
Nafsim uchun yurar erdim itdek kezib.
Zoti ulug' Xojam, sig'inib keldim sango.³*

Shoir inson jamiyatda qanchalik ulug' mavqega ega bo'lsa-da, undagi o'zini xokisor tuta bilish, birovlariga ozor bermaslik, o'jizlarga doim yordam qo'lini cho'zish kabi xususiyatlarni olijanob fazilatlar ekanini ko'rsata boradi.

¹ Usha manba, 221-bet.

² Usha manba, 47-bet.

³ Ahmad Yassaviy. Hikmatlar. T. F. Fudom nomidagi adabiyot va san'at nashriyati, 1991, 67-bet.

Xoja Ahmad Yassaviy odamlarning ba'zilar yomon xulq-atvorli, o'ziga haddan ziyod oro beradigan, o'zgalarni mensimaydigan kibrli bo'lishini ta'kidlab, zolim va yomon xulq egalariidan yiroqroq bo'lish, hayotda do'st tanlay bilish hamda do'stlikning qadriga yetishga chaqiradi:

*Ey meni yoronlarim, himmat tuting imonima,
Dushmanim imonima zahmat beradur, do'stlarim.¹*

U yuqoridagi hikmatlarida do'st tutish bilan birga dono kishilarning davrasida bo'lib, suhbatlaridan bahra olish va ularga izzat-hurmat bilan xizmat qilish nihoyatda sharafli ekanligini qayta-qayta eslatadi. Ammo nokas, nodon va nomardlarning fisqu fujur gunohlari ko'pligidan ular bilan do'st bo'lishdan ko'ra, yolg'izlikni afzal ko'rib, g'orga kirganligini quyidagi satrlar orqali ifodalaydi:

*Ayo, farzand, ummatlarni dardi o'rtar,
Fisq-u fujur gunohlari tog'din ortar,
Dinni qo'yib, dunyo molin o'zga tortar,
Ul sababdan Haqdin qo'rqib, g'orga kirdim.²*

Yassaviy ushbu fikrni yanada qo'llab-quvvatlagan holda, do'stlari nima sababdan rasvo bo'lganidan qayg'urib, shunday deydi:

*Do'stlarimni rasvo qilg'an nafs-u havo,
Aning uchun shayton la'in qilur g'avg'o,
Lutf aylasang, manmanlikni qilay ado,
Riyozatda jonim qiynab, ishlasam men.³*

U inson o'zidagi ijobiy fazilatlarini asrashi, shuningdek, o'zidagi salbiy sifatlarni ko'rish uchun esa o'ziga tanqidiy nazar bilan qaray olishi kerak, deya ta'kidlaydi. U yoshlarni kishilarning tashqi qiyofasi, kiyimiga qarab xulosa chiqarmaslikka chaqiradi. Buni g'ariblik misolida tasvirlashga harakat qiladi:

*Kishi bilmas g'ariblar holi nadur,
Magar bilgay, g'arib bo'lgan g'ariblar,
G'ariblig' qattig' ishdur, ey azizim,
Kim emdi, Ahmado, o'zunga boqqil,
G'aribsen sen, g'arib miskin g'ariblar.⁴*

¹ Ahmad Yassaviy. Dевони хикмат. Т., Ф.Ғулом номидаги нашриёт-матбаа бирлашмаси. 1992. 18-бет.

² Уша манба, 153-бет.

³ Ahmad Yassaviy. Dевони хикмат. Т., Ф.Ғулом номидаги нашриёт-матбаа бирлашмаси. 1992. 154-бет.

⁴ Уша манба, 81-бет.

Ya'ni yoshlarni g'aribu miskinlarning tashqi qiyofasiga qarab xulosa chiqarmaslikka chaqiradi. Agar kimda-kim shunday xulosa chiqarsa, bunda u juda katta xato qilishini, do'st tanlashda esa adashishini ta'kidlaydi.

Xoja Ahmad Yassaviy insonning baxt-saodati uning bilim va ma'rifatga erishuvida deb hisoblaydi:

*Ma'rifatni manbayiga minmaguncha,
Shariatni ishlarini bilsa bo'lmas,
Shariatni ishlarini ado qilmay,
Tariqatni maydoniga kirsra bo'lmas.¹*

Uning fikriga ko'ra, kishining axloq-odobi va bilimi o'zaro uzviy bog'liqdir. Bilimli kishi odobli hisoblanadi. Bilim tasavvuf qarashlarining ildizi. Ma'rifatni egallab, so'ng shariatni o'zlashtirish, shariatni o'rganib bo'lgach, undan tariqatga kirish mumkin. U bilim bosqichlari o'zaro jipslashgan ketma-ketlikka egaligini sodda usulda tushuntiradi.

Xoja Ahmad Yassaviy ilmiy tafakkurning qudratiga ishonganini yuqoridagi hikmatida ko'rsatib o'tadi. Insonda fikrni bayon qila olish qobiliyati ham unga kuch-quvvat baxshida etishini ta'kidlab, uning hayoti davomida har bir bosgan qadamidan gulu bo'ston unishini istaydi.

*Zikrni aygil, qonlar oqsin ko'zlarindin,
Hikmat aygil, durlar tomsin so'zlarindin,
Gullar unsin har bir bosgan izlarindin,
Gulga boqsang, gul ochilib, xanda bo'lur.²*

Shunday qilib, bu satrlar orqali shoir insonning axloq-odobga oid mahoratli ta'sirchan hikmatli fikrlari unga axloq yuzasidan ta'sir etishi bilan birga uni go'zallik olamiga olib kirib, nafosatini takomillashtiradi, deya ta'kidlaydi.

Xoja Ahmad Yassaviy rostgo'ylik, to'g'riso'zlikni ham insonning muhim axloqiy fazilatlaridan hisoblaydi. Uning fikricha, rostgo'ylik faqat kishilarning gap-so'zlarida ifodalanib qolmaydi. Bu fazilat ularning xatti-harakati, yurish-turishi, odamlar va jamiyatga bo'lgan munosabatida, yomon va yaxshi odamlar bilan kelisha olishida ham aks etmog'i lozim.

*"Al-kazzab-u lo ummati", dedi biling, Muhammad,
Yolg'onchilar qavmini ummat demas Muhammad,
To'g'ri yurgan qulini, haqni izlab yo'lini,*

¹ Usha manba, 108-bet.

² Ahmad Yassaviy. Hikmatlar. T. F. Fulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyati, 1991, 154-bet.

Rost yurgan qulini ummat degay Muhammad.¹

Yuqoridagi sahifalarimizda ko'rsatib o'tganimizdek, Xoja Ahmad Yassaviy insonni bilim olishga chorlovchi, nodonlikdan qutulishda ta'lim beruvchi ustozlarga tasannolar aytish lozimligini ham uqtirib o'tadi. Hikmatlarida Hazrati Xizr va G'avs ul-G'iyosni o'ziga ustoz deb biladi va ular haqida shunday xabar beradi:

*Qayda borsam, Xizr bobom hozir bo'ladi,
G'avs ul-g'iyos may ichirdi, to'ydim mano.*

Yoki:

*Xizr bobom soldi meni ushbu yo'lg'a,
Ondin so'ngra daryo bo'lib toshitim, do'stlar.²*

Xoja Ahmad Yassaviy butun umri davomida insoniyatning baxt-saodati, ma'naviy pokligi uchun kurashadi. O'zining hikmatlari orqali insondagi noto'g'ri xatti-harakatlar jamiyat notinchligini yuzaga keltirishini, jamiyatda zolim kishilar, yovuz ishlarning paydo bo'lishidan haq ishlar nohaqlikka aylanayotgani, ularni tartibga solish uchun esa Haqni tushunib yetish, odob-axloqni o'rniga qo'yish, qiz-u juvonlarni xayoli qilib tarbiyalash lozim, deb hisoblaydi:

*Ulug'-kichik yoronlardin odob ketti,
Qiz-u za'if juvonlardin hayo ketti,
"Al-hayo-u min al-imon", deb Rasul aytti,
Hayosiz qavm ajoyiblar bo'ldi, do'stlar.³*

Shuningdek, bu misralar odob-axloq bobida ogohlikka chorlovchi satrlardir. Ularning zamirida insonlar o'zlarining odob-axloqlari bilan o'zlaridan tashqari, qavmu qarindoshlarini ham ulug'lashlari mumkinligi haqida chaqiriq borligini ko'ramiz.

Pokiza muhabbat, ishq, oshiq va ma'shuq, tafakkur, hayo, insonning ezgulikka intilishlari to'g'risidagi ko'pgina hikmatlar ham ma'naviyat tarbiyasida odob-axloq tushunchalarining ahamiyati va teran mazmunlarini ochib beradi. Bu borada Xoja Ahmad Yassaviy hikmatlari insonning ruhiy holati, tasavvufiy hol lazzatini ochib beradi. Ayni chog'da u tasavvuf ilmidagi tasavvurga ko'ra, chin oshiq – chin so'fiydir. Ya'ni boshqacha qilib aytganda, ishq – ilohni sevish, unga sig'inib, nolayu munojotlar qilishgina bo'lmasdan, balki kamolotga yetishishning eng afzal yo'lidir:

¹ Ahmad Yassaviy. Devoni hikmat. T., F.Fulol nomidagi nashriyat-matbaa birlashmasi, 1992. 50-bet.

² Usha manon, 78-bet.

³ Ahmad Yassaviy. Devoni hikmat. T., F.Fulol nomidagi nashriyat-matbaa birlashmasi, 1992. 62-bet.

*Ishq bog'ini mehnat tortib ko'kartmasang,
Xorlik tortsa, shum nafsingni o'ldurmasang,
Alloh, debon ichga nurni to'ldirmasang,
Valloh, billoh, senda ishqni nishoni yo'q.¹*

Chin oshiqqlarni tanitadigan belgi – xokisorlik, kamtarlik, sidqu sa-
doqat hisoblanadi. Bu sifatlar ma'naviy-axloqiy tarbiyaning muhim me-
zonlari. Chunki oshiq bo'lgan odam o'zi duch kelgan turli tasodifiy ku-
tilmagan hollarga, boshiga tushgan qiyinchiliklarga chidashi, manman-
lik, g'urur va kibr, hasad, hirs kabi salbiy illatlarni tark etishi aniq.

Ammo, Ahmad Yassaviyning ruhiy kechinmalarida oshiq bo'lgan
odam ta'ma va manfaatdan ham voz kechishi kerakligi aks etadi. Chunki
inson dunyo qutqusi va uning o'ziga tinchlik berinas xayollarini tark et-
masa, nafsidan xalos bo'la olmaydi. Kishi ishq orqali Alloh oshig'iga
aylanadi. Oshiq esa tariqat talablarini so'zsiz bajarib, faqr martabasidan
fano sari intiladi. Ilohiyot olamning cheksiz go'zalliklari hisoblanib, ki-
shi abadiyat qudratidan hayratga tushadi. Bunda uning ruhi tiniqtashib,
musaffo bo'la boshlaydi. Demak, ishq orqali ham dunyoviy, ham diniy
tarbiyaga e'tibor qaratilar ekan, desak xato qilmaymiz.

Xoja Ahmad Yassaviy ishq dardiga muhtalo bo'lgan kimsani
"Oshiq kuyar, jondin to'yar, haqni suyar", deya ta'riflaydi. U "chin
oshiqlarning ko'zi giryon, dili biryondir", deb yozadi. "Chin oshiq", deb
haqiqatning mag'zini jonidan qila olgan, muhabbat shavqidan "uch yuz
oltmish tomiri" tebrangan, ya'ni hamma a'zolariga ishqning ta'siri o't-
gan kishini ko'rsatadi. Hikmatlarda dunyo rohatini afzal bilgan, mol-u
mulk, dunyoga berilgan kishi oshiqman desa, unga ishonmaslik kerak, u
riyokor, "yolg'on oshiq"dir, deyiladi.

*Ishq davosin menga qilma, yolg'on oshiq,
Oshiq bo'lsang, bag'ring ichra ko'z qoni yo'q,
Muhabbatni shavqi birlan jom bermas,
Zoye kechar umri ani, yolg'oni yo'q!²*

Xoja Ahmad Yassaviy o'zining hikmatlari orqali chin oshiqlik na-
munasida Muhammad payg'ambar alayhissalom va Boyazid Bistomiyni
tasvirlaydi. Rasululloh butun vujudi bilan Alloh oshig'i edilar. Ul zo-
ning ko'kka ko'tarilishi – Me'roj³ tunida Parvardigor bilan muloqoti, fa-

¹ Usha manba. 129-bet.

² Ahmad Yassaviy. Davoni hikmat. T., F. Gulon nomidagi nashriyat matbaa birlashmasi, 1992, 129-bet.

³ Me'roj tunida Muhammad alayhissalom Buruk deb atalgan otda Oллоhning xuzuriga iyy oladi. Arshi ayoloda ularning uchrashuvi sodir buladi. Bu voqea sharh adabietiga alohida mavzu bulib kiradi va mumtoz sharh adabietining kuttub naxillari "Me'rojnom" nomi bilan asarlar ezingan.

qirning nurli haykalini ko'rishi, yerga tushib, faqir va g'ariblarning boshini silashi kabi holatlarni keltirishimiz mumkin.

Umuman, hikmatlarda tasavvuf olamining mashhur vakillari haqida ham ko'plab qiziqarli rivoyatlar uchraydi. Shoir ularni ishq-muhabbat, poklik, javonmardlik, saxovatpeshalik, donolik kabi fazilatlarining timsoli sifatida asarlariga kiritadi. Ulardan biri "anal haq" iborasi bilan tarixda juda mashhur bo'lgan va bu so'zni aytgani uchun qatl etilgan shayx Mansur Hallojdir. Shoir uning tariqatda erishgan maqomini yuksak baholaydi va uning holidan hayratga tushadi. Bu satrlar bizga sohibining bir mufaassib dindor emas, buyuk mushohada egasi bo'lganini ko'rsatib turadi.

*Aytmagil, "Anal haq" deb, kofir bo'lding Mansur deb,
Qur'on ichra buldur deb, o'ldirdilar tosh otib.
Rivoyatlar bildirdi, holin ani bilmadi.
Mansurdek avliyoni qo'yidilar derga osib.
Kulni ko'kka sovurdi, eltib daryoga soldi,
Zavq daryosi avj urdi, oqdi daryo qiynoshib.
O'shal kuni ul daryo qildi afg'on, vovaylo,
Oshiq'larga Xudoyo, qilgil diydoring nasib.¹*

Bunday maqomni anglash va ushbu satrlarni yoza olish uchun Xoja Ahmad Yassaviy tariqatning uzoq va mashaqqatli yo'llarini bosib o'tgan edi. Uning ishq haqidagi qarashlari ham aytib o'tganimizdek, Yusuf Hamadoniy rahbarlik qilgan tasavvuf maktabi ta'limidan kelib chiqqanligiga hech qanday shubhamiz yo'q. Tasavvuf ta'limi unga Muhammad payg'ambarni tanitdi, Mansur Xalloy, Junayd Bag'dodiy, Shibliy, So'fiyon Savriy, Boyazid Bistomiy kabi buyuklarga yaqinlashtirdi. Ular Xoja Ahmad Yassaviy uchun go'zal axloq va yuksak odob, hikmat, e'tiqod, sadoqat va muhabbatni o'zlarida jamuljam eta olgan mukarram zotlardir. U olgan ilm ohanrabodek, keyinchalik, uning hu-zuriga yuzlab ilm toliblarini torta boshladi. Uning o'zini ham o'tgan ulug'lar maqomiga olib chiqdi.

Xoja Ahmad Yassaviy hikmatlarida qariyb uzluksiz tilga olinadigan go'zal axloqiy sifatlar Hazrati Payg'ambarning ummatlariga shafobati, mehribonligi, g'arib-u yetimlarga g'amxo'rligi orqali ibrat qilib ko'rsatiladi. Uning o'zi ham har bir ishida, xatti-harakatida Rasulullohga mehr-muhabbat va g'aroyib bir sadoqat bilan ergashishga urinadi.

¹ Нафасий (Евгений Ефимович Березиков). Хожа Ахмад Яссавий. Т., Ф. Ғулом номидagi адабиёт ва санъат нашрияти, 1993, 6-бет.

*G'arib, faqir, yetimlarni Rasul so'rdi,
O'shal tuni me'roj chiqib diydor ko'rdi,
Qaytib tushib, g'arib, faqir holin so'rdi,
G'ariblarni izin izlab tushtim mano.¹*

Muallif ushbu satrlarida ustozlarni ulug'lash, ularning izlaridan bo'rib, ilm-ma'rifatga intilish lozim, deb hisoblaydi. Xoja Ahmad Yassaviy garchi Arslon Bob va Xoja Yusuf Hamadoniydan ta'lim olgan bo'lsa-da, haqiqiy piri sifatida ko'proq Muhammad alayhissalomni tilga oladi. U payg'ambar g'oyalari va haqiqatni – “mast etuvchi sharob” va Payg'ambarni – “Piri mug'on” deb ataydi:

*Sakkizimda sakkiz yondin yo'l ochildi,
“Hikmat ayt!” – deb, boshlarimga nur sochildi.
Bihamdilloh, piri mug'on may ichurdi,
Ul sababdin oltmish uchda kirdim yerga.*

*Piri mug'on -- Haq Mustafo, beshak biling,
Qayda borsang, vasfin aytib ta'zim qiling.
Ey bexabar, dunyo ishin orqa soling,
Ul sababdin oltmish uchda yerga kirdim.²*

Ushbu satrlarda Rasulloh poklik timsolida ibrat va namuna qilib ko'rsatiladi, shoir uni “Haq Mustafo” unvoni bilan tilga oladi.

Axloq tarbiyasining asosi hisoblangan haqiqat timsoli ham payg'ambar hayoti va uning harakatlari orqali chiziladi, yaratiladi. Payg'ambar oshiqlar sardoridir. Uning ishq tufayli hayot maydonida haqiqat egasi Alloh paydo bo'ladi. Bosh oshiqqa ergashgan minglab oshiq-lar, ishq mayidan mast bo'lib aql hushidan ayrilgan sonsiz devona darveshlar dunyoga keladi. Ular borliq va hayot mazmunini qisqagina “Yo hu”, qo'shig'iga joylab qo'yadi... Hikmatlarda haq vasliga yetish, Alloh amrini ado etish – payg'ambar yo'lini tutishdir, deya ta'riflanadi. Tasavvufiy hikmatlar orasida Mansur Xalloy ham Iloh oshig'i, Haq visoliga yetishgan ulug' inson sifatida kuylanadi.

Mashoyix va avliyo kishilarning jamiyat hayotida turgan o'rni ular-ga berilgan laqabida ham o'z aksini topgan.

“Shayx” so'zi so'fiylar istilohida – sardor, yo'l ko'rsatuvchi, rah-namo, degan ma'nolarni anglatadi.¹ Tasavvuf talqinida ular Allohga ya-qinlashishga muvassar bo'lgan insonlardir.

¹ Ahmad Yassaviy. Devoni hikmat. T., F. Gulom nomidagi nashriyat-matbaa birlasmasi, 1992, 20-bet.

² Ahmad Yassaviy. Hikmatlar. T., F. Gulom nomidagi adabiyat va san'at nashriyati, 1991, 53-bet.

Odatda, manbalar va ilmiy adabiyotlarda ko'p qo'llanadigan "valiy" so'zi ham arabiy bo'lib, o'zbek tilida "yaqin" ma'nosini (ko'p-ligi "avliyo") bildiradi. Xalqimiz hozir ham *valiy* Allohga yaqin, ko'p jihatlari va sifatlari bilan boshqalardan ajralib turadigan xos odam, deb biladi. Shu sababdan ularga Habibulloh – "Allohning do'stlari", "Allohning yaqinlari," deb ham nisbat beriladi. Ayni paytda bunday kishilar oddiy (avom) xalqning qo'lidan kelmaydigan, aql bovar qilmaydigan g'ayritabiiy ishlar va harakatlarni amalga oshira oladilar. Ularning bunday ishlari manba va ilmiy adabiyotlarda "karomat", "xavoriq odat" kabi iboralar orqali ifodalanadi.

Xoja Ahmad Yassaviy shunday xos odamlar orasida eng yuqori maqomlarni egallagan oshiqlar jumlasidan edi. Uning hayoti bilan bog'liq karomatga oid voqealar yoshlik davridayoq sodir bo'ladi. Bu borada birgina Rasululloh, me'roj, xurmo, Arslonbob voqealarini eslashning o'zi yetarlidir. Mazkur mavzuda bundan boshqa yana turli rivoyatlar mavjud. Tasavvuf ahli, ayniqsa, oddiy xalq Xoja Ahmad Yassaviyni karomatlari uzluksiz va cheksiz bir tabarruk inson qiyofasida taniydi. Bu to'g'rida hazrat Alisher Navoiy qisqa va lo'ndagina qilib: "Turkiston mulkining shayx ul-mashoyixidur. Moqomoti oliy va mashhur, karomoti mutavoli va nomahsur ermish. Muridu ashobi g'oyatsiz va shoh-u gado-ning irodat va ixlosi ostonida nihoyatsiz ermish. Inom Yusuf Hamadoniy q.s.ning ashobidindur. Xoja Abdulxoliq G'ijduvoniylar bilan q.s. suhbat tutubdur va Xoja Abdulloh Barrahiy va Xoja Hasan Andoqiy q.r. bilaki, ham Imom Yusuf Hamadoniy r.t. muridlaridurlar. Imom qaysi biyik marotibg'a yetibdurlar, musohib bo'lubdur va ro'zgor mashoyixidin ko'p buzrugvorlar aning tarbiyatini topibdurlar va Shayx Raziyuddin Ali Lolo q.s. shayxi buzrugvor Shayx Najmuddin Kubro r. Xizmatig'a yetardin burun Xoja Ahmad Yassaviy q.r. xizmatida bo'lub erdi va aning xonaqohida aning irshodi bila suluk qilibdur va aning mozori Turkistonda", deya ma'lumot beradi.²

Xoja Ahmad Yassaviy karomatlari bilan bog'liq rivoyatlardan birida naql qilinishicha, Makka va Madina ziyoratini niyat qilib yo'lga tushgan Xoja Abdulxoliq musofirlikning azoblarini oldindan bilib, ashoblariga (suhbatdoshlari): "Ovvora bo'lmay, uning o'zini bu yerga chaqirib ola qolmaysizlarmi? – deydi. Mehmonlar: "Agar siz shul maqomga yetgan bo'lsangiz chorlang!" deyishganidan so'ng, Xoja Abdu-

¹ Bu s'uz, aslida, arab tilida oddiygina "keksa", "kariya" ma'nolarini anglatadi.

² Alisher Navoiy. Nisoim ul-muxabbat. 419-bet.

xoliq Tangriga hamdu sanolar o'qiydi, iltijolar qiladi va bir payt mehmonlar qarshisida Makkayi mukarrama Ka'ba bilan birga paydo bo'ladi. Ahmad Yassaviy shunda muridlarining: "Vali deb buni aytsa bo'ladi!" – degan pichirlashlarini ilg'ab qoladi. U xuddi shu mahalda Turkiston sari yo'lga otlanadi. Lekin shogirdlaridan birortasi ham shayxga ergashmaydi. U shahardan chiqishda bir nuragan devorga chiqib o'tirib, sal bordiq chiqargach, qo'lidagi chibig'i bilan uni ohista urib, "CHu jonivor!" degani hamon devor yurib, Xo'ja Abduxoliq va o'zining muridlari qolgan yerdagi masjid-u maydonni ham qo'shib sudray boshlaydi. O'z pirlarining karomatidan larzaga tushgan muridlari gunohlaridan kechishni o'tinadilar".¹

Insonning o'zligini murossasizlik bilan tekshirishi, qusuri, nuqsanlari uchun hadsiz iztiroblar chekishi esa vijdonning hamisha uyg'oq turishini ta'minlaydi. Ichki botiniy kechinmalar professor Ibrohim Haqqul fikricha: "Kamolot yo'lga tushgan insonni vijdoni ruhiy og'riqlarga g'iriftor etib, uni olamga yuzma-yuz qilib qo'yadi, yurakni gunoh va qo'rquv, shubha va ishonch oralaridan olib o'tadi. Uyg'oq vijdon eng oxirgi chegaralarigacha odamni yolg'izlantiradi. Shundan boshlab o'lim cheklanadi. Abadiyatga chindan ishonch shundan boshlab tug'iladi. U erkin ruhlar bilan yashash sirlarini ochadi, aqliy toliqishlarni yengib, mutelik zanjirlarini sindiradi. Vijdon eng noiloj, eng kulfatli vaziyatlarda ham yo'qsizlikdan xalos etadi.

Buni shaxsning o'z vijdoniga borish yo'li deb atasa to'g'ri bo'ladi. Shu yo'lni topgan odamgina Xudo tomonga talpinadi. Talpingan sayin esa o'ziga nisbatan murossasizligi ortadi. Bu jarayon Xoja Ahmad Yassaviyning butun hayoti mobaynida davom etdi. Darhaqiqat, Ahmad Yassaviy o'zi bilan kurashadigan so'fiy, odamga o'zini-o'zi kechirmaslik, o'ziga shafqat qilmaslik sirlarini o'rgatadigan murossasiz ijodkor edi. Shoir insonga o'z qalbining eng chuqur joylariga nazar tashlash, qalloblik va riyo pardalarini yirtib, yomon odatlarni, aslo, yashirmaslikni targ'ib etadi. Shuning uchun ham uning axloqiy ta'limotida shaxsning ma'naviy ilohiy kamolotiga to'siq bo'ladigan salbiy xususiyatlar tahlili oshkorlashib boradi. Ba'zan undagi oshkoralik talablariga dosh berishning o'zi mushkul. Buni xudbinlik deb atash noto'g'ri. Yassaviy "Hikmatlar"da xudbinlik emas, g'amginlik, ma'rifatli ruhni suyardigan dard va

¹ Мирхалдор М. Хожа Ахмад Яссавий (Шажарои солаат кароматлари. Хикमतлар). Т. 1. 1992. 49-бет.

faryod borki, ular insonga hissiyot fojialarini erta anglashga yordam qiladi.”¹

Xoja Ahmad Yassaviyning ijtimoiy axloqiy fikrlarini biroz tahlil qiladigan bo‘lsak, ular faqat gunoh va tavba, nafs va dunyo mavzularidan iborat emas. Faylasuf shoirni komil insonlikka yetishishi bosqichlarida insonning intilishlariga xalaqit beradigan barcha to‘siqlar – shayton vasvasasi, nafs qutqusi, kibr g‘alayoni, jaholat tufayli yuzaga keladigan barcha illatlar g‘azablantiradi. Ulardan yana biri adolatsizlikdir. Shuning uchun shoir adolatsizlikning qurboni bo‘layotgan insonni himoya etishga, da‘vat etadi. Bu o‘rinda Yassaviylik tariqati nimani adolatsizlik, deb tushunishini ham anglab olmog‘imiz lozim.

Agar Xoja Ahmad Yassaviy tariqati vujudga kelgan XII asrdagi hunarmandlar, dehqonlar va chorvadorlarni “jamiyat taraqqiyotini ta‘minlaydigan ijtimoiy toifa” deb ataydigan bo‘lsak, shubhasiz, mazkur toifaning talablari va axloqiy qarashlari bilan to‘liq hisoblashilsa, ichki va tashqi siyosiy jarayonlarda ularning ham manfaatlari e‘tiborga olinsa, bizning fikrimizcha, adolatning bir ko‘rinishiga duch kelgan bo‘lardik. Ahmad Yassaviy tya‘limotining axloqiy mazmuni “bu dunyoning dog‘larini insonga yuqtirmaslik”, uning “Alloh yaratgan chog‘idagi musaffoligini saqlash” kabi qamrovi keng va muhim, azaldan buyon hamisha dolzarb bo‘lib turadigan masalalarni qamrab oladi.

Umuman olganda, Ahmad Yassaviyning tasavvufga oid qarashlari diniy-axloqiy fikrlarga boyligi bilan ajralib turadi. Uning ma‘naviy merosini tadqiq etish bilan shug‘ullangan olimlar u tanlagan yo‘lning o‘ziga xosligini aytib, bu yo‘l insonlardagi salbiy illatlar, jamiyatda mavjud bo‘lgan axloqsizlik va jaholatni yo‘qotish uchun kurashdan iborat ekanligini ta‘kidlaydilar. Mutafakkir kishini dunyodan butunlay yuz o‘girishga da‘vat etmaydi. Chunki inson hayoti uchun noz-ne‘matlar, kiyim-kechaklar, turar joy kabi turli moddiy ehtiyojlar ham borligi va ulardan mutlaqo voz kechishning iloji yo‘qligini u bir lahza ham e‘tibordan chetda qoldirmaydi. Hikmatlarda, asosan, insondagi nodonlik, badnafalik, mol-u dunyoga hirs qo‘yish, jaholat va ularni shakllantiradigan illatlar va omillar qoralanadi.²

Xulosa qilib aytganda, Ahmad Yassaviyning “Hikmatlar”ini tahlil qilish shundan dalolat beradiki, u o‘zining axloqiy qarashlarida insonning go‘zal fazilatlariga diqqat qaratadi. She‘rlarida faqat tavba, gunoh,

¹ Яссавий А. Ҳикматлар. Т.. 1991, 20 – 21-бетлар.

faqirlik, boylikka va nafsga berilmaslik kabi diniy-axloqiy muammolar-ga to'xtalish bilan cheklanmaydi. O'zining tasavvufiy qarashlarida milliy va umuminsoniy qadriyatlar haqida so'z yuritadi, dunyoviy muammolar haqida fikrini bayon etadi. Adolat, mardlik, saxiylik, beva-bechoralar va muhtojlarga yordam berish, ilm fan va kasb-hunarni egallash, imon-e'tiqod kabi insoniy xislatlarni egallash zarurligini aytadi. Ahmad Yassaviy axloqiy qarashlarining yana bir muhim xususiyati shundaki, u jamiyatda mavjud bo'lgan yaramas illatlarni ayamay ochib tashladi. Sho'ir o'z hikmatlarida soxta shayxlar va so'fiylarning axloqsizligi, hukmron tabaqalarning adolatsizligi, mazlumlarga zulm o'tkazayotganligi, ularning aldamchi va riyokorligini ochiqcha fosh qildi. Ularni adl-u insof-ga chaqirdi. Uning buyuk avliyo va sofdil inson bo'lgani va adolatsizlik bilan ayovsiz kurashgani haqida xalq orasida asrlar davomida ko'plab rivoyatlar og'izdan og'izga o'tib kelmoqda.

Rivoyat qilishlaricha, hazrati Sulton bir kuni mehmondorchilikka edi. Bu bir necha kunga cho'zilibdi. Mehmondorchilikning uchinchi kuni savol-javob davom etib, bahs-munozara qizigandan qizibdi. Suhbatdoshlardan biri mudarris Marvaziy hazratni mulzam qilishni mo'ljallab, oldindan ataylab bir necha savol tayyorlab qo'ygan ekan. Lekin u ayni savolni bermoqchi bo'lganda, o'ylab qo'ygan savollaridan birortasini xotirlay olmay o'zi yig'in ahli oldida qattiq mulzam bo'libdi.

U keyin savollarni yozib qo'ygan daftarini harchand varaqlamasin, uning sahifalarida birorta ham bitik qolmaganini ko'ribdi. Mudarris hazrat Sultonning oyog'iga yiqilib: "Taqsirim, pirim!.. Men gumrohni afv eting.. Biz o'qibmiz-u, lekin hanuz uqmagan ekanmiz", deya tavba qilibdi.

Xoja Ahmad Yassaviy o'ziga iltijo bilan boqib turgan mudarrisni o'rnidan turg'azib, debdi:

Shariatni, tariqatni bilay, desang,

Tariqatni haqiqatga ulay, desang.

Bu dunyodin durr-u gavhar olay, desang,

Jondan kechgim, xos qullari o'lar ermish.¹

Bu balki haqiqat, balki rivoyat unga ishonish-ishonmaslik har kimning ishi. Ammo rivoyatlar tagida ma'lum bir haqiqat bo'ladi. Bu haqiqat shundan iboratki, dunyoning tinchligi va farovonligi, insoniyat kelajagi ham dono va oqil, pok niyatli odamlar faoliyatiga bog'liq. Ya'ni ilo-

¹ Яссавий А. Хикматлар. Т., 1991. 29-бет.

hiy poklik va nafosat, e'tiqod va tafakkur bizni balo-qazolardan asraydi, hayotni avaylab saqlab turadi.

Xoja Ahmad Yassaviy eng xaqchil va eng insonparvar mutafakkirlarimizdan biridir. Avliyo darajasiga ko'tarilgan bu ulug' zotning niyati va maqsadini to'g'ri anglab, o'sib kelayotgan yoshlarga tushuntirish va davr talabi asosida ular ongiga yetkazish darkor. Uning dunyoqarashi keng va rang-barangdir. U ma'naviy fazilatlar va nuqsonlar, zulm va zolim haqida gapirar ekan, butun insoniyat tarixini, dunyo va ilohni, ruh va jismni nazarda tutib, ularning barchasini umumlashtirib, yaxlit bir jonli tizim shaklida ko'rib fikr yuritadi. Odamlar orasiga adovat, g'araz, xudbinlik, fisq, mafkuraviy fitna urug'ini sepishni maqsad qilib olgan kommunistik tarbiya nazariyasiga albatta, Xoja Ahmad Yassaviyning nafs, o'z-o'zini poklash va ma'naviy kamolot, ilohiy ishq haqidagi qarashlari mos kelmas edi. Yassaviy butun umri davomida yoshlarni umuminsoniy axloq va odob egasi qilib tarbiyalash g'oyasini ilgari su-rib, tarbiyaning sinfiy bo'lishini nazarda tutmaydi. Aksincha, muhabbat bilan odamlarni birlashtiradi, odamlardagi insonparvarlik tushunchalarini mustahkamlaydi, yovuz hayvoniy sifatlarni yo'qotish haqida qayg'uradi. Shu sababdan ham Yassaviy hikmatlari kishilarni ilm-ma'rifatga, insonparvarlikka va boshqa axloqiy me'yorlarga chorlovchi manba sifatida xalqimiz tilida, dilida asrlar davomida yashab kelmoqda. Ahmad Yassaviy tya'limotining axloqiy mazmuni, "bu dunyoning dog'larini insonga yuqtirmaslik", uning "Alloh yaratgan chog'idagi musaffoligini saqlash" masalalarining eng muhim, eng dolzarb jihatlarini qamrab oladi.

Umuman olganda, Ahmad Yassaviyning tasavvufga oid qarashlari diniy-axloqiy fikrlarga boyligi bilan ajralib turadi. Uning merosi bilan shug'ullangan olimlar Yassaviy tanlagan yo'lning o'ziga xosligini aytib, bu yo'l insonlardagi salbiy illatlar, axloqsizliklarni yo'qotish uchun kurash ekanligini ta'kidlaydilar. Mutafakkir kishini dunyodan butunlay yuz o'girishga da'vat etmaydi. Chunki inson hayoti uchun noz-ne'matlar, kiyim-kechaklar, turar joy kabilarning zarur ekanligini Yassaviy nazardan qochirmaydi. Undagi nodonlik, badnafslilik, mol-u dunyoga hirs qo'yish, jaholat va ularni shakllantiradigan omillar qoralanadi.²

Xulosa qilib aytganda, Ahmad Yassaviyning "Hikmatlar"ini tahlil qilish shundan dalolat beradiki, u o'zining axloqiy qarashlarida insonning go'zal fazilatlariga o'z e'tiborini qaratdi, she'rilarida faqat tavba, gunoh, faqirlik, boylikka va nafsga berilmaslik kabi diniy-axloqiy muammolarga to'xtalish bilan cheklanmadi. O'zining tasavvufiy qarashla-

rida milliy va umuminsoniy qadriyatlar haqida soʻz yuritdi, dunyoviy muammolar haqida oʻz fikrini bayon etdi, adolat, mardlik, saxiylik, beva-bechoralar va muhtojlarga yordam berish, ilm fan va kasb-hunarni egallash, imon-eʼtiqod kabi insoniy xislatlarni egallash zarurligini aytdi. Ahmad Yassaviy axloqiy qarashlarining yana bir muhim xususiyati shundaki, u jamiyatda mavjud boʻlgan yaramas illatlarni ayamay ochib tashladi. Mutasavvuf oʻz asarida shayxlar va soʻfiylarning axloqsizligini, hukmron tabaqalarning adolatsizligi, mazlumlariga zulm oʻtkaza-yotganligini, ularning aldanchiligi va riyokorligini fosh qildi, ularni adl-u insofga chaqirdi.

Xulosa qilib shuniy aytish lozimki, yassaviya tariqatiga, yuqorida koʻrsatilganidek, keyingi davrlarda ham qiziqish kamaymadi. Uning nazariy va amaliy tomonlari yirik mutasavvuf shoirlar tomonidan yanada rivojlantirilgan. Bu taʼlimot nafaqat Turkistonda, balki Shimoliy Kavkazda, Turkiyada, hatto baʼzi arab mamlakatlarida ham oʻz izdoshlarini topdi. Yassaviylik tariqatining bunday keng yoyilishiga sabab, bizning fikrimizcha, birinchidan, keng xalq ommasi, xususan, chorvadorlar, hunarmandlar, dehqonlarning fikr-oʻylari, orzu-istaklari, dunyoqarashini aks ettirishi, ikkinchidan, bu taʼlimotda insonparvarlik gʻoyalari, axloqiy qadriyatlar, xulq-odob qoidalarining boyligi edi. Yassaviylik tariqati hozirgi vaqtda Turkiyada keng tarmoq yoygan boʻlib, oʻz izdoshlariga ega. Turk olimlarining fikricha, yassaviylik boshqa tariqatlarga samarali taʼsir koʻrsatgan, u Onadoʻlidagi axiylik harakatining paydo boʻlishi va rivojlanishiga sababchi boʻlgan.

HIKMATLAR

Bismilloh deb bayon aylab hikmat aytib,
Toliblarg'a durru gavhar sochdim mano.
Riyozatni qattiq tortib, qonlar yutib,
Man daftari soniy so'zin ochdim mano.

So'zni aydim har kim bo'lsa diydor talab,
Jonni jonga payvand qilib, rangni ulab,
G'arib, faqir yetimlarni ko'nglin siylab,
Ko'ngli butun haloyiqdan qochdim mano.

Qayda ko'rsang ko'ngli sinuq marham bo'lg'il.
Andoq mazlum yo'lda qolsa, hamdam bo'lg'il.
Ro'zi mahshar dargohiga mahram bo'lg'il,
Movumanlik xaloyiqdan qochdim mano.

G'arib, faqir, yetimlarni Rasul so'rdi,
O'shal kecha Me'roj chiqib diydor ko'rdi.
Qaytib tushib g'arib, faqir holin so'rdi,
G'ariblarni izin izlab tushtum mano.

* * * *

Ummat bo'lsang g'ariblarg'a tobe' bo'lg'il,
Oyat, hadis har kim aytsa, some' bo'lg'il,
Rizq-u ro'zi har na bersa qone' bo'lg'il,
Qone' bo'lub shavq sharobin ichtim mano.

Madinag'a Rasul borib, bo'ldi g'arib,
G'ariblig'da mehnat tortib bo'ldi habib,
Jafu tortib, yaratqang'a bo'ldi qarib,
G'arib bo'lib uqbolardin oshdim mano.

Oqil ersang g'ariblarni ko'nglin ovla,
Mustafodek elni kezib, yetim kovla,
Dunyoparast, nojinslardan bo'yun tovla,
Bo'yun tovlab, daryo bo'lib toshdim mano.

Ishq bobini Mavlom ochqach menga tegdi,
Tufroq qilib, hozir bo'l deb bo'yum egdi.
Boron sifat malomatni o'qi tegdi,
Paykon olib, yurak-bag'rim teshdim mano.

* * *

Qudrat birla farmon qildi mavlom bizga,
Yerda, ko'kda jonlig' maxluq qolmas ermish.
Qobiz qildi Azozilni olam uzra,
Aziz jonni olmaguncha qo'ymas ermish.

Yoshim meni yosh bo'lar deb aytar erdim,
Har ne hosil bo'lsa oz deb aytar erdim.
Turluk-turluk da'vo ishlat qilar erdim,
Emdi bildim men aytg'ondek bo'lmas ermish.

Dunyo meni mulkim degan sultonlarg'a,
Olam molin sonsiz yig'ib olg'onlarg'a.
Aysh-u ishrat bila mashg'ul bo'lg'onlarg'a
O'lim kelsa biri vafu qilmas ermish.

Mag'rur bo'lmang, ey do'stlarim, ishrat etib,
Kecha-kunduz yolg'on aytib, bexud yotib.
Jon olg'uchi kelur ermish bir kun yetib,
Mundog' yerda g'ofil yursa bo'lmas ermish.

Qul Xoja Ahmad o'laringni bila ko'rgil,
Oxiratni yarog'ini qila ko'rgil.
Borur men deb yo'l boshinda yura ko'rgil,
Malak ul mavt kelsa fursat qo'ymas ermish.

* * *

Munojat ayladi miskin Qul Xoja Ahmad.
Ilohi qil bandangni rahmat,
G'arib Ahmad so'zi hargiz qarimas,
Agar yer ostig'a kirsu chirmas,
Yana mansux bo'lib ul xor bo'lmas,
O'qig'on bandalar bemor bo'lmas,

O'qig'ong'a qilurmen anda shafqat.
Qiyomat kunida qilg'un shafqat.
Xudoyim qilsa in'om manga jannat,
O'qig'onlarni qilurmen men shafqat.
Tilagi har ne bo'lsa tangri bergay,
Muhabbat shavqini ko'ngilg'a solg'ay.
Jamolin ko'rsatib parvardigorim,
O'zin yo'lg'a solsin biru borim.
Xudoyim aylasin mahsharda xurram,
Qiyomat kun arig' zotig'a mahram.
Duog'a yori bersa har musulmon,
O'lur vaqtda eltgay nuri imon.
Meni hikmatlarim olamg'a to'lg'on,
Eshitmay har kim o'lsa, qilg'ay armon.
Meni hikmatlarim dardlikka darmon,
Kishi bo'y eltmasa, ul yo'lda qolg'on.
Meni hikmatlarim olamda doston,
Ruhim kelsa, qilur suhbatni bo'ston.
Meni hikmatlarim koni hadisdur,
Kishi bo'y eltmasa, bilg'il habisdur.
Meni hikmatlarim farmoni Subhon,
O'qib uqsang hama ma'noyi Qur'on.
Meni hikmatlarim olamda sulton,
Qilur bir lahzada cho'lni guliston.

* * *

Beshak biling, bu dunyo, barcha xalqdin o'taro,
Inonmag'il molingga, bir kun qo'ldin ketaro,
Ota-ona, qarindosh, qayon ketti, fikr qil,
To'rt oyog'lig' cho'bin ot bir kun senga yetaro.

Dunyo uchun g'am yema, Haqdin o'zgani dema,
Kishi molini yema, sirot uzra tutaro.
Ahli ayol, qarindosh, hech kim bo'lmaydur yo'ldosh,
Mardona bo'l g'arib bosh, umring yeldek o'taro.

Qul Xoja Ahmad toat qil, umring bilmam necha yil
Asling bilsang, obu gil, yana gilga ketaro.

* * *

Eranlar jamol ko'rar darveshlar suhbatinda,
Eranlar majlisinda, nur yog'ar suhbatinda.
Na tilasa ul bo'lur darveshlar suhbatinda.
Har sirlar zohir bo'lur darveshlar suhbatinda.
Har kim suhbatg'a keldi, erandin ulush oldi,
Bot keldi, bilish bo'ldi darveshlar suhbatinda.
Har kim suhbatg'a keldi, ko'ngliga ma'no to'ldi,
Ashoblar murod topdi darveshlar suhbatinda.
Kibr-u hasadlar o'lar, ichiga ma'no to'lar.
Ko'z ochib Haqni ko'rar darveshlar suhbatinda.
Rasulga vahiy keldi, boshindan tojin oldi,
Qo'btu xodimlik qildi, darveshlar suhbatinda.
Qul Xoja Ahmad suhbatda, dam urar munojotda,
Zihi xushdur saodata darveshlar suhbatinda.

* * *

Oshiq ermas jononaga jon bermasa,
Dehqon ermas ketmon chopib non bermasa,
Munda yig'lab oxiratda jon bermasa,
Yo'lda qolg'on bo'yi xudo olg'oni yo'q.

Ey bexabar, ishq ahlidin bayon so'rma,
Dard istagil, ishq dardiga darmon so'rma,
Oshiq bo'lsang, zohidlardan nishon so'rma,
Bu yo'llarda oshiq o'lsa tovonni yo'q.

Zohid bo'lma, obid bo'lma, oshiq bo'lg'il,
Mehnat tortib ishq yo'lida sodiq bo'lg'il,
Nafsnı tepib dargohig'a loyiq bo'lg'il,
Ishqsizlarning ham joni yo'q, imoni yo'q.

* * *

Alloh yodi ko'ngillarni ravshan qilg'on,
Oshiq'larg'a xudo o'zi va'da qilg'on,
Ishq nasimi Mustofog'a tuhfa qilg'on,
Ul sababdan ko'z yoshimni guvoh qildim.

Alloh aytur oshiqlarim Buroq-suvor,
Haq zikrini aytganlarga rahmat yog'ar,
Ko'p yig'log'on diydorimni beshak ko'rar,
Ro'zi Mahshar diydorimni ato qildim.

Vada qildi oshiq'larg'a yoz ming Buroq,
Olam xalqi malomati anga yiroq.
Bu olamdin el ko'ziga yongan chiroq,
Uqbo ichra yuz ming ko'shklar bino qildim.

* * *

Necha yillik mehribonim, jon edilar, do'stlarim ,
Bu vujudim shahrini foniyl qiladur, do'stlarim.
Bu qafasni to'tisi parvoz qiladur uchgali,
Bir qorong'u shu'lasiz yerga boradur, do'stlarim.
Ey meni yoronlarim, himmat tuting imonima,
Dushmanim iymonima zaxmat beradur, do'stlarim.
Ushbu jon bizlar bilan bir necha yillar bor edi,
Haq taolo hukmi birlan azim etadur, do'stlarim.
Bu meni a'zolarim jonim bilan shodmon edi,
Jon chiqarga kulli-a'zom ham titrashadur, do'stlarim.
Amri Haqqa barcha xalqi olamiyn bo'ldi rizo,
Ul haqiqat bandalar doim rizodur, do'stlarim.
Qul Xoja Ahmad to'tisi parvoz etadur uchgali,
Naylasin miskin hukmi Xudodur, do'stlarim.

* * * *

Vaxdat xumi ochildi, mayxonaga kirdim men
Bir jom ichib shul maydan mast-u hayron bo'lsam
men
O'shal mayning mazasi ich bag'rimni qon qildi

Bag'rim qonin oqizib jonon sori borsam men.
Soqi so'ndi har nafas kayfiyatning sharobin
Sarmast bo'lib o'shal dam nola-faryod ursam men
Ul daryoning mavjidan tegmay g'avvos dur olmos,
Jondin kechib dur uchun bahr qa'rig'a cho'ksam men.
Xoja Ahmadning xumida muhabbatning sharobi,
Oshiqlarg'a shul maydin murodincha bersam men.

* * *

Ishq da'vosin manga qilma, yolg'on oshiq,
Oshiq bo'lsang, bag'ring ichra ko'z qoni yo'q,
Muhabbatni shavqi birla jon bermasa,
Zoye kechar umri oni, yolg'oni yo'q.

Ishq bog'ini mehnat tortib ko'kartmasang,
Xorliq tortib shum nafsingni o'ldirmasang,
Alloh debon ichga nurri to'ldirmasang,
Valloh-billoh senda ishqning nishoni yo'q.

Haq zikrini mag'zi jondin chiqarmasang,
Uch yuz oltmish tomirlaring tebratmasang,
To'rt yuz qirq to'rt so'ngaklaring qul qilmasang,
Yolg'onchidir, haqqi oshiq bo'lg'oni yo'q.

Nafsdin kechib, qanoatni pasha qilg'on,
Har kim tepsa, rozi bo'lib, bo'yun sung'on
Yaxshilarga xizmat qilib duo qolg'on
Andoq oshiq mahshar kuni armoni yo'q.

Ishq dardini bedardlarga aytib bo'lmas
Bu yo'llarda uqbosi ko'p, o'tib bo'lmas
Ishq gavharin har nomardga sotib bo'lmas
Bexabarlar ishq qadrini bilg'oni yo'q.

* * *

Muhabbatni jomin ichgan devonalar,
Qiyomat kun o't og'zidan sochar, do'stlar.
Qudrat birlan yaratilg'on yetti tamug',

Oshiqlarni na'rasidan qochar, do'stlar.

Do'zax yig'lab dod aylagay xudoyig'a,
Toqatim yo'q oshiqlarni bir oxig'a,
Qochib borg'ay haq taolo panchig'a
Oshiqlarni yoshi birlan o'char, do'stlar

Oshiqlarning ishq do'konin borsa ko'rib
Inshoolloh, do'zax qochgay andin qo'rqib
Yoshin ochib, ko'ksin ochib, yuzin surib
Yetti osmon toqat qilmay ko'char, do'stlar.

Rahmon egam soqi bo'lib may ichursa
Ahl-u ayol xonumondin pok kechursa
Vujudimdin Azozilni Haq qochursa
Jurm-u isyon girihlarin, ochar do'stlar.

* * *

Ishq bobini haq yuziga vo aylasa
Xos ishqini ko'ngil ichra jo aylasa
Lutf aylasa ikki olam shoh aylasa
Oshiqlari haq zorig'a uchar, do'stlar.

Subhon egam bir qatra may qilsa in'om
Zikri sirni ayta-ayta qilsam tamom
Huru g'ilmon junla malak anga g'ulom
Ujmoh ichra harir to'nlar bichar, do'stlar.

Alloh debon go'rdan qo'psa olam kuyar,
Xos bandam deb Rahmon egam yolg'iz suyar,
Yosh o'rniq'a qonin to'kib yuzni bo'yar
Hamdin aytsa shayton la'in qochar do'stlar.

Men aytmadim Alloh o'zi va'da qildi,
Yo'lsiz yurdim lutf aylabon yo'lga soldi,
G'arib bo'lib nola qildim qo'lim oldi,
Andoq oshiq shavq sharobin ichar, do'stlar.

Qul Xoja Ahmad, ishqsizlarni ishi dushvor,
Tongla borsa haq ko'rsatmas anga diydor.
Arshu Kursi, Lavhu Qalam hamia bezor,
Ishqsizlarg'a do'zax bobin ochar, do'stlar.

Kelajagi buyuk mustaqil O'zbekiston Respublikasining rivojlanish yo'llarini va jamiyat a'zolarini shu davlatning munosib fuqarolari etib tarbiyalashning rejalarini belgilar ekanmiz, asoslari azaliy umuminsoniy qadriyatlarga borib taqaluvchi dinni, uning qudratli qanoti bo'lgan tasavvufni, albatta, nazarda tutishimiz lozim.

Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek, „..din odamlarda ishonch hissini mustahkamlagan. Ularni poklab, yuksaltirgan. Hayot sinovlari, muammo va qiyinchiliklarni yengib o'tishlarida kuch bag'ishlagan. Umuminsoniy va ma'naviy qadriyatlarni saklab qolish hamda avloddan avlodga yetkazishga yordam berib kelgan“.¹

O'zida falsafiy, axloqiy, umuminsoniy qadriyatlarni mujassam etgan tasavvuf ta'limoti, jumladan, uning Markaziy Osiyo, Turkiston mintaqasida vujudga kelgan yassaviya, naqshbandiya, kubraviya tariqatlarining mazmun-mohiyatini chuqur o'rganish, ulardagi umuminsoniy qadriyatlar va insonparvar g'oyalardan foydalanish O'zbekistonda demokratik huquqiy davlat, fuqarolik jamiyati qurishda muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

Tasavvuf ta'limoti, jumladan, uning yassaviylik tariqati ham, jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarning g'oyaviy ifodasi, hayot, muammolariga javob topish, kamolga erishish yo'llarini izlashga urinish sifatida vujudga kelib, o'z davrining tarixiy, iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy darajasini aks ettirgan. Ahmad Yassaviy murakkab ijtimoiy-tarixiy sharoitda yashab ijod etdi. U o'zining "Hikmatlar"ida XII asrdagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy vaziyatni aks ettirdi. Yassaviylik tasavvufning o'ziga xos tariqati bo'lib, o'sha davrdagi turkiy xalqlarning, chorvadorlarning dunyoqarashi sifatida maydonga chiqtsi.

Xoja Ahmad Yassaviy hikmatlarining barkamol insonni tarbiyalashdagi o'rni beqiyosligi va ko'pdan beri ilm ahlini qiziqtirib kelayotgan bo'lsa-da, biroq u o'rta maktab ta'limida alohida o'rin egallashi uchun tadqiqotchilar hanuz bu masalaga yetarli e'tibor qaratishgani yo'q. Bizni Xoja Ahmad Yassaviy hayoti va ijodiy faoliyati davridan 848-yil ajratib tursa ham, uning risolalari va hikmatlaridagi ma'naviy fikrlar hozirgi davr yoshlarida vatanparvarlik, insoniylik, nafsga qarshi kurashish, insonlar o'rtasida o'zaro do'stlik tuyg'ulari kabi fazilatlarini

¹ Каримов И.А. *Ўзбекистон XXII аср бўсағасида: хавфсизликка таъдид, барқарорлик шартлари ва таракқиёт кафолатлари*. Т., "Ўзбекистон", 1997, 35-6ет.

shakllantirish, Vatan ravnaqi uchun kuch-g'ayratlarini ayamadan xizmat qilishga safarbar qilishda muhim ma'naviy asos sifatida xizmat qiladi.

O'zida falsafiy, axloqiy, umuminsoniy qadriyatlarni mujassam etgan tasavvuf ta'limoti, jumladan, uning Markaziy Osiyo, Turkiston mintaqasida vujudga kelgan yassaviya, naqshbandiya, kubraviya tariqatlarining mazmun-mohiyatini chuqur o'rganish, ulardagi umuminsoniy qadriyatlar va insonparvar g'oyalardan foydalanish O'zbekistonda demokratik huquqiy davlat, fuqarolik jamiyati qurishda muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

Tasavvuf ta'limoti, juniadan, uning yassaviylik tariqati ham, jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarning g'oyaviy ifodasi, hayot, muammolariga javob topish, kamolga erishish yo'llarini izlashga urinish sifatida vujudga kelib, o'z davrining tarixiy, iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy darajasini aks ettirgan.

Yassaviy tasavvufining bosh g'oyasi islomni yanada kengroq yo'yish, unga, yangitdan kuch-quvvat bag'ishlashdir.

Ahmad Yassaviy o'zidan oldingi mutasavvufklar fikrlarini ham ma'lum darajada qabul qilib, ularni islom dini tartib-qoidalariga uyg'unlashtirishga intildi. Masalan, insonparvarlik g'oyalari, ilohiy ishq nazariyasiga muvofiq rivojlantiriladi.

Yassaviylik ham tasavvufning boshqa tariqatlari singari to'g'rilik, jabr-zulmga norizilik, poklik va halollik, saxiylik va mehr-shafqat, ilm-ma'rifat, kasb-hunarli bo'lishga intilish, adolat uchun kurash, imonli-e'tiqodli bo'lish, mehnat bilan mashg'ul bo'lishni targ'ib qildi, va mana shu tomonlari bilan biz uchun ham ilmiy, ijtimoiy, amaliy jihatdan qadr-lidir. Hozirgi globollashuv jarayonida axloq-odobning salbiy tomonlari kuchayib borayotganini ham kuzatamiz. Bu hol aslida bevosita bozor munosabatlarining emas, balki tarbiyaviy ishdagi uzilishlarning oqibati sifatida qaralmog'i darkor. Bizning fikrimizcha, hozirgi vaqtda Yassaviy ta'limotidagi nafs, sabr-toqat, halol-harom, oriflik va jaholat kabi sifat-larni keng o'rganishga, undagi juvonmardlik, qanoat kabi talablarni targ'ib etishga alohida e'tibor bermoq, hamda ushbu fazilatlardan tarbiya ishlarida samarali foydalanmoq kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. Rasmiy hujjatlar

1. “Ma’naviyat va ma’rifat” jamoatchilik markazi faoliyatini yanada takomillashtirish va samaradorligini oshirish to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni. “Xalq so‘zi”, Toshkent, 1996, 10-sentabr.

2. “Ma’naviyat va ma’rifat” jamoatchilik markazi qoshidagi “Oltin meros” xalqaro xayriya jamg‘armasini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. “Xalq so‘zi”, Toshkent, 1996, 28-sentabr.

3. Toshkent Islom universitetini tashkil etish to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. Farmonga sharh. O‘zbekiston xalqining islom diniga oid boy ilmiy va ma’naviy merosini o‘rganish, tiklash va bu sohadagi tadqiqotlarni rivojlantirish to‘g‘risida. “Xalq so‘zi”, Toshkent, 1999, 8-aprel.

4. Fevral voqealari. 1999-yil, 16-fevral. Toshkent, “O‘zbekiston”, 1999, 160-bet.

5. O‘zbekiston Respublikasining “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida”gi qonuni. Toshkent, “Adolat”, 1998, 32-bet.

6. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. Toshkent, “O‘zbekiston”, 2011, 40-bet.

II. Ijtimoiy-siyosiy adabiyotlar

1. Karimov I. O‘zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. 1-jild, Toshkent, “O‘zbekiston”, 1996, 364-bet.

2. Karimov I. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. 2-jild, Toshkent, “O‘zbekiston”, 1996, 382-bet.

3. Karimov I. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. 3-jild, Toshkent, “O‘zbekiston”, 1996, 366-bet.

4. Karimov I. Bunyodkorlik yo‘lidan. 4-jild, Toshkent, “O‘zbekiston”, 1996, 349-bet.

5. Karimov I. Yangicha ishlash va fikrlash – davr talabi. 5-jild, Toshkent, “O‘zbekiston”, 1997, 384-bet.

6. Karimov I. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo‘lida. 6-jild, Toshkent, “O‘zbekiston”, 1998, 429-bet.

7. Karimov I. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. 7-jild, Toshkent, "O'zbekiston", 1998, 412-bet.
8. Karimov I. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. 8-jild, Toshkent, "O'zbekiston", 2000, 526-bet.
9. Karimov I. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas'ulmiz. 9-jild, Toshkent, "O'zbekiston", 2001, 439-bet.
10. Karimov I. Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. 10-jild, Toshkent, "O'zbekiston", 2002, 429-bet.
11. Karimov I. Biz tanlagan yo'l – demokratik taraqqiyot va ma'ri-fiy dunyo bilan hamkorlik yo'li. 11-jild, Toshkent, "O'zbekiston", 2003, 320-bet.
12. Karimov I.A. Tinchlik va xavfsizligimiz o'z kuch-qudratimiz-ga, hamjihatligimiz va qat'iy irodamizga bog'liq. 12-jild, Toshkent, "O'zbekiston", 2004, 339-bet.
13. Karimov I. O'zbek xalqi hech qachon hech kimga qaram bo'l-maydi. 13-jild, Toshkent, "O'zbekiston", 2005, 446-bet.
14. Karimov I. Inson, uning huquq va erkinliklari – oliy qadriyat. 14-jild, Toshkent, "O'zbekiston", 2006, 280-bet.
15. Karimov I. Jamiyatni erkinlashtirish, islohotlarni chuqurlashti-rish, ma'naviyatimizni yuksaltirish va xalqimizning hayot darajasini oshirish – barcha ishlarimizning mezon va maqsadidir. 15-jild, Tosh-kent, "O'zbekiston", 2007, 320-bet.
16. Mamlakatni modernizatsiya qilish va iqtisodiyotimizni barqa-ror rivojlantirish yo'lida. 16-jild, Toshkent, "O'zbekiston", 2008, 368-bet.
17. Karimov I. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. Toshkent, "Ma'naviyat", 2008, 176-bet.
18. Karimov I. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi. O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. Toshkent, "O'zbe-kiston", 2009, 56-bet.
19. Karimov I. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. Toshkent, "O'zbekiston", 2010, 55-bet.

III. Monografiyalar va maxsus adabiyotlar

1. Abdulkhakim Shar'iy Juzjoniy. Tasavvuf va inson. T., "Ado-lat", 2001, 192-bet.

2. Abdurahman Sa'di. Yassaviy kim edi? T., "Inqilob", 1922, №2.
3. Abduqodirov Abduxoliq. Faqr – kamolat yo'li. T., "Fan va turmush" jurnali, 1998, № 1, 24-bet.
4. Abulg'oziy Bahodirxon. Shajarayi turk. T., "Cho'lpon", 1992, 192-bet.
5. Al-Buxoriy. Al-Jomi as-sahih (Ishonarli to'plam). T., Qo-muslar bosh tahririyati. 1–4-tomlar, 1991, 569-bet; 1992, 527-bet; 1994, 560-bet; 1996, 622-bet.
6. Aliqulov X.A. Sharq mutafakkirlari axloq haqida. T., "Fan", 1974, 48-bet.
7. Алеуов У. Становление и развитие педагогическов мысли в Каракалпакстане (с древнейших времен до 30-х годов XX в). Нукус, "Билим", 1996.144 с.
8. Арипов М. Из истории педагогической мысли таджикского народа. Часть 1–2, Душанбе, "Ирфон", 1962; 1965, 162-с.
9. Asqarov A. O'zbekiston xalqlari tarixi. 1-qism, T., 1999, 162-bet.
10. Axloq-odobga oid hadis namunalari. T., "Fan", 1990, 72-bet.
11. Ahmad Sardor. Hazrat Ahmad Yassaviy. Ufa, "Shura", 1915, № 24.
12. Ahmad Yassaviy. Devoni hikmat. T., G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi, 1992, 208-bet.
13. Ahmad Yassaviy. Hikmatlari. T., G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1991, 256-bet.
14. Ahmad Yassaviy, Sulaymon Boqirg'on. Hikmatlar kulliyoti. T., "O'zbekiston", 2011, 464-bet.
15. Ahmedov B. Tarixdan saboqlar. T., "O'qituvchi", 1994, 432-bet.
16. Ahmedov B. O'zbekiston xalqlari tarixi manbalari. T., "O'qituvchi", 1991, 216-bet.
17. Baraka, Xurram. Tasavvuf va Xoja Ahrori Valiy. Samarqand, "Sug'diyona", 1997, 142-bet.
18. Bebaho ma'naviy meros. T., "Qatortal-Kamolot", 1999, 18-bet.
19. Boqirg'oniy S. Boqirg'on kitobi. T., "Yozuvchi", 1991, 80-bet.
20. Buxoriy S.S. Dilda yor. T., G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1993, 80-bet.
21. Bo'riyev O. Xorazmshohlar–temuriylar. T., "Fan", 1999, 19-bet.

22. Гордлевский В. А. Бахауддин Накшбанд Бухариский. Том 2, М., 1962, Изб. Соч, Т. 3, 385 с.
23. Григорян С.Н. Из истории философии Средней Азии и Ирана VII–XII вв. М., “Наука”, 1960, 330 с.
24. Демидов С.М. Суфизм в Туркменистане: эволюция и пережитки. Ашхабат, “Ылым”, 1978, 174 с.
25. Измоилов А.Э. Народная педагогика: педагогические воззрение народов Средней Азии и Казахстана. М., “Педагогика”, 1991, 252 с.
26. Vamberi G. Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi. T., 1990, 46-bet.
27. Jabborov I. O‘zbek xalqi etnografiyasi. T., “O‘zbekiston”, 1994, 311-bet.
28. Jabborov N. Hoja Ahmad Yassaviy – tasavvuf osmonining porloq yulduzi. T., 1994, 57-bet.
29. Жарикбоев К.Б. Из истории развития педагогической мысли в дореволюционном Казахстане. Алма-ата, 1979, 229 с.
30. Jaholatga qarshi ma’rifat – tinchlik va barqarorlik asosi. Mas’ul muharrir Z.Husniddinov. T., Toshkent islom universiteti, 2003, 214-bet.
31. Jovliyev T. An’analar – hayot sabog‘i. T., “O‘zbekiston”, 1992, 90-bet.
32. Jumabayev Y. O‘zbekistonda falsafa va axloqiy fikrlar taraqqiyoti tarixidan. T., “O‘qituvchi”, 1997, 70-bet.
33. Juzjoniy A. Sh. Tasavvuf ta’limoti ildizlari. “Muloqot”, T., 1995, № 2, 32–35-betlar.
34. Jo‘shon M.A. Tasavvuf va nafs tarbiyasi. T., Cho‘lpon, 2000, 80-bet.
35. Ziyoyev X. Istiqlol – ma’naviyat negizi. T., “Manaviyat”, 1999, 190-bet.
36. Ziyomuhamedov B. Ma’rifat asoslari. T., 1998, 125-bet.
37. Ziyomuhamedov B. Ma’naviyat asoslari. T., “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”, 2000, 192-bet.
38. Zohidov V. Ulug‘ shoir ijodining qalbi. T., “O‘zbekiston”, 1970, 495-bet.
39. Zohidov V. Turkistonda o‘rta asr arab-musulmon madaniyati. T., 1993, 119-bet.

40. Ibrohimov A., Sultonov X., Jo'rayev N. Vatan tuyg'usi. T., "O'zbekiston", 1996, 439-bet.
41. Ibrohim Haqqul. Tasavvuf va she'riyat. T., G'.G'ulom nomi-dagi nashriyot, 1996, 183-bet.
42. Ibrohim Haqqul. Irfon va idrok. T., "Ma'naviyat", 1998, 159-bet.
43. Imomnazarov M. Milliy ma'naviyatimiz nazariyasiga chizgi-lar. T., "Sharq", T., 1998, 240-bet.
44. Inomova M. Oilada bolalarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi. T., "Fan", 1999, 150-bet.
45. Imomnazarov M., Eshmuhamedova M. Milliy ma'naviyatimiz asoslari. T., Toshkent islom universiteti, 2001, 432-bet.
46. Iskandarov B. O'rta Osiyoda falsafiy va ijtimoiy-siyosiy fikr-ning shakllanishi va rivojlanishi tarixidan lavhalar. T., "O'zbekiston, 1993, 106-bet.
47. Iskandarov B. Tasavvuf falsafasi. T., 1995, 57-bet.
48. Islomov Z., Maqsudov D. Shayx Xovand Tahur yodgorlik maj-muasi. T., Toshkent islom universiteti nashriyot-matbaa birlashmasi, 2005, 42-bet.
49. Islom. Spravochnik. T., 1987, 187 – 188-betlar.
50. Isroilova Sh. Milliy qadriyatlar. "Maktabgacha tarbiya", 1992, № 4, 15–16-betlar.
51. Yo'ldoshev Q.B. Yangilangan pedagogik tafakkur va umum-ta'lim maktablarida adabiyot o'qitishning ilmiy-metodik asoslari. DDA, T., 1997, 44-bet.
52. Yo'ldoshev J.G', Hasanov S. "Avesto"da axloqiy-ta'limiy qa-rashlar. T., "O'qituvchi", 1992, 28-bet.
53. Karomatov H. Qur'on va o'zbek adabiyoti. T., "Fan", 1993, 96-bet.
54. Климович Л.И. Книга о Коране, его происхождении. М., Политиздат, 1986, 272 с.
55. Климович Л. Ислам в Царской России. М., 1936, 408 с.
56. Koshifiy H.F. Kim bilan do'stlashish kerak. T., Cho'lpon, 1992, 33-bet.
57. Komilov N. Tavhid asrori. "Sirli olam", 1993, № 8, 27–28-bet-lar.
58. Komilov N. Tasavvuf yoki komil inson axloqi. T., "Yozuvchi", 1996, 272-bet.

59. Komilov N. Komillik tariqati. "Tafakkur", 1998, № 3, 90–96-betlar.
60. Komilov N. Tasavvuf. G'oyiblar hayotdan yongan chiroqlar. T., "O'zbekiston", 1994, 198-bet.
61. Komilov N. Tasavvuf. T., "Yozuvchi", 1996, 272-bet.
62. Komilov N. Tasavvuf. T., G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at hamda "O'zbekiston" nashriyotlari, 1–2-kitoblar, T., 1996–1999, 272-bet; 208-bet.
63. Курбанмамедов А. Эстетическая доктрина суфизма. Душанбе, 1987, с. 217; Laffasiy. Tazkirayi shuaro. Urganch, "Xorazm", 1992, 119-bet.
64. Массон М. Мавзолей Хаджи Ахмеда Яссавий. Т., 1930, 38 с.
65. Mamatov M. Milliy psixologik qiyofa va uning xususiyatlari. T., "Fan", 1980, 120-bet.
66. Mahkamov U. Axloq-odob saboqlari. T., "Fan", 1994, 15-bet.
67. Ma'naviyat yulduzlari. T., Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1999, 395-bet.
68. Ma'naviyat va ma'rifat ilmiy dasturining konsepsiyasi. O'zbekiston Respublikasi Fan va texnika davlat komiteti. T., 1999, 32-bet.
69. Медведов А., Германович А.В. Именем Аллаха... Политизация ислама и исламизация полити. М., Политиздат, 1988, 256 с.
70. Mirahmad Mirxoldor o'g'li. Sayram tarixi. Chimkent, 1991, 47-bet.
71. Mirtursunov Z.F. O'zbek xalq pedagogikasi. T., 1973, 212-bet.
72. Mirxoldor M. Hoja Ahmad Yassaviy. Chimkent, 1992, 68-bet.
73. Mirxoldorov M. Hoja Ahmad Yassaviy. Chimkent, 1992, 47-bet.
74. Mo'minov A. Yassaviy nasabnomasi va Amir Temur. T., "Xazina", 1996, 31-bet.
75. Mo'minov I.M. Tanlangan asarlar. 1-tom. T., "Fan", 1969, 494-bet.
76. Munavvarov A.K. Oila pedagogikasi. T., "O'qituvchi", 1994, 112-bet.
77. Munavvarov A.K. Pedagogika. T., "O'qituvchi", 1996, 200-bet.
78. Musurmonova O. Ma'naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi. T., "O'qituvchi", 1996, 191-bet.

79. Musurmonova O. Oila ma'naviyati – milliy g'urur. T., "O'qituvchi", 1999, 200-bet.
80. Muhammad payg'ambar qissasi. Hadislar. T., "Kamalak", 1991, 121-bet.
81. Mshinov I.M. O'zbekistonda ijtimoiy-falsafiy tafakkurning rivojlanish tarixidan. T., "Fan", 1960, 290-bet.
82. Nasafiy. Xoja Ahmad Yassaviy. T., G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1993, 15-bet.
83. Navro'zova G. Jahon mulkinging nigohboni. "Mulkdor", T., 1997, № 10 – 11. 20–21-betlar.
84. Navro'zova G. Nazar bar qadam – hayotbaxsh g'oya. "Muloqot", T., 2003, 39-bet.
85. Немов Р.С. Психология. 3-е изд. Книга 3. Введение в научное психологическое исследование с элементами математической статистики. М., Гуманит. изд. центр "ВЛАДОС", 1999, 640 с.
86. Nishonova S. Sharq Uyg'onish davri pedagogik fikr taraqqiyotida barkamol inson tarbiyasi. Ped. fan. dokt. diss. T., 1998, 288-bet.
87. Nishanova S. Ma'naviyat darsligi. T., "O'qituvchi", 1994, 320-bet.
88. Olloyor, So'fi. Sabot ul-ojizin. T., Cho'lpon, 1991, 95-bet.
89. Oripov M.K. Tasavvufda bilish nazariyasi. T., 1996, № 1.
90. Ortiqov T., Aliyev R. Ma'naviyat va ma'rifat tahlili. Andijon, "Hayot" nashriyoti, 2001, 104-bet.
91. Ochilov M. Axloqiy tarbiya. T., "O'qituvchi", 1992, 232-bet.
92. Ochilov S. Mustaqillik ma'naviyati va tarbiya asoslari. T., "O'qituvchi", 1997, 256-bet.
93. Pedagogika tarixidan xrestomatiya. T., "O'qituvchi", 1993, 208-bet.
94. Петрушевский Ц.П. Ислам в Иране v VII – XV в. Л., 1966, 95 с.
95. Pirmuhammad I.Y. Hamadoniy maqbarasi tarixi. Urganch, 1993, 38-bet.
96. Rustamov E. Mahmud Zamaxshariy. T., "Fan", 1971, 84-bet.
97. Sadriddin Salim Buxoriy. Tabarruk ziyoratgoh. T., "Yozuvchi", 1993, 48-bet.
98. Sadriddin Salim Buxoriy. Ikki yuz yetmish yetti pir. Buxoro, 2006, 304-bet.
99. Tafakkur saboqlari. O'zbekiston Respublikasi davlat test mar-

kazi (test savollari to'plami). T., 1999, 110-bet.

100. Тримянгом Ж.С. Суфийские ордены в исламе. М., 1989, 32–66 с.

101. Uvatov U. Az-Zamaxshariy. Nozik iboralar. T., "Kamalak", 1992, 80-bet.

102. Usmonov O. Bahouddin Naqshband va uning ta'limoti haqida. T., "Universitet", 1993, 34-bet.

103. Fayziyev T., Usmonov O. Zangi Ota. T., Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston Pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti. 37-bet.

104. Fayziyev T., Usmonov O. Zangi Ota. T., "Movarounnahr", 2001, 31-bet.

105. Fariduddin Attor. Mantiq ut-tayr. T., G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006, 247-bet.

106. Faxruddin Ali Safiy. Rashahotu aynil-hayot. T., "Abu Ali ibn Sino", 2004, 536-bet.

107. Forobiy. Fozil odamlar shahri. T., A.Qodiriy nomidagi xalq merosi, 1993, 223-bet.

108. Fuod Kuprulizoda. Turk adabiyotida ilk mutasavvuf. Ankara, 1984, 45-bet.

109. Shayxova X., Nazarov N. Umuminsoniy qadriyatlar va ma'naviy kamolot. T., "Fan", 1992, 117-bet.

110. Shermuhamedov S.Sh. Ma'naviy madaniyat va ijtimoiy taraqqiyotning o'zaro ta'siri muammolari. F., FDU, Ilmiy asarlar to'plami, 1999, 38–46-betlar.

111. Ergashev U. Adolat – insoniy hayot sarchashmasi. Samarqand, 2002, 210-bet.

112. Yassaviy kim edi. Nashrga tayyorlovchi B.Do'stqorayev. T., A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1994, 38-bet.

113. Qur'oni karim. Abdulaziz Mansur tarjimasini. T., 2001, 495-bet.

114. Hazratqulov M. Tasavvuf. Dushanbe, 1988, 65-bet.

115. Haydarov M. Pedagogik meros – tarbiya manbayidir. "Boshlang'ich ta'lim", 1992, № 11 – 12, 19– 20-betlar.

116. Hoji Abdulg'afur Razzoq Buxoriy. Tariqatga yo'llanma. T., "Movarounnahr", 2003, 103-bet.

117. Hoji Ismatulloh Abdulloh. Markaziy Osiyoda Islom madaniyati. T., "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2005, 384-bet.

118. Xayrullayev M.M. Ma'naviyat yulduzlari (markaziy osiyolik mashhur siymolar, allomalar, adiblar). T., A.Qodiriy nomidagi xalq merosi, 1999, 400-bet.

119. Xayrullayev M.M. Forobiy ruhiy protsesslar va ta'lim-tarbiya to'g'risida. T., "O'qituvchi", 1967, 94-bet.

120. Hasanboyeva O. Xoja Ahmad Yassaviy ijodiyotida ma'naviy tarbiya. T., 1999, 27-bet.

121. Xoja Ahmad Yassaviy. Hayoti, ijod va an'analari. T., O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2001, 336-bet.

122. Shayx Najmiddin Kubro. T., "Yozuvchi", 1995, 98-bet.

123. Shodiyev R. Navoiy va naqshbandiya. "O'zbekistonda ijtimoiy fanlar", 1993, № 2, 41–45-betlar.

124. Yusuf Xos Xojib. Qutadg'u bilig. T., "Fan" 1971, 964-bet.

125. Yassaviy A. Hikmatlar. T., "Fan", 1992, 256-bet.

126. Yassaviy A. Devoni hikmat. T., "Adabiyot va san'at", 1992, 208-bet.

127. Yassaviy A. Faqrnoma. Devoni hikmat. T., G'afur Gulom nomidagi nashriyot, 1992, 208-bet.

128. O'zbekiston xalqdari tarixi. 1-jild. T., "Fan", 1992, 188-bet.

129. O'zbekistovda ijtimoiy-falsafiy fikrlar tarixidan. T., "O'zbekiston", 1995, 240-bet.

130. O'rinboyev B. Xudoydodi Vali. Samarqand, 1994.

131. O'rta Osiyo xalqdari hurfikrligi tarixidan. Mas'ul mu-harrir M.M.Xayrullayev. T., "Fan", 1990, 188-bet.

132. Qahhor T.A. Yassaviy. "O'zbekiston madaniyati va san'ati", 1990, 26-oktabr.

133. Qayumov L. Shayx Najmiddin Kubro hubbi dahr... "Guliston", 1995, № 1, 57–61-betlar.

134. G'azzoliy A. Oxiratnoma. Tarjimon Ali Botir, Isroil Subhon. T., "Yozuvchi", 1994, 29-bet; 166; G'azzoliy A. Nafs tarbiyasi Mukeshafat ul-qulub. Qalblarning kashfiyoti. Miraziz A'zam tarjimasini. "Vatan", 1995, 5–12-may.

135. G'azzoliy A. Ihyo-ul-ulumidin. Din ilimlarini tiriltirish. Arabchadan Alouddin Mansur tarj. "Kamalak". Adabiy-tanqidiy yillik to'plam. T., 1990, 189–206-betlar.

136. G'azzoliy M. Kimiyoisaodat (Dilhaqiqati). T., "Kamalak", 1994, 80-bet.

137. Hayitmetov A. Naqshbandiya Navoiy talqinida. "Fan va turmush", 1993, № 3 – 4, 13–14-betlar.

138. Haqqul Ibrohim. Ruhi hur, irfoni hur... "Tafakkur" 1997, № 2, 50–58-betlar.

139. Haqqul Ibrohim. Tasavvuf va she'riyat. T., Adabiyot va san'at, 1991.

140. Hoshimxonov M. Mashrab va Osiyoda ijtimoiy fikr taraqqiyoti. T., "Fan", 1994, 46-bet.

MUNDARIJA

KIRISH	3
I BOB. TASAVVUF TA'LIMOTINING VUJUDGA KELISHI VA UNING MAZMUNIDA IFODALANGAN TARBIYAVIY G'OYALAR	5
1.1. Tasavvuf ta'limotining vujudga kelishining ijtimoiy-tarixiy omillari va uning ma'naviy asoslari.....	5
1.2. Xo'ja Ahmad Yassaviy tariqati, uning falsafiy-adabiy merosi.....	20
1.3. Ahmad Yassaviy ta'limotining ma'naviy-axloqiy asoslari.....	31
II BOB. XOJA AHMAD YASSAVIY TASAVVUFIY DUNYOQARASHIDA INSON KAMOLATI MASALALARI	58
2.1. Xoja Ahmad Yassaviy ta'limotida barkamol inson tarbiyasi haqida.....	58
2.2. Xoja Ahmad Yassaviy timsolida insonning olijanob fazilatlarining ifodalanishi.....	83
2.3. Ahmad Yassaviy qarashlarida odob-axloq g'oyalari va ayrim mezonlarining aks etish masalalari.....	97
HIKMATLAR	118
XULOSA	126
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI	128

Maqsuda Xajiyeva

“XOJA AHMAD YASSAVIY TA’LIMOTIDA TASAVVUF”
(monografiya)



Muharrir **Ro'zimboy Yo'ldoshev**
Texnik muharrir **Sherali Yo'ldoshev**
Musahhah **Tamara Turumova**

UrDU nashirlik bo'limi O'zbekiston matbuot va axborot agentligining 2009-yil 19-avgustdagi №148 raqamli buyrug'i bilan qayta ro'yxatdan o'tkazilgan.

Terishga berildi: 1.06.2015

Bosishga ruxsat etildi: 6.06.2015

Ofset qog'oz. Qog'oz bichimi 60x84 ¹/₁₆.

Tayms garnituras. Adadi 200. Buyurtma №.24.

Hisob-nashriyot tabag'i 8

Shartli bosma tabag'i 7,4

UrDU nashirlik bo'limida tayyorlandi.

Manzil: 220110. Urganch shahri,

H. Olimjon ko'chasi, 14-uy.

Telefon: (0-362)-224-66-01.

UrDU bosmaxonasida chop etildi.

Manzil: 220110. Urganch shahri,

H. Olimjon ko'chasi, 14-uy.

Telefon: (0-362)-224-66-01.

ISBN 978-9943-4516-3-6



9789943 451636